3. Velichkovsky B.M. Functional organization of cognitive processes: Diss. ... doct. psychol. Sciences / 19.00.02.-M.: 1987.43 p.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA “KASR” HAMDA “ULUSH” MAVZULARINI
TUSHUNTIRISHDA YANGICHA YONDASHUV

Akhmedova Markhabo Ismailovna

Xorazm viloyati Urganch shahri
10-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlangich ta'limda matematika fanini o'qitishda “kasr” va “ulush” mavzularini o'quvchi uchun tushunarli tarzda o'tish, darslarni samarali tashkil etishning yangicha texnologiyalari haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: Ulush tushunchasi, kasr, matematik ta'lim, kasrlarni o'rgatishning metodikasi.

Kasrlarni o'rganishda ko'rsatmalilik va ko'rgazmalardan foydalanish kasrlarni o'rganish bosqichida o'qitish to'la ko'rgazmali bo'lishi, zarar. Shuning uchun ulushlarning hosil bo'lish jarayonini ko'rileyotganligi munosabati bilan iloji boricha ko'proq turli aniq predmetlar; olma, tasma va boshqa har xil geometrik figuralarning modellarini qalin qog'ozdan qirqib olingan turli kattalikdagi doiralar, kvadratlar, to'g'ri to'rtburchaklami teng bo'laklarga bo'lishiga doir amaliy mashqlami ko'proq o'tkazish kerak. Bolalarni ulushlar hosil bo'lishi bilan tanishtirishga doir birinchi darsni taxminan bunday boshlash mumkin. Bugun biz yangi sonlar bilan tanishamiz. Mening qo'iimdag'i nima? O'qituvchi, masalan, olmani ko'rsatadi. Qarangiar men uni nima qilyapman? (U olmani teng ikki bo'lakka ajratadi). Har bir bo'lakni nima deb atash mumkin? (olmaning yarmi). Buni-chi? (Buftm olmani ko'rsatadi). Bir butun olma nechta yarimta olmaga teng? (Ikkita).

Bolalarni turli ulushlarning nomlari hosil bo'lishi bilan tanishtirib bo'lgach, ularga har bir ulushni qanday belgilashni ko'rsatish zarur va boshqa ko'rinishdagi yozuvlar bilan "surat" va "maxraj" atamalarini kiritmasdan tanishtiriladi. O'quvchi ikkidan bir ulushini belgilash uchun chiziq chizadi va chiziq ostiga ikki bir ulushni ifodalash uchun esa ustiga bir yozadi.

O'qituvchi masalan, 5 ta bir xil to'g'ri to'rtburchakli tasma qirqishni taklif qiladi. Kerakli sonda bir xil to'g'ri to'rtburchakli tasmalarni uchta turli usul bilan tayyorlash mumkin.

1-usul. Kataklar bo'yicha teng ko'pburchaklar chiziladi (qaralayotgan holda to'g'ri to'rtburchakli tasmalar) va ularning har bir ayrim-ayrim qirqiladi.

2-usul. Bitta to'g'ri to'rtburchakli tasma chiziladi qog'ozga qo'yiladi va atrofidan qalam yuritib chiqiladi. Chizilgan to'g'ri to'rtburchakli tasma qirqiladi va hokazo.

3-usul. Nechta tasma hosil bo'lishi kerak bo'lsa, shuncha varaqli qog'oz olinadi. Ustidagi qog'ozga kerakli to'g'ri to'rtburchak tasma chiziladi. O'quvchilarda kerakli miqdorda to'g'ri to'rtburchakli tasmalar tayyor bo'lgandan keyin tasmalardan birini (buklash yo'li bilan) ikkita teng qismga, ikkinchisini teng uchga, uchinchisini teng to'rtga, to'rtinchisini teng oltiga, beshinchisini teng sakkizga bo'lish taklif qilinadi. Bolalar ulushlardan eng kattasi yarim, eng kichigi esa sakkizdan bir ekaniga ishonch hosil qiladilar. Shunday qilib, o'quvchilar shakllarni teng bo'laklarga amaliy bo'lish yo'li bilan ulushlarni taqqoslaysilar. Ulushlarni amaliy taqqoslashda to'g'ri to'rtburchakli tasmalar bilan bir qatorda doiralardan ham, kvadrastlardan ham, boshqa geometrik shakllardan ham foydalanish zarur. Turli usullarni faqat qog'ozga buklash yoki qirqish bilangina emas, balki bo'yash orqali ham hosil qilish mumkin.

Uchinchi sinfda bolalarni sonning ulushini topishga va ulushiga ko'ra sonning o'zini topishga doir masalalarni yechish bilan tanishtirish kerak. Bolalarni sonning ulushini topishga doir masalalarni yechish bilan tanishtirishni amaliy ishdan boshlash kerak: bolalarga uzunligi 12 sm bo'lgan qog'oz, tasmalar tarqatiladi va uni teng ikkiga bo'lish taklif qilinadi. Tasmalarning yarmini o'lchash taklif qilinadi. Tasma necha sm dan iborat (12 sm). Uning yarmichi? (6 sm). Endi bu tasmaning o'zini to'rtta teng bo'lakka bo'ling. Tasmaning bo'lagi qanday bo'ladi? O'lchash yo'li bilan bajariladigan topshiriqlar beriladi. Xuddi shunday ish boshqa geometrik shakllar, masalan, doiralar bilan ham bajariladi.

Quyidagi masala misolida masalalar sharti va yechilishining qisqacha yozilishi qanday ko'rinishda bo'lishini ko'rsatamiz. "Kitob 80 betdan iborat. Qizcha kitobning 4 dan 1 qismini o'qib bo'ldi. Qizcha kitobning nechta betini o'qib bo'ladi?" 80 betning 4 dan 1 qismini topish kerak.



$80 : 4 = 20$ (bet)

Javob: Qizcha kitobning 20 betini o`qib bo`lgan, shartning qisqacha yozilishini chizma orqali ham ifodalash mumkin.

Boshlang`ich ta`limda kasrlar hamda ulushlar mavzusi murakkab hisoblanadi. O`quvchi ushbu mavzularni o`zlashtirishda turli qiyinchiliklarga duch kelishi aniq. Mavzuni dolzarbligini hosobga olib ushbu murakkab mavzularni o`qitishda yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish muhimdir. Bunda esa pedagogdan yuksak mahorat hamda yangichda innovatsion yondashuvlar asosida darsni tashkil etish talab etiladi. Zero, zamonaviy pedagog o`z navbatida ijodkor bo`lmog`i darkor.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Jumayev M.E. va boshqalar. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi (Oliy o`quv yurti talabalari uchun darslik) – T. ”Fan va texnologiya” 2005 y.
2. Jumayev M.E. ”Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasidan laboratoriya mashg`ulotlari” T. ”Yangi asr avlod” 2006 y.
3. Jumayev M.E. ”Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasidan amaliy mashg`ulot. T.



BOSHLANGICH TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Ametova Biybixan Qazaqbaevna -
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Qo'ng'irot tumani 14-sonli maktabning
Boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo pedagogning o'zi kreativ, ijodkor shaxs bo'lshi zarur ekanligi, ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni haqida so'z etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif-tarbiya, kreativlik, o'qituvchi, o'quvchi, ijodkorlik, ijodkor shaxs

Ta'lif-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o'quvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, o'zini-o'zi va o'z faoliyatini o'zi tahlil qiladigan va ob'ektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy- texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'ektiv baholash, qayta ishslash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lif oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va o'quvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lif-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda ta'lif- tarbiya jarayoni sub'ektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogi kompetentli o'qituvchi deyishimiz mumkin.

Kreativlik (lot., ing. reate) – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Pedagogik kreativlik (ijodkorlik) – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lif va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobjiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati. “Pedagogik ijodkorlik” quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularini o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish; 2) o'qituvchilarga o'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish.

Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajada ekanligiga bog'liq bo'ladi. Kreativ pedagogikaning umumiyligi mohiyati uning konceptual holatlarini ifodalovchi bir qator tushunchalar asosida ochib beriladi. Ular quyidagilardan iborat: **Ijodkorlik** – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi;

Ijodkor shaxs – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs;

Kreativ shaxs – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon tuvchi, masalalarni echishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs;

Bunyodkor shaxs – ham jarayon, ham natija sifatida ob'ektiv ijodkorlikni amalga oshiradigan va talablar darajasida ijodiy mahsulotlarini yarata oladigan shaxs;

Kreativ shaxsni tayyorlash – ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni

Ijod – ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi

O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun



avvalo pedagogning o’zi kreativ, ijodkor shaxs bo’lishi zarur. Bordi-yu, uning o’zi kreativlik sifatlariga ega bo’lmasa, u holda qanday qilib, o’quvchilarni kreativ fikrlashga rag’batlantira oladi. Chiqariladigan yagona xulosa quyidagicha: pedagogning o’zi kreativ, ijodkor bo’lsagina, o’quvchilar ham shunday bo’la oladi. O’qituvchining ijodkor va kreativ bo’lishi yoki bo’lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g’oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko’rishga intilishi zarur.

Demak, pedagogning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi turli faoliyatları davomida zaruriy pedagogik ko’nikmalarining shakllanishi, kasbiy qobiliyatini namoyon etish jarayonida esa uning uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan intellektual qobiliyat, tasavvur va tushunchalari, tafakkuri rivojlanadi, va ma’naviyati oshadi.

Adabiyotlar

1, Санобар Жуманова. Креатив фикрлаш. «Издательские решения», 2002



BOSHLANG`ICH SINFLARDA O`QISH FANINI O`TISHDA PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARNING O`RNI

Asadova Ma`rifat G`afforovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 11-maktab
Boshlang`ich sinf o`qituvchisi
Telefon: +998 91 308 73 05

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang`ich sinflarda o`qish fanining o`qitilishi, pedagogik texnologiyalardan o`rinli va mahorat bilan qo`llash, o`quv jarayonida o`zlashtirishning yuqori ko`rsatkichlariga erishish imkonini yaratadigan multimedia ilovalari, o`qitishning o`yinli shakllari va mediatexnikalar bilan ishslash haqida ma`lumot beriladi.

Kalit so`zlar: o`qish fani, pedagogik texnologiyalar, DTS, kompetensiya, ta`lim.

O`quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishida boshlang`ich ta`lim davri muhim rol o`ynaydi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz ta`lim tizimida boshlang`ich ta`lim sifatini oshirish, ta`lim standartlari, o`quv dasturlari, darslik va o`quv qo`llanmalarini takomillashirish dolzarb vazifalardan biridir. Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda o`qish fanini o`qitishning sifat va samaradorligini oshirish maqsadida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o`quv dasturlari asosida 4-sinf o`qituvchilar uchun hamkorlik, didaktik o`yin texnologiyalari va intekratsiyalashgan ta`lim mazmunini ochib berishga qaratilgan qo`llanmalar yaratilmoqda. Shuningdek, multimedia ilovalari o`qitishning o`yinli shakllari va mediatexnikalar bilan ishslash, pedagogik texnologiyalardan o`rinli va mahorat bilan o`quv jarayonida o`zlashtirishning yuqori ko`rsatkichlariga erishish imkonini yaratadi. O`quv darslarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish axborot va ilg`or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta`lim mazmunida o`ziga xos va hamda o`quvchi shaxsida o`ziga mos kompetensiyani shakllantiradi. Ilg`or pedagogik texnologiyalarni ta`lim mazmuniga zamонави ruhda singdirish, pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, komil insin etish tarbiyalash, ta`lim tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko`tarish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Boshlang`ich ta`lim bosqichida kompetensiyadan foydalanish darslarning xilma-xil shakllari “O`qish” fanini o`qitishni takomillashuviga ta`sir ko`rsatadi. Darslarni “Bumerang” texnologiyasi, “Arra”, “O`zo`rningni top”, “FSMU”, “Nima uchun?”, “Ikki qismli kundalik” metodlari, “Pinbord” usuli, “She`rni tikla” kabi mashqlaridan foydalanib o`tish dars samaradorligini yanada oshiradi.

“FSMU” metodi – 4 bosqichli yozilgan qog`oz varaqlarini tarqatadi va yakka tarkibda qo`llaniladi. O`zlashtirilgan bilimlar asosida tashkil qilinadi va har bir o`quvchi 4 bosqichlari asosida fikr mulohaza bildiradi: Bunda: **F** – fikringizni bayon eting; **S** – fikringiz bayoniga ta`sir ko`rsating; **M** – ko`rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring; **U** – fikringizni umumlashtiring.

Maqsadi: o`quvchilar mashg`ulotda o`rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar bo`yicha o`z fikrini bayon qilish, shu fikrlarni asoslovchi sabablarni ko`rsatish, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirish va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishga o`rgatish.

Vazifikasi: o`quvchilarini erkin fikrlash, o`z fikrini himoya qilish, boshqalarga fikrini o`tkazish, ochiq holda baxslashish va bahs-munozara madaniyatiga o`rgatadi. Masalan, N.A. Samarqandiyning “Sulton Mahmud va Beruniy” rivoyatida qo`llanilgan.

“O`z o`rningni top metodi”. Mavzu bo`yicha bahs-munozarali vazoyatlarda muammoning yechimini topishga yo`naltirilgan. Bunda o`quvchilar o`z fikrini bayon qilishi, muloqot ko`nikmalarini qaytadan tuzatishga imkoniyatlar mavjud bo`ladi va dars so`ngida o`qituvchi tomonidan mavzuni o`zlashtirish darajasini baholash aniq amalga oshiriladi.

Maqsadi: o`quvchilarda o`z fikrini bayon qilish, erkin, mustaqil, mantiqiy fikrlashga o`rgatish.

Boshlang`ich sinf “O`qish kitobi” darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o`quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqlol mafkurasini asosida to`g`ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko`ra, o`qish darslarining yetakchi xususiyati o`quvchilarning savodxonligini ta`minlash bilan birga, o`quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Foydalilanidigan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbek tilini o`qitish metodikasi. O`qitishning zamонави usullari. N. Abdurahmonova. Toshkent. 2020-yil.
2. A. G`ulomov, M. Qodirov “Ona tili o`qitish metodikasi”. Toshkent. 2001-y.



BOSHLANG`ICH SINFLARDA OT SO`Z TURKUMINI O`RGANISH

Ashurova Dilfuza Azimovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

12-umumiyl o`rta ta`lim maktabi

Boshlang`ich ta`limi fani o`qituvchisi

Telefon: +998 91 334 55 15

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili mashg`ulotlarida ot so`z turkumining o`tilishi va u orqali so`z ustida ishslash, o`quvchilarning lug`at boyligini oshirish, so`zdan to`g`ri va o`rinli foydalanish malakalarini takomillashtirish, ot so`z turkumini o`rganish orqali o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini o`stirish, ot so`z turkumining ma`no xususiyati, turlari, grammatic xususiyatlari, gapdagi vazifasi haqida ma`lumot beriladi.

Kalit so`zlar: ona tili, ot so`z turkumi, egalik, kelishik, og`zaki va yozma nutq.

Maktabda ona tili fanining maqsadi o`quvchilarining nutqiy faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Ona tili mashg`ulotlarida nutqning asosiy xom-ashyosi so`z ustida ishslash, o`quvchilarning lug`at boyligini oshirish, so`zdan to`g`ri va o`rinli foydalanish malakalarini takomillashtirish – ta`limimiz oldida turgan muhim vazifadir. Ot so`z turkumini o`rgatish orqali o`quvchilarning og`zaki va yozma nutqini ostirishdir.

Ot mavzusini o`rganish tizimi maqsadga yo`naltirilgan jarayon bo`lib, bunda shu so`z turkumining umumlashtirilgan ma`nosi va grammatic belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog`liqlikda o`rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to`g`ri foydalanish va to`g`ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi.

Ot shaxs, narsa ma`nolarini, shuningdek, joy nomlarini bildirib, kim?, nima?, qayer? so`roqlariga javob bo`ladigan so`zlar. Ma`no xuxusiyati: otlar kishi nomlarini: Ahmad Nilufar, Shavkat, Alisher, Xolida kabi; o`rin-joy nomlari: Farg`ona, Qo`qon, Beshariq, Qashqadaryo, Zomin, maktab, qishloq, shahar kabi; narsa-buyum: kosa, cho`mich, qoshiq, piyola kabi; vaqt-fasl nomlari: qish, yoz, kuz, bahor, tun daqqa, lahza, soniya, may, mart, iyun kabi; voqe-a-hodisa nomlarini: yer, yuproq, tog`, tosh, yulduz kabi hamda mavhum tushunchalarni: sevgi, tinchlik, sadoqat, ma`rifat, orzu kabilarni bildiradi. Kim? so`rog`i shaxsni bildiruvchi so`zlarga, qayer? so`rog`i joy nomoni bildiruvchi so`zlarga beriladi. Shunga ko`ra, otlar shaxs otlari, narsa-buyum otlari va o`rin-joy nomlariga bo`linadi.

1) Son (birlik va ko`plik son) ma`nosini bildiradi: kitob — birlik sonda, kitoblar — ko`plik sonda;

2) Kelishik ma`nosini bildiradi: kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan kabi;

3) Egalik ma`nosini bildiradi: kitobim, ruchkam, kitobing, ruchkang, kitobi, ruchkasi kabi;

4) Kichraytirish, erkalash shakllariga ega: onajon, qo`zichoq, kitobcha, qizaloq, bolakay kabi;

5) Yasalish tizimiga ega: gulchi, paxtakor, qisqich, to`shak, to`plam, ko`rik kabi.

Otlar: 1) barcha mustaqil so`zlar bilan munosabatga kirisha oladi:

Ot + ot: atlas ko`ylak, maktab bog`i, onamga sovg`a; sifat + ot: shirin taom, qizil gul, ozoda xona, baland bino; son + ot: uchta daftar, beshinchisinf, o`ntacha bola; olmosh + ot: shu kitob, o`sha qiz, barcha bolalar, har qaysi inson; fe`l + ot: o`qigan qiz, kelayotgan mehmon, pishirilgan taom; ravish + ot: ko`p uylar, bir talay qushlar, ancha yillar.

2) barcha sintaktik vazifalarni bajara oladi:

Ega: kitob aql chirog`idir.

Undalma: Kitob, sen mening do`stimsan.

Ot kesim: Mening eng yaqin do`stim kitobdir.

Aniqlovchi: Kitobning qadriga yetish kerak, chunki u hayot darsidan saboq beradi.

To`ldiruvchi: Mashqni kitobdan daftarga ko`chirdim.

Hol: Bahorda butun tabiat uyg`onadi.



Otlarda egalik shakllari:

	Birlik	Ko`plik
I shaxs	-(i)m: ukam, kitobim	-(i)miz: ukamiz, kitobimiz
II shaxs	-(i)ng: ukang, kitobing	-(i)ngiz: ukangiz, kitobingiz
III shaxs	-si, -i: ukasi, kitobi	-(lari)i: ukalari, kitoblari

Otlarda kelishik shakllari:

1. Bosh kelishik:	-	kim? nima? qayer?
2. Qaratqich kelishigi:	-ning	kimning? nimaning? qayerning?
3. Tushum kelishigi:	-ni	kimni? nimani? qayerni?
4. Jo`nalish kelishigi:	-ga	kimga? nimaga? qayerga?
5. O`rin-payt kelishigi:	-da	kimda? nimada? qayerda?
6. Chiqish kelishigi:	-dan	kimdan? nimadan? qayerdan?

Boshlang`ich sinflarda ot yaxlit holda o`rgatiladi va uni o`rganish o`quvchilar shu so`z turkumining belgilarini, vazifasini o`zlashtirishga, shuningdek, ularda kelishik qo`shimchalarini to`g`ri yozish ko`nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Foydalanimadigan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbek tilini o`qitish metodikasi. Ot so`z turkumini o`qitishning zamonaviy usullari. N. Abdurahmonova. Toshkent. 2020-yil.
2. A. G`ulomov, M. Qodirov “Ona tili O`qitish metodikasi”. Toshkent. 2001-y.



TEACHING CONNOTATIONAL MEANING THROUGH COMMUNICATIVE APPROACH

Azizova Nodira Djamalovna

Student of master's degree,
Uzbek State World Languages University

Abstract: the article deals with the issues based on teaching connotational meaning through communicative approach and the author defines the term connotative meaning and the essence of communicative approach in teaching foreign languages.

Key words: conceptual meaning, component of meaning, communicative approach, connotational meaning.

The meaning of the word, as we already know, is related to a certain concept. But it is not always limited to this concept. In addition to the subject-conceptual (denotative) component of meaning, the word sometimes also has an additional connotative meaning - expressive, evaluative, figurative, expressing the speaker's attitude to the subject of speech. For example, from words to steal and steal, to talk and chat, spend and squander the same conceptual meaning, but the first words are neutral, and the second contain an expressive connotation: in the word to steal, a negative assessment of this action by the speaker is realized, in the word to chat - a shade intensity (they usually talk a lot and for a long time) and sometimes also a negative assessment, for example, in the phrase to blab out the whole lesson, in the word to squander - both intensity and negative assessment.

The connotation complements the “objective” meaning of the word with an associative-figurative representation of the designated reality based on the awareness of the internal form of the name, that is, signs correlated with the literal meaning of a trope or figure of speech.

Words containing such an emotional-evaluative element in their meaning are called emotional-evaluative, for example: a task, cheat, slob, rainy, white, incredibly, etc. Words with an emotional connotation can include various shades: ironic, disapproving, contemptuous, affectionate, solemnly upbeat, etc. This coloration, as a rule, is stable, since it arises as a result of the fact that the very meaning of the word contains an element of evaluation: the name of an object or phenomenon, action, feature is complicated by evaluativeness, the speaker's attitude to the named phenomenon.

Sometimes this evaluative, connotative component in the meaning of the word prevails over the rational, denotative one. Such words, in which the connotation is expressed no less than the denotation, or even more, are called connotative vocabulary. For example, the words incomparable, disgusting express precisely the assessment of the phenomenon (the first word is positive, and the second is negative) to a high degree. Words in a figurative sense can be evaluative. Zoonyms are used very regularly in relation to humans, that is, the names of animals: fox, ram, donkey, goat, bear, crow, eagle.

It is especially necessary to highlight the national-cultural component of the connotation, reflecting the point of view on the subject of speech established in a given society, culture. Separate marks for connotations are generally absent in similar dictionaries, but they are implicitly represented through figurative meaning and phraseological units given in the illustrative part of the dictionary entry.

A wider range of components is considered by T.V. Matveeva, she distinguishes not four, but six types of specific components, each of which in a particular word can be the only one, and can be combined with others. In her opinion, the evaluative component of the connotation reflects the speaker's opinion about the subject of speech, which is generalized to the concepts of “good” and “bad”. It stands out as an independent component in words, the objective meaning of which is associated with the estimated result known from experience: to work - to work well, a grade as a school grade - a bad result, death, war - that which brings suffering. It is closely related to the emotional component - the expression of the speaker's emotions: sissy - an expression of contempt, neglect, indignation, brainy - approving attitude; sun, - it is said to a loved one with a feeling of joy, admiration.

Meaning of Connotation is a secondary word used to express an idea, qualities or feeling in association to its literal meaning. Connotation describes the primary word and it does not need



to be a part of the meaning of word or phrase. It generally has an emotional connection which can be positive or negative.

Connotations are important when you communicate with people. A language, in itself, is subjective in nature and it can evoke different psychological reactions from different people. That is why using the wrong words can totally ruin communication even if your intent and ideas were correct and trustworthy.

The words you choose can significantly change the meaning of a sentence. Hence, you should completely understand both the literal and suggestive meaning of different words before using them.

As connotations express feelings, they may be positive, negative, or neutral depending on the context. A positive connotation makes people feel good.

Negative connotations evoke a sad or negative psychological feeling. Finally, neutral connotations have no emotional reactions. The use of certain connotations depends on the context or type of communication. A writer may use a word with a negative connotation purposely to create the desired impact.

A person who has completely mastered all the grammatical rules, who knows how to correctly construct sentences, can find difficulties in real communication in a foreign language, in real communication. That is, the person will lack communicative competence. It should be borne in mind that the communicative methodology of preparing students is already being used to prepare for testing in the formats of international British examinations in English [1].

References:

1. Arutyunova N.D. Proposal and its meaning. Moscow: Nauka, 1976.383 p.
2. Vorobyov V.V. Linguoculturology (theory and methodology). M.: Publishing house of RUDN, 1997.331 p.
3. Vereshchagin E.M., Kostomarov V.G. Linguocultural Theory of the Word.- M.: 1980, 320 p.



TEXNOLOGIYA TA'LIMINI MODERNIZATSIYALASHNING NAZARIY ASOSLARI

Boltaboyeva Hilola Damir qizi

Tairov Islom Ilhomboy o‘g‘li

Xorazm viloyati Urganch tumani

42-sloni umumiyl o‘rta ta’lim maktabi

Texnologiya fani o‘qituvchilarini

Annotatsiya: maqolada texnologiya fanining modernizatsiyalashning nazariy asoslari hamda texnologiya fanining o‘quvchilar kelajagi uchun ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlari: texnologiya, modernizatsiyalash, ilm-fan, tendensiyalar.

Bugungi kunda Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro integratsiya jarayonlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Jumladan, texnologiya ta’limini modernizatsiyalashda maktabgacha ta’lim tashkiloti, umumiyl o‘rta ta’lim, professional ta’lim va oliv ta’lim tizimlarining o‘zaro integratsiya jarayonlarini bosqichma-bosqich, oddiydan-murakkabga qarab yo‘lga qo‘yilishi natijasida ishlab chiqarish sohalari uchun yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashga erishiladi. Shu bois, texnologiya ta’limini O‘zbekiston Respublikasining 2035-yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiysi, 2025-yilgacha O‘zbekiston sanoatining rivojlanishi konsepsiysi, fan taraqqiyoti va texnik-texnologiyalarning rivojlanishi, bozor munosabatlari va inson kapitaliga qo‘yilayotgan yangi talablar asosida modernizatsiyalash lozim.

Hozirgi vaqtida umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan texnologiya fanining amaldagi holati va to‘plangan tajribalar tahlilidan quyidagilar ma’lum bo‘ladi:

- umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarga ta’lim berishning zamonaviy innovation uslublarini joriy etish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan industrial-texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi;

- iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tut-adigan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini ishlab chiqish va joriy etish vazifalari belgilandi. Bu esa sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali korxonalar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, zamonaviy muhandislik kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi.

Sanoatda texnologik o‘zgarishlarning yangi to‘lqini kutilmoqda, bu esa iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishda innovatsiyalarning rolini kuchaytiradi va ko‘plab an’anaviy o‘sish omillarining ta’sirini kamaytiradi. Xususan, sanoatda kutilayotgan yangi texnologik o‘zgarishlar sharoitida umumiyl o‘rta ta’lim maktablarida texnologiya fanini o‘qitish o‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyati va mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularda maktabdan keyingi ta’lim bosqichi yoki mustaqil hayotga qadam qo‘yishda zarur bo‘ladigan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashlarni shakllantirishda asosiy yechim bo‘lib xizmat qiladi. Texnologiya fanini o‘zlashtirgan umumiyl o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilarini sanoat sohasining barcha tarmoqlarida xususiy injiniring, ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik bazalarining yanada rivojlanishi, boshqacha qilib aytganda yuqori qiymatli raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishida “drayver” rolini bajaradi.

Texnologiya fanining amaldagi joriy holatidan kelib chiqqan holda, avvalo, texnologiya fanini o‘qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab olish kerak. Bu tendensiyalarga:

Ta’lim sohasi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish;

Texnologiya fani Davlat ta’lim standarti talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash; Texnologiya fani bo‘yicha umumiyl o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini integratsion yondashuvlar asosida ishlab chiqib amaliyatga tatbiq etish;

Texnologiya fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

Texnologiya fani mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan texnologik savodxonlikni, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirish va boshqalar.



Davlat ta’lim dasturlari tarkibiga kiruvchi texnologiya darslari o‘quvchilarda XXI asr va hayotiy ko‘nikmalarini, bitiruvchilarda nostandard sharoitlarda yuzaga keladigan muammolarni hal etish, ta’limning barcha bosqichlarida injenerlik qobiliyati va ijodkorlikni rivojlantirish hamda mustaqil hayotda zarur bo‘ladigan mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, maktabdan keyingi ta’lim bosqichiga yoki mustaqil hayotga qadam qo‘yishda zarur bo‘ladigan bazaviy kompetensiyalar va dunyoqarashlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, texnologiya fani umumiy o‘rtta ta’lim tizimida asosiy integratsion mexanizm vazifasini bajaradi, tabiiy, ilmiy-texnik, texnologik, tadbirdorlik va gumanitar fanlar doirasida olgan bilimlarini meta-fan darajasida qo‘llashni o‘rgatadi va umumiy o‘rtta ta’limning amaliy jihatlarini kuchaytirishga yordam beradi.

Yuqoridaqilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Texnologiya fanini o‘qitishni yangi bosqichga ko‘tarish O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida texnologiya ta’limini modernizatsiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish orqali o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo‘ladigan kompetentsiyalarni shakllantirishga erishiladi. Bu esa o‘z navbatida kadrlarni tayyorlash, mavjud kadrlar ta’minotini modernizatsiyalash va inson potentsialidan samarali foydalanish uchun keng yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bekmurodova S. Texnologiya fanini o‘qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo‘llanma. – T.: 2017
2. Tohirov O‘.O. Texnologiya o‘quv fani davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturini ta’lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. – T.: 2017



TA’LIMDA O’QUVCHI SHAXSIGA E’TIBOR

**Ibragimova Diloromxon Xolmirzayevna
Mirzabekova Sohiba Muhammadaliyevna**

Farg`ona viloyati Dang`ara tumani XTB tasarrufidagi
24-umumiy o`rta ta`lim maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchisi

Annotasiya: boshlang`ich ta`limda o`quvchi shaxsiga e`tibor muhim masalalardan hisoblanadi. Mazkur maqolaning ushbu mavzuga qaratilishi ham ahamiyatlidir. Maqolaning asosiy maqsadi ham, ayniqsa, boshlang`ich ta`limda o`quvchi shaxsiga yo`naltirilgan ta`limni tashkil etish va tavsiya berishdan iborat.

Kalit so`zlar: ta`lim tizimi, islohot, shaxs, shaxsga yo`naltirilgan ta`lim, ijodkorlik, shaxsga hurmat, qadr-qimmat, intellektual (aqliy) salohiyat, modulli dasturiy ta`lim, tabaqlashtirilgan ta`lim, o`yin texnologiyasi, zamonaviy pedagog, hamkorlik.

Respublikamiz xalq ta`limi oldida turgan muhim vazifa har tomonlama yetuk bo`lgan, ijodkor va qobiliyatli, o`z yurti va xalqiga sodiq insonlarni kamolga yetkazish va tarbiyalash, voyaga yetkazishdan iboratdir.buni amalga oshirishda xalq ta`limi tizimida xizmat ko`rsatayotgan barcha pedagog va hodimlardan o`z ishiga sodiqlik, ijodkorlik, shu qatori o`quvchi shaxsiga hurmat kabi tamoyillarga qat`iy amal qilish talab etiladi. Bugungi kun o`quvchilar ilm-fan, texnika taraqqiyotiga be`etibor emas, balki bo`layotgan o`zgarishlarga qiziquvchan, izlanuvchan yoshlardir. Shuning uchun ham ularning shaxsiga hurmatda bo`lish, hamkorlikda ishlash, mustaqillikni ta`minlash ko`p jihatdan yaxshi samaralarga yetaklaydi.

Ta`limda o`quvchi shaxsiga e`tibor bu – ta`lim jarayonining asosiy markazida o`quvchi bo`lib, uning shaxsi, qadr-qimmatini yuqori o`ringa qo`yadigan, asosiy e`tiborni intellektual (aqliy) salohiyatini oshirish, dunyoqarashini boyitish, ma`naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratadigan pedagogik faoliyat turi.

Shaxsga yo`naltirilgan ta`limning turlari quyidagilar:

- muammoli ta`lim;
- modulli dasturiy ta`lim;
- rivojlantiruvchi ta`lim, o`yin texnologiyalari interfaol ta`lim;
- hamkorlik ta`limi;
- tabaqlashtirilgan ta`lim, individual ta`lim;
- masofaviy ta`lim va mustaqil ta`lim.

Avtoritar texnologiyada, pedagog yagona sub`ekt sifatda namoyon bo`ladi, o`quvchilar esa faqatgina «ob`ekt» vazifasini bajaradi, xolos. Bunda o`quvchining tashabbusi va mustaqilligi yo`qoladi, o`qitish majburiy tarzda amalga oshiriladi. An`anaviy o`qitish asosan bilim, ko`nikma va malakalarni o`zlashtirishga qaratilgan bo`lib, shaxsning rivojlanishini ko`zda tutmaydi.

An`anaviy o`qitish quyidagi xususiyatlarga ega:

- zo`ravonlik pedagogikasi, o`qitishning tushuntiruv-ko`rgazmali usuli, ommaviy o`qitish;
- An`anaviy o`qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo`ladi: o`quvchi bu hali to`la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs.

Shaxsga yo`naltirilgan ta`limda esa o`quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo`yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro`yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O`zbekiston Respublikasidagi ta`lim tizimining milliy modeliga alohida e`tibor qaratilgan. Bu model 5 tarkibiy qismidan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzuksiz ta`lim, fan, ishlab chiqarish. Bu yerda ta`lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismi - «shaxs» birinchi o`rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta`lim tizimi, shu jumladan, o`qitish shaxsga yo`naltirilgan bo`lishi lozim.

Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo`ladi:

- pedagogik jarayonda shaxs ob`ekt emas, sub`ekt hisoblanadi;
- har bir o`quvchi qobiliyat egasi, ko`pchiligi esa iste`dod egasi hisoblanadi;
- qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustuvor xislatlari hisoblanadi.



Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish ;
- o‘quvchining erkin tanlab olish huquqi ;
- xatoga yo‘l qo‘yish huquqi ;
- o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lish huquqi .

Pedagog va o‘quvchilar munosabati zayli:

- taqiqlamaslik ;
- boshqarish emas, birgalikda boshqarish;
- majburlash emas, ishontirish ;
- buyurish emas, tashkil etish ;
- chegaralash emas ;
- erkin tanlab olishga imkon berish.

Yangi munosabatlarning asosiy mazmuni, hozirgi zamон sharoitida samarali natija bermaydigan va g’ayri insoniy hisoblanadigan zo‘ravonlik pedagogikasidan voz kechishdir.

Muammo tamoyilni mutlaqlashtirishda emas, balki uning oqilona mezonlarini aniqlashdadir. Umuman olganda tarbiya jarayonida zo‘ravonlik mumkin emas, ammo jazolash insonni kamsitadi, ezadi, rivojlanishini susaytiradi, unda qulchilik xususiyatlarini shakllantiradi.

Erkin o‘qitish quyidagilar bilan belgilanadi:

- ishonchga asoslangan erkin talabchanlik ;
- o‘quv materialiga qiziqish uyg‘otish, bilishga va faol ijodiy fikrlashga rag’batlantirish;
- o‘quvchilarning mustaqilligi va tashabbusiga tayanish;
- jamoa orqali bilvosita usullar bilan talablarni amalga oshirishni ta’minalash.

Yangi individual yondashuvning mohiyati shundaki, u ta’lim tizimida o‘quv fanidan o‘quvchiga emas, o‘quvchidan o‘quv fani tomonga harakatlanishni taqozo etadi, o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlarni inobatga olib, ularni rivojlanirish, takomillashtirish va boyitishga qaratilgan bo‘ladi.

Individual yondashuvning zamonaviy yangi talqini quyidagilardan iborat:

- o‘rtacha o‘quvchiga yo‘naltirishdan voz kechish;
- shaxsning yaxshi xislatlarini izlash;
- shaxs rivojlanishing individual dasturlarini tuzish. .

Shaxsiy yondashishda birinchi navbatda quyidagilar zarur bo‘ladi:

- har bir o‘quvchi qiyofasida noyob shaxsni ko‘rish, uni hurmat qilish, tushunish, qabul qilish, unga ishonish. Pedagogda barcha o‘quvchilar iste’dodli degan ishonch bo‘lishi kerak;
- shaxsga, yutuqni ma’qullovlari, qo’llab-quvvatlovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya’ni o‘qish qoniqish va xursandchilikni olib kelishi kera;
- bevosita majburlashga yo‘l qo‘ymaslik, qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg’u bermaslik, uning nafsoniyatiga tegmaslik;
- pedagogik jarayonda, o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko‘maklashish.

Yaponianing zamonaviy pedagog-olimlari bolani kuniga 200 martagacha erkatalishni tavsiya beradilar. Bu zamonaviy g’oyalarning debochasi, buyuk ajdodimiz Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Bolaga rahmdillik qilmoq, uni o‘pib quchoqlamoq haqida» yoritilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining o‘zagi shaxslar o‘rtasidagi yuqori qadriyatlarga, teng huquqlilikka asoslangan munosabat hisoblanadi.

Bu qadriyatlar Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Shirin so‘z odam haqida», «So‘kmoq va la’natlamoq ta’qilanganligi haqida» batafsil yoritilib berilgan. Unda shaxsni so‘kish uni o‘ldirish bilan tenglashtirilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim mohiyati va tamoyillari:

Shaxs o‘zida yashiringan yangi qobiliyat; Insonparvarlik; Mustaqil o‘qib-o‘rganish; Erkin tarbiyalash ; Hamkorlik .

Boshlang‘ich ta’lim uzuksiz ta’lim tizimining poydevori hisoblanadi. Shuning uchun ham doimo barcha izlanivchi pedagoglar, olimlar, tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ta’limda o‘quvchi shaxsiga e’tibor, ularga individual yondashuv, mustaqillikni ta’minalash, hamkorlikda ishslash, erkinlik kabi yondashuvlar ertangi kun egalarida yangi-yangi qobiliyatlarini shakllantirish, ist’oddlarni ro‘yobga chiqarishda muhim omil sanaladi deb hisoblaymiz.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-202-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni
2. Sh. Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz". Toshkent-O'zbekiston 2016
3. Sh. Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz". Toshkent-O'zbekiston 2016
4. K. Qosimova, S. Matjonov, X.G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "Noshir"-2009

Elektron ta'lim resurslari

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi: www.uzedu.uz
2. Ijtimoiy axborot ta'lim portal: www.ziyonet.uz



BOSHLANG'ICH SINFLARDA HIKOYA O'QISH VA UNING TAHLILIY METODLARI

Jumaniyozova Lazokat Otaboyevna

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumanidagi

17-umumi o'rta ta'lim maktabining

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar hikoya o'qish metodikasi, hikoya tahlili va buni o'quvchi dunyoqarashini oshirishdagi ahamiyati haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: Hikoyani tahlil qilish, hikoyani izohli o'qish „Dadam qurgan dengiz“ ”Olma“, tushunarilik

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqeа, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqeа-hodisalar haqidagi hikoyalalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun, bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan foydalilanildi. Ushbu jaryonda asosiy ish turi hikoyani tahlil qilishdir. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi.

Hikoyani tahlil qilish. Ushbu dars jarayonida hikoya o'qituvchi tomonidan tushuntirib o'qib beriladi. So'ngra darsning asosiy qismi hisoblangan hikoyani tahlil qilish bosqichiga o'tiladi. Bu eng muhim bosqich bo'lib, asosan o'quvchining fikrlashi hamda nutqini o'stirishga xizmat qiladi. O'qituvchi tomonidan o'qib tushuntirib bergen hikoya asosida tahliliy suhbat o'tkaziladi. Ya'ni, hikoya qahramonlari, undagi voqealar rivoji, qaysi epizod yoqqanligi va h.k. Bu orqali o'quvchida fikrlash hamda keng dunyoqarashni shakllantirish imkonи paydo bo'ladi. Dars jarayoni taxminan shunday tashkil etilsa maqsadga muvofiq:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish.
2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlami bajarish.
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilaming savollar tuzishi.
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.
5. Hikoya matnni qismlarga bo'lish.
6. Har bir qismga sarlavha topish.
7. Hikoyaga reja tuzish.
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).
9. Reja asosida bayon yozish.

Lekin hikoyani tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyligi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlaming xarakteri, ulardagи xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf „O'qish kitobi“dagi „Dadam qurgan dengiz“ (Hakim Nazir), «Olma» (Malik Murodov) va boshqa qiziqarli hikoyalalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoya syujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi. Shuningdek, tahlilda o'qilayotgan hikoya matnining tushunarilikligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunarilik deganda, biz hikoyani qanchalik bolaning dunyoqarashi, tafakkuriga mos tanlanishini anglashimiz mumkin. Hikoyani tahlil qilishda savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi, asar mazmunini yaxshi tushunish, o'z fikrini izchil bayon qilish malakasini egallash,



mazmun va voqealar orasidagi bog’lanishni to’liq esda saqlab qolishda o’quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani izohli o‘qish darsini quyidagicha reja asosida olib borish mumkin:

1. Hikoyani o’qishga tayyorlash (hikoyadagi kabi odamlar hayoti va davrga xarakteristika berish va boshqa.).
2. Hikoyani o’qish (bunda to’liq va ma’no jihatdan tugal qismni o’qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o’quvchi ifodali o’qishi mumkin)
3. Lug’at ustida ishslash.
4. Idrok etishni tekshirish (qatnashuvchilarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o’rtasidagi munosabatlar, badiiy vositalar yuzasidan qisqacha suhbat).
5. Hikoyani qayta o’qish (qismlarga bo’lib, rollarga bo’lib o’quvchilarga o’qitish).
6. Hikoyaning har bir bo’limi (qismi) yuzasidan suhbat uyuştirish, hikoya rejasini tuzish.
7. Hikoyani ifodali o’qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova|, Safo Matchonov,Xolida G ‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva,Sharoljon Sariyev “Ona tili o’qitish metodikasi” Toshkent«NOSIR» nashriyoti2009
- 2.Sulton Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: „ o’qituvchi”, 1980. 245-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi



**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IMLOVIY BILIMLARNI
SHAKLLANTIRISHDA ONA TILI DARSLARINING AHAMIYATI**

Mamatova Quvonch Baxtiyorovna

Xorazm viloyati Urganch tumani
15-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imloviy malakalarini oshirishda ona tili darslarining ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlari: boshlang‘ich sinf, orfografik malaka, ona tili, yozuv.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilar bilimini yanada takomilashtirish, til materialini chuqur o‘rganish, o‘z fikr va mulohazalarini erkin bayon qila olish uchun orfografik malaka va ko‘nikmalar muhim ahmiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra, ona tili darslarida imloviy bilimlarni mustahkamlash ko‘p jihatdan orfografik tahlillar bilan olib boriladi. Orfografik mashqlar turli bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi hamda turli mashqlarni o‘zlashtirishda, turli xil til materiallarini o‘rganishda muhim ahmiyat kasb etadi. Ona tili ta’limi bolalarining tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrلay olishi, o‘zgalar fikrini aniqlashi, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a‘zolari bilan erkin muloqatda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda ona tili ta’limiga o‘quv fani emas, balki, butun ta’lim tizimini uyushtiruvchi ta’lim jarayoni sifatida qaraladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchining ona tili ta’limi sohasi bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar quyidagi uch parametrli standart mezon orqali aks ettiriladi: o‘qish texnikasi, o‘zgalar fikrini va matn mazmunini aniqlash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O‘qish texnikasi bolaning savodxonlik, yozma nutq belgilarini, talaffuzda ifodalash ko‘nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr orqali o‘quvshining notanish bo‘lgan matnni ifodali o‘qiy olish ko‘nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko‘rsatkich sifatida o‘qish tezligi, ya’ni berilgan matndan minutiga nechta so‘z o‘qiy olish ko‘rsatkichi belgilangan. Sinfdan sinfga o‘tish, berilgan matnni o‘qishdagi talablar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

Matn mazmunini aniqlash, o‘zgalar nutqini eshitish va fikrini aniqlash malakasi o‘quvchining og‘zaki bayon qilayotgan o‘zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini aniqlay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametrning ko‘rsatkichlari o‘quvchi 10 minutda qancha sahifa matnni o‘qishi, o‘zgalar fikrini va matn mazmunini aniqlash hamda uni og‘zaki qayta bayon qilish darajasini aniqlaydi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo‘lib, ona tili ta’limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi va o‘quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr buyicha ta’lim sifatining natijasini baholashda o‘qituvchi tomonidan quyidagi ko‘nikmalarning darjasini aniqlaydi:

1. Fikrning mantiqiy izshillikda ifodalanganligi;
2. Mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va h.k);
3. Tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammalligi;
4. Tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
5. Imloviy (yozma) savodxonlik;

Mazkur standart mavzularning o‘zaro uzviy bogliqligi (integratsiyasi)ni nazarda tutib, o‘qish, ona tili ta’limida belgilangan vazifalarning amalga oshishida asosiy omil hisoblanadi.

4-sinf ona tili daslarida beriladigan orfografik mashqlar salmoqli bo‘lib, bu mashqlarni tahlil qilish, tartiblash va o‘rganish boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan yetarlicha bilim va tajriba talab etiladi. O‘qituvchi imloviy malakaning psixologik tabiatidan kelib chiqib, kichik yoshdagil o‘quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida ishslash metodikasini belgilaydi.

Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To‘g‘ri yozuv - maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo‘lib, uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuzish, so‘zni uslubiy aniq qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Imloviy malaka murakkab malaka bo‘lib, uzoq davom etadigan mashqlar jarayonida



yaratiladi va so‘zni fonetik tomondan tahlil qilish, uning morfemik tarkibini aniqlash ko‘nikmasi kabilarga asoslanadi.

Psixologiya malakani

avtomatik harakat, ya’ni mashqlar natijasida asta-sekin avtomatlashgan ongли harakat deb belgilaydi. Avtomatlashish o‘rganilgan imlo qoidasining oson yoki qiyinligiga bog‘liq. Imloviy malaka o‘z tabiatи bilan avtomatik hisoblanmaydi. Malaka asosiga qo‘yilgan ko‘nikma mustahkamlanadi, takomillashadi, yaxshilanadi (harakat tezlashadi, aniq va to‘g‘ri bo‘la boshlaydi, ishonarli va tejamli bajariladi); shuning bilan birga, faoliyatning tuzilmasi qayta quriladi: mayda birlik bilan ishslash kengroq, butun, qo‘shilgan birliklar bilan ishslashga o‘tadi (masalan, so‘zni harflab ko‘chirish, bo‘g‘inlab ko‘chirish bilan, keyin so‘zni yaxlit ko‘chirish bilan, so‘ngra u gapni ko‘chirish bilan almashadi). Bir orfografik malakasi avtomatlashadi, imloga oid boshqa hodisa o‘rganiladi va asta-sekin so‘zni to‘g‘ri yozish malakasi hosil bo‘ladi.

Umuman olganda,

yozuv murakkab harakat sifatida ongли jarayonligicha qoladi. Orfografik malakasining shakllanishi uchun o‘quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to‘g‘ri yozuv hodisasini o‘zlashtirish uchun o‘quv va yodda saqlashgina emas, balki analiz va sintez qilish ham tatbiq etiladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o‘xhash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash usulidan foydalanish hamda so‘z va so‘z shakllarini ma‘lum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash mashqlaridan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz

mumkinki, shu singari orfografik mashqlar ustida ishslash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z va gap doirasida o‘rganadigan imloviy bilimlarni hamda nutq o‘stirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Djurayev R. H. Ta’limda interfaol texnologiyalar. – T.: 2010
2. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. –T.: 2006



TO’GARAK MASHG’ULOTLARI ORQALI O’QUVCHILARDA MUSIQIY-ESTETIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Nishanbekova Jadira O’rinboy qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti pedagogika-psixologiya fakulteti magistranti
Ilmiy rahbar, P.f.d.,prof., Xodjayev Begzod Xudoyerberdiyevich,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada to’garak mashg’ulotlari orqali o’quvchilarda musiqiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Musiqiy madaniyat nafaqat, birinchi navbatda, musiqaning tarixiy va nazariy hodisalari prizmasi orqali ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida ham ko’rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: to’garak mashg’ulotlari, estetika, jamiyat, ma’naviyat, talaba yoshlar, nutq.

Zamonaviy jamiyatni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari ta’limni shaxsiy manfaatlar va ehtiyojlarga moslashtirishda, ta’lim va madaniyat integratsiyasi asosida shaxs manfaatlarini amalga oshirishning shart-sharoitlari va ta’sirchan mexanizmini yaratishda «ma’naviy-madaniy sohaga» qo’shilish orqali ma’naviy takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishi bilan ko‘p tomonlama rivojlanishni nazarda tutadi.

Jamiyatning tarixiy rivojlanishining barcha bosqichlarida yosh avlodning estetik tarbiyasi har doim tadqiqot va pedagogika ob’ekti bo‘lgan. Bu san’atning rivojlangan shaxsni tarbiyalashdagi ulkan rolining ta’siri bilan izohlanadi. Bu hayotda chiroyli bo‘lish uchun faol kurashchilarning estetik qarashlari, ta’mi va g’oyalarini shakllantirish, badiiy bilimlarni muntazam ravishda kengaytirish, kundalik hayotda go’zallikni ko‘rish qobiliyati va ehtiyojlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

O‘zining mafkuraviy mazmuniga boy bo‘lgan san’at asarlari yosh avlodda badiiy ta’mni tarbiyalab, madaniy o’sishga va o‘z-o‘zini anglashga hissa qo’shib, ijodiy ishlarga, ona yurtining tabiatiga, vatanga muhabbatni tarbiyalaydi.

O‘zbekiston mustaqilligi va suverenitetini qo‘lga kiritganida, mamlakatimizda ma’naviyatni tiklash, xalqlarning boy madaniy merosiga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo‘lishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Yosh maktab yoshi shaxsni shakllantirish va shakllantirishning eng muhim davri hisoblanadi. Ushbu asrda qo‘lga kiritilgan bilim va ko‘nikmalar bir zumda suriladi, hayot uchun saqlanadi va oxirgi navbatda senil degradatsiya va miya patologiyasi bilan yo‘qoladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, kelajakda mutaxassisning har tomonlama rivojlangan shaxsiyatini shakllantirish asoslari bu yoshda belgilanadi.

Maktab ta’limi mintaqamizda uzlusiz ta’limning muhim tizimi bo‘lib, uni olish shakli va usullaridan qat’iy nazar, quyidagi vazifalarini hal etadi:

bolalarni maktabda o‘qitishga maqsadli va tizimli tayyorlash, ularning shaxsiy qobiliyatları va iste’dodlarini rivojlantirish;

Bolalarni milliy umuminsoniy axloqiy va madaniy qadriyatlarga jalb etish, bolaning intellektual rivojlanishi;

yuksak ma’naviyat va axloq asoslarini shakllantirish;

bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash;

Yosh avlodni izchil rivojlantirish maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlash milliy dasturi bir qator chora-tadbirlarni nazarda tutadi:

tarbiyachi va pedagoglarning malakali kadrlarini ustuvor tayyorlashni ta’minlash

o‘quv-tarbiyaviy jarayonga bolalarning qobiliyat va manfaatlarini ochib berish, ularning o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishni ta’minlovchi samarali psixologik-pedagogik usullarni joriy etish;

xalq boy madaniy-tarixiy va ma’naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida maktab o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga sharoit yaratish.

Har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashda musiqa san’ati, ixtirochilik san’ati, haykaltaroshlik, arxitektura, xalq ijodiyoti, amaliy san’at kabi turlarga alohida ahamiyat beriladi.

Bu jarayonda san’atning asosiy vazifasi - bu shaxsni go’zallik bilimining 4 imkoniyati, hayotda



estetik prinsipga erishish, ya’ni insonga o‘zi uchun mavjud bo‘lgan go‘zallik dunyosini ochishga yordam berishdir. San’atdagi go‘zallik orqali inson axloqiy haqiqatga to‘g‘ri keladi. Talabalarning folklor san’atida faol ishtiroki insonning o‘z-o‘zini kashf etishiga yordam beradi, estetik tamoyilni ularning faoliyatining kundalik mehnat va ijtimoiy hayotiga kirib borishiga yordam beradi. Professional musiqa tomoshabinga faol ta’sir ko‘rsatadi va uni estetik buniyodkorlik ishlariiga yo‘naltiradi, har bir xalqning folklori, shu jumladan, o‘zbek xalqining ilg‘or an’analaring ifodasidir, bu borada muhim masala-bu vazifa orqali erishiladigan musiqa tarbiyasining o‘rni katta, musiqiy darslarda ijodiy shaxs tarbiyalanadi, shaxsni har tomonlama rivojlantirish uchun badiiy qadriyatlar yaratiladi.

Yoshlarning estetik tarbiyasi turli yo‘nalishli omillar – an’anaviy xalq ijodiyoti, folklor, tabiat, hayot, o‘zbek xalqining urf-odatlari va kasb-hunar san’ati bilan bog‘liq bo‘lib, asosan ommaviy axborot vositalari orqali ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bois, talabalarning kasbiy-muhim fazilatlarini shakllantirish jarayoni ko‘p jihatdan folklor san’ati qatlamini birlashtirish chorralari bilan tavsiflanadi. Va ularning birligi xalq qo‘shiqlari va raqslari ansambllarida, yakkaxon qo‘shiqlarda to‘liq amalga oshiriladi. Shunday qilib, O‘zbekistonda yosh avlodning musiqiy- estetik tarbiyasi o‘z maqsadiga ega bo‘lib, yuksak estetik madaniy shaxsni shakllantirish, ushbu maqsadga erishish uchun barcha shakl va vositalardan foydalanib, to‘g‘ri estetik ta’sirlarga parallel ravishda ta’limning boshqa yo‘nalishlarida ham natijalar beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov R. II qism, Musiqa pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2005 52- bet.
2. Musiqashunoslikning metodologik muammolari-M., 1987.



BOLANING NUTQ MUHITINI TASHKIL QILISHDA
ESHITA OLİSHINING AXAMYATI

Nosirova Oydin

Andijon viloyati Qo’rg’ontepa pedagogika
kolleji maxsus fan o’qituvchisi
Telefon : +998905444946

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitish qobilyati cheklangan bolalarga og’zaki nutqni o’rgatish qanchalik erta boshlansa, idrokni rivojlantirish uchun zaruriy shroyitlardan qanchalik ko’p foydalanilsa bolalar og’zaki nutqni shunchalik yaxshi o’zlashtirilishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Og’zaki nutq, eshitish, nuqson, bola, qobilyat, visual usul.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali kechishi davlatimizni rivojlangan davlatlar hamjamiyati integratsiyalashuvida yosh avlodning ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bog’cha yoshidagi bolalarda ayrim psixik jarayonlarning rivojlanishi bilan birga ularning shaxsi va shaxsiy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Bolaning tashqi muhitdagi narsa va hodisalar hamda o’ziga nisbatan bo’lgan to’g’ri, oqilona munosabatlarining asosi xuddi shu davrda yuzaga keladi. Bundan tashqari, bog’cha yoshidagi davrda bolaning qobiliyatları tez rivojlanib, yangi-yangi extiyojlar va qiziqishlari hosil bo’ladi. Bola shaxsining ana shunday rivojlanib borishi natijasida uning xarakteriga oid xislatlar namoyon bo’la boshlaydi.

Afsuski, oramizda shabboda shivirlashiyu, jilg’a ovozidan, yomg’ir shivirlashi, qushlar sayrashidan zavq olishdek noyob qobilyati nuqsonli insonlar borki, ular butun umr ana shu kamchilik bilan yashashag majbur. Eshitish qobilyati nuqsoni bo’lgan bunday kishilarning ushbu zaifligi ularni jamiyatdan ajratib qo’ymasligi, hayotiy afoliyatini to’g’ri yo’lga qo’yishga monelik qilmasligi uchun odamlar bialn muloqat qilishni vaqtida erta yoshdayoq o’rganishi g’oyat muhimdir.

Zayif eshitadigan bolalar nutqini rivojlantirish.

Eshitish qobilyati zaif maktabgacha yoshadgi bolalar nutqini rivojlantirish ko’p qirrali jarayon bo’lib, maktabagcha tarbiya muassasasi va oilada ushbu jarayonning turli jihatlari uchun sharoitlar ayratilishi muhum. Eshitishda nuqsoni bor maktabgacha yoshdagagi bolalalar pedagogikasida ular nutqni rivojlantirish uchun, avvalo, foydalaniladigan didaktik usullar ko’rib chiqiladi. Masalan, vizual, og’zaki, amaliy, shuningdek, og’zaki nutqni, maxsus o’rgatishning analitik, sintetik usullari belgilanadi.

Ta’limning visual usul va uslublari kuzatish, narsa va hodisalarni tekshirish, rasmlarni ko’rish, slaydlar, multfilmlar namoyish, shuningdek, taqlid qilish uchun harakatlarni amalga oshirishga asosalangan bir qator metodlardan foydalanish harakat usulini ko’rsatish kabilarni o’z ichiga oladilar.

Kuzatish usuli tarbiyaviy ishlarning barcha turida qo’l kelib eshitishda nuqson bor bola narsa va hodisalarni kuzatish orqali asosiy tushuncha va bilimlarni egallaydi. Rasmlarni tekshirish orqali tasvirni idrok etish va tushunish jarayoni ham so’z boyligini oshirish, so’zlar va iboralarning ma’nolarini aniqlash, nutqning nutqiy va tasviriy shakillarini rivojlantirish imkonini beradi.

Vizual o’qitish metodlari qator texnikalardan foydalanishni nazarda tutib, bu jarayonda bolalar harakatini namuna asosida va taqlid orqali bajaradi. Taqlid va namuna nutqni rivojlanishiga talaffuz layoqatini shakillantirishga faol yordam beradi.

Amaliy usullar har xil faoliyat turlari, o’yinlar, tajribalar va modellashtirishni o’z ishiga oladi. O’qituvchi narsa va hodisalarni xususiyati va sifatlari to’g’risida tushuncha berish uchun ular bilan turli harakatla amalga oshiradi. Shuningdek rolli didaktik va tashqi o’yinlar jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish va faollashtirish, ularning og’zaki aloqalarini shakillantirish. Uchun qulay sharoyitlar yaratilgan.

Og’zaki usullar eshitish qobilyatlari cheklangan bolalarni tarbiyalashda va o’qitishda katta o’rin tutadi. Biroq, ularni maxsus maktabgacha tarbiya tashkilotlarida qo’llash amaliy va visual usullar yordamida olib boriladi. U bolalarning o’zaro suxbatlashishalri, o’qituvchini hikoya qilishi, biror narsani o’qib berishi, o’qituvchiga qayta so’zlab berish tushuntirishni



nazarda tutadi.

Nutqni rivojlanishi bo'isha ishlar, o'yinlar, vizual tadbirlar, mehnat, jismoniy va musiqiy ta'lim, boshlang'ich matematik tushunchalarni tashkil etish bilan chamarshas bog'liq. O'yin nutqni o'zlashtirish uchun sharoyitlar, samarali vaziyatlarni yaratadi.

Unutmashlik kerakki, eshitish qobilyati cheklangan bolalarga og'zaki nutqni o'rgatish qanchalik erta boshlansa, idrokni rivojlantirish uchun zaruriy shroyitlardan qanchalik ko'p foydalanilsa bolalar og'zaki nutqni shunchalik yaxshi o'zlashtiradi. Bunda qoldiq eshitishag asoslangan tabiiy muloqotning yaxshi yo'ga qoyilishi bolada muloqot tajribasi oshishiga, amal oqibat istiqbolda boshqalar kabi jamiyatning faol a'zosiga aylanishiga sabab bo'ladi. Maqsadimiz ham ayni shu aslida. Zotan har bir bola kelajakda Ona vatanimizning baxtli fuqorosi bo'lishga haqlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurkeldieva D.A., CHicherina Ya.E. Ilk, maktabgacha va maktab yoshidagibolalarni psixologik, pedagogik va logopediya tekshirish. T. 2007 yil.
2. Po'latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014 y.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV METODLARNING O'RNI

Otomurotova Gulshoda Ollobergonovna
Saidova Ozoda Erkinboyevna
Xorazm viloyati Urganch tumani
42-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirishning samarali usullari xususida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlari: ijodiy tafakkur, pedagogik texnologiya, interaktiv metodlar, “Kungaboqar” metodi, “Sinkveyn” metodi.

Mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'qituvchilarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'lifning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar ta'lif jarayoniga olib kirildi.

Yangi pedagogik texnologiyalar, boshlang'ich sinf o'qituvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviy lashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'qituvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'qituvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'qituvchilarga aniq yo'naliш berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'qituvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'qituvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi.

Ma'lumki, kichik yoshdag'i bolalar diqqati beqaror bo'lib, 1-sinf o'qituvchisi uchun biroz muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Ana shu vaziyatda o'qituvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli interaktiv metodlarning ahamiyati katta. O'qituvchilarga rasmiy topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka undaydi hamda yozma va og'zaki nutqini o'stirib, lug'at boyligini oshiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining topqirligini, harflarni eslab qolish qobiliyatini o'stirishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi:

“Kungaboqar” metodi. Kungaboqar rasmi o'rtasida unililar, uning atrofida esa, undosh harflar yozilgan bo'ladi. O'qituvchilar undosh va bitta unli harflarni qo'shib, bir necha so'zlar tuzishadi. O'yin davomida o'rtadagi unlilarni almashtirish ham mumkin. O'qituvchilar mustaqil ravishda daftarlari tuzgan so'zlarini yozadilar. Bu jarayonda hamma o'qituvchilar baravar ishtiroy etishadi. O'qituvchi esa mashg'ulot davomida eng faol qatnashganlarni rag'batlanirib, baholab boradi. Ushbu usuldan yozuv darslarida ham, alifbe darslarida ham foydalanishimiz mumkin. O'qituvchi qancha ko'p harf o'rgansa shu harflarni qo'shib so'z yasay oladi. Birinchi va ikkinchi kungaboqarda berilgan harflardan shunday so'zlar yasashimiz mumkin. Masalan: olam, olcha, ota, osmon, usta, uka.

Alifbe darsligi tugagandan so'ng 1-sinf ona tili kitobida dastlab o'qituvchilarga “Tovush va harf” haqida ma'lumotlar beriladi. Mavzular sekin-asta murakkablashib boradi. Bu holat muayyan qiyinchilik tug'dirib, biroz bo'lsa-da o'qituvchilarining darsdan zerikishiga sabab bo'ladi. Shunday holatlarda interaktiv metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Yuqorida ko'rsatilgan kungaboqar metodimiz ham bunga yaqqol misol bo'ladi. “Tovush va harf” bo'limining dastlabki mashqlari ham o'qituvchilarining og'zaki nutqini shakllantirish uchun berilgan. Ushbu metod orqali darsni mustahkamlash mumkin. Bu usul ona tili darslarini qiziqarli tashkil etish, darslarda o'qituvchilarining toliqib qolishlarini oldini olish va qisqa vaqt davomida ko'proq o'qituvchilarni baholashga xizmat qiladi.

“Sinkveyn” metodi. Sinkveyn so'zining ma'nosi “beshlik” bo'lib, “Qofiyalanmagan besh qatorlik she'r” degan ma'noni anglatadi. O'qituvchilar “Sinkveyn” metodidan foydalanib, qofiyalanmagan besh qatordan iborat she'r yozadilar. Bunga ko'ra birinchi qator bitta so'zdan iborat bo'lishi va bu ot so'z turkumiga oid so'z bo'lishi, ikkinchi qator ikkita so'zdan iborat bo'lishi va bu sifat so'z turkumiga oid so'zlar bo'lishi, uchinchi qator uchta so'zdan iborat bo'lishi va bu fe'l so'z turkumiga oid so'zlar bo'lishi, to'rtinchi qatorda to'liq bir maqol keltirilishi va beshinchi qatorda birinchi qatordag'i so'zga sinonim bo'lgan bir so'z qo'yilishi mumkin.



Ushbu metoddan 2-3-sinflarga o‘tgandan keyin o‘quvchilarso‘z turkumlari haqida tushunchalarga ega bo‘lganlaridan so‘ng foydalanishi mumkin. 2-sinf ona tili darsligida so‘z bo‘limida shaxs va narsaning nomini, harakatini, belgisini, sanoq va tartibini bildirgan so‘zlar haqida ilk morfologik tushunchalar berilgan. O‘qituvchi o‘quvchining fikrini tinglaydi va shu bilan birga, o‘quvchilarni ham birbirlarining so‘zlariga e’tibor bilan qarashga o‘rgatadi.

Bu tarzda tashkil etilgan darsda o‘quvchi hech qanday tazyiqsiz erkin fikrlay boshlaydi va o‘z fikrlarini ochiq bayon etadi, boshqalarini ham hurmat qilishga o‘rganadi. Boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish (ya’ni to‘g‘ri o‘qish va yozish)ga, fonetika, leksika, so‘z yasalishi va gramatikaga oid bilimlarni o‘rganish uchun zamin yaratishga xizmat qilishi lozim.

O‘qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, hamda uni amaliyotda o‘rganiladigan til materiallarining xususiyatlardan kelib chiqqan holda uni to‘g‘ri qo‘llay olishi lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik ko‘p qo‘llansa, o‘quvchilarning ona tili faniga qiziqish darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich ta’lim darslarini interaktiv metodlar bilan tashkil qilish o‘quvchiga zavq berish bilan birga ijodiy tasavvurini, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boy tasavvurga ega bo‘lgan insonda ijodkorlik, yaratuvchanlik, ijobiylilik, keng fikrlilik, fantaziyaviylik va shunga o‘xshash xislatlarni kuzatish mumkin. Har bir kreator va ijodkor boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini o‘z vaqtida aniqlashi va doimo rivojlantirib borishi shart va zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qulaxmetova M. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish. –T.: 2011
2. Ro‘ziyeva S M. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari. – T.: 2012
3. Usmonboyeva M. To‘rayeva A. Kreativ pedagogika. – T.: 2016



TARBIYA VA HUQUQ FANLARINI O'QISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI.

Primov Jasurbek Islambekovich,
Ruzmetova Zamira Xudayberganovna
Ufganch tumanidagi 7 son maktabning
huquq va tarbiya fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: Maqolada tarbiya va huquq fani dars jarayonida o'quvchilarning bilimini shakllantirishda innovatsion ta'limgan texnologiyalaridan samarali foydalanishning muhim jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, innovation texnologiya, ta'limgan-tarbiya, didaktik vosita, ta'limgan samaradorligi.

Hozirgi kunda ta'limgan jarayonida interfaol uslublar (innovation pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limgan samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xato xulosalarini ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Tarbiya va huquq fanlari o'quvchilar o'quvchilar hayotida muhim ahamiyatga ega. Tarbiya maqsadi kelajakda nimaga erishish, uning uchun qanday harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq jarayondir. Huquq jamiyat hayotining turli sohalari – iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy sohaga madaniy-ma'naviy munosabatlarga ta'sir etadi va shu tariqa iqtisodiy, siyosiy va tarbiyaviy funksiyalarni bajaradi. Yosh avlodni tarbiyasi bilan yetaricha shug'llanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Shunday ekan biz tarbiya va huquq fani ustozlari har bir darsimizni aniq va tushinrali, qiziqarli qilib o'tishimiz darkor. Buning uchun dars jarayonida interfaol metodlardan unumli foydalanishimiz, o'ynli texnologiyalarni ko'proq ishlatishimiz kerak. Shundagina o'quvchilarning tarbiya va huquq fanlariga bo'lgan qiziqishlari, intilishlari oshib boradi. O'quvchilar o'zlari ustida ishlay boshlaydi, keyingi darsni intizorlik bilan kutishadi. Ana shunda dars samaradorligi yuqori bo'ladi. Biz o'z darslarimizda "aqliy hujum", "venn diogrammasi", "klaster", "davra suhbat", "dumaloq stol", "ruchka stol o'rtaida", "Arra", "Intellektual ring", "Bilimlar qasriga sayohat", "Mozaika", "Domino", "Zinama-zina", "50x50", "Zanjir" kabi o'nlab metodlardan foydalanamiz. Bu metodlar darslarimizda yuqori samaradorlikni berib kelmoqda.

«Dumaloq stol» metodi: Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varag'i davra bo'lab aylantiriladi. Har bir talaba o'zining javob variantini yozib qo'ygach, varaqni boshqa talabaga uzatadi. Keyin muhokama bo'ladi: noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblarning soniga qarab talabaning bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki og'zaki shaklda ham qo'llash mumkin.

«Ruchka stol o'rtaida» metodi. Butun guruhga topshiriq beriladi (masalan, o'quvchi shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir etuvchi, shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omillarini birma-bir ko'rsatib o'tilsin). Har bir o'quvchi bitta javob variantini bir varaq qog'ozga yozib, uni qo'shniqiga beradi, o'z ruchkasini esa stolning o'rtaiga surib qo'yadi.





Interfaol usullarni yana boshqacha ta’riflaydigan bo‘lsak interfaol ta’lim jarayonida dars o’quvchilarning o’zaro muloqotlari asosida amalga oshiriladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi — o’quv jarayoni uchun eng qulay muhit vaziyat yaratish orqali o’quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratadi. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda biron ta ham o’quvchi chetda qolmay, eshitgan, o’qigan, ko’rgan bilgan fikr- mulohazalarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo’ladilar. O’zaro fikr almashish jarayoni sodir bo’ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o’zaro do’stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta’lim o’z xususiyatiga ko’ra didaktik o’yinlar orqali, evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali, muamoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali, kreativ-ijodkorlik asosida, axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o’z ichiga oladi.

Demak, interfaol ta’lim texnologiyalari va uning muhim tarkiiy elementi bo‘lgan interfaol metodlar ta’lim jarayonini tashkil etish ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini ta’minlaydi. Zero, zamonaviy ta’lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog‘liqlikda ta’lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – “O’zbekiston” – 2016.56B.
2. google.uz



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARING O'YIN- ULKAN TARBIYAVIY IMKONYATLARDIR

Qodirova Dilbarxon Raxmatillayevna

Andijon viloyati Qo'rg'ontepaga

pedagogika kolleji psixologgi

Telefon : +998990270866

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin davomida bir vaqtning o'zida ham o'yinda ishtirok etadi, ham ma'lum bir darajada ta'lim oladi. Ayrim o'yinlarda bilimlarini mashqlarda namoyish qiladilar va ularndan ko'pi bolaning aqliy rivojlanishi o'sib borishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, didaktik, bola, harakat, interfaol usul, o'yin, mashg'ulot.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzliksiz ta'lim tizimining birlamchi va asosiy bo'g'inlarini bo'lib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamyat kasb etadi. Shu boyisi mazkur masalaga davlat va jamiyat ahamyatiga mollik o'ta dolzarb vazifa sifatida qaratib, sohani rivojlanirishdagi ishlar ko'lami tobora kengaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi maktabgacha ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratadi. Bola rivojlanishi va tarbiyasida faoliyatning muhum turi hisoblangan o'yin katta axamyatga ega. U maktabgacha yoshdagi bola shaxsiyati, axloqiy –irodaviy fazilatlari shakillantirishda samarali usuldir, o'yin orqali ta'lim bershda atrof-olamga ta'sir etish ehtiyoji ro'yobga chiqadi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda ayrim psixik jarayonlarning rivojlanishi bilan birga ularning shaxsi va shaxsiy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Bolaning tashqi muhitdagi narsa va hodisalar hamda o'ziga nisbatan bo'lgan to'g'ri, oqilona munosabatlarining asosi xuddi shu davrda yuzaga keladi. Bundan tashqari, bog'cha yoshidagi davrda bolaning qobiliyatlari tez rivojlanib, yangi-yangi extiyojlar va qiziqishlari hosil bo'ladi. Bola shaxsining ana shunday rivojlanib borishi natijasida uning xarakteriga oid xislatlar namoyon bo'la boshlaydi. Bog'cha yoshidagi davrda bolada qanday xarakter xislatlari tarbiyalansa, bu xislatlar bolaning mifik yoshidag davrida va hatto katta odam bo'lib yetishganida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun bog'cha yoshdagi davrida bolada ijobjiy shaxsiy xislatlarning tarkib topishiga alohida ahamiyat berish zarur. Bolalar bog'cha yoshidan boshlab xulq-atvorining axloqiy normalari va qoidalarini intensiv ravishda o'zgartira boshlaydilar. Bola uchun o'yin- o'zini ko'rsatish va namoyon qilish yo'li. O'yinda bola o'zi istagan qahramonga aylanadi: mehribon sehirgar, jasur jangchi, uchuvchi –fazogir. O'yinda bola xohlagan joyda bo'ladi: oyda, dengiz tubida, matabda.

So'nggi yillarda tadtqiqotchilar, pedagoglar, psixologlar va shifokorlar o'yin barcha sohalarda yosh bolalarning sog'lom rivojlanishi uchun hayotiy muhum element ekanligi ishonarli darajada isbotlab berishdi. O'yin rivojlanishning yetakchi manbai sifatida optimal rivojlanish uchun juda muhumdir. Bolalar o'yin kompetentsiyalarni egallashlari uchun ularga vaqt, makon, materyallar hamda ota ona yoki vasiylarningularga vaqt, makon, materyallar hamda ota ona yoki vasiylarning, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan malakali tarbiyachining qo'llab – quvvatlashi kerak.

O'yin odatda erkin tanlangan, blalarga qratilgan va zavqli faoliyat sifatida belgilanadi. U ijtimoiy kognitiv va rivojlanish xususiyatlari va bosqichlari bo'icha qo'shimcha taxlil qilinadi va tafsiflanadi.

Pedagogik o'yinlar quydagilarga bo'linadi:

1.Jismoniy 2.Intellektual 3.Ishbob 4.Ijtimoiy 5.Psixologik

Shaxsga yo'naltirilgan talim yondashuvida o'yin –bu bola tomonidan boshlangan va maktabgacha ta'lim pedagogi tomonidan astoydil qo'llab –quvvatlanadigan asosiy ish faoliyatidir. Yanada murakkab, barqaror va ko'p qirrali o'yin jarayonlari bolalarni o'yin davomida diqqatlik bilan kuzatgandan so'ng ishlab chiqiladi. Bu ular nimani tushunib etgani va nimani mustaqil bajara olishi, qanday fikirlashi to'g'risidadagi ma'lumotni yig'ishga imkon beradi.

O'yin bolalar rivojlanishida katta ahamyatga ega:

- bolaning ijtimoyilashuviga ko'maklashadi. O'yinda improvizatsiya qilsa, timsollar, vaziyatlarni o'ylab topsa va shu tariqa atrof-olam haqida yanada ko'proq ma'lumotlarni olsa bo'ladi;



- ruhiy(psixik) jarayonlarni shakillantiriladi; xotira, diqqat, tasavvur, nutq va h.k.
- bolalarga quvonch bag'ishlaydi, turli hissiyat va kechinmalarni uyg'otadi, bolalar uchun atrofimizdagi voqelikni anglash va ijtimoiy aks ettirishning qiziq va qulay shakli hisoblanadi.
- ijtimoiy xulq-atvorning dastlabki ko'nikmalarini egallashga imkon beradi: boshqa bolalar bilan boshqa balalar bilan muloqatda bo'lisch, ular bilan turli munosabatlarga kirishish, umumiy o'yin rejalarini amalga oshrish uchun kelishish va birlashish, o'yidagi sheriklarining manfatlarini hisobga olish.
- Bolalarga jamiyatdagi o'z o'rinni tutishini va o'ziga bo'lgan ishonchsizligini kamaytirishga yordam berdi.

O'yinda bola shaxsning barcha qirralari ochiladi ruhiyatda yangi, yanada yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishga tayyorlaydigan sezilarli o'zagrishlar sodir bo'lishi. Bu bilan pixologlar maktabgacha yoshdagи bolalarning yetakchi faoliyati sifatida o'yinning ulkan tarbiyaviy imkonyatlari yuqoriligini aytishadi.

Men umid qilamanki, ushbu maqolada sizga har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishga asqotadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. J.G' Yoldoshev, S.A. Usmonov. "Pedagogik texnologiya asoslari". Toshkent-2004-y
2. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Toshkent- 2003- y.



O’ZBEK TILI DARSLARINI INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA O’QITISH SAMARADORLIGI

Rajabova Nilufar Qadamboyevna

Qarshi shahar 12- umumta’lim
maktabi davlat tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o’zbek tili darslarini tashkil etishda interfaol metodlarning samarasii haqida qisqacha fikr- mulohazalar keltirildi.

Kalit so’zlar: “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinama-zina”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor”, “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”.

Yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg’usini shakllantirishda, ularda milliy iftixor tuyg’usini tarkib toptirishda o’zbek tilining o’rni beqiyos. Darhaqiqat, ona tili-ma’naviyat belgisi, va bu ma’naviyatni targ’ib etishda o’zbek tili fani o’qituvchilarining o’rni beqiyos. Bugungi kunda har bir fan o’qituvchilari ilg’or tajriba, fan yutuqlari bilan quollangan bo’lishi kerak.

Ta’lim bosqichlarida o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini rivojlantirish masalasi ta’lim tizimimizda ilmiy nuqtai nazardan hozirgi kunda o’z yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ayniqsa, o’zbek tilini o’rganish jarayonida nutqiy barkamollikni ta’minlashning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish tobora ko’proq hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda.

O’zbek tilining o’quvchi nutqidagi ahamiyati beqiyos ekan, demak, uni ilmiy nuqtai nazardan o’rganish ham muhimdir. Hayotimizda sodir bo’layotgan buyuk o’zgarishlar, qudratli islohotlar jarayoni, uzlusiz ta’lim tizimidagi innovatsiyalarning shiddatli ravishda jadallahushi nutq o’strish, keng mushohada qilish qobiliyatini shakllantirish muammolarini vujudga keltirmoqda. O’qituvchi o’zbek tili mashg’ulotlarini shunday tashkil etmog’i lozimki, dars jarayonida bajariladigan topshiriqlarning 35-40 % ini yozma topshiriqlar, qolgan qismini og’zaki xarakterdagi topshiriqlar tashkil etmog’i lozim. O’quvchilar muayyan bir mavzuni turli shakllarda bera bilish, o’z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda ifodalay olish ko’nikmalarini egallash orqali ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi kerak. Demak, eshitish, anglash, mulohaza yuritish, kuzatish, izlanish, sharhish, qiyoslash, umumiylilik va farqlarni aniqlash, hukm (xulosa) chiqarish, aloqadorlikni aniqlash, nutqda qo’llash kabi eng muhim metodik usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

O’zbek tili darslarida o’quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo’naltirish juda muhimdir. Ta’lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo’llashga bo’lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday usul o’quvchilarni tayyor bilimlarni o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahvil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi. Bugungu kunda interfaol metodlarni 3-guruhg’i ajratishadi

Interfaol metodlar: Keys-stadi (yoki O’quv keyslari), Blitz-so’rov, modellashtirish, ijodiy ish, muammoli ta’lim va b.

Interfaol ta’lim strategiyalari: Aqliy hujum, Bumerang, Galereya, Zig-zag, Zinama-zina, Muzyorar, Rotastiya, Yumaloqlangan qor va bosh. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Interfaol grafik organayzerlar: Baliq skeleti, BBB, Konsteptual jadval, Venn diagrammasi, T-jadval, Insert, Klaster, Nima uchun?, Qanday? va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg’ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko’rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishslash ham ko’proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo’lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q. Yuqoridaq metod va texnologiyalardan o’rinli foydalana olish esa har bir o’qituvchining metodikasi va uslubiga



bog'liqdir

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunning o'qituvchi va o'quvchisiga talablar mezoni tamoman boshqachadir. U shunchaki savodi, bilimi va qobiliyati bilan ajralib turuvchi emas, balki ishbilarmon va tashkilotchi, ijodkor, o'z bilim va malakalarini hayotning murakkab sharoitlarida mohirona qo'llay oluvchi, yuksak madaniyatli bo'lmos'i lozim.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Adabiy ta'lim muammolari. B To'xliyev. F. f dok-ri, professor. 2012- yil
2. Interfaol ta'lim usullari. “Tafakkur bo'stoni” Toshkent-2012
3. Orzubekov I.A. “Pedagogik texnogiyalar” 2015-yil



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI SHAKLLANISHIDA
TARBIYANING O'RNI

Raximova Nasiba Sultannazarovna

Xorazm viloyati Urganch shahri
10-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqlada shakllanib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida mahallaning o'rni nechog'lik muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: an'ana, globallashuv, Mahalla-maktab-oila hamkorligi

Bugungi globallashuv jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, farzandlarni ma'naviy-axloqiy milliy madaniy, tarixiy an'analariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslanib, zamonaviy shaxsni shakllantirish ota-onalar, maktab, mahallalarning oldida turgan eng asosiy ma'suliyatli vazifalardan sanaladi. Mazkur vazifalar mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi zarur bo'lган masalalarni muhokama qilish va ularni oqilonala hal etishda faollilik ko'rsatish, oilaviy tarbiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Ota-onalarning yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga egaligi mustahkam oila va unda sog'lom, har tomonlama barkamol farzandlar voyaga yetishi kafolati hisoblanadi.

Aynan shu maqsadda, bugungi kunda mahallalar qoshidagi yoshlar va voyaga yetmaganlar bilan ishslash komissiyasi, ota-onalar va pedagog xodimlar bilan har oyda tuman ichki ishlar bo'limi xodimlari ishtirokida davra suhbatlari tashkil etilishi ham yaxshi samara berib kelmoqda. Bundan tashqari, komissiya a'zolari o'z vaqtı samarasiz o'tkazayotgan internet kafe va kompyuter o'yinxonalarida vaqt o'tkazib, dars qoldirayotgan o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlashishlari ham yaxshi samara berib kelmoqda. Mahalla guzarlarida bolalarning bo'sh vaqtlarini turli to'garaklar bilan band etish ham yaxshi samara beradi. Har bir mahalladan maktabdan so'ng bolalarvaqtini mazmunli o'tkizib foydali mashg'ulotlar bilan shug'llanishlari uchun sharoitlar yaratib berilmoxda. Bunda har bir bola nazoratda bo'lmoq'I uchun mahalla- maktab- oilaning hamkorligi yo'lga qo'yilgan. Bundan ko'zlangan maqsad esa bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkizish hamda samarali tashkil etishdir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, olib boriladigan mazkur tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad o'sib kelayotgan avlodni kamolga yetkazish, oila-mahalla-maktab hamkorligini ta'minlash va yanada kuchaytirishdan iborat.

Biz uchun eng kerakli bo'lган, kunimizning dolzarb muamosi – voyaga yetib kelayotgan yoshlar tarbiyasi. Ushbu jarayonda barcha birdek mas'uldir. Shu maqsadda, yuzaga kelayotgan va kelishi mumkin bo'lган turli mudhish voqeа hodisalarni oldini olish muhimdir. Buning uchun esa mahalla-maktab-oila hamkorligini samarali tashkil etish orqali biz yaxshi samaraga erisha olamiz. Misol uchun, Ta'lim maskani bilan mahalla fuqarolar yig'ini birgalikda bolaning vaqtini mazmunli tashkil etadigan turli xil tadbirlartashkil etishi hamda hamkorlikda tashkil etilgan to'garaklarga ham jalb etishi mumkin. Bunga albatta, ota onalarimizning qo'lاب quvvatlari orqaligina erishish mumkin bo'ladi

Mahalla-maktab-oila hamkorligida quyidagi tadbirlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari "Sog'lom avlod uchun", "Ota- onangga rahmat", "Odobingga balli", "Sog' tanda sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "Qizlar ibosi", "Bir yigitga qirq hunar ham oz", "O'g'lim posponim", "Hayot – ustoz, halq- muallim", "O'zbekiston Vatanim manim!", "Milliy burch va mas'uliyat", "Oila saboqlari", "Oila etikasi", "Oila tinch – mahalla tinch", "Mustaqil hayot bo'sag' asida", "Askarlik – yigitlik maktabi", "Oila baxti- Vatan baxti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatanostonadan boshlanadi", "Biz kimmiz" kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin. Agar shunday tadbirlar amalga oshirilsa, yosh avlod ongida milliy qadryatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, urf-odatlarga qiziqish, eng muhumi esa yurti uchun jonkuyar avlodni tarbiyalash imkoniz bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilari ongida axloqiy tarbiyani shakllantirishda hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Oilada, ta'lim-tarbiya maskanlarida ijobjiy muhit, qat'iy tartib, ayniqsa ta'lim-tarbiya jarayoni har jihatdan mukammal bo'lsa, unda kamol topayotgan avlodlar kelajagi ularning ota-onalari kutganidan ham nurafshon bo'lajak. Mustaqil Vatanimiz istiqboli



uchun esa ana shunday barkamol avlod albatta kerak. Biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy ongini o'stirib, o'z milliy g'ururlarimizni anglatib tarbiyalasak, albatta O'zbekistonning kelajagi buyuk davlat bo'ladi. Buyuk davlatni esa o'z vatanini sevadigan, yuksak madaniyatli, o'z millatidan g'ururlanadigan kishilarsiz tasavvur qilish qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang'ich ta'limning integrastiyalashgan 2. Pedagogika. TD'U, 2017.
3. J.G'. Yo'ldoshev. S.A.Usmonov “edagogik texnologiya asoslari”. –T.: O'qituvchi, 2004.
4. Ziyonet.uz
5. kitobxon.com



MULTIMEDIA VOSITALARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM
SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Rustamqulova Lobarxon Akramovna

Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani
19-umumi o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqlolada boshlang‘ich ta’lim darslarini samarali bo‘lishida multimedia vositalarining ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zları: multimedia vositalari, boshlang‘ich ta’lim, animatsiya, AKT.

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning asosi va poydevori hisoblanib bu jarayonda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalar qanchalik mustahkam bo‘lsa, yuqori sinflarda boshqa umumta’lim fanlarini o‘zlashtirishda o‘quvchi qiyinchilikka ko‘p duch kelmaydi. Bundan o‘n yillar avval, boshlang‘ich ta’limga o‘quvchi keyingi ta’lim olish uchun o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ta’lim bosqichi sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda munosabat ham talab ham butunlay o‘zgardi. Endi boshlang‘ich ta’lim kelgusidagi ta’lim olish kuchlarini sinash, bilim olishga bo‘lgan xohishning kuchli ishtiyoqqa va ehtiyojga aylanish bosqichidir.

Bugungi kunda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga va aynan yuqorida ta’kidlangan ta’lim ehtiyojini shakllantirishga xizmat qiluvchi vositalar ko‘pchilikni tashkil etib, ular orasida axborot kommunikatsion texnologiyalari o‘zining ko‘plab qulay jihatlari bilan muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayonida multimedia vositalari yordamida darslarning samaradorligini oshirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Hozirda amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida o‘quvchilarni o‘qitish ikki barobar samarali bo‘lmoqda. Mazkur vosita yordamida o‘qitishda an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan o‘rtacha 30 foizgacha vaqtini tejash mumkin hamda olingen bilimlar o‘quvchilar hotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Ma’lumki, eshitgan materialning to‘rtadan bir qismi hotirada qoladigan bo‘lsa, o‘quvchiga berilayotgan materiallarni video (ko‘rish) orqali amalga oshirsak, axborotni hotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 25-30 foizgacha oshadi.

1-sinf ona tili darslarining asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib ya’ni, o‘quvchilar nutqini so‘zlar bilan boyitishga mas’ulligini hisobga olgan holda lug‘at ustida ishlash, o‘quvchilarning savodxonligini oshirishga qaratilgan imloviy mashqlarni bajarishda multimedia vositalaridan unumli foydalanish ta’lim sifatini oshiradi.

1-sinf ona tili darslarida so‘zni tovushli-harfli tahlil qilish, so‘zning bo‘g‘inlari tuzilishi, ba’zi orfogrammalar o‘rganilishi turli qiziqarli ko‘rgazma va ovozli materiallar orqali amalga oshirilsa, o‘quvchining yodida qoladi va vizual hotira sabab uning ko‘z oldidan o‘tib turadi, darsdan keyingi jarayonda ham takrorlab yurishiga yordam beradi. Yorqin rasmlar, g‘aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagи o‘quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o‘yin shaklida o‘quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o‘zini nazorat qilish va o‘quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlardan taqdim etadi. Birinchi sinfda ona tilini o‘qitish o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, fonetika, leksika, so‘z yasalishi va grammatikaga oid bilimlarni egallashga zamin yaratadi. Biroq, endigma o‘yin qaroq bolalikdan mas’uliyatlari o‘quvchilik davriga o‘tish, muhit o‘zgarishi bilan bog‘liq ruhiy qiyinchiliklar davrida yozish va o‘qish malakalarining talab darajasida birdek shakllantirish ham o‘quvchidan, ham o‘qituvchidan katta mehnat talab etishi tabiiy. O‘quvchi uchun mashaqqatli bu jarayonni qiziqarli va yoqimli mashg‘ulotga aylantirishda multimedia vositalaridan fodalanish katta samara beradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Boshlang‘ich ta’limda 1-4-sinflar uchun yaratilgan multimedia ilovalar pedagoglar uchun juda katta imkoniyat eshiklarini ochdi. Multimedia ilovalarda berilgan animatsiya, multfilm, test topshiriqlari, mantiqiy topshiriqlari, video materiallar, didaktik



o‘yinlar, lug‘at ishi, dam olish daqiqasi uchun mo‘ljallangan materiallar, qo‘shiqlar o‘quvchilarga nafaqat puxta bilim beribgina qolmay, ularda mustaqil fikrlash va mustaqil ishlash malakasini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Aripov M., Ahmedov A., Ikromova H va boshq. Axborot texnologiyalari: O‘quv qo‘ll. – T.: 2003
2. G‘afforova. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar. – T.: 2016



BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Saropova Bakposhsha Bekturdiyevna

Xorazm viloyati Urganch shahri
10-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boslang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqqolada umumiyo'rta ta'limning boslang'ich sinflarida ona tili darslarini tashkil etishning samaralai usullaridan foydalanish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: ona tili, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunini “Klaster” usuli, PRILS,

Boslang'ich ta'lim O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunini hayotga tadbiq qilishda asosiy o'rinni egallaydi. Binobarin, boslang'ich ta'limda ona tili o'qitish muhim sanaladi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish) — bu turli mamlakatlarda boslang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5 yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, uning oxirgi 2016-yilgi tadqiqotlari natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi yetakchilik qilmoqda.

Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo'ylab ta'limni baholash, tushunish va yaxshilash bo'yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkoridir. Mazkur notijorat va mustaqil tashkilot tarmog'ida 60 dan ziyod mamlakatlar hamda 100 dan ortiq ta'lim muassasalari ishtirok etmoqda. 1958-yildan buyon IEA o'quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o'qish salohiyati bo'yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi.

XXI asr – informatsion texnologiyalar asri. Bu asr o'z mutaxassislaridan umuman oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalarni talab qiladi. XX asrda va undan oldin kuchli xotira, ensiklopedik bilim, o'z sohasida iloji boricha ko'proq ma'lumotni bilgan mutaxassislar yuqori qadrlangan bo'lsa, endi bu bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmay qoldi. Qidiruv tizimlari, onlayn ensiklopedialar, sohalar bo'yicha mukammal onlayn ma'lumotlar bazalari yaratildiki, endi bu ma'lumotlarni eslab qolish zaruriyati ikkinchi planga tushib qoldi.

Hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma'lumotlarni hosil qila olish, xalq tili bilan aytganda “kosa tagidagi nimkosa”ni ko'ra olish kompetensiyasi birinchi o'ringa ko'tarilayapti.

PISA testlari xuddi shu o'zgarishlarni ta'lim tizimida aks ettirish, maktab o'quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarini tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotganini, ta'lim tizimining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

“Klaster”so'zi bog'lam ma'nosini bildiradi. Klasterlardan darsning da'vat, anglash va fikrlar bosqichlarida foydalanish mumkin. Bu metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar tog'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilma. Bu metod mavzuning o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. “Klaster” metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda ishslash va guruuh-guruuh bo'lib ishslashda foydalanish mumkin. Tarmoqlar metodi (Klaster) texnologiyasi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, umumiyo'rta fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan. Biron-bir mavzuni chuqur o'rganishdan oldin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi. Dars tahminan quyidagicha tashkil etilishi maqsadiga muvofiq.

1. Katta o'lchamdagi qog'oz yoki doskaning o'rtasiga mavzuga doir so'z yoziladi. 2.O'quvchilar ushbu so'z bilan bog'liq hayolga kelgan so'z va jumlalarni uni atrofiga yoza boshlaydilar.

3. Yangi g'oyala paydo bo'lishi bilan hayolga kelgan so'zlar ham darhol yozib qo'yiladi

4. So'zlarni yozish jarayoni o'qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so'z va g'oyalar tugaguncha davom etadi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamонавиy metodlari keng qo'llanilmoqda.



O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Albatta, bu o'rinda o'qituvchining pedagogik mahorati ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov U. Pedagogik texnologiyalar T. 2005
2. Eshmuratov M. Innovatsion texnologiyalar. T.2011 16. Abdukarimov
3. H.,O.Suvonov. Umumiy pedagogika: texnologiya va amaliyot. – T.: o'quv metodik qo'llanma.2012
4. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish
5. <https://fayllar.org/boshlangich-sinf-oqish-darsini-yangi-pedagogik-texnologiyalar.html>



TA’LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIYA FANINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Sobirov Mansur Oqnazar o‘g‘li

Xorazm viloyati Urganch tumani
20-sonli umumiy o‘rtalim maktabi

Texnologiya fani o‘qituvchisi

Raximova Shirinoy Hamid qizi

Xorazm viloyati Urganch tumani
42-sonli umumiy o‘rtalim maktabi

Texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada ta’lim tizimida texnologiya fanini rivojlantirishning nazariy masalalari xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlari: texnologiya, mehnat ta’lim, kompetensiya, DTS.

2017-yil umumiy o‘rtalim muassasalarining yangi – kompetensiyaviy, yondashuvga asoslangan Davlat ta’lim standarti tasdiqlangach, o‘quv rejalariga o‘zgartirishlar kiritildi, ayrim fanlarning mazmun-mohiyatiga innovatsion yondashildi va nomlari o‘zgartirildi. Shunday fanlardan biri “Mehnat ta’limi” bo‘lib, amalda unga “Texnologiya” deb nom berildi.

O‘z o‘rnida bu fan takomillashib, maqsad va vazifalari aniq belgilandi. Xususan, o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirish uning maqsadi bo‘lsa, asosiy vazifalari etib materiallar va ularning xossalari quyidagilar belgilab olingan:

- xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma’lumotlarni o‘rganish;
- texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;
- buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholash;
- texnologik jarayonlarni boshqara olish hamda maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo‘llay olish;
- texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qilish;
- ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirish belgilandi.

Uumumiyl o‘rtalim o‘quvchilari texnologiya darslarida matab ustaxonasida turli materiallardan buyum yasashni rejalashtirish, loyihalash va yasash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish borasidagi bilim va ko‘nikmalarni egallashi kerak.

Ta’lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuv joriy etilgach, texnologiya fanida ham quyidagi kompetensiyalar, ya’ni malaka talablari belgilandi:

1. Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi.

2. Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiya.

3. To‘g‘ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi.

Texnologiya fani – o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo‘lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda ma’lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zaruriy amaliy ko‘nikma va malakalarini egallashlariga imkon beruvchi o‘quv fanidir. O‘quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida kasb-hunarga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, yog‘ochga, metallga va gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik asoslari, qishloq xo‘jalik asoslari, badiiy mehnat texnologiyasi va mashina elementlari yo‘nalishlari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlari ko‘zda tutilgan.

Umumiyl o‘rtalim maktablarida tashkil etiladigan mehnat ta’limi mashg‘ulotlari o‘quvchilarning mehnatsevarlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda yetakchi o‘rin egallaydi. Mehnat ta’limi mazmuni, mohiyati va vazifalariga ko‘ra ko‘pgina ilmiy, tabiiy, ijtimoiy-



iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, uyg‘unlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tatbiq etishni ko‘zda tutadi. Shu jihatdan olib qaraganda, mehnat ta’limi maktab tizimi umumta’lim fanlaridan o‘rganiladigan nazariy bilimlarni amaliyotda, ishlab chiqarish bilan bog‘laydigan quvvatli didaktik vositadir. Texnologiya fanining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi an’anaviy sinf-dars mashg‘ulotlariga nisbatan shogird-ustoz tizimi tarbiyaviy mahsuldarligi, samaradorligi, bo‘lg‘usi hunarmandning shaxsiy xislatlarni shakllanishida, ularning oilalarini moddiy ta’milanishida hamda tarixiy qadriyatlarning yanada boyishida ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. “Ustoz-shogird” tizimi mashg‘ulotlarining tashkil etilishini oliy o‘quv yurtlaridagi musiqa ta’limida talabalar bilan o‘qituvchilarning yakka tartibdagi mashg‘ulotlarini o‘tkazish bilan taqqoslash mumkin.

Texnologiyadarslarida elektronhisoblashtexnikasi, elektralashtirilgan vamexanizatsiyalashtirilgan qurilmalar va avtomatikaning qo‘llanilishini o‘rganish o‘quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi avtomatik va dasturli boshqarish tizimlari, robot texnika va ishlab chiqarish texnikasining, texnologiyasini ta’limming davr talablari darajasi va jahon andozasiga mos holda o‘rganilishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Texnologiya fanini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar xalqimiz yashash tarzini, an’analarni tiklash va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining, milliy qadriyatlari, tarixiy yodgorliklari, xalq ustalarining ko‘p qirrali boy merosini o‘rganish, o‘zlashtirish va amaliy faoliyatlarda qo‘llash vazifasini hal etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nurova I.D. Mehnat ta’limi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. – T.: 2014.
2. Bekmurodova S. Texnologiya fanini o‘qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo‘llanma. – T.: 2017



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PISA XALQARO BAHOLASH DASTURINING AHAMIYATI

Tadjibayeva Kamola Shermaxamatovna

Chirchiq davlat Pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini oshirishda Xalqaro baholash dasturlarning o‘rni xususan PISA xalqaro baholash dasturining ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlari: boshlang‘ich ta’lim, xalqaro baholash dasturi, PISA, PIRLS, TIMSS.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida, davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta’lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko‘rish masalasini alohida ta’kidlab o‘tdi. Ma’lumki, o‘zgarishlar davrida ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta’lim orqali jamiyatda kelajakdagи vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllantiriladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchilarning har tomonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan 997-sonli “*Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi*” qarori, ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi bunga ilk qadam bo‘lib hisoblanadi.

Xalqaro baholash dasturlari boshlang‘ich sinflardan boshlab amaliyotga joriy etilmoqda. Boshlang‘ich sinflarda xalqaro baholash dasturlarining PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA va EGRA kabi turlaridan foydalaniлади.

PISA-o‘quvchilarning o‘qishdagi yutuqlarnini Xalqaro dasturlar bo‘yicha (o‘quvchilarning matematik savodxonligi, o‘qish va tabiatshunoslik sohasidagi savodxonligini) baholash hisoblanadi.

Xalqaro PISA tadqiqotining maqsadi o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha hamda o‘qish savodxonligini baholashdan iboratdir. Tadqiqot maktab o‘quv dasturlarini ishlab chiqish darajasini belgilashga emas, balki o‘quvchilar hayot sharoitida o‘qitish jarayonida olingan bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash qobiliyatini baholashga qaratilgan.

PISA testlarini tuzish va ular bilan ishlash bo‘yicha o‘qituvchilarda ko‘nikma hosil qilish bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. PISA dasturining asosiy yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: *O‘qish savodxonligi, Matematik savodxonlik, Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi va Kompyuter savodxonligi*.

Bu yerda, o‘qish savodxonligi tushunchasi keng ma’no kasb etadi. Bu yo‘nalish maqsadi o‘quvchining berilgan badiiy asardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo‘llanmalar, geografik kartalar kabi rangba-rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo‘ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar, grafik va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o‘qiganlari haqida o‘z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi.

Shu jihatdan olib qarasak, boshlang‘ich sinflarda hikoya sujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o‘rganish bo‘yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o‘quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi. O‘qish kitoblarida hikoya janri sinfdansinfga o‘tilgani sayin oshib borishi, mavzu mundarijasi kengaya borgani ayonlashadi. Ixchamlik hikoyaning muhim belgisi, lekin unda personaj hayotidan birgina lavha, uzoq davrlik voqealar, personajlarning butun umr yo‘li, bir emas, bir necha odamlar taqdiri, xarakterning shakllanish jarayoni, ruhiy holatlarning almashinib turishi, muhim fazilat bo‘lib qolishi mumkin. Biroq har qanday ko‘rinishda ham tasvir siqiq tarzda beriladi. Jumladan, M.Murodovning “Olma”, O’tkir Hoshimovning “Xazonchinak”, “Chana”, E.Malikovning “Unitilmas bayram”, Z.Ibrohimovning



“Hisobda adashgan bola”, “Qorboboga elektron maktub”, M. Osimning “Jaloliddin Manguberdi”, U.Hamdamning “Ko‘prik ustidagi do‘st”, “Vatan haqida qo‘sish”, H. Murodovning “Oq tumshuq jasorati” kabi hikoyalar esa aynan o‘quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga asos bo‘la olishi bilan e’tiborli. O‘quvchilar ushbu hikoyalarni tahlilini mustaqil bajarishlari uchun ularni mantiqiy mushohadaga yetaklovchi suratlar, mantiqiy savollar, loyiha ishlari taqdim etilishi maqsadga muvofiq.

O‘quvchilarni xalqaro PISA baholashning asl mohiyati ham aslida bolalarda tafakkur uyg‘oqligi, ularni ixtirochi, ijodkorlikka o‘rgatish desak yanglishmaymiz. Umuman, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida badiiy ijod namunalaring faqat yod olish, mazmunini so‘rash bilan cheklanmasdan, ularni anglash va his qilish, shu asosda o‘z munosabatini, mantiqiy xulosalarini rasm chizish, she‘r yozish, esse, ijodiy ish, kichik loyiha ishlarida aks ettirishga, badiiy talqin etilgan voqeа, muammoni hal etish rejasini aniq dalillarda ishlab chiqilsa o‘quvchi tafakkuri teranlashadi. Mantiqiy mushohada orta borgani sari darslarning rang-barang ko‘rinishlari ham yuzaga keladi. Natijada, o‘quvchilar har bir hikoya yoki she‘rni o‘zлari uchun bir tadqiqot ishlidek qabul qiladilar. Boshlang‘ich sinf O‘qish darslarida PISA dasturidan foydalanish o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshiradi, ularda o‘qib tushunish malakasi rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shni aytishimiz mumkinki, ta’limda bo‘layotgan o‘zgarishlar, rivojlanishlar barchani quvontiradi. Dasturlarning yo‘lga qo‘yilishi, xalqaro baholash tizimining targ‘ib qilinishi ham qadamimizni ildamroq bosishimizga turtki bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror. 2018-yil 997-sonli qarori
2. Ismoilov A., Norboyeva D., Kucharova K., Qosimova Z., Aminova N. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining savodxonligini baholash. – T.: 2019
3. Panjiyev A B va boshqa. O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. – T.: 2019



A MODERN STRATEGY IN TEACHING VOCABULARY TO STUDENTS OF LANGUAGE UNIVERSITIES

Tuychieva Aziza Rustam qizi

Student of master's degree,
Uzbek State World Languages University

Abstract: The article is devoted to the problem of finding the optimal ways of developing lexical competence among future teachers of a foreign language while using the involuntary factor in the context of modern language education at a pedagogical university. As well as it is focused on searching modern strategies in teaching vocabulary to students of language universities

Key words: foreign language, vocabulary, culture, knowledge.

In a modern multicultural information society, knowledge of a foreign language is becoming one of the mandatory requirements for professional mobility, career growth and social security of a specialist. In these conditions, readiness for foreign language intercultural communication acquires special relevance.

In this regard, great responsibility is assigned to the sphere of pedagogical education, where, in the context of the transition to new educational standards, a program for training an innovative-type foreign language teacher should be implemented, designed to ensure the formation of humanistic values and attitudes towards cooperation and co-creation with students, as well as self-realization in pedagogical activities. A modern teacher needs to freely carry out foreign language intercultural communication, effectively teach it to his students, to form their readiness to carry out a dialogue of cultures, in a word, to have highly developed professional competence, one of the key components of which is foreign language communicative competence.

Meanwhile, the analysis of teaching practice in a language pedagogical university indicates that the level of development of students' communicative competence remains rather low, with a relatively high level of theoretical language training. Observations of the educational process allow us to assert that the lexical side of the language presents the greatest difficulties for students at the initial stage of education. Teachers note the “poverty” of the vocabulary of students, their inability to fully and accurately express their thoughts in the target language, which allows us to talk about the problem of the inconsistency of the vocabulary of freshmen with the volume and content of their speech needs.

The successful professional activity of a foreign language teacher presupposes possession of a qualitatively and, which is no less important, quantitatively different, in comparison with the requirements of existing programs of pedagogical universities, the volume of lexical material and free operation of it in speech, therefore, the volume of the lexical stock of students of this specialty should become a subject of particular importance when preparing them.

Solid foundations of lexical competence must be laid already at the initial stage of training, since the first course is a transitional one to mastering professional knowledge and provides an opportunity for successful assimilation of the educational program in the future. It is also important to take into account the fact that the large-scale introduction of a two-stage vocational training system within the framework of the Bologna Agreement has led to a reduction in the duration of study and the number of academic hours (bachelor's degree) allocated to a foreign language, which necessitates early specialization and intensification of the educational process in higher education.

Most of the research being conducted focuses teachers on actively using the resources of students' arbitrary memory, i.e. responsibility for assimilation rests with the student himself. At the same time, underestimating the role of involuntary processes leads to the transformation of vocabulary acquisition into mechanical ones, requiring large time and physical costs on the part of students. Therefore, in our study, we rely on the factor of involuntary assimilation as an opportunity to reduce mnemonic stress by increasing the perceptual, mental and communicative activity of students, which, with sufficient repetition of the lexical material, leads to its assimilation during the classroom lesson under the control of the teacher.

The lack of effective methods of teaching vocabulary, taking into account the characteristics of the future profession of students and using the mechanisms of involuntary acquisition of vocabulary, acts, in our opinion, as one of the reasons for the unsatisfactory level of formation of



the foreign language communicative competence of students and thereby determines the relevance of this study.

In order to ensure the high efficiency of the development of students' lexical competence, we have identified the main provisions for managing this process, among which a special role is assigned to the developed private methodological principles (the indissoluble unity of extracurricular and classroom work with an extended volume of lexical material with the dominance of the latter; professionalization of the vocabulary learning process; integration of some forms social services Internet). The formulated principles for the development of lexical competence are embodied in a special complex of lexical communication exercises with linguistic, socio-cultural, professionally oriented and cognitive-search dominants and levels of speech control (hard, partial and minimal control). The sequence of exercises corresponds to the stages of development of lexical competence and provides an increase in language difficulties and constant activation of the studied material together with the lexical material of the previous thematic blocks in order to assimilate it more firmly. In the developed program for the development of students' lexical competence, we attach particular importance to the accounting and management of the current psycho-emotional state of students during classroom lessons.

To develop the lexical competence of students, a complex of significant conditions in the organization of the educational process and educational material was compiled, affecting the productivity of his involuntary memorization.

References:

1. Vygotsky L.S. Selected Psychological Research. Thinking and speaking. Text. / Problems of psychological research of a child / Ed. A.N. Leontiev and A.R. Luria. / L.S. Vygotsky. -M.: Publishing house of the APN RSFSR, 1956.-519 p.
2. Gunnemark E.V. The art of learning languages. Text. / E.V. Gunnemark-SPb .: Tesa, 2001.-106 p.



TA’LIMDA ILG‘OR TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Vaydullayeva Shaxzoda Anvarovna

Toshkent shahar Yangi hayot tumani
331- maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
+998-90-168-32-22

Annotatsiya: Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar: interfaol metod, ta’lim amaliyoti, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlar, pedagogik texnologiyalar.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagи ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlesh asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrleshga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda – ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrleshga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag’batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
- ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrleshini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri yechimini topishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.



Yuqorida aytilganlardan interfaol ta’lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma’lum bo‘ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiyl mulohazalarni keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlari quyidagilar sanaladi:

Interfaol metodlar: “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”), “Blist-so‘rov”, “Modellashtirish”, “Ijodiy ish”, “Muammoli ta’lim” va b.

Interfaol ta’lim strategiyalari.“Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Galereya”, “Zig-zag”, “Zinamazinga”, “Muzyorar”, “Rotastiya”, “Yumaloqlangan qor” va k. Interfaol ta’lim metodlari tarkibidan interfaol ta’lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma’lum ma’noda strategikyondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Interfaol grafik organayzerlar: “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konsteptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va b. Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg’ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko‘rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishslash ham ko‘proq jihatdan interfaol ta’lim metodlariga tegishli bo‘lib, ularning orasida boshqa farqlar yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Xoliqov. Pedagogik Mahorat T-2011
2. Ishmuhammedov M, Yo’ldashev Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T-1998
3. ziyonet.uz
4. eduportal.uz



BOSHLANG'ICH SINFLARDA GEOMETRIK MAZMUNLI MASALALAR USTIDA ISHLASH TEKNOLOGIYASI

Xudayberganova Sanabar Begimovna,
Iskandarova Xolisxon Beknazarovna
Xorazm viloyati Ufganch tumanidagi
7 son maktabning boshlang'ich ta'lif fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, kichik mакtab yoshidagi bolalarga geometrik materialni o'ргатишнинг асосиј мақсади геометрик фигурулар ва уларниң элементлари хақида, фигурулар ва уларниң элементлари орасидаги муносабатлари хақида, уларниң ба'зи хоссалари хақида тасаввурларни таркиб тоғтиришдан иборат.

Kalit so'zlar: геометрик шакллар, нуқта, то'г'ри чизиқ кесмаси, синиқ чизиқ, ко'пбүрчаклар.

Boshlang'ich ta'lif jarayoni bolalarning мантиқиј тафаккур qila олиш салохијати, ақлиј ривожланиси, дуюқараши, коммуникатив саводхонлиги ва о'з-о'зини anglash салохијатини шакллантришга, жисмонан sog'lom bo'lishga, моддиј борлиқ go'zalliklарини his eta олишга, go'zallik ва нафосатдан zavqlana олиш, миллий урф-одатларни o'ziga singdirish ва ardoqlash, уларга риоя qilishga o'ргатади. Bolalar мантиқиј fikrlash qobiliyatларини шакллантриш масаласи билан уларда to'g'ri, aniq, qisqa математик nutqni o'stirish масаласи узвиј ravishda bog'langандир. Bu boshlang'ich ta'lifning muhim vazifalaridan biridir. Matematika bilan shug'ul-lanish faqat xotira va тафаккурни шакллантрибгина qolmay, тафаккур intizomini aniq tashkil etishni, fikrning bir joyga to'planishini, anqliкни talab qiladi.

Matematikaning boshlang'ich ta'lidiаги o'zgarishлари umuman olganda kichik yoshдаги o'quvchilarning геометрик билимлари chuqurligi ва darajasining o'sganligi ko'rsatadi. Biroq, boshlang'ich sinflarda ishlash тајрибаси ko'rsatdiki, umumiy amaliyotda геометрик билим, malaka ва o'quvchilarda tipik xatolar uchrab turadi. Lekin бuning amalga oshrish uchun o'qituvchi kun talabiga binoan har bir darsga avval yaxshi tayyorlangan bo'lishi kerak. Bundan tashqari геометрияга муносаб ko'plab laboratoriya mashg'ulotларини o'tishi lozim.

Boshlang'ich matematika dasturida геометрик material katta o'rinni oladi. Геометрик materialni o'рганишнинг асосиј мақсади геометрик фигурулар (нуқта, то'г'ри ва egri чизиқ, то'г'ри чизиқ кесмаси, синиқ чизиқ, ко'пбүрчак, айлана ва doira) хақида уларниң элементлари хақида, фигурулар ва уларниң элементлари орасидаги муносабатлари хақида, уларниң ба'зи хоссалари хақида тасаввурларни to'la тизимини таркиб тоғтиришдан иборат. Геометрик фигурулар хақида fazoviј тасаввурлар, геометрик фигуруларни chizmachilik ва o'lhash asbobлари yordamida ва bu asbobлarning yordamisiz o'lhash ва yasashlarning amaliy malakalarini (ko'zda chamalash, qo'lда chizish ва hokazo) таркиб тоғтирилади.

O'quvchilarda геометрик тасаввурларни таркиб тоғтириш, уларни chizish ва o'lhash malakalarini bilan qurollantirish, ular тафаккурини rivojlantirishdan иборат. Bunda laboratoriya ва amaliy ishlар геометрик materialni o'рганишнинг effektidir. Laboratoriya ishlари ва amaliy ishlар o'quvchilarning геометрик фигуруларни мөhiyatini o'zlashtirishларida ijobji та'sir ko'rsatadi.

Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarda nuқta, to'g'ri чизиқ va egri чизиқ, to'g'ri чизиқ кесмаси хақида aniq тасаввурларни таркиб тоғтириш kerak. Shuni aytmoqchimanki, "nuқta", "to'g'ri чизиқ" tushunchalari hozirgi kunda o'qitilayotgan maktab гeometriya kursining асосиј tushunchalaridir. Shu sababli "nuқta deb nimaga aytildi?", "to'g'ri чизиқ deb nimaga aytildi?" degan savollar ma'noga ega bo'lmay qoladi.



Ma'lumki, bolalarda geometrik tasavvurlarni shakllantirishga muhim ta'siri o'quvchilarning geometrik tasavvur shakllanishiga amaliy mashg'ulotlar muhim ta'sir ko'rata di. Mavzuni tushintirish jarayonida narsalarning “kerakli” belgi va xossalari bolalar diqqatini jalb etishimiz kerak. Bundan tashqari o'quvchilar geometrik figura haqida to'g'ri tasavvur hosil qilishi uchun ular figuralar xossalari va ularning muhim belgilarni ajratib olishga o'rganishlari kerak bo'ladi. Bunday faoliyat asosida esa figurani tahlil qilish uquvi yotadi. Dastlab eng sodda geometrik figuralar haqida gapirishlari kerak. Ularning turli fazoviy ko'rinishi, maketlari, modullarini tanishtirish hamda bularga o'xshash buyumlarni topish topshirig'ini berish zarur. Lekin geometrik terminni kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga to'g'ri aytmaslik va uni yengilrog'i bilan almashtirish noto'g'ri. Masalan “burchakning uchi” termini o'rniga “burchakning o'tkirligi. M.Pishkalo o'z davrida to'g'ri aytgan ediki, masalani bunday qo'yish (terminlarni yengilrog'iga almashtirish) xato geometrik tasavvurlar hosil bo'lishiga olib keladi, bolalarning umumiyo rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Geometrik tushunchalarni kiritishda terminlardan noto'g'ri foydalanish shunga olib keladiki, o'quvchilar ongida noto'g'ri tasavvurlar hosil bo'lishligi mumkin. Geometrik tushunchlarni o'rgatishda, matematik diktant usuli ham ma'qul keladi.

Xulosa qilib aytamizki, boshlang'ich sinflarda geometrik bilim berishda o'quvchilarning tasavvuri kengayadi, matematika o'zlashtirishga bo'lган ehtiyoji qondiriladi va pedagogik-psixologik hususiyatlari geometrik tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida mustahkamlanadi. Fazoviy shakllar haqida tasavvurlar hosil qilish va ularda boshlang'ich sinflarda geometriya elementlarini o'rganishda foydalanish geometrik tushunchalar mazmunini o'zlashtirishga imkon beradi, atrof muhitni butun rang-barangligi bilan xis qilishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. N.U.Bikbaeva va boshqalar. “Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi” Toshkent “O'qituvchi” 1996 yil.
2. WWW.GOOGL.E.UZ



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BILIMLARINI
MUSTAHKAMLASHDA ELEKTRON DASTURLARNING AHAMIYATI

Sherjanova Gularam Sa’dullayevna
Yaqubova Meremjan Yazmedovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
42-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimlarini mustahkamlashda zamonaviy innovatsion axborot-texnologiyalari hamda elektron dasturlarining ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so‘zлari: kompyuter texnologiyalari, elektron dastur, “Sanashni o‘rganamiz”, “Alifbo saboqlari”, “Aljabr”, “Sayohat”, “Ertak” “Kelishiklar”.

Bugungi kunda Respublikamizda qobiliyatli, iste’dodli, o‘z-o‘zini to‘liq angagan, vatanzarvarlik, fidoiylik his-tuyg‘ulari shakllangan yoshlarni tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyoj xalq ta’limi tizimi oldida yangi vazifalarni hal qilish masalasini qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori har bir pedagog uchun har jihatdan taalluqli bo‘lib, oldimizga yangi vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalardan biri axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan foydalanib dars o‘tishda mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga erishish hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarning jadal taraqqiy etib, ta’lim sohasiga ham jadal kirib kelishi, uning hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo‘lib borayotgani bu boradagi bilim va malakalarimizni ham mos ravishda shakllantirishni taqozo etadi.

Shuning uchun, boshlang‘ich sinflarda yaratilgan elektron darsliklar, multimedialardan foydalanib dars o‘tish tavsiya qilinmoqda.

1-4-sinf o‘quvchilari uchun 7 nomdag‘i yaratilgan multimedialar o‘qish, ona tili, matematika va tabiatshunoslik kabi fanlarni o‘qitishda biz o‘qituvchilar uchun ko‘makchi bo‘lmoqda. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun “Sanashni o‘rganamiz”, “Alifbo saboqlari”, “Aljabr”, “5x5”, “Sayohat”, “Ertak” “Kelishiklar” kabi elektron dasturlar ham ishlab chiqilgan bo‘lib, ular o‘zining qiziqarliligi, o‘quvchilar yoshiga mosligi, foydalanish uchun soddaligi, mantiqiy mushohada yuritishga chorlashi bilan ahamiyatlidir.

“Sanashni o‘rganamiz” – boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matematika fanidan elektron o‘quv vositasi. Mazkur elektron dars ishlanma orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilari 4 amalni bajarish ko‘nikmasini hosil qiladilar. “Alifbo saboqlari” - 1-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Alifbeni o‘rgatuvchi dastur hisoblanadi. Dasturning afzallik tomoni shundaki, o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishga yordam beradi. Shuningdek, harflar o‘rganilgandan so‘ng, mustahkamlash maqsadida rasm beriladi. Berilgan katakchaga rasmdagi narsaning nomini qo‘yib yozish topshiriladi. Shu yerda o‘quvchining kompyuter orqali yozuv malakalari shakllantirilib boriladi. “Kelishiklar”- Ona tili darslari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 4-sinf o‘quvchilariga kelishiklar, kelishiklarning qanday qo‘shimchalarni olishi, ularni qo‘llash yo‘llari o‘rgatiladi. Dastur o‘qituvchining o‘zi uchun ham eng yaqin yordamchi - metodik qo‘llanma vazifasini o‘taydi. “Aljabr”-1-sinf matematika darslarida foydalanish uchun mo‘ljallangan. Bu dastur orqali o‘quvchilar 10 ichida raqamlashni, sonlarni to‘g‘ri va teskari tartiblashni, qo‘shish va ayirish amallarini bajarishni o‘rganadilar. “5x5” – 2- sinf matematika darslarida foydalanish uchun mo‘ljallangan. Bu dastur orqali o‘quvchilar karra jadvalini o‘rganadilar. Takrorlash qismida 2 dan boshlab 9 gacha bo‘lgan sonlarning karra jadvali o‘rgatiladi. Imtiyon qismida esa o‘quvchi karra jadvaldan imtiyon topshiradi. Bu dasturning ijobiy tomoni shundaki, bitta xonadagi amalni bajarmay ikkinchisiga o‘tib bo‘lmaydi. Bu esa o‘quvchidan karra jadvalni puxta o‘zlashtirishni talab qiladi. Natijada, o‘quvchi karra jadvalni avtomatik darajada o‘zlashtiradi. “Sayohat”- 1-4-sinf o‘quvchilariga matematika fanidan to‘rtta amalda ham bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu dastur orqali o‘quvchilar 10, 20, 50, 100 ichida qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish amallarini bajarishni o‘ganadilar. Dasturning bir yaxshi tarafni shuki, marraga birinchi yetib kelgan



o‘quvchi uchun multfilm qo‘yib beriladi. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchiga katta yordam beradi. O‘quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar shaklida berilishi o‘tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Axborot kommunikatsion texnologiyalarni dars jarayonida qo‘llash natijasida o‘quvchilar mavzuni tez va oson o‘zlashtiradi, fanni o‘rganishga qiziqishi oshadi, olgan bilimlarini to‘laqonli o‘zlashtirib, hayotda qo‘llay oladi va muammolarga tezkor yechim topadilar. Talab doirasida to‘g‘ri ishlab chiqilgan mavjud axborot manbalaridan foydalana oladi. Eng asosiysi, mustaqil fikrlovchi yoshlarni bugungi zamonga mos ta’lim berib, tarbiyalashga erishish mumkin. Talab darajasida to‘g‘ri ishlab chiqilgan multimedia materiallari matnli axborotga qaraganda birmuncha ilg‘or usul bo‘lib, o‘quvchilarda aniq va samarali tasavvur shakllanishiga yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining multimediali o‘quv qo‘llanmalaridan foydalaniб dars o‘tish texnologiyasi afzalliklari quyidagilardan ibotat: Muqobil istiqbollar, faol ishtirok, tezkor ta’lim olish, bilimlarni xotirada saqlash va qo‘llay olish, muammolarni yechish va qaror qabul qilish ko‘nikmalar, tizimli ravishda tushuna borish, yuqori darajadagi tafakkur, mustaqillik va e’tiborlilik, axborotlar ketma- ketligi va tezligini boshqarish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o‘qituvchining ijodkor bo‘lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olish, fan yutuqlarini o‘quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o‘quvchilarni ham ijobjiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o‘rgata olishini talab qiladi. Bu ishda esa axbotot kommunikatsion texnologiyalar o‘qituvchiga eng yaqin ko‘makchi, yordamchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida” gi Farmoni.
2. Abdullayeva X.A. Mashg‘ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish. – T. 2015
3. Barakayev M. Ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari. Metodik qo‘llanma.



DARSLARNI TASHKIL ETISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Yuldasheva Manzura Mirzanazarovna

Namangan viloyati Namangan tumani
21-umumi o'rta ta'lif maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda darslarni samarali tashkil etishda didaktik o'yinlardan foydalanish texnologiyasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yin, syujetli-rolli o'yinlar, “Zumrad va Qimmat”, “mehnatkash”, “erka”, “o'gay ona”, “o'rmon”, “sehrgar kampir”, “Ochil dasturxon”

Didaktik o'yinlar asosida tashkil etiladigan darslar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadini hal qilishga qaratilganligi, ta'lif amaliyotidagi muhim muammolarni yechishga yo'naltirilganligi, tarbiyalanuvchini ham aqlan, ham jisman, ham ruhan toliqishdan asrashga intilganligi bilan ahamiyatlidir. Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning o'z ma'naviy kamolotlarini ta'minlashda bevosita ishtirok etishlari, ijodiy fikrlashi, mustaqil tarzda bilim egallash ko'nikmalarini shakllantirish va uni rivojlantirishlari, mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llay bilishlarida syujetli-rolli o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf darslarida didaktik o'yinlardan foydalanilganda darsning maqsadi, vazifalari, borishi, mantiqiy ketma-ketligi, o'quvchilar bajarishi lozim bo'lган topshiriqlar tizimini aniq rejalashtirib olish talab qilinadi. Didaktik o'yin davomida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan o'quv-biluv xarakteridagi topshiriqlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish yo'llarini aniq bilish va oldindan loyihalashtirishni taqozo etadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni didaktik o'yinning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish, o'yin taqozo etadigan vazifalami to'g'ri taqsimlash,

har bir o'quvchiga tegishli aniq yo'llanmalar, ko'rsatmalar berish o'yinning samarali natija berishini ta'minlaydi. Didaktik o'yin asosiga qurilgan o'quv-biluv xarakteridagi muammolami hal etishda o'quvchilardagi mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlari shakllanadi, asta sekinlik bilan qat'iylasha boradi.

Dars mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarni ijodga undovchi didaktik o'yinlaming turlari juda ko'p. Masalan: hammaga tanish “Zumrad va Qimmat” ertagining nomini aytmasdan undagi beshta tanish so'z: “mehnatkash”, “erka”, “o'gay ona”, “o'rmon”, “sehrgar kampir” hamda begona oltinchi so'z “vertolyot” ko'magida yangi ertak tuzish vazifasini topshirish mumkin; “ochil dasturxon”, “laylak”, “shum bolalar”, “qaynar xumcha”, “chol” va oltinchisi begona so'z “uchar gilam” ko'magida yangi asar yaratishga undash mumkin. O'qituvchi bunday o'yin-topshiriqlar yordamida shakllanayotgan shaxsning yangi narsaga munosabatini o'rganadi, o'quvchi shaxsida yangi, begona so'zdan o'rinni foydalana bilish qobiliyatini shakllantiradi. Bola ijodkorlikka yo'naltiriladi. Yoxud, o'quvchilardan tugagan ertakni davom ettirishni talab qilishi mumkin. Masalan, Qimmat bilan uning onasini ajdar yeb ketdi. Zumrad otasi bilan hayotini davom ettiryapti. Xo'sh, uning hayoti qanday davom etishi mumkin? Ertak qahramonlarining keyingi hayotini tasavvur qilishga qaratilgan bunday o'yin tarzidagi didaktik topshiriqlar o'quvchilar uchun o'ta foydali ijod turi hisob-lanadi. Ertak qahramonlari xarakterini o'zgartirish bilan bog'liq didaktik o'yinlar ham bolalami ham aqlan, ham ruhan zo'riqishga undaydi. Masalan: Zumrad bilan cholni salbiy, Qimmat bilan o'gay onani ijobji obraz sifatida tasavvur qilib yangi asar yaratishni talab qilish o'quvchilami ziyraklikka o'rgatadi. Ertaklar, ulami kim to'qishidan qat'i nazar, ko'pincha inson mantiqiy fikri emas, xayolotining mahsuli bo'ladi. Bolalarning esa fantaziyasini o'ta kuchli.

Tanish ertak syujeti asosida yangi ertak yaratish, ya'ni o'sha qahramonlar ishtirokida boshqa ertak to'qish, mavjud qahramonlaming nomlarini almashtirib yangi matn yaratish, xotira bilan o'ynash - so'zlar va hodisalarini eslash, sinfda hikoyachi rolini bajarish - o'ylab topilgan voqeani aytib berish singari ijodiy ishlardan ham didaktik o'yinlar sifatida foydalnish mumkin. Bunday ertak to'qish, hikoyachi o'rmini egallash singari mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchilar o'quvchilaming ijodini, u qanday bo'lishidan qat'i nazar, yozib borishi katta samara beradi. Bola ustozining biror narsani o'zgartirib yozmaganligi, tushirib qoldirmaganini nazorat qiladi. Bu unga o'z so'zi, yaratilishi e'tiborsiz qolmaganini anglatadi. Bulardan tashqari, doskaga birini ko'rsatib,



ikkinchisini ko'rsatmay ikki so'z yozish (ikkinchisining ustini yopib qo'yish), shu so'zlar asosida hikoya tuzishni talab qilish ham mumkin. Masalan, yorug'lik-(qalam), shkaf-(it) so'zlar juftligi ishtirokida hikoya tuzish talab qilinganda yosh ijodkorlar so'zlar juftligidagi ikkinchi so'zning nimaligini bilmaydilar. Shu so'zni qidirib dunyo-dunyo voqealami aytib yuborganliklarini o'zлari ham sezmay qoladilar. Kimning ertagida mana shu ikki so'z ham ishtirok etganini o'qituvchi belgilab boradi va o'yinning oxirida buni yuzaga chiqaradi. Bu o'yindan maqsad berkitilgan so'zni topish emas, bolalarни ijodga, uning uchun o'ta foydali bo'lган mashg'ulotga undashdan iborat.

Bundan tashqari, boshlang'ich sinf o'qish darslarida bir necha kishi bo'lib badiiy asardagi biror narsa-hodisa va timsollar rasmini chizish ham bolalarning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi didaktik o'yindir. Bolalar ixtiyoriy ravishda 3 - 4 kishilik guruhlarga bo'linishadi. Rasmni biri boshlaydi, ikkinchisi davom ettiradi - ularning har biri rasmni o'z tasavvuri bilan davom ettiradi. Chizgilar bir birini to'ldirishi ham, uchinchisi rasmga butunlay boshqa, begona narsani yopishtirishi ham mumkin. Natijada tushunarsiz bir shakl paydo bo'ladi. Oxirida bu chizilgan “yaratiq”ni o'qish, ya'ni tasvirni ta'riflab berish so'raladi. Har bir bola o'zidan oldin chizilgan narsani qanday tasavvur qilgani va o'zi qo'shgan tasvir nimani ifodalashini aytib beradi. Shu tariqa ma'nosiz narsadan mantiq sari boriladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Q. Husanboyeva, R.Niyoz metova.: “Adabiyot o'qitish metodikasi” «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2018-yil.
2. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. “Ta'limda innovatsion texnologiyalar”



ИНТЕЛЛЕКТ КАРТЫ В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ ХИМИИ

Алимова Ф.А

доц. кафедры «Химия» ТГПУ им. Низами

Абдуллаева Н.А

Магистр 1 курса ТГПУ им. Низами

Телефон: +998935436003

nasibaabdullayeva675@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы применения ментальных карт при обучении химии для развития креативного мышления.

Ключевые слова: химия, методика преподавания, креативность, компетенция, органическая химия, интеллект- карты, спирты.

В современном мире качество образования уже стало одним из важнейших факторов конкурентоспособности экономики.

В мире все шире внедряются новые инновационные технологии научно-технического образования. В Узбекистане создаются предпосылки и условия для перехода к подобным технологиям преподавания, что отражено в Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года.

Креативность, как компетенция становиться все более востребованной по мере того как простой обыденный труд будет выполняться роботами. Человек уделяет больше времени сложным задачам по созданию новых технологий, продуктов, развлечений.

Креативное мышление — это процесс, прежде всего процесс генерации идей. Поэтому компетенция «креативное мышление» - «Умение генерировать идеи». Сама по себе генерация не является самоцелью любого бизнеса, поэтому креативное мышление существует также на стыке с другими компетенциями: критическое мышление (умение оценивать идеи), коллaborативность (умение придумывать в команде), образное мышление (умение визуализировать идеи) и т.д.

Одна из технологий, направленных на формирование умений эффективной работы с информацией и повышение креативности в целом – технология составления интеллект-карт.

Интеллект-карты – метод организации идей, задач, концепции и любой другой информации.

Хороший способ искать новые идеи — начать рисовать. Быстрые наброски и зарисовки запустят мыслительный процесс и помогут визуализировать образы, которые крутятся в голове.

Особенно креативное обучение полезен в преподавании один из сложных предметов как химия. В обучении химии интеллект - карты помогают быстрому усвоению темы. Тем самым для учащихся тема будет доступной, интересной и полезной.

В разделе «Органической химии» для 10 классов имеются большие блоки которых нужно изучать и запоминать. Например, к одной из тем органической химии «Спирты» идеально подходит применение метода интеллект-карт, тем что здесь учащиеся воспроизведут свои креативные мышления сами доделывают схему по своему дизайну. Спирты — сложные органические соединения, углеводороды, обязательно Спиртсодержащие один или несколько гидроксилов (групп OH—), связанных с углеводородным радикалом.

По количеству гидроксилов спирты делят на одно-, двух-, трех-, многоатомные. Например, одноатомный этанол; трехатомный глицерин.

— По тому, с каким числом радикалов связан атом углерода, соединенный с группой OH—, спирты разделяют на первичные, вторичные, третичные.

— По характеру связей радикала спирты бывают предельными, непредельными, ароматическими. В ароматических спиртах гидроксил связан не напрямую с бензольным кольцом, а через другой (другие) радикалы.

Тем самым у учащихся развиваются креативное мышление и плюс к этому они хорошо запомнят данную тему.




Рис. 1. Схема интеллект-карты

Продолжая данную схему у учеников проявляется интерес к науке и развиваются творческие навыки.

Таким образом, использование технологии составления интеллект-карт в обучении химии не только возможно, но и необходимо, поскольку способствует визуализации самого процесса мышления ученика, что особенно ценно в освоении такой сложной дисциплины, как химия.

Использованная литература.

1. Степанюк, И. В. Формирование креативного мышления на уроках / И. В. Степанюк. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 16 (96). — С. 426-428.
2. Алимова Ф.А., Абдуллаева Н.А. Ментальные карты в преподавании химии Materialien von XVI International wissenschaftliche und praktische Konferenz Modernes wissenschaftliches Potenzial - 2020, 28. Februar - 7. März 2020: Berlin. Wissenschaft und Bildung GmbH -99 s. 34-37



ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД И СПЕЦИФИКА ЕГО РЕАЛИЗАЦИИ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ

Бахронова Комила Ядгоровна

Преподаватель кафедры русского языка и литературы БухГУ.

Email: komilaba338@gmail.com

Шарипова Шамсиқамар

студентка 3 курса БухГУ.

Аннотация: повышение эффективности урока – одна из насущных задач совершенствования качества учебно-воспитательного процесса. Одна из главных задач обучения русскому языку состоит в том, чтобы не только дать знания обучающимся, но и пробудить личностный мотив, привить интерес к предмету, развить стремление к речевому самосовершенствованию.

В связи с этим в современной методике уточняются цели обучения, изменяется содержание и структура образования. Соответственно этому совершенствуются формы обучения, уточняются методы и приемы обучения.

Ключевые слова: индивидуальность, уникальность, формирование, модуль, технология, обучения, пресс-конференция, аукцион, бенефис, телепередача, дидактика.



Обновление школы возможно только через научно обоснованное совершенствование педагогических технологий, которое стало одной из важнейших проблем педагогической науки и практики.

На сегодня ученые-дидактики и учителя-новаторы разработали оптимизационную технологию организации учебного процесса на уроке (Ю.К.Бабанский); технологический процесс поэтапного формирования умственных действий (Н.Р.Талызина); основные технологические приемы укрупнения дидактических единиц усвоения математического учебного материала (Г.М.Эрдниев); опорные листы (В.Ф.Шаталов);

комментированное управление учебным процессом (С.Н.Лысенкова); технологические опорные моменты процесса обучения творчеству: знание как фундамент творчества, строгий отбор учебного материала, многократное повторение по-разному организованного материала, разностороннее развитие личности ученика, постоянный контроль учителя за работой ученика и индивидуальный подход (И.П.Волков).

Что же представляет собой педагогическая технология, и в чем ее особенности? Чем она отличается от традиционных методов обучения?

Термин «технология» образовался в результате слияния двух греческих слов: Techne – искусство, мастерство, умение + Logos - учение

В соответствии с толковым словарем В. Даля: «Технология – наука тех-ники. Техника – искусство, знание, умения, приёмы работы и приложение их к делу».

Энциклопедия дает следующее определение: **технология**: — это совокупность приёмов и способов получения, обработки или переработки сырья, материалов, полуфабрикатов или изделий, осуществляемых в различных отраслях промышленности, в строительстве и т. д.;

научная дисциплина, разрабатывающая и совершенствующая такие приёмы и способы.

Понятие «педагогическая технология» не было общепринятым в традиционной педагогике. Этот термин появился в педагогике сравнительно недавно. У многих преподавателей старшего поколения его использование вызывало и вызывает до сих пор такие, например, возражения: воспитание гармонично развитой личности не может быть технологией аналогично промышленной, когда с конвейера сходят идентичные, повторяющие друг друга изделия. Каждая индивидуальность уникально и формирование из нее личности — это тонкий, деликатный процесс, отличающийся от массового производства.

Появление технологического подхода в образовании не является случайным. Он явился



как бы определенной реакцией на «декларативность, неконкретность существовавших педагогических рекомендаций в традиционном подходе к обучению и выражением стремления как можно детальнее определить все, что только поддается определению». К этому можно добавить, что использование педагогических технологий объективно обусловлено тем, что в 20 веке, особенно в его второй половине, образование приняло массовый характер, и потребовались новые подходы к обучению сначала в школе в связи с всеобщим средним образованием, а затем и в высшей школе.

Проблема использования педагогических технологий в преподавании русского языка в школе волнует ученых и педагогов-практиков давно. Например, идеи программированного и проблемного обучения широко обсуждались и внедрялись в преподавание русского языка учителями еще в 60-е – 70-е гг. XX века (теория программированного обучения: В.П.Беспалько, Н.Ф.Талызина и др.; проблемное обучение: М.А.Данилов, В.П.Есипов, И.Я.Лerner, А.М.Матюшкин, С.Л.Рубинштейн и др.). Эта дидактическая традиция развивается и находит все большее применение в современной школе. Ориентиры преподавания при этом направлены в сторону развития педагогической теории и практики за счет поиска и внедрения новых идей и технологий.

Все структурные компоненты выявляются в различных технологиях обучения при изучении русского языка: модульная технология обучения (Т.И.Шамова, П.И.Третьяков, И.Б.Сенновский); технология развивающего обучения (И.С.Якиманская, Л.В.Занков и др.); игровая технология (Ш.А.Амонашвили, Д.Б.Эльконин); проблемно-эвристическая технология (А.В.Хоторской); обучение в малых группах, метод проектов, информационные технологии (Е.С.Полат); информационные технологии на основе алгоритмов (Н.Н.Алгазина) и др. (рисунок 1.)



рисунок 1.

Возникает вопрос, чем же отличаются современные технологии от традиционных способов обучения и как они соотносятся с ними?

В основном методисты, учитывая практические проблемы преподавания русского языка, шли в направлении внедрения современных методов и форм обучения в традиционную структуру урока.

Однако в последние десятилетия в практике преподавания русского языка сложилась уже система нетрадиционных уроков:

- интегрированные уроки, основанные на межпредметных связях;
- уроки в форме соревнований (лингвистический турнир, лингвистический бой);
- уроки, основанные на формах, жанрах и методах работы, известных в общественной практике (интервью, репортаж, лингвистическое исследование);
- уроки на основе нетрадиционной организации учебного материала (урок мудрости, урок-презентация);
- уроки с использованием фантазии (урок-сказка);
- уроки с имитацией публичных форм общения (пресс-конференция, аукцион, бенефис, телепередача);



- уроки, основанные на имитации деятельности организаций и учреждений (заседание ученого совета, дебаты в парламенте);
- уроки, имитирующие общественно-культурные мероприятия (заочная экскурсия, урок-путешествие, гостиная, лингвистический театр).

Однако новые образовательные технологии предлагают инновационные модели построения такого учебного процесса, где на первый план выдвигается взаимосвязанная деятельность учителя и ученика, нацеленная на решение как учебной, так и практически значимой задачи.

Я.А. Коменский в свое время обосновал в качестве одной из ведущих задач теории обучения следующую: «всех учить всему», но учить при этом «с верным успехом, так, чтобы неуспеха последовать не могло». Таким образом, сформулирована одна из важнейших идей технологии – **гарантированность результата**. Была определена и другая идея технологии – учить быстро, чтобы ни у педагога, ни у обучающихся «не было обременения или скуки». «Великая дидактика» (1632) Механизм обучения, то есть учебный процесс, Я.А. Коменский называл «дидактической машиной». А чтобы эта «машина» привела к успешным результатам, нужно было: отыскать цели; отыскать средства достижения этих целей; отыскать правила пользования этими средствами.

Как видим, вырисовывается своеобразная система: **цель – средства – правила их использования – результат**. Это базовое основание любой технологии образования.

Педагогическая деятельность начала «технologизироваться» задолго до того, как большинство педагогов, ученых и практиков осознали объективность протекающих процессов.

Список использованной литературы

1. Мирзиёев Ш.М. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. Выступление на торжественной церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан на совместном заседании палат Олий Мажлиса / Ш.М. Мирзиёев. – Т.: Ўзбекистон, 2016. - 56 с.
2. Мирзиёев Ш.М. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя. Доклад на расширенном заседании Кабинета Министров, посвященном итогам социально-экономического развития страны в 2016 году и важнейшем приоритетным направлениям экономической программы на 2017 год. / Ш.М. Мирзиёев. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 104 с.
3. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Т.: 2004. – 340 с.
4. Аванесов В. П. Основы научной организации педагогического контроля в высшей школе. - М., 2009.



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MATEMATIKA FANINING O‘RNI

Abdullayeva Zubayda Ziyodullayevna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumi o‘rtalim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda matematika fanining o‘rni yoritilgan bo‘lib, matematik usul va DTS talablarini bajarish uchun foydalananiladi.

Kalit so‘zlar: matematika, fan-texnika, hodisa, dastur, Davlat ta’lim standarti....

Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzdagi tartib-intizomlilikni ta’minlaydi va tafakkurini kengaytiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofdagi voqeja va hodisalarining o‘ziga xos qonuniyatlarini olib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich ta’limning Matematika fani o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta’lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi.

“Aql charxi “usuli

Matematika fanining otasi kim?



Qoldiqli bo‘lishni tekshirish qoidasini aiting.

Tenglama deb nimaga aytildi?



Bo‘lishning hadlarini esga oling

Ko‘paytirish qanday tekshiriladi?



To‘g‘ri to‘rtburchakning perimetri qanday topiladi?

Vaqt birliklarini aiting 1 sutka necha soat?



km, m, dm, sm, mm - qanday o‘lchov birliklari?

Har qanday sonni 100ga ko‘paytirish uchun nima qilamiz?



Boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:

- o‘quvchilarda kundalik faoliyatda qo‘llash, fanlarni o‘rganish va ta’lim olishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlanish;
- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;
- milliy, ma’naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalansh va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

“Kim topqir” usuli.

1. Onasi 48 yoshda ,qizi undan 6 marta kichik. Qizi necha yoshda ?
A) 8 yoshda B) 42 yoshda C) 54 yoshda
2. Agar bo‘linuvchini bo‘linmaga ko‘raytirilsa , nima hosil bo‘ladi ?
A) Ko‘paytma B) Ayriluvchi C) Bo‘linuvchi
3. 10 ta gulga 800 so‘m to‘landi . 5 ta shunday gul necha so‘m turadi ?
A) 480 so‘m B) 80 so‘m C) 400 so‘m



Boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

-o‘quvchilar tomonidan matematik tushunchalar, xossalari, shakllar, usullar va algoritmlar haqidagi bilim, ko‘nikmalar egallanishini ta’minlash;

-inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida matematikaning ahamiyatini anglash, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, kundalik hayotda matematik bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli qo‘llashga o‘rgatish;

-o‘quvchilarning individual xususiyatlarini rivojlantirgan holda, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish;

-fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda o‘quvchilarda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini, kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirishdan iborat.

-Amaliy-tajriba va sinov mashqlarida matematika darslarda kundalik faoliyatda shaxsiy, oilaviy va iqtisodiy vaziyatlarga, jumladan, tejamkorlikka, mehnatni yengillashtirishga va unumdorligini oshirishga, savdo-sotiq bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar yechilishi lozim.



MATEMATIK DIKTANT .

1) 12 sonini 6 marta orttiring.
2) 10 sekund 1 minutdan necha sekund kam?
3) 448 sonini 4 marta kamaytiring.
4) 56ni 100ga ko‘paytirish uchun nima qilinadi?

Xullas, matematika boshlang‘ich ta’limning asosiy fanlaridan biri bo‘lib, unda o‘quvchini fanga qiziqtirishda yangi usullar va o‘yinlar muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Ayupov. Interfaol ta’lim usullari. T, 2001-yil
2. Internet saytlari: -ZiyoNet .uz, - kitob.uz, -bolajon.uz, - multimedya .uz



INGLIZ TILINI O’QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Adizova Feruza Oripovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-sont umumta’lim maktabi
ingliz tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Respublikamizda chet tillariga berilgan katta e’tibor hamda ularni o’rganish uchun zarur bo’lgan innovatsion texnologiyalar haqida malumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Chet tili, o’yin, innovatsion texnologiya, texnologik vositalar, usullar, metodlar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so’ng, chet tillarini o’rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko’plab imkoniyatlardan yaratib berildi. Respublikamizda chet tilining o’qitilishi, chet tili o’qituvchilarining bilim va ko’nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko’ra umumta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o’quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o’quv xonalarini stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi.

Chet tili fani to’rt aspectga (o’qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo’linib, ularning har biri bo’yicha alohida tushuncha va ko’nikmalar berilmoqda. Ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o’rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o’rganish va o’qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o’rganishning har bir aspect (o’qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo’l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o’rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o’quvchi bir paytning o’zida so’zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so’z boyligi va uning ma’nolariga e’tibor berishi talab qilinadi. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o’quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o’rgatish va o’rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: kompyuterlardan foydalanganda o’quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko’rishi ham eshitishi mumkin; chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; ancha an’anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va kassetalardan foydalanish; CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o’quvchilarning chet tilini o’rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo’lishini ta’minlaydi.

Bugungi kunda maktablarda interfaol o’yinlar orqali dars o’tish an’anaga aylanib bormoqda. Ma’lumki, darsning turli xil o’yinlar asosida o’tilishi o’quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko’nikmalarini oshirish va kuchli bo’lishlarini ta’minlaydi. O’yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o’quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta’kidlashlaricha, o’yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o’zini namoyon qilish, hayotda barqaror o’rnini topish, o’zini o’zi boshqarish, o’z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o’yin zamirida umumiyl qabul qilingan ta’lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O’quv o’yinlariga o’quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O’yinlar jarayonida o’quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg’ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko’rsatadi. Ta’kidlash lozimki, o’yin eng avallo, o’qitishning bir usulidir. O’quvchilar o’yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g’alaba qozonishga intiladilar, o’qituvchi ular orqali o’quvchiga ta’lim-tarbiya ham beradi. O’quvchi inglizcha o’yin o’ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi. Ingliz tili darslariga qo’yilgan eng muhim talablardan biri o’quvchilarni mustaqil fikrslashga o’rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o’qituvchilari AQSH, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

— “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo’llash uchun hikoyaning boshlanishi o’qib beriladi qanday yakun topishi o’quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;



- “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o’quvchilarga topishmoqlar o’rgatish Ingliz tilini o’rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o’zlariga notanish bo’lgan so’zlarni o’rganadilar va o’ylab topishmoq javobini topadilar;
- “Tezkor javob” (Quick answers) o’tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;
- “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o’quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o’yinlardan foydalanish;
- “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo’lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo’ladi;
- “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o’quvchilarning og’zaki nutqini o’stirishda yordam beradi;

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to’g’ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o’quvchida bilimga ishtiyoq uyg’otadi. O’quvchi darslarga puxta hozirlik ko’rishga intiladi. Bu esa o’quvchilarni ta’lim jarayonining faol sub’yektlariga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.R.Otaboyeva Chet tilini o’qitishda zamонавиј innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi.
2. N. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. “Ingliz tili darslarida qo’llaniladigan interfaol usullar” (uslubiy qo’llanma).
3. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. Chet tilini o’qitishda yordamchi vositalardan foydalanish.



INNOVATSION JARAYONLarda ZAMONAVIY PEDAGOG ROLI

Amonova Nilufar Komilovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 15-umumiy
o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
telefon:+998912534404

nilufaramonova54@gmail.com

G‘ulomova Malohat Zayniyevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 15-umumiy
o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
telefon:+998992608180
malohatgulomova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘qituvchi faoliyatining eng muhim masalasi o‘quv jarayonini sifatlari va samarali tashkil etish usullari berilgan

Kalit so‘zlar: mahorat, innovatsion faoliyat, o‘zgarish, mustaqil fikr, samarali maqsad.

Innovatsiya – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o‘zlashtirishni va targ‘ibotini o‘rganadigan fan.

Pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta’lim jarayonida noma’lum bo‘lgan o‘zgarishlarni kiritish orqali ta’lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir.

Innovatsion jarayon – yangilikning kiritilishi va shart – sharoitlari, tizimni yangi ko‘rsatgichlarga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlovchi o‘zgarishdir. Innovatsion o‘zgarishlarga tayyorlarlik ko‘rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorlarning mavjud me’yorlar bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni echishga qaratilgan faoliyatdir (V.I.Slobodchikov).

Zamonaviy o‘qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o‘quv jarayonini sifatlari va samarali tashkil etishdan iborat. Bu faoliyat shaxsan o‘qituvchini o‘zigagina taaluqli bo‘lib qolmay, bir qator shaxs, guruh, omma ham bo‘lishi mumkin.

Yangilikni kiritish:

- Innovatsiyadan foydalanish mexanizmi (yangilikni va uning jarayonini amaliyotga kiritish);
- Maqsadli o‘zgartirish bo‘lib, yangilik kiritish, uni yangi barqaror rivojiga olib keladi .

Hozirgi kunda o‘qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e’tibor berilmoqda.

O‘quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe’l-atvori har xil bo‘lishiga qaramay o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o‘rgatish lozim. Bunda o‘quvchi asosiy harakatlanuvchi kuch bo‘lib, o‘qish, mutolaa qilish, chizma chizish, proektstiyalar formulalarini tushunib asboblarni ishlata olishi, bir-birlari bilan do’stona munosabatda bo‘lib, oldilariga qo‘yilgan muammolarni echishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. Ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan o‘zgarish va yangilanishlar o‘quvchilarga yangi bilim, ko‘nikma va malakalarini berish bilan bir qatorda yoshamizni o‘ziga va boshqa insonlarga jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o‘zgarishning vatanzarvarlik g‘oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko‘zda tutadi.

Demak, o‘qituvchi pedagog o‘z oldiga qo‘yilgan murakkab masuliyatli va dolzarb vazifalarini bajarish uchun hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga bo‘lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi xislatlarga ega bo‘lishi kerak:

- zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi;
- axborot ta’lim texnologiyalarini va o‘qitish vositalarini ta’lim berishda tadbiq etish, internet tarmog‘i to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi va undan o‘z bilimini oshirishda foydalana olishi.
- oilaviy ta’lim-tarbiya muammolari bo‘yicha tasavvurlarini rivojlantirishi.
- dars jarayonida pedagogika texnologiyalaridan unumli foydalanish yo’llarini bilishi.
- o‘quvchilarning fikrlashlari va bir-birdari bilan fikr almashishlari hamda do’stona muhit yaratish uchun sharoit yaratishi.
- darsning samaradorligini oshirish uchun labaratoriya jihozlaridan foydalanish va mashg‘ulotlar o‘tkazishni o‘zlashtirib olgan bo‘lishi.



- texnik vositalar va o‘quv vositalardan foydalanish yo’llarini bilishi bolalarning barkamol inson bo‘lib etishishida o‘zining izlanishlari, ijodkorligi, tashabbuskorligi hamda betinim mehnatlari orqali ta’lim-tarbiya berish kabilardir.

Yuqoridagi talablarni mazmunli amalga oshirish uchun har bir o‘qituvchi yangicha fikrashi, tafakkurini o‘stirishi, pedagogik tehnologiyalari mustaqil o‘rganishi, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligini chuqur bilib olishi kerak. Yangi pedagogik tehnologiya nima va biz uni qanday tushunamiz? An’anaviy texnologiyadan farqli jihatlari nimada? Yangi pedagogik texnologiya darslarning an’anviy darslardan farqi shuki bu darsda o‘quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o‘z fikrini yorqin bayon etishga imkon yaratib berishdir. Bu imkoniyat qanday yaratilidi? O‘quvchiga hech qanday taziyq o‘tkazmasdan, uni shaxsiyatiga tegmasdan, savollar berish orqali do’stona munosabatdagi o‘quv muhiti yaratiladi. O‘quvchini ishlatish deganda bir necha o‘quvchiga mavzularni bo‘lib berish orqali dars o‘tish emas balki, hamma o‘quvchilarни birgalikda ishlatishni tushunamiz. O‘quvchilarни birgalikda ishlatish uchun o‘quv jarayonida interfaol metodlaridan foydalanamiz. Har bir dars bolaning qobiliyatining uchqunlarini alangalata boradigan kichik ixtiroday o‘tishi zarur.

Adabiyotlar:

- Ishmuxamedov R.J,Yo’ldoshev M “Ta’lim va tarbiyadainnovatsion pedagogik texnologiyalar” Toshkent 2013
- Mavlonova R,Raxmonquloba N “Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi,innovatsiya va integratsiyasi” Toshkent 2013
- Yo’ldoshev G “Pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent 2004



O’QITISH JARAYONIDA O’QUVCHILARDA MUSTAQILLIK VA FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH

Artikova Inobat Anatolevna

Xorazm viloyati Urganch shahar
3-son ixtisoslashgan mактабning
boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o’quvchilarda mustaqillikni rivojlantirish orqali o’quvchini ta’limning faol sub’yektiga aylantirish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: sub’yekt, figura, jarayon, ta’lim, tamoyil, muammo, analiz.

Mustaqillik va faollik o’zaro sabab va natija shaklida bog’langan didaktik hodisalardir. Haqiqiy mustaqillikga erishmagan mamlakatda fuqarolarning faolligi, tashabbuskorligi haqida gapiresh mumkin bo’lmaganidek, ta’limda bolalarning mustaqilligini ta’minlamasdan turib, ularning faolligiga erishib bo’lmaydi. Ta’limda o’quvchilarning faolligi mustaqillik orqali belgilanadi, mustaqillik tufayli o’quvchi ta’limning faol sub’yektiga aylanadi.

Ta’lim jarayonidagi mustaqillik faollik uchun shart-sharoit vazifasini o’taydi. Faollik esa, o’z navbatida, bolalarda mustaqillikni tarbiyalash uchun asos bo’ladi. Bu tamoyillar bir-birini to’ldiradigan hodisalar ularning mohiyatini tashqaridan ichkariga va ichkaridan tashqariga yo’nalgan jarayonlar sifatida tasavvur qilingandagina anglash mumkin. Mustaqillik tashqaridan ichkariga yo’nalgan jarayon sifatida tasavvur etilganda, ta’limda bolalarning mustaqilligini ta’minalash ma’nosini, ichkaridan tashqariga yo’nalgan jarayon sifatida tasavvur etganda, bolada shakllangan, tarbiyalangan shaxsiy sifat-mustaqillik ma’nosini anglaymiz. Birinchi holatda tashqaridan berilgan mustaqillik, ikkinchi holatda, bolaning o’z intilishlari, harakatlari evaziga unda shakllangan shaxsiy sifat-mustaqillik ko’zda tutiladi.

Boshlang’ich sinf o’quvchisiga matematikadan perimetrlari teng bo’lgan to’g’ri to’rburchak yuzi bilan kvadrat yuzlarini taqqoslab, qaysi figura yuzi katta? nima uchun? Berilgan tekis figura yuzini qanday topish mumkin? kabi savollarga o’quvchilar mustaqil fikr yuritib javob beradilar. Bunday mustaqil ishlarni bolalarni o’ylashga, dalillarni taqqoslashga undaydi. Bolaning mustaqilligi mustaqil ishlarning, mustaqil aqliy faoliyatining natijasi sifatida shakllanadi. Faollik tashqaridan ichkariga yo’nalgan jarayon sifatida tasavvur etilsa, unda bolalarda mustaqillikni shaxsiy sifat shaklida tarbiyalashni anglaymiz. Zero, mustaqillik kishining o’z intilishi, hatti-harakati natijasi sifatida tarkib topadi. Hayot harakatga bog’liq bo’lganidek, mustaqillik faollikka aloqadordir. O’quvchilarning ta’lim jarayonida mustaqilligi va faolligi quyidagi qoidalarga rioya qilish yo’li bilan ta’milanadi.

Har bir o’quv materialini o’rganishga kirishishdan oldin o’quvchilarga uning maqsadi, hayot uchun zarurligini tushuntirish kerak. Maqsad oldindan anglangan natija bo’lib, bolaning barcha hatti-harakatini, intilishlarini yagona yo’lga soladi. Maqsadni anglash ta’limning istiqbolligini ta’minalaydi. O’rganilayotgan o’quv mavzularining mazmuni, bolalarning individual xususiyatlari, real bilish imkoniyatlarini hisobga olib muammolar, muammoli savollarni o’rtaga tashlash. Qo’yilgan muammo, savol, topshiriqlar mohiyatidan kelib chiqib ta’limni tashkil etish va boshqarish bolalarda mustaqillik, faollikni tarbiyalaydi.

O’quv materiallarini o’rgatish jarayonida bolalarga analiz va sintez qilish, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarishni o’rgatish muhim hisoblanadi. Bola aqliy faoliyat usullarini o’rgana borgan sari, o’z oldiga qo’yilgan muammolarni ham tezlik bilan bajarish sirlarini egallaydi. Bu o’z navbatida, bolada o’zlashtirilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish qobiliyatlarini o’stridi.

Ta’limning barcha bosqichlarida, darsning barcha bosqichlarida mustaqil ishlarni tashkil etish, bolalarga fan sohasida qo’llanadigan metodlarni o’rgatish. Bu yo’l bilan o’quvchilarda o’z kuchiga, o’z bilish imkoniyatlariga ishonch tarbiyalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonova N, Axmedov M, Jumaev M, 1-sinfda matematika darslari o’qituvchi kitobi.
2. G’oziyev E., Ikromov J. Mustaqil fikrlashning komillikkta siri.
3. Internet materiallari.




BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA SOG’LOM TURMUSH TARZINI TARG‘IB ETISH

Asadova Mohigul Farxodovna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumi o‘rtalim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda sog’lom turmush tarzini targ‘ib etish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Sog’lom turmush tarzi, targ‘ib etish, ovqatlanish, kun tartibi..

Sog’lom turmush tarzi insonning o‘z sog’ligiga e’tibor qilishi, va zararli odatlardan o’zini tiyishidir. Chekadigan kishilar chekmaydiganlarga qaraganda ko‘p kasal bo‘ladilar. Kompyuter, televizor qarshisida juda yaqin va ko‘p o‘tirish ko‘rish qobilyatini pasaytiradi. Uyali telefondan meyordan ortiq foydalanimish xotirani zaiflashriradi. Kun tartibiga rioya qilmaslik pala-partishlikni keltirib chiqaradi. Tozalik, shaxsiy gigiyenaga amal qilmaslik har xil kasallikkarni keltirib chiqaradi. Sog’lom turmush tarzining muhim qoidalaridan biri sport bilan shug‘ullanishdir.



Sog’lom bo’lish uchun inson yoshlikdan o‘ziga e’tibor berishi kerak.



1. Chirolyi qad-qomat, yengil va ravon qadam tashlash sog’lomlikning muhim belgilaridandir.

2. Bunga erishish uchun o’tirganda va yurganda gavdani tog’ri tutish, yotgan holda yoki bukchayib kitob o‘qimaslik kerak.

3. Xushbichim bo’lay desangiz, ovqatlanish meyoriga rioya qiling.

4. Semirib ketish sog’likka zarar.

5. Piyoda ko‘p yuring.

6. Yugurish, suzish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug‘ullanish insonni sog’lom va go’zal qiladi.

7. Sog’ligimiz boyligimiz ekanligini yoddan chiqarmang.

Sog’lom turmush tarzi va uning **7** qoidasi





Kelajak yoshlar qo'lida. Shuning uchun biz yoshlarni Vatanimiz koriga yaraydigan, unga munosib farzandlar bo'ladigan, bilimli va salomat bo'lgan, sport bilan shug'ullanadiga, sog'lom turmush tarziga rioya qiladigan farzandlarni tarbiyalashimiz lozim. Chunki sog'lom boladan sog'lom fikr tug'iladi. Sog'lom fikrdan yangi g'oyalar, yangidan-yangi kashfiyotlar chiqadi. Hozirgi yoshlarimizning sog'lom tig'ilishi va voyaga yetishi uchun yurtimiz tomonidan ulkan shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Yoshlar esa bu shart – sharoitlardan unumli foydalanib, Vatanimiz ravnaqini yuksaklarga ko'taradigan farzand bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.“Umumta'lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018.
- 2.Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimedya .uz



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISH VA ULARDA DTS TALABLARI

Bekjanova Sayyora Baxtiyarovna
Urganch shahar 18-maktab o'qituvchisi
Telefon: +998974537628
@BekjanovaSayyora

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etishda va ularni DTS talablariga asoslanib dars o'tish nutq boyligini oshirish.

Kalit so'zlar: O'qish matnini tahlil qilish, o'qish turlari; o'qish sifati, to'g'ri va to'liq o'qitish, ifodali o'qish, o'qish texnikasi.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan ona tili o'qish darslari adabiyot fanining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dasturlarning o'qish va nutq o'stirish bo'limida o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuniga; o'quvchilarni to'g'ri, ravon, ma'lum darajadagi tezlik bilan ifodali o'qishga o'rgatish; bolaning ona - Vatan, uning tabiatini kishilar mehnatidagi qahramonlik, jasurlik, milliy istiqlol g'oyalarini ular ongiga singdirish kabi bilimlarni boyitish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalari kengaytiriladi, shakllanadi va mustahkamlanadi.O'qish darslarini Davlat talablari asosida hayotiy tajribalarga, kuzatishlarga suyanib, hayotga bog'lab o'tishi uning ta'sirchanligi ongli idrok etishlarini ta'minlaydi. O'qish va nutq o'stirishning ta'limiy - tarbiyaviy maqsadlari, sinflar bo'yicha o'qish mazmunini o'qish ko'nikmalarining og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish usullarini, o'qish mashg'ulotlarining yozma nutq bilan bog'lanish kabi masalalar aniq kiritilgan.

O'qish darslar davomida o'quvchilar so'zdagi harflarni bir-biriga bog'lab yozish, so'z va gaplarni kichik hamda bosh harflarni alifbe kitobida berilgan tartibda yozishga o'rgatiladi. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslari yuqori sinflardagi o'zbek adabiyoti, tarix, geografiya, biologiya va boshqa fanlarni o'zlashtirish uchun dastlabki asosni yaratadi. Shuning uchun boshlang'ich sinflardagi o'qish darslariga jiddiy e'tibor talab qilinadi. O'qish darslarini talabdagidek olib borish uchun o'qituvchi asosan quyidagilarga e'tibor berishi lozim. 6-10 yoshdagi bolalar bir soatga mo'ljallangan saboqni sabr toqat bilan tinglay olmaydilar. Ularning ruhiy tuzulishi qoyil harakatda, xayoli o'yinda bo'ladi. 10-15 minutdan ortiq davom etadigan gaplarni tinglayolmaydilat. Shu tugayli bu sinflarda ta'limtarbiya vazifalari, asosan o'yin, ashula, qisqa muddatli qiziqarli suhbat, hikoyalash va ifodali o'qish orqali amalga oshiriladi.

Ifodali o'qish turli badiiy va amaliy matnlarni puxta o'zlashtirishning muhim metodlaridan biri sifatida o'qituvchi uchun kalit rolini bajaradi. Ifodali o'qish darslarda o'quvchilarning zerikishiga yo'l qo'ymaydi, aksincha, faollashtiradi, badiiy asarlarga qiziqishini kuchaytiradi, adabiyotga havas uyg'otadi.O'qish darslarida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishning, asosan ikki yo'li bor:

1. Dars jarayonida turli matn xarakteridan kelib chiqib, o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish;
2. O'qish darslari materiallariga berilgan soatlarni qisqartirish hisobiga maxsus ifodali o'qish dasturlari tashkil etish.

O'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish usullari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. To'g'ri o'qish. Birinchi sinfda jiddiy ahamiyat berish talab qilinadi. Har bir so'z, bo'g'in va tovushni to'g'ri, eshitarli, talaffuz etilishiga erishish lozim.

2. Ongli o'qish. O'quvchi har bir gap, gapdag'i so'z, so'zdagi bo'ginlarni o'qish jarayonida uning ma'nosini tushunib o'qishi kerak.

3. Tez va ravon o'qish. Sekin yoki juda tez o'qish emas, balki gapirganday, o'rtacha tezlik sur'atiga amal qilinib, ham to'g'ri, ham ongli, ham sidirig'asiga ravon o'qishni ta'minlash zarur. Agar o'quvchi, labi labiga tegmay, haddan yashqari tez yoki aksincha sekin, tutilib o'qisa ko'r-ko'rона, ma'nosiga tushunmay qolishi mumkin.

O'rtacha tezlikda o'qishga o'quvchi harf tovushlarni o'rganayotgan vaqtadan boshlab asos yaratiladi. Biroq dastlabki o'rinda to'g'ri va ongli o'qish jarayonidagi o'rtacha tezlik darajasiga erishiladi.

To'g'ri o'qishga o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. So'zlarni bo'g'lnarga bo'lib o'qish. Masalan: "Fazliddin" Faz-lid-din, ro'z-no-ma. Shuningdek,



buzib o'qigan ayrim so'zlarni to'g'ri o'qiy olmasa uni bo'g'in tovushlarga bo'lib o'qigan ayrim so'zlarni ovoz chiqarib takror o'qish. Tez aytish ham ancha foydali usullardan hisoblanadi. Ongli o'qishga o'rgatish uchun notanish so'zlarga izoh berish, matn yuzasidan berilgan savol topshiriqlarni o'rgatish matn yuzasidan savollar tuzish, reja asosida matn mazmunini qisqartirib, kengaytirib so'zlash kabi usullar ham muhim yordam beradi.

Ravon o'qishda matndagi tinish belgilariiga amal qilinishi lozim. Ifodali o'qishga o'rgatishning eng muhim usullaridan biri o'qituvchining namunali ifodali o'qishidir. Buning uchun o'qituvchi o'qitishning pauza, urg'u, ohangi, sur'at kabi texnik-nazariy vositalari haqida yetarli bilim mahoratga ega bo'lishi, og'zaki nutq madaniyatini puxta egallashi lozim.

Foydalanimanligi adabiyotlar.

1. Boshlang'ich ta'lim jurnallari.
2. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim talablari va o'quv dasturi.
3. 2-3-sinf uchun dasturlar.
4. A. Shojalolov, G. Toshmatova, S. Matjonov. O'qish kitobi.
4-sinf, “O'qituvchi” nashryoti.



CHET TILI DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI

Bafoyeva Dilnavoz Erkin qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

15-son umumta’lim maktabi ingliz tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet tili darslarida multimedia vositalaridan samarali foydalanish usullari, ta’lim tarbiya jarayonida multimedia vositalarining ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: chet tili, multimedia, ta’lim-tarbiya, malaka, hamkorlik, hulq, oila, maktab.

Ta’lim-tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. O’quvchini tarbiyalash, uni bilim olishga, chet tillarni o’rganish bilan shug‘ullanishga undash va bu hatti-harakatini sekin-asta ko’nigmaga aylantirib borish lozim. Chet tilini o’rganish o’quvchining mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, shu tarzda o’quvchi asta-sekin takomillashib, komillikka erisha boradi. Ammo bu jarayon o’quvchi va o’qituvchidan uzoq davom etadigan mas’uliyat, sharaflı mehnat, qunt va irodani talab etadi.

Umumta’lim maktablarida o’quvchilarga chet tillarni o’rgatishda multimedia vositalarining o’rni muhim ahamiyatga ega. O’quvchilarda ma’naviy, sog’lom sifatlarning shakllanishida multimedia vositalari, atrofdagi, jamiyatdagi ma’naviy muhit va ularga bo‘lgan munosabat muhim rol o’ynaydi. Multimedia vositalari asosida o’quvchilarining bir-birlariga bo‘lgan munosabatlarini ko’rgan o’quvchi shunga qarab shakllana boradi. So‘ng, sekin-asta shug‘ullanayotgan faoliyatining mohiyatini anglaydilar. Biz agar boy ma’naviy merosimizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda allomalarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy ta’limotning nihoyatda sermazmun ekanligiga amin bo‘lamiz. Masalan, buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino o’zining «Donishnama» asarida bola tarbiyasi xususida quyidagi fikrni bildiradi: «Bola xulqini mo’tadillikda saqlashga alohida e’tibor berish kerak. Bundan ikki manfaat bor.

Birinchisi – bolaning ruhi uchun bo‘lib, u yoshlikdan boshlab yaxshi xulqli bo‘lib o’sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo‘lib qoladi.

Ikkinchisi – uning badani uchundir, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridan bo‘ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g‘azab kuchli qizdiradi, qayg‘u kuchli quritadi....».

Ta’lim-tarbiyada multimedia vositalaridan foydalanish ham o’quvchi ma’naviyatida muhim ahamiyat kasb etadi. O’quvchi ulg‘aygan sari, uning ma’naviy dunyosini rivojlantirib borish zarur. Bu rivojlantirish maktabdagagi muhit, tartib-intizom, axloq, sinf o’quvchilarining bir-biriga, yon-atrofdagilarga, o‘zi yashayotgan makonga - Vatanga, borliqqa bo‘lgan munosabati orqali amalga oshiriladi. Bunday ta’lim-tarbiya muhitining mакtabda mavjudligi, kelajak-hayotda o’quvchining ilm-ma’rifat olishga, o’qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va o’quvchining teran fikrli, ma’naviy yetuk, sog’lom shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda o’sib-ulg‘ayayotgan yoshlarimiz orasida chet tillarni o’rganishga bo‘lgan munosabat ijobjiy, bunga sabab bitta! Bu ham bo‘lsa, maktabdagagi ta’lim-tarbiya muhitining yaxshiligidadir. Yoshligidan ta’lim-tarbiya ehtiyoji qondirilgan o’quvchi, keyingi davrda, ilm dargohiga borganda ham bilim olish bilan shug‘ullanishga qiyalmaydi, mavzularni o‘zlashtira oladi. Milliy ta’lim - tarbiya orqali o’quvchilarining ongiga, xulq-atvoriga ma’naviy ta’sir qilinadi. Ustoz-murabbiylar o’quvchilar chet tilini o’rganish bilan shug‘ullanishar ekan, multimedia vositalari asosida milliy urf-odatlarimiz, qadimiy an’analalarimiz va qadriyatlarimizga katta e’tibor berishlari kerak.

Chet tilini o’rgangan har bir o‘g‘il-qiz mukammal, yetuk, sog’lom inson sifatida tarbiya oladi. Maktabdagagi ta’lim-tarbiya muhiti o’quvchi tarbiyasiga ham salbiy, ham ijobjiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Ustoz o’quvchining bilim olishi uchun mas’ul. Ular o’quvchilarining chet tilini o’rganish bilan shug‘ullanishlari, ilm olishi, o’qimishli bo‘lishi uchun shart-sharoit yaratib berishi lozim. Shu nuqtai nazardan “ustoz – o’quvchi – oila” ijodiy hamkorligini multimedia vositalari asosida ta’lim-tarbiya tizimiga yo’naltirishda ustozlar oldida turgan quyidagi vazifalarni keltiramiz:

- o’quvchi va ustoz faoliyatini multimedia vositalari asosida ta’lim-tarbiya tizimi qonuniyatlariga moslashtirish;



- chet tilini o‘rganish jarayonini amalga oshirishda har bir o‘quvchini o‘quv-tarbiya jarayoniga jalg qiladigan va sog‘lom fikrlashga o‘rgatadigan interfaol usul va uslublardan foydalanish;
- chet tilini o‘rganish jarayonida turli xil interaktiv usullarni qo‘llash va sog‘lom muhitga erishish uchun multimedia vositalardan foydalanishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ta’kidlangan ta’lim-tarbiya vazifalarining multimedia vositalari asosida hal etilishi o‘quvchi shaxsing kelajakda sog‘lom inson bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Biz har bir o‘qituvchiga darslarda multimedia vositalardan foydalanishni tavsiya qilgan bo’lar edik.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. Chet tilini o‘qitishda yordamchi vositalardan foydalanish.
2. M.R.Otaboyeva Chet tilini o‘qitishda zamонавиев innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi.



BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO
BAHOLASH – PIRLS TIZIMIDAN FOYDALANISH

Mamatova Nargiza Turapovna
Abdushukurovna Dilorom Urazovna
Sirdaryo viloyati Guliston Shahar
2- sonli matematika va fizika fanlariga ixtisoslashtirilgan
davlat umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf òqituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lismi tizimi samaradorligini oshirishda xalqaro baxolash tizimlaridan foydalanish hamda bugungi kun ta'limi aynan, ushbu tizimlar asosida tashkil etishning zarurati haqida va ushbu tizmlarni boshlan'ich sinflardan boshlab tashkil etishning ahamiyati xususida fikr muloghzalar yuritiladi

Kalit so'zlar: PIRLS, ta'lismi tizimi, PF-5538сон

Bugun mamlakatimizda ta'lismi sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta'lismi sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo'nalihsdag'i xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiytadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lismi sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmonida inson kapitalini shakllantirishning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi. Jumladan, unda mamlakatimizning 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) - o'quvchilarning ta'lismi sohasidagi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur reytingida jahonning 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi qo'yilgani ham Ushbu sohani xalqaro darajada rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalihslariga ayllanayotganining dalili desak, xato bo'lmash edi.

PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash. Boshlang'ich ta'lismi o'qituvchisi sifatida 4-sinf o'quvchilarini xalqaro baholash tizimi PIRLS haqida ko'proq ma'lumot o'rganish maqsadida www.tdi.uz sayti va t.me/milliymarkaz kanaliga ulandim. Matnni o'qish va tushunishga o'quvchilarini biz 1-sinfdan o'rgatamiz. Ularni xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga qanday tayyorlash kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy. Men bu yo'nalihsda bir qancha ishlarni reja asosida boshladim. O'qish darslarida internetdan kichik hikoya va ertaklarni olib, 2 xil variantda o'quvchilarga uyga vazifa qilib berdim. Ertasi kuni hikoya haqida savol-javob o'tkazdim. “Hikoya nima haqida?”, “Qahramonlar kim?”, “Siz hikoyadan nimani o'rgandingiz?”, “Sizga qaysi qahramon yodqi?” kabi savollar bilan ularni imtihon qildim.

PIRLS TESTLARI (mezon asosida o'zim tuzgan savollar):

Yomon otliq jazosi” (Abdulla Avloniy). “Bir kishining Qosim ismli bir o'g'li bor edi. Ota va onasining so'ziga kirmasdan har xil yomon ishlarni qilur edi. Bolalar birla urushib, yaqalashib, kiyimlarini yirtib kelur erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarini yegon vaqtida, onasi: “— Qosim, o'g'lim! Taomni sen yedingmu”, desa “Men yeganim yo'q, mushuk yegondir”, der edi. Bora-bora otasini pulini ham o'g'urlab oladigon bo'ldi. Otasi bilib, “O'g'lim, pulni kim oldi?” desa, “Onam olgandur”, deb onasini o'g'ri qilur erdi. Bir kuni otasi ustol ustig'a bir tanga qo'yub, o'zi uxlagan kishi bo'lib yotdi. Qosim kelib, sekin tangani olib, og'ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab olmoqchi bo'lg'onda tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning halqumiga tiqilib, jon berdi.

Bolalar, ko'rningizmi, yomonning yomonligi o'z boshig'a yetdi.

1. Hikoya kim haqida?

A) Farzand B) Qosim D) Ovqat E) Yomonlik

2. Siz yolg'on gapirganmisiz?



- A) Ha B) Yo‘q D) Ba’zan E) Bir-ikki marta
- 3. Qosim otasiga taomni nima yedi deb aytdi?
- A) Mushuk B) It D) O‘zi E) Hech narsa demadi
- 4. Qosim nimani yutib yubordi?
- A) Pulni B) Tangani D) Nonni E) Ovqatni

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki, boshlang’ich ta’lim o’quvchilarini matn ustida ishslash ko’nikmasini shakllantiribgina qolmay, o’quvchilarning fikrlash hamda o’z fikrini erkin bildiraa olish ko’nikmasini shakllantirishga ham yordam beradi.

Foydalanimgan adabiyolar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son
2. <https://www.xabar.uz/uz/talim/ozbekiston-pirls-2021-xa>



ADABIYOT FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Davletova Shahodat Baxtiyorovna,
Do'simova Nargiza Ergashboy qizi.

Xorazm viloyati Urganch tumanidagi
7-son maktabning ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: Bu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlash va og'zaki nutqini o'stirishda muhim bo'lgan interfaol usullar, noan'anaviy darslardan unumli foydalanish, hozirgi xalqaro baholash tizimi PISA dasturi asosida o'quvchilarni o'qitish va ularni dunyoqarashini shakllantirish haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy yondashuv, interfaol usullar, PISA, noan'anaviylik, kitobxonlik, FSMU, “Aqliy hujum”.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng mustaqil davlatimiz sog'lom, ma'naviyati boy avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bu bejiz emas, chunki sog'lom, barkamol avlod aziz va jonajon vatanimizning kelajagi va istiqboldir. Shuni aniq aytish kerakki, ma'naviyat hech qachon o'z-o'zidan shakllanmaydi. Qachonki, kishi butun kuchini, qalb qo'rini berib o'qisa, bilim olsagina ruhiy duhyosi boyiydi. Uning ilmi, bilimi, duhyoqarashi chiqqlashadi. Bir so'z bilan aytganda elim deb, yurtim deb yashaydigan insonlarga aylanadi. Buning uchun esa, albatta, biz o'qituvchilarning xizmati beqiyosdir. Chunki o'quvchilarni teran fikrlay oladigan, mustaqil fikrlashga yonaltiradigan adabiyot fani oldida asosiy bosh maqsad turadi. Bu maqsad Vatanimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodni komil shaxs sifatida ma'naviyatini shakllantirish, ularni duhyoqarashini kengaytirish va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdan iboratdir. Umumiyo o'rta ta'lim maktablarida Davlat ta'lim standartlarini belgilashda nutq o'stirish asosiy o'rinda turadi. Muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov aytganidek: “Bizga maktab bitiruvchilari emas, maktab ta'lim –tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak”. Birinchi prezidentimiz bu gaplarni bejizga aytmagan, albatta. Shuning uchun ham barcha o'qituvchilar oldida adabiyot darslarini o'qitishda katta ulkan vazifalar borligini bilgan holda, o'quvchilarga bilim berishda hozirgi zamon talablariga mos holda ish olib borishimiz kerak. Buning uchun esa mamlakatimizda ta'lim sohasida ulkan o'zgarishlar bo'lyapti. Mamlakatimizda ta'lim tizimini isloq qilish orqali yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib, voyaga yetkazish asosiy vazifa sifatida qo'yilmoqda.

Ta'limning maqsadi eng, avvalo, inson ongini rivojlantirishdir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilmoxda. Bu esa yoshlар o'rtaida kitobxonlik va darslarga qiziqish xususiyatini o'stirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim –tarbiyaga yanada e'tiborini kuchaytirishni talab etmoqda. Shuning uchun hozirgi kunda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi yuksak psixologik mahorat va nutq madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z nutqida quyidagilarni aks ettirishi kerak:

1. Nutqning to'griligi.
2. Nutqning sofligi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi dars o'tish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalansa, o'quvchilarni o'z darsiga jalgan qila olishi oson bo'ladi. Ayniqsa, yuqori sinflarda adabiyot darslarida bu usullur juda qo'l keladi. Nega desangiz yuqori sinf o'quvchilari adabiyot darslariga uncha e'tibor bermaydilar. Shuning uchun adabiyot darslarida o'quvchilarni nutqini o'stirish, mustaqil, ijodiy fikrlashini shakllantirish uchun darslarda bir xillikdan ochib, turli xil noan'anaviy usullardan foydalangan holda tashkil etsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Masalan 10-sinflarda adabiyot darslarini tashkil etishda bir necha o'yin texnologiyalaridan foydalanilsa, o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishi mumkin. Bulardan:

1. “F S M U” texnologiyasi bu o'yinda hamma o'quvchi qamrab olinishi mumkin o'tilgan mavzuni yakunlash uchun juda yaxshi natija beradi.

F - Asar boyicha fikringizni bayon eting.

S - Keltirilgan fikrni sababini keltiring.

M - Keltirilgan sababni misol bilan ifodalang

U - Keltirilgan fikrlarni umumlashtiring.



2. “Aqliy hujum” bu texnologiyaga o’quvchilarni qiziqtirish juda oson, chunki bu usulda o’quvchilar keltirgan fikrlar baholanmaydi va muhokama qilinmaydi. Bu usulda o’quvchida to’g’rimi yoki noto’g’rimi degan fikr bo’lmaydi, hamma o’z fikrini bayon qiladi va ularning fikri ham inobatga olinadi. Bu o’yin o’tilgan mavzuni esga olishda, yangi mavzuni mustahkamlashda, ma’lum bir bo’lim yuzasidan takrorlash darslarida yaxshi natija beradi. Bunda, albatta, o’quvchining og’zaki nutqi shakllanadi. Hozirgi kundagi Xalqaro baholash dasturida ham bu asosiy o’rinni egallagan. Xalqaro baholash dasturida o’quvchilarni oddiydan murakkabga qarab o’qitish, o’qish tezligi, fikrni aniq va ravon bayon etish asosiy o’rindadir. Prezidentimiz tashabbuslari bilan o’tkazilayotgan “Yosh kitobxon” ko’rik-tanlovi bunga misol bo’la oladi. O’tkazib kelinayotgan bu tanlov shu kungacha bir necha kitobxonlarni kashf qildi. Bu orqali o’quvchining so’z boyligi oshadi, nutqi mukammal darajada rivojlanadi, mana shunday tanlovlardan yoshlarimizni salohiyati kuchli, dunyoqarashi teran fikrli bo’lishiga yordam beradi. Buning uchun esa biz o’qituvchilarning xizmatlari juda katta bo’ladi. Hozirgi axborot texnologiyalari tez fursatda rivojlanib borayotgan davrda biz o’qituvchilar yangilikka intilib, harakat qilishimiz, o’quvchidan-da ko’proq bilim egasi bo’lishimiz, zamon bilan hamnafas bo’lgan holda, timmay izlanishda harakat qilib, innovatsion g’oyalar yaratish yolda timmay izlanishimiz zarur. Shuning uchun ham bugungi kunda ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari oldida quyidagi bir qator vazifalar turibdi: o’quvchi yoshlarni o’zbek tili va adabiyotining boy imkoniyatlariidan foydalangan holda Vatanga muhabbat, sadoqat, umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida, keng duhyoqarashga ega bo’lgan va mustaqil fikrlaydigan ma’naviy yetuk insonlarni tarbiyalash; ona tilimizning internet tarmog’ida munosib o’rin egallashini ta’minlash; darslarda ped texnologiyalardan unumli foydalanish.

Shunday ekan, bizning oldimizga qo’yilgan bu vazifalarni odilona bajarsak, Vatan uchun chin yurakdan xizmat qiladigan yetuk shaxslar kamol topishiga o’z hissamizni qo’shgan bo’lamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Til va adabiyot jurnali.
2. Google.uz



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Eshchanova Gulbahor G'aniyevna

Yaqubova Anjella Sa'dullayevna

Xorazm viloyati Urganch tumani

43 – son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Tel: 93-749-64-00; 99-221-41-55

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning roli, ta'lif jarayonidagi vazifasi va interfaol darsning asosiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lif, pedagogik texnologiya, nutq, o'qish, talab, dars, asar, metod.

Bugungi kunda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishda, ongini o'stirishda, dunyoqarashini shakllantirishda, nutqni boyitishda, bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshirishda bir so'z bilan aytganda, ta'lif samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish muhim ro'l o'yaydi. Ta'lif tizimidagi islohotlar munosabati bilan boshlang'ich ta'lif oldiga qo'yilgan talablar o'quvchilarni o'qitishda pedagogik texnologiyaning rivojlantiruvchi, differensiatsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo'naltirish, izlanish, muammoli o'qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda o'qish darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o'quvchining faolligini oshiradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o'qitish, analiz, sintez, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanish zarur. Darslarda aqliy hujum, mustaqil tahlil, ta'limi o'yin, turli ko'rinishdagi yozma ishlar, o'z bilimini mustaqil tekshirish kabi usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir darsning mazmuni va g'oyasidan kelib chiqqan holda dars maqsadi va metodlari belgilanadi. O'qish darslarida turli janrdagi asarlarni o'rganishda ham o'quvchilarning badiiy asarni chuqur o'zlashtirishlarini, asarni tahlil qila olishlarini ta'minlashi kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e'tibor qaratiladi. O'qish darslarida izohli o'qish, ijodiy o'qish, yarim izlanishli, reproduktiv metodlardan foydalanish mumkin.

Izohli o'qish boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi va saviyasiga mos bo'lgan, ularning asta-sekin o'sishini ta'minlaydigan metod ekanligi uzoq yillik tajribalarda sinaldi. Izohli o'qish ongli, tushunib, o'ylab o'qishga o'rgatadi, u o'qilayotgan asar matni ustida o'ylashga majbur qiladi, yozuvchi ifoda etayotgan voqeа-hodisalarini his etishni, asar mazmunini o'zlashtirishni ta'minlaydi. Izohli o'qishning tamoyillari, o'qishni hayot bilan bog'lab tashkil etishni, o'qishning ongli va ta'sirchan bo'lishi uchun o'quvchilarning hayot tajribasiga, taassurotlariga asoslanishni, o'qishni ko'rgazmali tashkil etishni taqozo etadi. Izohli o'qish o'quvchiga bilim berishdan tashqari ularni tarbiyalaydi, o'qish malakalarini takomillashtiradi. Izohli o'qish darslarida o'qitilayotgan asar mazmunini yoritish, lug'at ustida ishslash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish usullaridan hisoblanadi. Izohli o'qish tarixiy mavzudagi asarlarni o'rganishda, asardagi badiiy til vositalarining vazifalari va ma'nolarini ochishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy o'qish asar o'qib berilgach, o'quvchilarda hosil bo'lgan tasavvurni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan suhbatda, hikoyalardagi lavhalarga sarlavha topishda, reja tuzishda, qayta hikoyalashda, asar mazmuniga mos rasmlar chizishda, asar yuzasidan ijodiy xarakterdagi yozma ish yozishda o'quvchilarni faollashtiradi. Bundan tashqari dars davomida reproduktiv metoddan ham foydalaniladi. Masalan, o'qituvchi dastlabki o'qish darslarida o'zi asar matnnini qismlarga bo'ladi, yozuvchining aytmoqchi bo'lgan muhim fikriga o'quvchilar diqqatini tortib, uni aniqlab ko'rsatadi, uni sarlavha shakliga keltiradi, yozuvchi voqeani ifodalashda foydalangan so'z, ibora, ifodalarni aniqlab ko'rsatadi, ularga yuklatilgan ma'noni o'quvchilar bilan birga aniqlaydi. Bular o'quvchilar uchun bir ko'rsatma vazifasini bajaradi. Shundan so'ng o'quvchilar o'qituvchining yo'llovchi savollari yordamida bu vazifalarni o'zlarini bajaradilar.

Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lif jarayoni o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasida aniq belgilanadi, ta'lifni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko'rsatiladi. Xozirda barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Boshlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalar asosida olib boriladigan interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasiga ham har qanday progressiv usullar kabi eng



avallo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'nikmasini talab qiladi. Ya'ni har qanday dars mashg'uloti oldindan loyihalashtiriladi, darsning texnologik xaritasi tuziladi.

Mashg'ulotlarni tashkil qilishda interfaol darsning asosiy xususiyatlarini, uning an'anaviy darsga nisbatan ayrim farqlarini ko'rib chiqish orqali yaqqolroq idrok etish mumkin. Shu maqsadda quyidagi qarorga kelishimiz mumkin:

- O'qish darslarida ta'limning interfaol usullaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

- O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qish kitobida keltirilgan ertaklar ustida ishlash yaxshi vosita bo'la oladi. Chunki bola tabiatga yaqin, uni yangi olamga olib kiradi. Ertak tinglab, bolalar fikran undagi hamma voqe va hodisalarini chuqur his etadilar, ertak qahramonlari bilan harakat qiladilar. Ertaklar orqali bolalar o'zbek xalqining an'analari, urf-odatlari bilan yaqindan tanishadilar.

- Mavzuga mos xalq maqollarining ma'nosi, tuzilishi, vazifasini o'quvchilarga tanishtirib borish ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish bilan birga, biror voqe-hodisa haqida tez hukm chiqara olishga va teran fikrlashga undaydi.

- O'quvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslar tashkil etilsa, o'quvchilarning darsni o'zlashtirishlari osonlashadi, fikrashi kengayadi, dunyoqarashi shakllanadi, o'z fikrini, his-tuyg'usini ona tilining imkoniyatlari doirasida ifodalash vazifalarini bajara oladigan darajadagi shaxs bo'la oladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki yuqori sinf o'quvchilarining boshqa fanlarida qo'llanilsa ham dars samaradorligini oshiradi. Shu maqsadda bugungi kun o'qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni har bir dars davomida qo'llashi kerak deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar.
2. www.uzedu.uz



FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIGA INNOVATSION YONDASHUV

Fayzullayev Oybek Nurillayevich

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

15-son umumta'lim maktabi rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda fan va ta'lism jarayonida bo'layotgan o'zgarishlar, qabul qilingan qarorlar, ta'limga innovatsion yondashuv masalalari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: fan, ta'lism, innovatsiya, qaror, texnologiya, yangilik

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarix shundan dalolat beradiki, inson o'zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topishdan, zamonaviy innovatsion kompyuter texnologiyalari va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo'lган murakkab yo'lни bosib o'tdi. Shu bilan bir qatorda ta'lism sohasi tizimiga, balki jamiyatning barcha sohalarining rivojiga o'zining aks ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimiz ilm-fani, yetakchi ilmiy maktablar, birinchi navbatda, eng yirik va muhim ahamiyatga ega tashkilot - O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ham qabul qilingan farmon va qarorlar yangi tarixiy vogeliklarga mos keladigan fan-texnika va innovatsiya sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun o'ziga xos rag'bat bo'lди. Ana shu rag'batlarni amaliy qo'llab-quvvatlash maqsadida bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning 1992-yil 8- iyuldagagi “Ilm-fanni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risida”gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

1992-yil 21-iyuldagagi “Ilm-fanni rivojlantirishni va innovatsiya faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash choralar to'g'risida”gi qarori ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish sohasidagi dastlabki asosiy hujjatlardir. Hamda 2006-yil 7-avgustdagagi “Fan va texnologiyalar rivojlanishining muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston ilm-fanini boshqarish va moliyalashtirishni davlat tomonidan tartibga solish, uning sa'y-harakatlarini ustuvor sohalarga yo'naltirishga qaratilgan islohotlar davom ettirildi.

Sir emaski, XXI asr - texnika va texnologiya asri. Ha, bu nom bejizga berilmadi. Atrof-muhitda sodir bo'ladijan hodisalar uni o'rganishga bo'lган qiziqishni yanada orttirdi. Bu qiziqish ortidan ilm-fan sohasida misli ko'rilmagan kashfiyotlar paydo bo'lди va paydo bo'lmoqda. Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilmoqda. Darhaqiqat, farovon kelajak poydevori hozirda unib-o'sib kelayotgan yoshlar hisoblanadi. Shu sababli, ularning yuqori bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib voyaga yetmoqlari muhim omildir. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lism tizimini ham tubdan isloq qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lism tizimi orqali Respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuning uchun ta'limda eng muhim strategik yo'nalish ta'lism muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta'lism muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lism maskanlarida innovatsion texnologiya ko'rinishida faoliyat olib borish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Xususan, hozirgi kunda ta'lism jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lган qiziqish, e'tibor kuchaygan. Mamlakatimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun aholi ta'limiini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadi ham ilg'or pedagogik tadbirdan, texnologiyalardan keng foydalanishimizni talab etmoqda. Innovatsion texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlash uzlusiz ta'lism tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi. Ular ta'lism jarayonida ma'lum o'zgarishlarga, ta'lism mazmuni, sifati boyishiga va samarali tashkil etilishiga sabab bo'ladijan turli tashabbus va yangiliklarning yaxlit tizimida namoyon bo'ladi.

Ta'lism tizimini isloq qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lism muassasalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkonini mavjud innovatsion



maydonda ko’rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o’zlashtirishdan iborat. Bugungi kunda maktab va oliy ta’lim tizimidagi an’anaviy va ommaviy ko’rinishdagi ta’lim va tarbiya jarayonlari o’rniga ta’lim muassasalari rivojlanishida o’ziga xos yangilik bo’lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda. Innovatsiya (in-”lik”, novus- “yangi”) yangilik kiritish, yangilik degan ma’noni anglatadi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kun innovatsion texnologiyalarini ilm fan va ta’lim sohasida muvaffaqiyatlari qo’llanilsa, yangi yosh avlod ana shu jahon tajribasi asosida saboq olib, ulg’aysa, davlatimizning ertangi istiqboli, kelajagi yorqin bo’lishiga shak-shubha yo’q.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” Toshkent “Ma’naviyat” 2008
2. R.D. Dusmuratov “Ilm-fan, ta’lim va amaliyot integrasiyalashuvining muammolari” Fan va texnologiya 2014
3. A.T.Almatov “Bugungi kun ilm-fanida dunyoning rivojlantirish bosqichlari” Fan va texnologiya 2008



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA HARAKATLI VA DIDAKTIK O‘YINLARDAN
FOYDALANISH AHAMIYATI

Fayzullayeva Gulshoda Nurullayevna

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumiy o‘rtta ta’lim maktabi
boslang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boslang‘ich sinflarda harakatli va didaktik o‘yinlardan foydalanish ahamiyati ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “Uchdi-uchdi”, “Ko’zgu”, “Xatosini top”, didaktik, raqam...

Barchamizga ma’lumki, interfaol usullardan foydalanish darsni jonli tashkil etishnni ta’minlaydi. Shu bilan bir qatorda, avvalgi bilimlar va yangi axborotlar o‘rtasida bog‘lanish hosil qilib, berilgan materialni to‘la tushunishga zamin yaratadi. Boslang‘ich ta’limda harakatli va didaktik o‘yinlardan foydalanish ahamiyati katta. Quyida bir qancha harakatli va didaktik o‘yinlarni taqdim etmoqchiman:

“Uchdi-uchdi” o‘yini. Maqsad: Bolalarni qo’l muskullarini rivojlantirish, hushyorlikka va chaqqonlikka o‘rgatish. Bunda harakatlar qo‘lda bajariladi. O‘quvchilar gap nima haqida ekanligini topishi kerak.



“Aql charxi” – “Nima uchun?” didaktik o‘yini. Bu savollar orqali amalga oshiriladi.

1-savol: Nima uchun bo‘rini o‘rmon sanitari deymiz?

2-savol: Nima uchun “Qizil kitob” tashkil qilingan?

3-savol: Nima uchun oy yerning yo‘ldoshi deb aytiladi?

4-savol: Nima uchun qonunlar kerak?

“Ajoyib raqamlar” usuli. Bunda o‘quvchilar qiziqarli matematik topshiriqlar asosida olgan bilimlarini namoyish etadilar.

1-savol: 60 sonini 5 ta 7 raqami orqali ifodalang

Javob: $7*7+(77:7)=60$

2-savol: 17 sonini 4 ta 8 raqami orqali ifodalang

Javob: $8+8+(8:8)=17$

3-savol: 10 sonini 4 ta 5 raqami orqali ifodalang

Javob: $(5+5)-5+5=10$

4-savol: 15 sonini 5 ta 7 raqami orqali ifodalang

Javob: $(7*7+7):7+7=15$



“Chang soldi” o‘yini. O‘quvchilar sabr qilishga hushyorlikka va bir-biriga halaqit bermay turishga o‘rganadilar. Bu o‘yinda bir bola ajratiladi qolgan bolalar doira bo‘lib o‘tiradilar. O‘rtaga mevalar qo‘yiladi. Mevalarni bolalar qo’llarini boshiga qo‘yib qo‘riqlaydilar. Ajratilgan bola maymun bo‘lib mevalarga tarbiyachi signalidan so‘ng chang soladi. Bolalar boshlarini





ko’tarib maymunni ushlashga harakat qiladilar. Maymunni ushlagan bola maymun vazifasini bajaradi. O’yin shu tariqa davom etadi.

“Ko’zgu” o’yini.

Didaktik maqsad: O‘quvchilarda kuzatuvchanlik, ixtiyoriy diqqatni rivojlantirish.

O’yin qoidasi: O‘qituvchining yoki biror bolaning harakatini takrorlash va barobar bajarish.

O’yin harakati: Bu o’yin orqali kattalar xatti harakatini takrorlash va ularga taqlid qilish. Bolalarga “Sizlar hozir meni oynam bo’lasizlar. Men bajarayotgan harakatni sizlar ham bajarasiz” deb aytadi.

“Xatosini top” o’yini.

Didaktik maqsad: Bolalarda kuzatuvchanlik, ixtiyoriy diqqatni rivojlantirish. Voqelikni to’g’ri aks ettirish.

O’yin qoidasi; Suratdan, voqelikdan o’zaro kamchilikni topish.

O’yin harakati; Bolaga chizilgan rasmni ko’rsatiladi, musavvir qayerda xato qilganligi so’raladi. Masalan: qish faslida bolalar o’ynayapti, daraxtda yaproqlar, bolalar oyog‘ida shippak. Rasm bolaga tushunarli bo’lishi kerak. Navbat bilan rassom xatosini topib, vazifani murakkablashtiriladi. Musavvir xatosi ko’paytiriladi.

“So’z ichida so’z o’yini”. Bu shartda asos qilib “ADOL-ATPARVARLIK” so’zini olamiz. O’quvchilar adolatparvarlik so’zidagi harflar asosida so’zlar tuzishlari talab etiladi.

M: adolat, adl, lat, ilk, ado, ola, tark...

“Bahru -bayt”- she’riy aytishuv. Bahru-bayt tanlangan bir mavzuda, yod olingan she’rlar asosida o’tkaziladi. Masalan, “8-mart”, “Navro’z”, “Mustaqillik kuni”, “Konstitutsiya kuni” mavzularida yoritilishi mumkin.

Shunday qilib, boshlang’ich sinflarda emas, balki yuqori sinflarda ham didaktik va harakatli o’yinlardan foydalanish sifat va samaradorligini beradi. Ularning afzalliklari zarurati va davomiyligi sizlarga ham ma’qul bo’ladi.



Foydalilanigan adabiyotlar:

1. “Muhofaza” gazetasi 2017- yil, 3-sон
2. Darsliklar bo‘yicha metodik qo’llanmalar
3. Internet saytlari.



O'QUVCHILAR BILIM – SAVIYASINI OSHIRISHDA PEDAGOG MAHORATINING ROLI

Fayzullayeva Zamira Raxmatovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

15-son umumta'lim maktabi rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilar bilim – saviyasini oshirishda pedagog mahorati katta ekanligi takidlangan. Shuningdek ta'lismarjarayonida o'qituvchining tajribasi, bilimi, mas'uliyati ham o'z o'rniiga ega ekanligi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, pedagog, faoliyat, saviya, bilim, talim-tarbiya, pedagogik tajriba, mas'uliyat, odob.

Bugungi kun o'qituvchilariga katta mas'uliyat yuklatilgan. Yosh avlodga ta'lismarjarayonida ularning bilimi, mahorati va tajribasi katta rol o'ynaydi. O'qituvchi deyarli har kuni o'quvchilar bilan uchrashadi, savol javob qiladi, ularning yaxshi ishlarni ma'qullaydi, bilimini baholaydi, nojo'ya xatti-xarakatlari uchun tanbeh beradi. Albatta o'qituvchining fikri, muloxazalarida nisbiylik, sub'ektivlik a'lomatlari mavjud. U hammaga aynan birdek juda to'g'ri munosabatda bo'la olmasligi mumkin. Lekin u hamma o'quvchilarga nisbatan holis niyatlari yaxshilik qilishga intiluvchi, adolatli kishi ekanligiga barchani ishonchi komil bo'lmog'i darkor. Sinfda o'qituvchi yaxshi ko'radigan, yomon ko'radigan, o'quvchilar bor degan ta'surot tug'ilmasligi kerak.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. Pedagogik faoliyat kishi shaxsini uning dunyoqarashini, e'tiqodini, ongi, xulq-atvorini shakllantirishdek umumiyligiga maqsadga bo'ysungan son-sanoqsiz pedagogik masalalar yechish jarayonidir. O'qituvchi faoliyatidagi ijodkorlik ana shu masalalarni yechish usullarida, ularni hal qila olish yo'llarini qidirib topa bilishlarida ifodalanadi.

Pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan ish shakli va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv-tarbiyaviy ishlarning eng yuqori natijalarga erishiladi. Pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi, o'quvchilarning bilim faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan tadqiqotchilik ko'nikma malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Hozirgi zamон fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolarini yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishini taqozo etadi. Bu ahloqiy e'tiqod o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o'quvchilar va boshqa kishilar bilan munosabatlarida, muomalasida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan ahloqiy ta'sir o'tkazilishida ko'zga tashlanadi.

Shaxs axloqini xarakterlaydigan belgilardan biri mas'uliyatdir. O'qituvchining mas'uliyati – mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lismarjarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. O'qituvchi zimmasiga bola shaxsi har tomonlama kamol toptirish mas'uliyati yuklanadi. Muallim o'quvchiga chuqur nazariy bilimlar berishi, uni hayotga, mehnatga tayyorlashi lozim. Shu bilan birga, u boladagi mavjud layoqat va qobiliyatlarni payqab, individual munosabatda bo'lishi, unda mavjud bo'lgan ijobjiy ahloqiy sifatlarni avaylab o'stirishi darkor.

Pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi mahoratlari ravishda o'tayotgan darsning ta'limiyyat tarbiyaviy tomonlarni tushunarli qilib bolalar faoliyatini dunyoqarashda tabiat va jamiyat faoliyatidagi o'zgarishlardagi ko'nikmalarni malakalarga aylantiradi. Bolalarga mehr-muhabbat o'qituvchining eng muhim fazilatidir. Bu bolalarning hamma qiliq-qilmishlarini kechirish ularga xushomadgo'ylik qilish emas, balki talabchanlik va qattiqqo'llik, adolatlik bilan qo'yilgan mehr-muhabbat bo'lib ana shu sifatga ega bo'lgan shaxs o'zining ko'p vaqtini va kuchini bolalarga bag'ishlaydi. U zarur vaqtida istaklarini qurban qilib, bolalar manfaati yo'lida ehtiyojlarini cheklashga tayyor turadi.

O'qituvchining muhim fazilati kishilar bilan tez el bo'la olish, ko'pchilikka aralasha bilish,



dilkashlik bo‘lib, bu unda muomala madaniyatining yuksakligini ifodalaydi. Chunki o‘qituvchi hamisha odamlar bilan aloqa qilishga, ular bilan ishlashga to‘g‘ri keladi. O‘qituvchi ishidagi muvaffaqiyatni kundalik faoliyatida kattalar va bolalar, ayrim guruh va yakka shaxslar bilan aloqaga kirisha olish qobiliyati ta’minlaydi.

O‘qituvchi odobi umuminsoniy ahloqning kategoriyalari, qoidalari va normalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga mos xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish, pedagogning o‘quvchilar, o‘qituvchilar jamoasi, ota-onalar va jamoatchilik vakillari bilan munosabatida ifodalanadigan kasbiy-ahloqiy xususiyatdir. O‘qituvchi mehnatining ko‘p qirraliligi, uni bajarishga sarflanadigan vaqtida ham ko‘rinadi.

O‘qituvchining maqsadi fan uchun yangilik ochish, pedagogika nazariyasiga tugal ilmiy hissa qo‘sish emas, balki o‘zining va boshqalarning ilg‘or tajribasini chuqur tahlil qilib, ta’lim tarbiyaning samarali usul va vositalarni topishdir. O‘qituvchilarning ijodi ilmiy pedagogik tadqiqot bilan ta’lim tarbiya tajribasini bir biriga bog‘laydigan zanjir rolini o‘ynaydi. O‘qituvchining ijodi hamma vaqt ma’lum tajribaga asoslanadi. O‘qituvchi ilg‘or metod va usullarni egallash hamda o‘z ishida qo‘llash yo‘llarini izlab pedagogik, ruxshunoslik va ta’lim metodikasining yutuqlariga murojat qiladi. Chunki ijodiy ishlaydigan o‘qituvchi o‘zgalar tajribasini tahlilsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilmay, o‘z tajribasiga taqqoslab ko‘radi. Shundan keyingina uning yangi tomonlarini qabul qiladi. Demak, ijodkorlik xissiyot emas, balki o‘qituvchining uzoq ishlashi, yuksak pedagogik madaniyatining mahsulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqadirov I.R.Pardoyev.A.A Talimda innovatsion texnologiyalar.
2. A.A.Azizov va boshq. “Barqaror taraqqiyot talimi” –o‘quv-uslubiy qo‘llanma 4.
J.G.Yuldashev, S.A.Usmonov “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish”.



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA HAMKORLIK BILAN ISHLASH


Hosilova Umida Sharof qizi
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
6-umumi o‘rtta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu boshlang‘ich ta’limda innovatsiya bo‘la oladigan usul va o‘yinlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, harakatli o‘yinlar, bilim, barkamol, usul, pedagog..

Yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug‘ ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta’minlash yosh avlodni xar tomonlama komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog‘liqdir.

Ta’lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o‘sib kelayotgan yoshlarni vatanzarvar, zamonaviy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirgan hamda jamiyatda o‘z munosib o‘rnini egallashga qodir bo‘lgan - komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.



Bolalarda kreativlik qobiliyatining rivojlanishida o‘qituvchi xulq-atvorining omili sifatida uning quyidagi fazilatlari katta ta’sir ko‘rsatadi:

- ijodiy fikrlash;
- qadr- qimmatining tan olinishi;
- atrof-muhit ta’siriga bolalar sezgirligini rivojlantirishi;
- g‘oyalar va obyektlarni erkin egallashga yo‘naltirilishi;
- ijodiy jarayonlar to‘g‘risida asoslangan axbortlar bera bilish ko‘nikmasini shakllantirilishi;
- tanqidni to‘g‘ri asoslab bera bilishni rivojlantirishi;
- o‘zini hurmat qilishni rag‘batlantirishi;
- qanday baho olishdan qo‘rqish hissiyotini jilovlashni o‘rgatishi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini takomillashtirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligi ma’lum.



**Hamkorlikda o‘qitish metodlari quyidagi
beshta hususiyatga ega:**

1. O‘quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o‘qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiyish orqali yaxshi o‘lashtiriladi.
2. O‘quvchilar 2-5 a’zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.
3. O‘quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o‘rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqqigan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq –atvor mezonlariga rioya qilishadi.
4. O‘quvchilar ijobjiy va mustaqil bo‘lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o‘rganish faoliyi bo‘yicha ishlarni tashkil etish, o‘quvchilarning bir-birlariga ko‘makkashishlari talab etilishini hisobga olgan holda tuzilgan bo‘ladi.
5. O‘quvchilar o‘z ishlari natijasiga yoki boshqacha aytganda, o‘qishga, ta’lim olishga, shaxsan mas’uliyatlari va javobgardir.

Hamkorlik pedagogikasining 4 ta asosiy jihatlari bor.



Pedagogik hamkorlikda maqsadli yo‘nalishlar:

- Pedagogik talabdan, pedagogik munosabatga o‘tish
- Bolaga insoniy va shaxsiy yondashuv
- Ta’lim-tarbiya birligi

► **Pedagogik jarayonda “O‘qituvchi va o‘quvchi uslubi”**

- - “ta’qqliash emas, yo‘naltirish”
- - “boshqarish emas, yo‘naltirish”
- - ”majburlash emas, ishontirish”
- - “buyruq berish emas, tashkillashtirish”
- - “cheagaralash emas, erkinlik berish”



Dars samarali o‘tilishi uchun o‘qituvchilarga quyidagi tavsiyalarni beramiz:

1. O‘quvchini mustaqil hayotga tayyorlash;
2. Sinfda ijobjiy emostional (hissiy) muhit yaratish;
3. Darsga ishchanlik kayfiyatida kirishish;
4. Darsga mas’uliyat bilan kirishish;
5. O‘quvchilar bilan hamkorlik qilish;
6. Zamonaviy usullar asosida dars o‘tish;
7. O‘yin texnologiyalaridan foydalanish;
8. Ijodkorlik ya’ni muntazam o‘z ustida ishlash.

Hamkorlik pedagogikasida o‘quvchi bilan pedagogik munosabatni demokratiyalashtirish, shaxs munosabatining muhim omil bo‘lib, u ta’lim-tarbiya jarayonining natijasini samarasini beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. I.Ayupov. Interfaol ta’lim usullari. T, 2001-yil
2. Internet saytlari: -ZiyoNet .uz, - kitob.uz, -bolajon.uz, - multimedya .uz



BOSHLANG`ICH SINFLARDA SAVOD O`RGATISH

Hotamova Manzura Aktamovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 34-maktabi
Boshlang`ich ta`limi o`qituvchisi
Telefon: +998 99 555 40 94

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang`ich sinflarda savod o`rgatishning yo`llari va savod o`rgatish davrida o`qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o`qish va yozish ko`nikmalari bayon etiladi.

Kalit so`zlar: savodxonlik, davlat ta`lim standarti, o`qish va yozish malakasi

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiyo`rta va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risidagi 187-sonli qarori ta`lim-tarbiya sohasini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish, o`qitish sifati va samaradorligini oshrishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur DTS ning maqsadi – umumiyo`rta ta`lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg`or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma`naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Savod o`rgatish davrida o`qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq ravishda bajara olish o`qish va yozish ko`nikmasi deyiladi. Bu ko`nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko`nikma bilimsiz shakllanmaydi. Bilim ko`nikmaga aylanmagan bo`lishi mumkin. Masalan, V harfining elementlarini, yozuv chiziqlari orasiga qanday joylashtirilishini bilib, uni daftarda yoza olmasligi yoki o`quvchi harflarni tanib, ularni o`qiy olmasligi mumkin. Yozish ko`nikmasini hosil qilish uchun boshqa faoliyat turlari, ya`ni yozish jarayonida partada to`g`ri o`tirish, ruchkani barmoqlar orasida tutish, daftarni qiyalikda qo`yish kabilalar ham o`rgatiladi.

Bola o`qish paytida bitta harfni ko`radi, uni bilish uchun rasmlarni ko`z oldiga keltiradi, rasmlarni ko`z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi, esga tushrigach, uni aytishga oshiqadi, biroq o`qituvchi aytishga yo`l qo`ymaydi. Undan bo`g`inni aytishni talab qiladi. O`quvchi ikkinchi harfni eslab qolguncha, birinchisi sedan chiqib qoladi yoki ularni qo`shib bo`g`in, bo`g`indan so`z hosil qilguncha, o`qish jarayoni sustlashadi.

1. Ko`pincha bola o`qiyotgan qatorni yo`qotib qo`yadi, harfni, bo`g`inni, so`zni qayta o`qishga to`g`ri keladi. O`quvchining diqqatini kengaygan sari bo`g`in va so`zni butunligicha idrok eta boshlaydi.

Savodni o`rgatishni to`g`ri tashkil etish uchun bolalarning unga nutqiy tayyorgarligini maxsus o`rganishni talab etadi. Maxsus o`rganish avgust oyida, hatto undan oldin – bahordan boshlanadi. Bunda 1-sinfga keladigan o`quvchining oilasiga yoki bolalar bog`chasiga boriladi, suhbat o`tkaziladi, bolalarning umumiyo` bilim savyiasi aniqlanadi.

Tanishish natijasini hisobga olish va nutqiy tayyorgarlikni o`rganish uchun quyidagilarni aniqlash tavsija etiladi:

1. **O`qish ko`nikmasini aniqlash.** So`zni sidirg`a o`qiydi; bo`g`inlab o`qiydi; 2.

Yozuv ko`nikmasi. Hamma harfni yozishni biladi, so`z yozadi (bosma yoki yozma); ayrim harflargina yozishni biladi (bosma yoki yozma);

3.Tovushni tahlil qilishga tayyorgarligi. So`zni bo`g`inlarga bo`ladi; so`z yoki bog`indagi tovushni ajratadi;

4. Og`zaki bog`lanishli nutqi. She`rni yoddan o`qish.

- a) 3 ta yoki undan ortiq she`rni biladi, uni zavqlanib aytadi;
- b) 1-2 ta she`rni biladi, aytishga uyaladi;

5.Og`zaki bog`lanishli nutqi. Ertak aytish.

- a) Bir yoki bir nechta ertakni biladi va aytib bera oladi;
- b) ertakni biladi va uni aytib berishga harakat qiladi, lekin ayta olmaydi;

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbek tilini o`qitish metodikasi. O`qitishning zamonaviy usullari. N. Abdurahmonova. Toshkent. 2020-yil.
2. A. G`ulomov, M. Qodirov “Ona tili o`qitish metodikasi”. Toshkent. 2001-y.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIMNING SIFAT - SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Ibragimova Guliston Kutliyevna

Xorazm viloyati Urganch tumani
16-sod mактабнинг boshlang'ich
ta'lism fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ta'lism samaradorligini oshirishning maqsad va vazifalari, ta'lism sifatini yaxshilashning usul va shakllari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lism, sifat, samaradorlik, innovatsiya, texnologiya.

Ma'lumki ta'lism tizimi bugungi kundagi eng aktual masaladir, chunki mamlakatning ertangi taqdiri bugungi ta'lism sifatiga bog'liq bo'ladi. Xozirgi kunda ta'lism sifat samaradorligini oshirish yo'llari dunyoning barcha mamlakatlarida izlanmoqda. Yurtimizda ta'lism samaradorligi muammolari psixologiya, pedagogik texnologiya, informatika va boshqaruv nazariyasining so'nggi yutuqlaridan foydalanish asosida faol rivojlanmoqda.

Ta'lism sifati deganda o'quvchilar, jamiyat va ta'lism buyurtmachilarining ehtiyojlarini qondira oladigan ta'lism natijalarining asosiy xususiyatlari yig'indisi tushuniladi. U o'qituvchilarning yuqori kasbiy mahorati, o'quvchilarga dars berishda qulaylik yaratishdan, o'quvchilar bilimining mustahkamligi, sanitariya me'yorlariga rioya qilish, to'g'ri boshqaruvdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda o'qitishning asosiy maqsadi har bir bolaga qisqa vaqt ichida juda ko'p miqdordagi ma'lumotlarni o'zlashtirish, o'zgartirish va amalda qo'llashni o'rgatishdir. Darsni o'rganishning asosiy shakli sifatida tan olgan holda, biz uni yanada takomillashtirish yo'llarini doimo izlaymiz.

Konfutsiy shunday takidlaydi: “Uch yo'l ilmga olib boradi: fikr yuritish eng ezgu; mag'lubiyat yo'li eng oson yo'ldir; va tajriba yo'li eng qiyin yo'ldir”. Biz bir vaqtning o'zida uchta yo'lni bosib o'tishimiz kerak, chunki kasbimizning qat'iy talabidir. Pedagogik faoliyatimizning o'ziga xos xususiyati o'qitishdan iborat bo'lgan o'quv jarayonining ajralmas qismi ekanligidadir.

Ta'lism sifatini yaxshilash uchun o'quv faoliyati nimani anglatishini tushungan holda o'qituvchi o'quvchilarni maqsadga yo'naltiradi, ularning faoliyati uchun motivatsiya beradi, hayotiy ko'nikmalarni shakllantiradi, “o'qituvchi - o'quvchi” xulosalarini yaratadi, muammoli vaziyatlarini ishlab chiqadi, o'quv jarayoni ishtirokchilarining salomatligiga javob beradi. Bularning barchasi o'qituvchining boshqaruvi ostida bo'ladi.

Boshlang'ich ta'linda an'analarga rioya qilish va innovatsiyalarni joriy etish, o'qituvchining malakasini oshirish, eng yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish, mакtab o'quvchilari uchun odatiy qiyinchiliklarning sabablarini aniqlash va ularni tuzatish, o'quvchilarning bilim sifati tizimining shakllanish darajasini aniqlash, portfel tuzish orqali mакtab o'quvchilarning individual yutuqlarini toplash va aniqlash, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan loyiha faoliyatini tashkil etish kabi uslubiy ishlar ta'lism samaradorligini oshishiga xizmat qiladi.

Shu maqsadda o'quv jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va o'quv natijalarini yaxshilash, qaror qabul qilishda o'qishga bo'lgan qiziqishni, o'z-o'zini rivojlantirish, o'quv jarayonini zamonaviy darajada ta'minlash, bolaning ta'lism ehtiyojlarini qondirish va mustaqillikni oshirish uchun sharoit yaratish, tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning jismoniy rivojlanishini ta'minlash, sog'liqni saqlash texnologiyalaridan foydalanish, mакtabning moddiy-texnik bazasini yaxshilash mumkin.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lism o'qituvchisining vazifasi ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish, pedagogik va axborot texnologiyalarini, shuningdek, sifat jihatidan zamonaviy boshlang'ich sinf o'quvchisini tayyorlashni ta'minlaydigan yondashuvlarni shakllantirish, o'quv jarayonini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan o'quvchilarning dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni yaratish, o'quvchilarning individual qibiliyatlarini o'rganish va rivojlantirish uchun psixolog va ota-onalarning o'zaro munosabatlarini tashkil qilishdan iborat.

Dars samaradorligini oshirishning muhim vositasi darsdagi xilma-xillikdir. K.D.Ushinskiyning ta'kidlashicha, bola tinimsiz faoliyotni talab qiladi va faoliyatdan charchamaydi, biroq uning bir xilligi, bir tomonliligidan qochish kerak. Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar dars turli xil va



qisqa ish turlaridan iborat bo‘lib, o‘zgarib tursa, yaxshiroq o‘rganadilar. Ammo shuni yodda tutish kerakki, o‘quvchilar faoliyatining xilma-xilligi ularning faolligini ta’minlamaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining boshlang‘ich faoliyati o‘qish bo‘lib, u ta’limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunday bo‘lsada, o‘qish o‘yin bilan birgalikda olib boriladi. O‘yin elementlari o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini faollashtiradi, ishda mustaqillik va tashabbuskorlik, sheriklik va o‘zaro yordamni rivojlantirishga hissa qo‘shamdi. O‘yin o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshirishning muhim vositasidir. Boshlang‘ich ta’limda didaktik yoki ta’limiy o‘yinlar keng tarqalgan. Ular kognitiv tarkibga ega va o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga qaratilgan. O‘-yin davomida bolalar diqqatni jalb qilish, mustaqil fikrplash, e’tiborni, bilimga bo‘lgan qiziqishni rivojlantiradilar.

Boshlang‘ich mактабда allaqachon o‘quvchilarning aksariyati o‘quv jarayonida passiv harakat qiladi va o‘rganishga qiziqishni yo‘qotishni boshlaydi. Shuning uchun qobiliyatlarni rivojlantirish va intilishini qo‘llab-quvvatlash juda muhim. Ularga o‘rgatish emas, balki o‘rganish va rivojlanishga yordam berish darkor.

Boshlang‘ich ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan faol foydalanish, ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. U orqali ma’lumotlarni to‘plash va taqqoslash, tushuntirish-tasvirlash usulidan faol usulga o‘tishga imkon beradi, mantiqiy fikrplash, og‘zaki va yozma nutqni tinglash, tushunish qobiliyatini rivojlantiradi, bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi.

Xulosa qilsak ta’lim sifatini oshirish uchun zamonaviy innovatsion texnologiyadan, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishning yangi shakllaridan dars va darsdan keyin foydalanish, darslarda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Mavlonova va boshq. Pedagogika.
2. K.Hashimov, S.Nishonova Pedagogika tarixi (II qism).
3. www.tadqiqot.uz



O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI BAHOLASHDA DASTURLARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Ibragimova Maftuna Sharipovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

15 – son mакtab rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mакtab o'quv tizimida o'quvchilar va o'qituvchilarga qulaylik yaratishda ta'limi dasturlarni qo'llashning afzalliklari, ulardan faydalananish ta'lim muassasasida olib borilayotgan o'quv jarayonining sifatini yaxshilashi haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: mакtab, bilim, ko'nikma, malaka, ta'limi dasturlar, qolip dasturlar, dasturlashgan darslar.

Ma'lumki, o'quv jarayoni bilan bog'liq mashg'ulotlar, nazorat-sinovlar va boshqa tadbirlar samarali borishi uchun bu jarayon unda ishtirok etuvchi o'quvchilardan mavzuga oid bilimlarni: turli nomlar, terminlar, sanalar va boshqa ma'lumotlarni o'rganishni, xotirada saqlab qolishni va kerakli vaqtida ularni xotiradan qayta tiklab olishni talab qiladi. Bu esa o'quvchilardan yetaricha mehnat va qobiliyatni talab qilib, bu pedagogikaning yechilishi zarur bo'lgan azaliy dolzarb muammosi hisoblanadi.

Ushbu muammoni yechish bo'yicha pedagog olimlar, psixologlar va tajribali o'qituvchilar doimiy izlanishlar olib borishgan va turli yechimlarni ishlab chiqishgan. Bu muammo ustida hozir ham ishlar olib borilmoxda va bugungi kunda bu sohada ham katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi o'z tasdig'ini topgan. Natijada o'quvchilar bilan bu jarayonda ishlash ancha qulay bo'lgan turli hajmdagi va murakkablikdagi dasturlar ishlab chiqildi.

Albatta ta'limga oid turli dasturlarni ishlab chiqish o'qituvchidan dasturlash sohasida yetaricha bilim va malakalarni talab qiladi. Lekin hamma o'qituvchilar ham dasturlash sohasida mutaxassis emas. Buning yechimi sifatida shunday dasturlar ishlab chiqish taklif qilinadi-ki, undan dasturlash sohasida mutaxassis bo'limgan oddiy o'qituvchilar ham o'z kasbiy faoliyatlarida foydalana olishsin.

Ma'lumki har qanday ta'lim dasturi ma'lumotlarni qayta ishslashga, o'quvchilar bilimini sinovdan o'tkazishga mo'ljallangan. Misol tariqasida, umumta'lim maktablarida olinadigan ichki nazoratning natijalarini aniqlash uchun "Tekshirish" dasturni ishlab chiqishni ko'rib chiqamiz. Bunda o'qituvchi uchun oldindan tayyorlangan dastur taklif qilinib, unda o'quvchilarning test savollarga bergan javoblari (kalit) kiritiladi. O'quvchilarning javoblari oldindan kiritilgan test javoblari (key) yordamida tekshirilib xar bir o'quvchining o'zlashtirishi, bajargan variantlari, sinf o'quvchilarida qaysi savollarda bo'shlqlar yuzaga kelgani yaqqol namoyon bo'ladi. Bu dasturni fakat birgina fan uchun emas, balki bir nechta fanlar uchun xam qo'llash mumkin.

Dars jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan dasturlardan biri "Dasturlashtirilgan dars" dasturidan xam darslarda foydalanishni tavsiya kelaman. Dasturning "ma'lumotlar bazasi"ga istalgan fan bo'yicha o'qituvchi o'zi olib boradigan, nazorat-sinov va tadbirlari mavzusi bo'yicha ma'lumotlarni krita oladi. Bunday dasturlar guruh tarkibi (individual, kichik guruh, guruhli), guruh yoshi (bosholang'ich, o'rta va o'rta-maxsus) va mashg'ulot turlari (ma'ruza, amaliy yoki nazorat)ga mo'ljallab ishlab chiqilishi mumkin. Ushbu yechimning ustunlik tomonlaridan yana biri shu-ki, qolip dasturdan turli darsdan tashqari tadbirlarda ham samarali foydalanish mumkin.

Bugungi kunda xammamizga ma'lumki o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish ya'ni darslarda o'quvchilarning kompetentligini oshirish maqsadida bir qator ishlar qilinmoqda. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasini baholovchi dasturlar ta'lim muassasasi, o'qituvchi va o'quvchi uchun bir qator qulayliklari va afzalliklarga ega bo'lib, o'quvchilarning kompetensiyaviyligini oshirib, ularning o'zlashtirish darajalarini oshiradi. O'quvchilar o'zini kompetentligiga qarab baholanayotganini tushunib yetsa, egallagan bilimlarini hayotda qo'llashga o'rganadi va o'zida o'zini o'zi baxolash kabi kompetensiyalarini shakllantirishga ongli ravishda xarakat qiladi .

Ushbu dasturlarni ta'lim tizimida joriy qilish jarayonida foydalanuvchilar tomonidan baholanishi dasturni takomillashtirish borasida muhim ahamiyatga ega.

Ushbu yechimning imkoniyatlari va afzalliklaridan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bunday



dasturlardan foydalanish ta’lim muassasasida olib borilayotgan o‘quv jarayonning sifatini yaxshilaydi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, o‘qituvchi mehnatini osonlashtiradi va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”
Sh.M.Mirziyoyev, 2017 у
2. Internet saytlari.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA UCHRAYDIGAN AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNI TA'LIMIY O'YINLAR YECHISH USULLARI

Karimova Shahnoza Bektemirovna

Xorazm viloyati Urganch tumani

16-son maktabning boshlang'ich ta'lif fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va ularni yechimini ta'limi o'yinlар орқали yechish usullari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ta'limi o'yin, yangilik, "Koptoklar raqsi" o'yini, "So'nggi bo'g'in – yangi so'z" o'yini, "Son va so'z" o'yini, interfaol usullar, texnologiya, muammo, yechim, fikr.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda ta'lif tizimiga ham o'ziga xos rivojlanishni, yangiliklarni kiritish kerak bo'ladi. Bu borada ta'limi o'yinlarning ahamiyati o'rni katta. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirish samaradorligini oshirishda turli ta'limi o'yinlardan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish va matematika darslarida o'quvchilar bilan ishslashda qator muammolar kelib chiqadi. Ushbu muammolar va ularning yechimlarini ta'limi o'yinlар орқали hal qilishni ko'rib chiqamiz.

1. Fikrni mustaqil bayon eta olmaslik. O'quvchilar darslarda o'z fikrlarini bayon etishga qiynaladilar. Matnni o'qib, mazmunini so'zlab berishda so'z boyligi kamlik qiladi. Bunday vaziyatda o'quvchilar nutqini o'stirishda va savodxonligini oshirishda muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda qiziqarli ta'limi interfaol o'yinlardan foydalanish ijobjiy natijalar bermoqda. Muammoni hal etishda "Rangli qalam", "G'aroyib harf", "Koptoklar raqsi", "Mening ertagim", "Mos va soz" "kabi yangi interfaol usullardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinflarda o'qitishning o'yinli shakllari o'quvchilarini o'ylashga, mustaqil fikrlashga, izlanishga, xulosalar chiqarishga, tezkorlik va hozirjavoblikka undaydi, fanga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Quyida yangi interfaol o'yinlardan namunalar keltiramiz.

"Koptoklar raqsi" o'yini. Sinf o'quvchilari ikki yoki uch guruha bo'lib olinadi. Har bir guruh sardoriga bittadan koptok beriladi. O'qituvchi tomonidan "boshlang" degan start berilishi bilan sho'x musiqa sadolari ostida koptoklar qator bo'ylab qo'ldan-qo'lga o'ta boshlaydi. Musiqa to'xtagach, koptok kimning qo'lida qolsa, o'sha o'quvchi koptok bilan chiqib, o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajaradi. Musiqa qo'yiladi, koptoklar yana "raqsga tushadi". O'yin shu tarzda davom etadi. Har bir to'g'ri javobga 1 ball qo'yiladi. Eng ko'p ball to'plagan guruh g'olib bo'ladi. O'qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan: 1.Ko'pburchaklarga misol keltiring. 2.Mehnat haqida maqol aytинг. 3.Rasm asosida ifoda tuzing va yeching.

Ushbu interfaol o'yin-mashqni ona tili, o'qish, matematika va boshqa darslarda takrorlash, mustahkamlash maqsadida o'tkazish tavsiya etiladi. Bu o'yin - mashqini o'quvchilar dam olish daqiqasi sifatida partada o'tirgan holatda yoki aylana va qatorma-qator bo'lib turgan holatlarda bajarishlari mumkin.


2.O'quvchilar savodxonligidagi nuqsonlar. O'quvchilar yozma nutqda ko'p imlo xatolarga yo'l qo'yadilar. Bunda "So'nggi bo'g'in - yangi so'z" o'yini kerak bo'ladi. O'yin quyidagi tarzda tashkil etiladi:

Bir o'quvchi bitta so'z aytadi, ikkinchi o'quvchi birinchi o'quvchi aytgan so'zning oxirgi bo'g'ini bilan boshlanadigan yangi so'z topib aytadi. O'yin ketma-ketlik asosida o'tkaziladi, ya'ni birinchi o'quvchining aytgan so'ziga ikkinchi o'quvchi, ikkinchi o'quvchining aytgan so'ziga uchinchi o'quvchi so'z aytadi. O'yin shu tarzda davom etadi. Masalan: Ona – Naim – imkon – konus – nusxa – xanda – daryo – Yorqinoy – Oygul va hokazo. Bu interfaol o'yin o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va tezkor fikrlashga o'rgatishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar bu o'yin orqali so'zlarni mustaqil ravishda xatosiz yozishga o'rganadilar.

"Son va so'z" o'yini. O'yin sharti tushuntiriladi. O'quvchilar navbat bilan chiqib, stol ustiga teskari qilib qo'yilgan doirachalarni tanlab oladi. Doirachada qaysi son yozilgan bo'lsa, o'sha songa mos keladigan so'z aytadi. Natijada so'z birikmasi hosil bo'ladi. Masalan: 3 soni - uch o'rtoq, 2 soni – ikki ko'z, 7 soni – yetti kun, 5 soni – besh barmoq va h.k. O'yin shu tarzda davom etadi. O'yin so'ngida to'g'ri javob bergen o'quvchilar rag'batlantiriladi. Doirachalar soni



o`quvchilar soniga mos holda bo`lishi ham mumkin (1-rasm). Shunda butun sinf o`quvchilari ishtirot etadi. Bu o`yin mavzuga mos holda o`qish, ona tili, matematika va boshqa darslarda qo`llaniladi.



I-rasm

Boshlang`ich sinf darslarida turli interfaol o`yinlarni qo`llash o`quvchilarni faollikka o`rgatish bilan birga fanlararo bog`lanishni ham vujudga keltiradi.

Foydalananilgan adabiyotlar

1. G`. Boymurodova va boshqalar O`qish. 1-sinf O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma.
2. U. Masharipova Ona va boshqalar. Ona tili. 1- sınıf. O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma.
3. B.Abdullayeva va boshqalar Matematika. 1 – sınıf. O`qituvchilar uchun metodik qo`llanma.
4. www.ziyouz.com



TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

Kuranbayeva Tursunoy Matyakubovna,
Yo'ldasheva Ozoda Qadambayevna
Ufganch tumanidagi 7 son mактабning
Texnologiya fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan interfaol ta'lif metodlari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, o'quvchi, yoshlar, texnologiya, duradgorlik, yog'och.

Texnologiya fani o'qituvchisi o'quvchining politexnik dunyoqarashini shakllantirishi, materiallarni qayta ishlashning yangi zamonaviy texnika va texnologiyalari to'g'risida tasavvur uyg'otishi, kasb-hunarlar haqida ma'lumot berishi, kasb tanlashga, ilk mакtab yoshidan mehnatga ijodiy yondashishga, mustaqil ishlashga, tejamkorlikka o'rgatishi hamda estetik madaniyatini rivojlantirishi lozim. Fanni o'qish orqali o'quvchilar kundalik hayotida zarur bo'ladigan uyro'zg'or ishlarini texnologiya asosida bajarishni o'rganadi, qobiliyati va qiziqishiga mos kasb-hunar tanlaydi, oila budjetiga hissa qo'shami, bo'sh vaqtidan unumli foydalanadi, o'zgalar mehnatini qadrlashga hamda o'z mehnatidan zavqlanishga odatlanadi, ustoz-shogird an'analari ahamiyatini, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni qadrlashni, hunarli kishining rizqi butun bo'lishini tushunib yetadi.

Texnologiya mashg'ulotlari samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi darsga ijodiy izlanib tayyorlarlik ko'rishi lozim. Har bir o'qituvchi o'z ustida ishlashi, ta'lif portallaridan turli buyumlarni tayyorlash texnologiyalarini o'rganishi, dizayn loyihalardan namunalar olgan holda ijodiy yondashib foydalanishi lozim. O'qituvchi kasbiy kompetentliligini oshirishda mustaqil ta'lifning o'rni katta. Kasbiga doir kerakli ma'lumotlarni egallashi va muntazam ravishda ta'lif sohasidagi modernizatsiyalash jarayonlari bilan tanishib borishi hamda yangiliklarni dars jarayoniga tatbiq etishi o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.



Quyidagi pedagogik texnologiyalarni texnologiya darslarida qo'llash yaxshi natija beradi:

- izohli — illustratsiya materiallaridan foydalanib dars jarayoni tashkil etiladi;
- reproduktiv — tafakkur faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lif jarayoni;
- produktiv — bu metod unumli daraja deb ham ataladi. Bunda oldin egallagan bilimlar asosida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan evristik faoliyat vujudga keladi;
- ijodiy daraja — bu faoliyat baholashga tegishli bo'lib, o'quvchi egallangan bilimlari asosida yangi axborot izlab topadi va ijod qiladi.

Bu dars usullari o'quvchilarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirib, kasbiy sifatlar hamda ma'naviy dunyoqarashni shakllantiradi. Darsda "Muloqot", "Nazorat darsi", "Suhbat", "Viktorina", "Ari uyasi", "Texnik hujum", "Oyda qolib ketmaylik", "Taqdimot", "Ijodkor kim", "Bugungi ishni ertaga qo'yma", "O'zing o'yla, o'zing top, o'zing yasa", "Eng boy o'quvchi", "Arra", "Intellektual ring", "Bilimlar qasriga sayohat", "Mozaika", "Domino", "Zinama-zina", "50x50", "Zanjir" kabi metod, o'yin va mashqlardan foydalanish samara beradi.

Masalan, "Yog'och va boshqa materiallardan xalq hunarmandchiligi ish usullari asosida buyumlar tayyorlash" mavzusini o'rgatishda darsning mustahkamlash qismida "O'zing o'yla,



o‘zing top” o‘yin mashqidan foydalanilsa, “Intellektual ring” o‘yin mashqi va “Eng boy o‘quvchi” metodi orqali integratsiyalashgan jarayonni vujudga keltirib, ingliz tilida so‘zlashish muhitini paydo qilish mumkin. Yangi mavzu “Sapyor” o‘yini va “Nilufar gul” graforganayzer sxemasi asosida tayyorlangan tarqatma materiallar bo‘yicha mustahkamlanadi. Uyga vazifa qilib, mavzuga oid test savollari tuzib kelishni topshirish mumkin.

O‘quvchilarni darslikdan unumli foydalanishga o‘rgatish fan o‘qituvchisining vazifasidir. Bunda o‘qituvchi darslikdagi nazariy ma’lumotlar asosida amaliy mashg‘ulotni bajarish bosqichlarini namunali tashkil etsa, o‘quvchi darslikdan ko‘rib, o‘rganib, unga ijodiy yondashgan holda mustaqil ravishda darsda va darsdan tashqari vaqtarda, uyda ham bajarishi mumkin. Bu jarayon o‘quvchini o‘z ustida ishlashga, izlanishga, mustaqillikka o‘rgatadi. Faqat 1-sinf darsligida berilgan topshiriqni bajarishda albatta o‘qituvchi, ota-onasiga, aka-opalarning yordami kerak bo‘ladi.

Texnologiya amaliy fan bo‘lgani sababli o‘quvchilar bilan nafaqat dars jarayonida, balki darsdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarida ham shug‘ullanish lozim. To‘garakka o‘quvchilarni jalb etish, mashg‘ulotlarni ularning qiziqishi va qobiliyatiga mos tashkil etish ta’lim samaradorligini oshiradi. To‘garak mashg‘ulotlari yillik taqvim rejasini matabning ichki sharoiti, hududiy moslik, urf-odatlarga ko‘ra tuzish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya darslarini ana shunday zamонавиу usul va metodlar yordamida olib borish o‘quvchilarning ta’lim muassasida bilim olish bilan cheklanib qolmay, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi. Biz texnologiya o‘qituvchilari esa o‘quvchilarning bu qiziqishlarini amalgaga oshirishda bor salohiyatimiz va mehnatimizni ayamaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., SHaripov SH.S., Qo‘ysinov O.A. O‘rta maxsus, kasbhunar va oliy ta’lim integrasiyasi. Metodik qo’llanma. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2006.
2. “Mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi prezident farmoni loyihasi.



INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AKT VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Matyakubova Sayyora Amatjonovna

Xorazm viloyat Urganch tumani
43-son mакtab Informatika fani o'qituvchisi

Tel: +998937411582

Raimova Hilola Narimonovna

Xorazm viloyati Urganch tumani
4-sonli mакtab Informatika fani o'qituvchisi

Tel: +998999421817

Annotatsiya: Ushbu maqolada informatika fanini o'qitishda zamonaviy axborot kompyuter texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali darslarni qiziqarli qilib tashkil lashtirish, o'quvchilarning qiziqishini oshirish masalalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: AKT, innovatsion texnologiya, informatika, metodika, metod, innovatsiya, axborot.

XXI asrda malakali pedagog bo'lish uchun albatta axborot texnologiyalarini yaxshi egallash zarur. Inson faoliyati ko'proq uning axborotga ega bo'lganlik darajasi, ushbu axborotlardan samarali foydalana olish qobiliyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ixtiyoriy soha bo'yicha zamonaviy mutaxassis vaqt sayin oshib borayotgan axborot oqimida bemalol yo'l topa olishi uchun, u kompyuterlar, telekommunikatsiya va boshqa aloqa vositalari yordamida tegishli axborotni ola bilishi, qayta ishlay olishi va undan foydalana olishi kerak bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, ta'limda samaradorlikni ta'minlaydi.

Ta'lim sifati nafaqat o'quv jarayoni natijalari, balki mazkur natijalarni shakllantiruvchi omillarni ham ifodalaydi. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish esa ta'lim natijalari hamda mazkur omillar sifatini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan, innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish muammosi shaxsni rivojlantirish hamda uni hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan kompleks vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, ta'lim siyosatining bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalar o'quvchilarning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rnatadi. O'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, ularni shu fanga qiziqtirib, yangi ixtiolar qilishga undaydi.

Fan – texnikaning rivojlanishi, taraqqiyotning olg'a yurishi, fanning o'qitilishi bilan informatika fanining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Fanning o'qitilishi, uning mazmun – mohiyatini o'quvchilarga yetkazishda ham bir qator yengilliklar yaratib kelinmoqda. O'quvchilarning bu fanni o'rganishga intilishlarining ortib borishi, biz o'qituvchilarni ham tobora ruhlantirmoqda.

Informatika fanini o'qitishda innovatsion metodikalar:

Metodik ta'lim - tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiqqan va ta'lim - tarbiya metodikasi asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalariga asoslanib rivojlanadi. Innovatsiya esa yangilik yaratib, zamonaviy texnologiyalar asosida fanni o'qitish va rivojlantirish tushuniladi.

Informatika fani aniq fan va hisob kitoblarga asoslangan, isbot talab qilinadigan fan bo'lganligi sababli ilg'or pedagogik texnologiyaning yaratilgan ba'zi metodlarini qo'llash biroz qiyinchilik tug'diradi. Shunday bo'lsada Aqliy hujum, Kichik guruhlarda ishslash, BBB metodi, Klaster kabilalar darsning qiziqarli o'tishiga yordam beradi. Bundan tashqari, o'quvchilar bilimini baholashda, mustahkamlashda masalalar yechish metodi asosiy rolni o'ynaydi.

Dars o'tish uslubimizdan kelib chiqib, darslarni qiziqarli tarzda o'tishimiz uchun quyidagi turli metodlar va o'yinlardan foydalanishimiz mumkin.

To'g'risini top va yig' metodi. Biror masalani yechish algaritmmini blok – sxema ko'rinishida chiqarib bo'laklarga bo'lib, aralashtirib chiqamiz. O'quvchilar bu algaritmni bajarilish tartibini to'g'ri tanlab yig'ishlari kerak bo'ladi. Bu bilan biz o'quvchilarni mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga o'rnatib boramiz.

Formulani top metodi. Masalani matn ko'rinishida beramiz, o'quvchilar masala shartiga mos



formulani o’zlarini keltirib chiqarishadi va yechish algoritmini tuzadilar. Keyin shu algoritmga mos dasturni tuzib, kompyuter xotirasiga kiritib (Turbo Pascal, Pascal ABS yoki Delphi dasturlaridan biriga) natijalarini olib, tahlil qila olishiga o’rgatamiz.

Afzalligini top metodi: Bunda, o’quvchilarga mavjud operatsion sistemalar nomlari yozilgan slaydlar taqdim etiladi. O’quvchilar har bir operatsion sistemaning qachon, kim tomonidan ishlab chiqilganligi, interfeysi qanaqaligi, versiyalari, kamchiliklari va afzallik tomonlarini topishadi. Shu orqali o’quvchilar, mavjud operatsion sistemalar ichidan eng ommolashgani va eng qulayini aniqlashni o’rganadilar.

Zamonaviy AKT lar va innovatsion texnologiyalar bugungi kunda har bir fanni o’quvchilarga tushuntirishda eng ommabop va qulay usuli hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasida AKT va innovatsion texnologiyalardan foydalanish quyidagi natijalarni beradi:

- dars samaradorligini oshirishni ta’minlashda ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish;
- o’quvchini har tomonlama rivojlantirish;
- axborot jamiyat sharoitlarida maktab bitiruvchilarini hayotga tayyorlash;
- global axborotlashtirish jarayonlari sababli kelib chiquvchi ijtimoiy buyurtmani bajarish kabi vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.I.Taylaqov, A.B.Axmedov Informatika va axborot texnologiyalari. 11- sinf uchun darslik.
2. A.Sattorov Informatika va axborot texnologiyalari. Akademik litsey va kasb – hunar kollejlari uchun darslik
3. B.Boltayev, A.Azamatov Informatika va hisoblash texnikasi asoslari. 8-sinf uchun darslik.



**MASOFAVIY TA'LIM – OTA-ONA, FARZAND, O'QITUVCHI HAMKORLIGINING
YORQIN KO'RINISHI**

Mavlonov Farhod O'ktamovich

Xorazm viloyati Urganch tumani
5-son məktəbning Tarbiya fani o'qituvchisi
Tel: 995086106

Moxmudov Sarvar Allaberganovich

Xorazm viloyati Urganch tumani
43-son məktəb Tarbiya fani o'qituvchisi
Tel: 881121819

Annotatsiya: Maqolada ota-ona va farzand, ustoz munosabatlarining pedagogik, psixologik masalalarini asoslab beriladi. Shuningdek, o'quvchi shaxsini tarkib toptirishda oilaviy muhit, o'qituvchi mahorati, ota-ona va farzand munosabatlarini tashkil etishdagi ma'suliyatini ifodalash yo'llarining pedagogik-psixologik jihatlari, masofaviy ta'limning o'rni asoslab, tahlil qilib beriladi.

Kalit so'zlar: Oila, ota-ona, farzand, o'qituvchi, oilaviy muhit, jamiyat, tarbiya, ta'lim, muloqot, maqsad, bilim, kompetensiya.

Oila jamiyatning negizi, har bir insoning shaxs bo'lib shakillanishida muhim rol o'ynaydigan, qadriyatlarni tarkib topadigan xatti-harakatlarda bolalikdan boshlab shakllanadigan barcha fazilatlarni tarbiyalovchi maskan ham hisoblanadi.

Farzand – oila tayanchi. Oila esa – nafaqat bir yurtning, xalqning umuminsoniyatning eng muhim bo'g'inidir. Shuningdek, olamning tirikligi davomiyligi oiladandir.

“Odobli, bilimdon va aqli, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir. Sog'lom, odobli farzandlari bor inson chinakam boydir” deb fikr yuritgan allomalarimiz.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona hayot falsafasida inson shaxsiga bo'lgan chuqur hurmat, mehnatlar, tarbiya usullari, ta'lim metodlari, oilaviy muhit, ta'lim mazmuni aks etadi.

Dunyoda har bir inson hech bir g'arazsiz o'zidan-da yaxshi bo'lishni istaydigan eng yaxshi ideali, yagona borliq – bu uning farzandidir. Shuningdek, har bir ota-ona farzandining aqli, zehnli, bilimdon bo'lishini xohlaydi, yaxshi ta'lim olishi uchun, kam-u ko'stsiz ulg'ayishi uchun intiladi.

Bugungi global o'zgarishlar yuz berib, turli tuman voqealar, tabiat va insoniyat o'rtasidagi bo'layotgan munosabatlarni kuzatar ekanmiz, barchasini zamirida ilm, tafakkur, mehr oqibat insoni munosabatlar yotganini ko'rishimiz mumkin.

“Har ishda bir hikmat bor” deydi dono xalqimiz. Bugungi davr talabi bo'lgan kompyuter texnologiyalari, masofaviy ta'lim o'quvchilarni yanada zukkolikka, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqni rag'batlantirib boradi.

Hozirgi davrda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanib har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash har bir ota-onani, pedagogning asosiy burchi, vazifasi va istagidir.

Farzand tarbiyasi ota-onaning eng katta vazifalaridan biridir. Ota-onalardan “Farzandingizga yetaricha e'tibor beryapsizmi?” savoli bo'yicha berilgan natijalarga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Savolga 86 foiz ota-onalar “ha” javobini berdilar, 14 foiz ota-onalar esa oilaviy sharoit, kasb, vazifalar taqozosi bilan “biroz kamroq” javobini berishdi. Shu so'rovnomani tahlil qilsak, aslida ota-ona, farzand, o'qituvchi hamkorligini masofaviy ta'lim yanada yorqinroq ko'rsatib berilganini ko'rsatadi, chunki, masofadan ta'lim ota-onaning farzandi bilan munosabatlarini qanchalik to'g'ri tashkil etilayotganini ko'rsatadi. Demak, ota-onalar orasida farzandining tarbiyasini o'z tasavvurlari va imkoniyatlari doirasida olib bora olmayotganligini tan olayotgan, o'zlarini bu masalada tajribasiz his etayotganliklarini va bu holat ularda norozilik tuyg'ularini keltirib chiqarayotganini ko'rsatadi. Bu borada ota-onalarni farzandi bilan munosabati, pedagogik jihatdan tarbiya va ta'lim borasidagi ilmlarini kengaytrish va zarur tavsiyalarni berish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishimiz kerakligi ko'rinadi. Bunga erishishning eng qulay yo'li, avvalo, ota-onalarning bilimlarini oshirish, ularning sog'lom tafakkurini va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdir.

Bola shaxsini shakllantirishda ota-ona o'zi o'rnak hisoblanadi. “Qush uyasida ko'rganini qiladi” maqoli bejiz aytilmagan. Zero oilada kitobxonlik madaniyati qanchalik rivojlangan bo'lsa,



o`sha oilaning farzandlari ilm olishga ishtiyoyqmand bo`ladi. Ma`naviyatni, tafakkurni hech narsa kitobchalik to`ldira olmaydi. Maktab-oiladan boshlanadi. Ota-onan farzandini o`stirar ekan oila muhiti uning hayotiy ko`nikmalariga qanchalik ta`sir qilishini unutmaslik kerak. Zero muqaddas “Avesto”da yozilganidek “Ezgu fikr – bu bizning niyatimiz, “Ezgu so`z” - o`zaro namuna bo`layotgan muloqot madaniyatimiz, “Ezgu amal” – bajarayotgan amalimiz va uning in’ikosi – aks ettiruvchi borliq – farzandimizdir.

Shaxslararo munosabatlarning bir ko`rinishi sifatida ota-onan farzandlar orasida bo`ladigan munosabatlarni mentalitetimizdan kelib chiqib ijobiy jihatlari juda ko`pdir. Muqaddas dinimizda ham bu borada juda chiroyligi, to`liq ko`rsatmalar berilgan hadislarda xalq og`zaki ijodi namunalarida ham o`zaro munosabatlar sabab natija borasida fikr yuritiladi.

Hozirgi davr talabi yoshlarni rivojlanishi, aql idrok qobiliyatini IQ darajasiga ko`ra yuksalishi, EQ-insonning hissiy va ijtimoiy munosabatga kirishish qobiliyatini o`z tuyg`ularini tanib olishi, suhbatdoshining his-tuyg`ularini anglay olishi (impatiya) boshqaga yordam berishdan zavqlanish fazilatiga ega bo`lishi to`g`ri va sog`lom aloqa – munosabat o`rnata olishi – oila muhitida tarbiyalanadi, o`rnak sifatida bo`y cho`zadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo`lida yanada hamjihat bo`lib qat`iyat bilan harakat qilaylik, “Ijtimoiy barqarorlikni ta`minlash muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusida o`tkazilgan anjumanda so`zlagan nutqi.
2. Yo`ldoshev. M Oiladagi ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta`siri.
3. Hayot kitobi: Yosh oilalar uchun ensiklopedik qo`llanma.
4. Maktab oiladan boshlanadi “Yangi asr avlod” 2014.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA PIRLS TADQIQOTLARI

Mirhaydarova Mavludaxon Oqyulovna

Andijon viloyati Buloqboshi tumani
XTB ga qarashli 10- umumiy o'rta ta'lif
maktabining boshlang'ich ta'lif ustozasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda PIRLS xalqaro baholash tadqiqotidan foydalanish haqida fikr mulohazalarbildiriladi.

Kalit so'zlar: PIRLS, matn, tajriba, o'qish, savodxonlik, xalqaro, test, usul.

Prezidentimiz SH.Mirziyoevning yosh avlodni bilimli komil inson qilib tarbiyalash to'g'risidagi, kelajak yosh avlod qo'lida ekanligi ular bi necha jihatga ega bo'lish lozimligini ta'kidlaydi, ya'ni: "... o'z haq-huquqini taniydig'an bo'lsin, buning uchun kurashsin; - o'z kuchi va inkoniyatlariga tayanadigan bo'lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko'rsin..."[1].

2017-2018 o'quv yillarda maktab yoshidagi bolalarni o'qishga tortish 97%ni, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni maktabga jalb qilish 100%ni tashkil qilgani holda jahoning Xalqaro ta'lifni nazorat qilish tashkilotlarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lifning sifati xususidagi mahlumotlarning yo'qligi quvonarli holat emas.

O'tgan yili Xalqaro YuNISEF ta'lif sohasi vakillari mamlakatimiz 4-sinf o'quvchilari ta'lif sifatini oshirish masalasi yuzasidan saylanma nazorat ishlarini amalga oshirdilar. 4-sinflarda o'tkazilgan tajribalar o'quvchilarining 42,9 foizi o'qiganlarini tushunishlari, uy vazifalarini bajarishlari uchun 30–60 minut vaqt sarflashlarini aniqlash imkonini berdi. Mazkur holat boshqa mamlakatlar bilan taqqoslanganda bir qator nomuwofiqliklar, tafovutlarning mavjudligini ko'rsatib berdi [2].

Xalqaro testlarga murojaat qilishning sabablari nimalar bilan izohlanadi?

1. Agar biz milliy ta'lirimiz jahon standartlari talablariga javob berishini istasak, demak dunyo pedagogikasi rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishimiz talab qilinadi, aks holda ta'lif –tarbiya jarayoni past darajadaligicha qolib ketaveradi. Har qanday vosita mahlum vaqtidan so'ng mahnan eskiradi. SHu bois ta'lif natijalarini baholashning eng ilg'or usullarini qo'llashda PIRLS tajribasi bizga qo'l keladi. Chunki

PIRLS xalqaro ekspertlar hamjamiyati tomonidan endi ta'limga qadam qo'ygan o'quvchilar o'qish savodxonligini tekshirishning dunyo miqyosida tan olingan dasturi hisoblanadi.

2. Ikkinci sabab pragmatik ahamiyatga molik bo'lib, ta'lif amaliyotida ilmiy natijalardan foydalanish ko'nikmalariga taalluqlidir. PIRLS testlari – to'rtinchisinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi xalqaro monitoringini amalga oshiradi. Mazkur dasturning ishtirokchilari 2001 yildan buyon har 5 yilda ta'lif natijalari kimga va nimaga bog'liq ekanligi, bu borada aynan qanday nostandard yechimga kelish kerakligi to'g'risida muhim mahlumotlarni to'plab kelmoqda.

Nima uchun ta'lif tizimi samaradorligi markaziy ko'rsatkichi o'qish savodxonligi deb ehtiroy etiladi? Chunki aynan matnlarni o'qish orqali orttiriladigan axborotlarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish ko'nikmalar har bir inson taqdiri va mamlakat ravnaqiga o'z tahsirini ko'rsatadi:

- yuqori o'qish savodxonligiga ega bo'lgan o'n besh yoshli bola katta ehtimol bilan o'qishni tamomlaydi, ta'lifning keyingi bosqichini davom ettira oladi;

- o'qish savodxonligi darajasi mamlakat iqtisodi ravnaqini tahminlashda boshqa har qanday ta'lif natijalariga nisbatan ustuvorlikka ega.

Nega aynan 4-sinfni bitirayotgan o'quvchi bolalarning o'qish savodxonligi? Sababi, aynan shu yoshda rus olimi Leontevning ehtiroyficha, asta-sekinlik bilan o'qish ta'limididan ta'lif olish uchun o'qish bosqichiga o'tiladi.

PIRLS testlari predmeti keng tushunchani ifodalaydi. Millis Martin: "O'qish savodxonligi –jamiyat yoki muayyan bir shaxs uchun qadrli bo'lgan turli yozma nutq shakllarini tushunish va foydalanish qobiliyatları. O'quvchi ko'plab matnlarga murojaat qilish asosida o'z xususiy tushunchalarini loyihalashtiradi. Ular ta'lif olish, maktab ijtimoiy hayotida faol ishtirok etish, kitobdan zavq olish uchun o'qiydilar," -deb ta'kidlaydi.

Mazkur e'tirof mohiyatan yozma nutqdan foydalanish hamda matnlardan foydalanish asosida o'z xususiy his-tuyg'ularini yozma shaklda ifodalash ko'nikmalarini anglatadi. PIRLS testlari nazariy doirasi jihatdan to'rt xil asosiy o'qish ko'nikmalarini aniqlash imkonini beradi:



- matnda ochiq-oydin ifodalangan axborotni topish;
- uning asosida oddiy aqliy xulosalar chiqarish;
- matndagi g’oya va axborotlarni sharhlash, integratsiyalash;
- matn shakl va mazmunini baholash.

Mazkur to’rt o’qish ko’nikmalari har bir matn yuzasidan test savollarini tuzishda vazifasini o’taydi. PIRLS ochiq matnlaridan foydalangan holda sanab o’tilgan o’qish ko’nikmalarining har biriga to’xtalib o’tamiz. Test materiallari va natijalarini tahlil qilishda ifodalanayotgan o’qish ko’nikmalari orasidagi chegaraning nisbiy ekanligiga e’tibor qaratish kerak bo’ladi. Matnni o’qishda ular yaxlit holda amalga oshiriladi, o’qish bilan bog’liq har qanday vazifani amalga oshirish o’quvchidan mayjud barcha ko’nikmalari safarbarligini taqozo qiladi.

Biz ko’rib chiqayotgan PIRLS testlari 12 ta matn (shulardan 6 tasi badiiy va 6 tasi axborot shaklida) hamda 175 ta savolni qamrab olgan. Matn va savollarni ishlab chiqishda PIRLSga ahzo davlatlarning yetakchi mutaxassislaridan iborat ekspert kengashi har bir matn yuzasidan beriladigan savollarga javob berishda o’quvchilarining aynan qaysi bir o’qish ko’nikmalari talab qilinishi bilan bog’liq murakkab vazifalarni hal qilishlariga to’g’ri keladi [4].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mamlakatimiz ta’lim jarayoniga Xalqaro PIRLS testlarini joriy qilish bitiruvechi sinf o’quvchilarining tafakkur faoliyatini rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, nostandard qarorlar qabul qilish va kreativ fikrlashlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot

1. Mirziyoev SH.M. O’zbekiston ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuvdagagi mahruzasi. Toshkent, 03.08.2017.
2. TSukerman G.A. i d. CHitatelg’skie umeniya rossiyskix chetveroklassnikov: uroki ‘IRLS. - M.: 2016.



O'QUVCHILAR FIKRLASH QOBILIYATLARINI O'STIRISHDA MASHQLARNING AHAMIYATI

Mirzarahimova Marhaboxon Xudoberdiyevna

Farg'ona viloyati Yozyovon tumani
7-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilar fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda mashqlar sistemasidan foydalanish va uning ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, boshlang'ich sinf, fikrlash, mashq, matematika, masala

O'quvchilar fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda masala yechishga o'rgatish, berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishni aniqlashni va buning asosida arifmetik amallarni tanlash hamda ularni bajarishni o'rgatishdan iboratdir. Masalalar yechish davrida o'quvchilar egallashi lozim bo'lган sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog'lanishni o'zlashtiradilar. O'quvchilarni masalalar yecha olishlari bu o'quv darslarini qanchalik o'zlashtirganligiga bog'liq. Boshlang'ich sinflarda yechilishi berilgan sonlarni va nomalumlar orasidagi bir xil bog'lanishlarga asoslangan. Aniq mazmunni va sonli berilganlari bilan esa farq qiluvchi masalalar gurupasi bilan ish ko'rildi. Masalalar ustida ishlash o'quvchilarni avval bir turdag'i masalalarni echishga so'ngra boshqa turdag'i masalalarni yechishga o'rgatish lozim. O'quvchilarni sonlar bilan va sonlar orasidagi bog'lanish o'rgatiladi. Bularga erishish uchun bir necha bosqichlar ko'zda tutish lozim bo'ladi. 1-bosqichda o'qituvchi ko'rيلayotgan turdag'i masalalarni yechishga tayyorgarlik ishini olib boradi. Bu bosqichda o'quvchilar masalalarni yozishdan tegishli amallarni tanlash uchun asos bo'ladigan bog'lanishlarni o'zlashtirishlari kerak bo'ladi. 2-bosqichda o'qituvchi ko'rيلayotgan turdag'i masalalarni yechishi bilan o'quvchilarni tanishtiradi, bunda o'quvchilar berilgan sonlar va nomalum son orasidagi bog'lanishni aniqlaydilar. Buning asosida arifmetik amallarni tanlashni o'rganadilar, ya'ni masalada ifodalangan aniq vaziyatdan tegishli arifmetik amalni tanlashga o'tishni o'rganadilar. Bu ishlarni olib borish natijasida o'quvchilarni masalalarni yechishini va qanday amallarni, tanlashni o'rganadilar. 3-bosqichda o'qituvchi ko'rيلayotgan turdag'i masalalarni yechish uquvini shakillantiradi. O'quvchilar bu bosqichda ko'rيلayotgan turdag'i istalgan masalani uning aniq mazmunidan qat'iy nazar echishini o'rganishlari lozim. Ya'ni bu turdag'i masalalarni echish usullari umumlashtirishlari kerak bo'ladi.

1. Bir kavadratning yuzi 64 kv dm, ikkinchisi esa undan ikki marta ortiq. Ikkinci kvadratning yuzini toping.

Yechish: $64 \times 2 = 128$ kv dm ga teng. Javob: ikkinchi kvadratning yuzi 128 kv dm ga teng.

2. Birinchi issiq xonada 9480 dona, ikkinchi issiq xonada birinchiga qaraganda uch marta kam atirgul etishtiriladi. Birinchi issiq xonada ikkinchi issiq xonaga qaraganda nechta ortiq atirgul yetishtirilgan? *Yechish:* $9480 : 3 = 3160$ dona, $9480 - 3160 = 6320$

Javob: birinchi issiq xonada ikkinchiga qaraganda 6320 ta ko'p atirgul etishtirildi.

3. Maxmudda 1800 so'm pul bor. Agar u o'z pulini yarmini Karimaga bersa, ularning pullari teng bo'ladi. Karimada necha so'm pul bor?

Yechish: $1800 : 2 = 900$ so'm. Javob: Karimada 900 so'm pul bor.

Og'zaki masalalar. Oldingi qilingan ishlar ko'rsatma materialsiz masala (og'zaki masala) tuzishga o'tish uchun imkoniyat yaratadi. Og'zaki masala tuzishiga shoshilmaslik kerak. Bolalar odatda masala sxemasini oson o'zlashtirib oladilar. Unga ergashib darhol hayotdagi haqiqatni noto'g'ri ifodalaydilar bunda masalaning asosi hisoblangan miqdoriy munosabatlar mantiqini tushunmaydilar. Bajarilishi lozim bo'lган harakatning mazmunini yaxshi o'zlashtirib olgandan keyin bolalar o'z tajribalari asosida tuzulgan masalalarni ham yecha oladilar. Xilma -xil mazmundagi masalalar tevarak-atrof haqidagi bilimlarni aniqlash va mustahkamlashga yordam beradi, ularni bog'lanishi va munosabatlarni aniq o'tashga, yani hodisalarni o'zaro bog'lanish va o'zaro bog'liqlari bilan idrok etishga o'rgatadi.

Bolalarni arifmetik amallarni ifodalashga o'gatish. Bolalar masala

tuzilishini, masalalarni mustaqil tuzishni savollarga to'g'ri javob berishni o'rganib olganlaridan keyin ularni arifmetik amallarni ifoda etishga o'rgatish mumkin. Bolalar: «Masalani yechish uchun nima qilish kerak?» «Siz masalani qanday yechdingiz?» - kabi savollarga javob beradilar.



Masala muayyan sxema asosida taxlil qilinadi. Bolalarni geometrik figuralar bilan tanishtirishning asosiy vazifasi ko'pburchaklar bilan tanishtirishdir. Uchburchak, kvadrat, to'g'ri to'rtburchaklar ko'pburchaklarning turlari sifatida qaraladi. Dastur mazmuni shunday tuzulganki uni o'zlashtirish natijasida bolalarning ko'pburchaklar turlari haqidagi umumiy bilimlari kengayadi. Bu bolalrada elementar matematik tafakkurni o'stirishga imkon beradi. Figuralarning moddalari bilan shug'ullanish jarayonida bolalarning ko'pburchakning ba'zi bir xususiyatlari haqidagi tasavvurlari shakllanadi. Ko'p burchaklar tomonlari burchaklari tengligi bilan aniqlanadi. Birinchi tanishishda ko'rish, siljitish, paypastlash usullaridan kiyin son va o'lchashdan foydalanadilar. Avval umumiy belgilari: tomonlari, burchaklari, burchak uchlari ko'rsatilishi lozim. Bularni bolalar birinchi mashg'ulotlardayoq o'zlashtirib oladilar. Faqat nuqtalar qo'yib ularni birlashtirib, ko'pburchaklar chizganda qiynaladilar. xususiyatlarini o'rgana borish davomida uning yangi xususiyatlari ochila boradi: ularning 4 ta tomoni, 4 ta burchagi, 4 ta burchak uchi bor.

Harakat bilan bog'liq bo'lgan masalalarni echishga tayyorgarlik ishi bolalarning harakat haqidagi tasavvurlarini umumlashtirishni yangi miqdor tezlik, vaqt, masofa kabi miqdorlar orasidagi bog'lanishlarni olib berishni kuzda tutadi. Boalarni harakat haqidagi tasavvurlarini umumlashtirish maqsadida transport harakatini kuzatish bo'yicha maxsus ekskursiyalar o'tkazish foydali. Shundan so'ng harakatni kuzatishni sharoitida o'tkazish mumkin, bunda harakatni bolalarning namoyish qiladilar.

Xulosa shuki, Boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar xossalari va usularini o'rganishda o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlarini ko'paytirish amaliga teskari amal sifatida muvofiqlikda o'rganilishini talab etsa, ikkinchi tomondan maxsus hollarni taxlil etishda amallardagi xos xususiyatlar bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarni fikrlashlarini o'stirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika
2. darsligi metodik qo'llanma.)Toshkent. —SHarq|| 2005 yil.,
3. Bikboeva.N.U. YAngiboeva e.YA. Ikkinci sinf matematika darsligi.
4. Toshkent. —O_qituvchil|| 2005 yil.



УДК 316.3/4

ББК 60.54

IYMON – ODAMNING INSONGA AYLANIB BORISHNING MUHIM MA`NAVİY SHARTIDIR

Muftullaeva Nawbaxar Nurabulla qizi
Student, Ajiniyaz nomidagi NDPI

Annotaciya: Maqalada avtor manaviy tarbiyada inson masalasiga e'tibor qaratmoqta. Inson tarbiya ko'rib, muayyan odob va ahloq me`yorlarini, bilim va ilmlarni egallaydi diydi. Qalbida iymoni bo`lmagan odam har qancha savobli ish qilsa ham savob yozilmaydi.Odam uch narsaning butunligidan iymon hosil bo`ladi: e`tiqod, iqror va amal. Har bir sog`lom fikrli odam, insoniyatning umrboqiyligini idroq etadi

Tayansh iboralar: Iymon, Inson tarbiya, ahloq, odob,bilim, iste`dod.

Ma`naviy-axloqiy tarbiyada o`zbek xalqining boy ma`naviy merosidan keng foydalanish uning ta`sirchanligi, samaradorligini oshirishda muhim omil bo`la oladi. Ma`naviy tarbiyada inson fazilatlari halollik va poklik, to`g`rilik, birovning haqiga ko`z olaytirmaslik, qiyonat qilmaslik, insonparvorlik, mehnatsevarlik, diyonatilik, iymonlilik, halol luqma bilan kun ko`rish, ota-onani hurmat qilish kabi inson uchun zarur ma`naviy hislatlar.

“Iymon – odamning insonga aylanib borishning muhim ma`naviy shartidir. Iymon odamning muayyan g`oya va ahloqiy qadiriyatlar real haqiqat ekaniga ishonchidan iborat ma`naviy – ruhiy holat bo`lib, aql-idroqli odam ongi va ahvoli ruhiyatining nodir hodisasi va odam o`z-o`zini anglab olishining noyob vositasidir.” [1;Б-33]

Inson tarbiya ko`rib, muayyan odob va ahloq me`yorlarini, bilim va ilmlarni egallaydi, mehnat qilib tajriba orttiradi, kasb-hunar sohibi bo`ladi, malaka orttiradi, o`z qobiliyati va iste`dodini biror sohada to`la namoyon etish imkoniyatiga ega bo`ladi. Aynan ahloq, odob,bilim, iste`dod zamirida e`tiqod, ixlos, vijdon, iymon shakllanadi. Iymon va e`tiqod uzviy aloqadarlikda keladi va biri ikkinchisini to`ldiruvchi component vazifasini o`taydi. Iymon yoshlarimiz uchun hayotda to`g`ri yo`l topishning muhim omili hisoblanadi. Iymonga asoslangan ruhiy holatlarning mazmuni, ahamiyati shaxs ma`naviy kamolot darajasi bilan belgilanadi. Muhimi shundaki, iymon e`tiqod asosida barqarorlashib borgach, yoshlarimizga unga yurakdan ixlos quyish, ajdodlarimiz merosiga, milliy qadiriyatlarga ihlosmandlik ham shakllana beradi.

Iymon arabcha so`z bo`lib, lug`aviy ma`nosi – ishonchdir. Qalbida iymoni bo`lmagan odam har qancha savobli ish qilsa ham savob yozilmaydi. Shariyatda esa payg`ambarimiz Muhammad alayhissalom Alloh taolo tarafidan keltirgan barcha xabarlariga til bilan iqror etib, dil bilan tasdiqlashga iymon deyiladi, ya`niy Qur`oniy karim va hadisi shariflar orqali Alloh to`g`risida, jannat va do`zoh, qiyomat kabi g`ayriy narsalar haqida berilgan xabarlarga ishonch-iymondir. Ishonib iymon keltirish har bir mo`min-musulmonga zarur bo`lgan eng asosiy narsalarning etti odadga qisqartirilgan shakli mavjud. U iymoni mufassal deyiladi. Iymoni mufassalning uzbekchasi shunday: iymon keltirdim Alloha, Uning farishtalarga, kitoblariga, payg`ambarlariga, qiyomat kuniga, yaxshi-yomon taqdирга va ulgandan keyin tiriltirishga. Bular iymonning eng asosiy ruknlari-ustunlari xisoblanadi. Shu bilan oyat va hadislarda xabar berilgan boshqa narsalarga ham ishonib iymon keltirish shartdir.

Qalbida iymoni bo`lmagan odam har qancha savobli ish qilsa ham unga yozilmaydi. Ibodat va solih amallarning qabul bo`lishi uchun iymonning bo`lishi shartdir. Qisqacha qilib aytqanda, uch narsaning butunligidan iymon hosil bo`ladi: e`tiqod, iqror va amal. E`tiqod-dinga ichdan chuqur ishonish; iqror-so`zda buni tan olish; amal-yaxshi ishlar bilan isbotlash.

Islom olamidagi barcha buyuk zotlar raiyatni iymonli bo`lishga chorlab kelganlar va uzlri ham mustahkam iymonli bo`lish bobida xalqqa ibrat ko`rsatganlar. Alisher Navoyining “Mahbub ul-qulub” asarida ushbu satrlarni o`qiymiz: “Vafosizda hayo yo`q, hayosizda vafo yo`q. Har kimda iymon yo`q-andin odamiylik kelmak imkoni yo`q” ya`niy iymonsiz-odam emas.Tilimizda iymon so`zi keng qo`llaniladi, juda kuchli va o`tkir tushunchalarni bildiradi.

“Xalqimizda “iymonsiz!” deyishdan ortiq haqorat bo`lmasa kerak. Bu haqorat zamirida xudoga ishonch-e`tiqodi yo`q, xudodan, dindan qaytgan, dahriy ma`nolaridan tashqari vijdonsiz, yaramas, razil, diyonatsiz tushunchalari ham ifodalanadi. Bu shunday ashaddiy haqoratki, o`tmishda shu



haqoratga asossiz duchor bo`lgan oriyati kuchli odam haqorat etuvchi kimsa ustidan qoziga shikoyat qilishgacha borgan”. [2;Б.-61]

Bizningcha, zamondashimiz bo`lmish iymonli odamni qisqacha shunday tavsiflash mumkin: e`tiqodli, o`zining aniq maslagiga ega, taqvodor, oriyatli, or-nomusli, sharm-hayoli, vijdonli, andishali, insofli va shu kabi fazilatlar sohibidir. E`tiqod - bu o`z fikr va qarashlariga mahkam, sobit-qadamlik bilan ishonish va o`zgalarni ham o`zidek hisoblab, ularning lafziga samimiyat bilan ishonichdir. E`tiqodli odam eng avvalo yolg`on gapirmaydi. Yolg`on so`zlamagan odam o`zgalarni ham rostgo`y deb biladi. E`tiqod tushunchasi inson hayotining ma`nosini, uning o`ziga hosligini va mohiyatini anglash bilan bog`liqdir. Inson boshqa mahluqotdan farq qilib, ongiga, o`z-o`zini anglash qobiliyatiga egadir.

Shu tufayli ilmga intilish, o`z hayotining maqsad va mazmunini bilishga tirishish, go`zallik yaratishga, har tomonlama barkamol bo`lishga o`rinish barcha davr va millat kishilariga xos bo`lgan umum-insoniyligi, boqiy fazilatlaridir. Bu umuman inson mohiyatiga hos narsa bo`lib, u bu yorug` olamda nima uchun yashayotganini anglashga, kelajagiga zamin hozirlashga intiladi. Har bir sog`lom fikrli odam, insoniyatning umrboqiyligini idroq etadi va o`z oilasiga, farzandlariga, insoniyatga nimadir qoldirib ketishni istaydi. Shundan kelib chiqib, o`mrining maqsadi va mazmunini belgilaydi. Huddi shu narsa uning e`tiqodini ifodalaydi. E`tiqod jur`atni, mardlikni, fidoyilikni taqozo qiladi. Bularsiz u quruq g`oya bo`lib qolaveradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - engilmas kuch.T. 2008
2. J.Bazarbaev, Q.Davlatova “Odobnoma” No’kis “Bilim” 1994 j.B.33; Б.61.
3. M.Abdurahmonov,N.Rahmonov “Madaniyatshunoslik” 2011y



МАКТАБ О'QUVCHILARINING GEOGRAFIK BILIMLARINI OSHIRISH USULLARI

Mustafoyeva Humayra Yo'Idosh qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
7-maktabning geografiya fani o'qituvchisi
Telefon:+998907306773

Annotatsiya: o'quvchilarning mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fkrlashga yordam berish. Xotirani mustaxkamlash usuli, endemik usuli, sayoxat usuli, himoya alpinist usuli, xarita qiroli yoki qirolichasi usuli, kamchiliklarni bartaraf qilish va darsga ijodiy yondashish.

Kalit so'zlar: mavzuni oson tushinish, geografya darslarida xaritalar bilan ishslash, usullar, o'simlik va hayvonot olami. innovatsion texnologiyalar orqali o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi o'stiriladi, o'quvchilar olgan bilimlari ko'nikmaga aylantiriladi, bilim sifat-samaradorligi oshiriladi.

Loyihani amaliyotda qo'llashga oid vositalar:

Proyektor, ekran, noutbuk, rangli qog'ozlar, rangli markerlar, bir bog'lam ip, o'yinchoq robot, skotch, qaychi, vatman, xarita va globuslar, qo'shimcha adabiyotlar.

Loyihadan kutilgan natija :

O'quvchi o'qitilmaydi, u mustaqil o'qishga o'rgatiladi.

„Xulosa chiqarish” usuli muhokama yaratish natijasida bir necha hukmdan yangi hukmni keltirib chiqarish xulosa chiqarish deyiladi.o'quvchilarga yer yoki suv, o'simlik yoki hayvonot olami haqida bilim berish bilan bir qatorda asosli xulosalar chiqarish ham o'rgatiladi.

O'quvchilar har bir mavzuni puxta o'zlashtirgach, erkin fkirlab o'z xulosalariga ega bo'ladi. masalan: O'zbekistonning geografik o'rnini qulaylik va noqulaylik tomonlarini ko'rsatib, xulosa chiqarish.

„Katta-kichik” yoki „Teng” ya’ni kattani---taqqoslash usuli

O'quvchilar geografya darslarida olgan bilim va ko'nikmamalarini rivojlantirib, bu usul orqali o'xshash tomonlari va farqlarini ajrata olishni o'rganadilar. masalan: materiklarni tuzilishi, tabiat, ob-havosi, o'simlik va hayvonot dunyosiga qarab taqqoslash, afzalligini aniqlash mumkin. Janubiy amerika materigi bilan afrika materigini, Shimoliy amerika bilan Yevrosiyo materigini taqqoslash. dars jarayonida o'quvchilarga mavzuni yanada oson va qiziqarli tarzda tushunishda quydagi metodik usullar yordam beradi.

„Ajratish “ usuli

Bunda geografik nomlar ko'rsatib o'tiladi va ular qaysi geografik obyektga tegishli ekanligi o'quvchilar tomonidan aniqlanadi. Buni shaharlar, davlatlar misolida qo'llasa ham bo'ladi. misol uchun, o'zbekistonda joylashgan shahar yoki tumanlar qaysi viloyatga tegishli ekanligi ajratiladi.

Davlatlar tasnifda esa har bir qit'a bir necha subregionlarga bo'linadi.

ana shu subregionlarga tegishli mamlakatlar aniqlanadi.

afzallikkleri: har bir geografik nomni qaysi geografik obyektga tegishli ekanligi, geografik nomlarni to'g'ri ajrata olish ko'nikmalari shakllanadi.

„Bu kim ?” usuli

Shundagina o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmamalarini hayot bilan bog'lay oladi. Darsning kasbga yo'naltirilganligi, geog'rafik bilim va ko'nikmamalarini egallash jarayonida o'quvchilar juda ko'p kasblar bilan tanishadilar. masalan, “Boshlang'ich tabiiy geografya” kursida “Plan va karta” mavzusi o'tilganida, geodezist va topograflar kasbi haqida, litosferani o'rganishda geologlar kasbi haqida, gidroaferani o'rganishda hidrolog kasbi, iqtisodiy geografya

darslarida iqtisodichi va amaliy geografya darslarida muhandis va boshqa kasblar haqida bilim va mal'umotlar beriladi. Bundan tashqari har bir materikning tekshirilish tarixini o'rganganda, sayyohlar va olimlar haqida ham mal'umotlarni beradi. olimlar kasbi haqidagi mal'umotlar turli hil qonun va qonunyatlarni ochgan olimlarni hayoti va faoliyatini o'rganishda berib boriladi.



Bolalarni o‘qishga jalb qilish uchun o‘qitiluvchi fanlarni, ayniqsa, geografyu fanini sevish mumkin emas. ular o‘z o‘qituvchilarining hamma kitob, jurnal va gazeta yangiliklari bilan doim tanish ekanini ko‘rishlari shart. agar o‘qituvchi maktab kutubxonasida mavjud bo‘lgan barcha geografik adabiyotni hisobga olgan bo‘lsa, o‘quvchilarning geografiyadan sinfdan tashqari o‘qishlariga rahbarlik qilishi lozim. natijada o‘quvchilarning o‘sh o‘qituvchiga hamda fanga nisbatan mehr va qiziqishlari yanada ortadi.

Hozirgi zamон ta’limi o‘quvchi oldiga ham, o‘qituvchi oldiga ham misli ko‘rilmagan katta talablar qo‘ymoqda. o‘quvchilarga ularning kuchi yetmaydigan hamda ko‘p vaqtini oladigan vazifalarni berish shart emas aniq, qisqa, o‘quvchilarning esida qoladigan, sodda yangi mal’umotlarni ko‘proq berib borish kerak. oldinga qo‘ylgan vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun o‘quv jarayoni didaktik materiallar bilan ta’minlanishi kerak. didaktik materiallar orasida darslik yetakchi o‘rinda turadi.o‘qituvchi vazifasi bolalarni o‘qiganlarini mustaqil bilib olishga,

Asosiy va ikkinchi darajali narsalani ajrata olishga, mustaqil xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Yangi mavzu tushintirishda, yangi mavzuni mustahkamlashda ko‘proq test, turli o‘yinlar, usullar orqali tushintirilsa maqsadga muvofq bo‘ladi. o‘quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni o‘quvchilar yakka va guruxda o‘zlashtirib olishlari hamda suxbat-muhokama va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish va baxolash.

Foydalilanilgan adabiyotlar;

1. Maktabda geografyu 2016 yil.. geografyu fanini o‘qitilishi metodologiyasi
2. Metodik qo‘llanma ; qiziqarligeografyu. abdulla Sharopov, Baxriddin Bozorov



O’ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA XALQARO TADQIQOTLARNING O’RNI VA AHAMIYATI

Narzullayeva Munisa Xayrullayevna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-son mакtab rus tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro PISA dasturining ahamiyati, O’zbekistonda ushbu xalqaro tatqiqotlarga tayyorgarlik ko’rish ishlari, mакtab o’quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo’ladigan hodisalarни tahlil qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko’nikmalarini egallayotgани haqidagi fikrlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim tizimi, xalqaro tatqiqotlar, PISA dasturi, PISA kengashi, 15 yoshli o’quvchilar, milliy markaz.

Bugun mamlakatimizda ta’lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tajribalarni o’rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo’nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiytadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi.

Shunga muvofiq, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 8-dekabrda “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarori asosida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etildi. Eng muhimi, 2018-yil 12-noyabr kuni O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hamda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o’tasida Xalqaro talabalar bilimini baholash dasturida (Agreement for participation programme for international student assessment (PISA) 2021) ishtirok etish to‘g’risida kelishuvga erishildi. O’z navbatida, PISA tadqiqotlari haqida qisqacha ma’lumot berib o’tsak.

PISA tizimi bu nima o’zi? O’quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo’yicha xalqaro dastur bo’lib, dasturning asosiy maqsadi – 15 yoshli o’quvchi yoshlarning o’qish savodxonligi, matematik savodxonlik va tabiiy fanlar bo’yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko’rinishida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o’quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo’llay olish qobiliyatlariga baho berish va keyinchalik bu ko’nikmalarni hosil qilishga undashdir. Ushbu dastur 1997-yilda joriy etilgan bo’lib, xar uch yilda bir marta o’tkazib kelinadi, birinchi marta 2000-yilda o’tkazilgan bo’lib 43 ta mamlakatdan o’quvchi yoshlар o’z bilimlarini sinab ko’rishgan. Yillar kesimida oladigan bo’lsak 2003-yilda 41 ta mamlakatdan, 2006-yilda 55 ta mamlakatdan, 2009-yilda 75 ta mamlakatdan, 2012-yilda 65 ta mamlakatdan, 2015-yilda 71 ta mamlakatdan va 2018-yilda 78 ta mamlakatdan o’quvchi yoshlар ishtirok etishganini ko’rshimiz mumkin.

Dastur mamlakatdagи jami 15 yoshli o’quvchi yoshlarning 3% ni qamrab oladi. Har 3 yilda bitta fan yo’nalishiga afzallik berilib, 2000-yilda ilk bor o’qish savodxonligiga urg’u berilgan holda o’tkazilgan. Savol tug’iladi, nima uchun PISA xar uch yilda va 15 yoshlilar o’tasida o’tkaziladi? PISA dasturining asosiy maqsadi mamlakatlar ichida ta’lim siyosati sohasidagi qarorlar qabul qilishni qo’llab-quvvatlashdan iboratdir. Uch yillik sikllar davomida dasturni amalga oshirilishi esa o’z navbatida mamlakatlarga o’z vaqtida axborot berish, tegishli dasturlarning ta’sirini tahlil qilish uchun ma’lumotlarni taqdim etish imkoniyatini yaratib beradi.

Agarda dasturni o’tkazish davriyligi qisqa davrlarda amalga oshirilsa, o’zgarish va yangiliklarning rivojlanishi yoki yetarli ma’lumotlarni to‘play olmaslikni va o’z navbatida ish unumdoorligini kamayishiga olib keladi. Aynan 15 yoshli o’quvchi yoshlар o’tasida dasturni amalga oshirilishining sababi esa ushbu yoshda aksar iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a’zo davlatlarning o’quvchi yoshlari majburiy ta’limning oxirgi bosqichiga o’tishadi. Ushbu dasturning mukammalligi shundaki, ushbu dastur butun dunyo bo’yicha aynan 15 yoshli o’quvchi yoshlarning bilim va ko’nikma darajalarini o’lchovchi yagona dastur bo’lib xizmat qiladi. Shuningdek, dasturda



quyidagi masalalar ko‘tariladi:

Davlat siyosati masalalari: Maktablar o‘quvchi yoshlarni katta hayotga o‘tishiga munosib ravishda tayyorlay olishyaptimi? Aynan ayrim turdagи o‘quv dasturlari boshqalariga nisbatan samaraliroqmi? Aytish mumkinki, o‘quvchi yoshlar butun bir maktab hayoti davrlarida o‘zlarini uchun kerak bo‘lgan barcha bilim va malaka ko‘nikmalarini yetarli darajada o‘zlashtira olishmaydi. PISA dasturi esa o‘quvchi yoshlarni nafaqat bilim va malaka ko‘nikma darajalarini balki ularning katta hayotga tayyorgarlik darajalarini motivatsiyalash, ishontirish va o‘qish strategiyalarini mustahkamlanishiga asos bo‘lib xizmat qiluvchi dastur hisoblanadi.

Bugungi kunda PISA dasturi PISA boshqaruvi kengashi qarori asosida ta’lim vazirliklari javobgarligi ostida ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan dastur asosida ishlab kelmoqda. Kengash a’zoligi tarkibiga barcha qatnashuvchi a’zo davlatlar va shuningdek sherikchilik maqomidagi hamkor davlatlar kirishadi. Bugungi kunda ushbu maqomga faqatgina Braziliya sazovordir. Kengashga a’zo davlatlarning vakillari hukumat vakillari va ilmiy-pedagog xodimlardan tashkil topgan. Kengash PISA uchun siyosatning ustuvor yunalishlarini belgilaydi va amalga oshirish jarayonida ushbu ustuvorliklarga rioya etilishini nazorat qiladi.

Bu ma’lumotlar tayyorlash, tahlil qilish va hisobot berishning ustuvor yo’nalishlari va standartlarini belgilash, shuningdek, PISAni amalga oshirish uchun asos bo‘ladigan ish hajmini aniqlashni o‘z ichiga oladi. 2000-2015 yillar oralig‘ida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari bizga shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda Sharqiy Osiyoda- Xitoy, Koreya, Singapur, Yaponiya, Yevropada- Finlyandiya, Estoniya, Shveysariya, Polsha va Niderlandiya kabi mamlakatlarning o‘rtalim tizimi yaxshi rivojlangan bo‘lib, bizdan ushbu davlatlarning ta’lim tizimidagi ijobiy tomonlarini tahlil qilishni va qiyoslashni davrni o‘zi taqozo etmoqda. PISA dasturi tadqiqotlari davomida biz PISAg a’zo davlatlar ta’lim tizimida bo‘layotgan o‘zgarishlarni o‘zaro taqqoslash va qiyoslash, ta’lim sohasida strategik qarorlar qabul qilishni va o‘z navbatida maktablarimizda berilayotgan bilim saviyasi o‘quvchi yoshlarimizni katta hayotda o‘z yo’llarini topishida munosib xizmat qilmoqdami kabi savollarga javob topishimizga amaliy yordam ko‘rsatadi.

XXI asr – informatsion texnologiyalar asri. Bu asr o‘z mutaxassislaridan umuman oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalarni talab qiladi. XX asrda va undan oldin kuchli xotira, ensiklopedik bilim, o‘z sohasida iloji boricha ko‘proq ma‘lumotni bilgan mutaxassislar yuqori qadrlangan bo‘lsa, endi bu bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmay qoldi. Qidiruv tizimlari, onlayn ensiklopedialar, sohalar bo‘yicha mukammal onlayn ma‘lumotlar bazalari yaratildiki, endi bu ma‘lumotlarni eslab qolish zaruriyati ikkinchi o‘ringa tushib qoldi. Hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish, ulardan yangi ma‘lumotlarni hosil qila olish, xalq tili bilan aytganda “kosa tagidagi nimkosa”ni ko‘ra olish kompetensiyasi birinchi o‘ringa ko‘tarilayapti.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar.
2. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar.
3. Yo‘ldoshev. J.G’. Usmonov.S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.
5. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI ZAMONAVIY METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Ne'matova Zulfiya Mirvohidovna
O'rino byeva Kamola Abdulhamitovna

Sirdaryo viloyati Guliston Shahar

2- sonli matematika va fizika fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf oqituvchilari

Annotatsiya: Ushu maqolada boshlang'ich sinf darslarini interfaol metodlar yordamida o'qitish haqidafikr boradi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy metodlar, “Men boshlayman, sen davom ettir” o'yini, “Keyingi bo'g'inni top” o'yini, “Talaffuzda adashmang” o'yini, “Egizaklar” o'yini.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda barcha sohalar qatori ta'lim sohasini ham zamon ruhiga mos ravishda isloq qilish: ta'limning yangicha uslublarini soha olib kirish, maktab va ta'lim muassasalarini rivojlangan davlatlar ta'lim standarti asosida qayta qurish, ta'lim tarbiya jarayonida ta'limning yangicha metodlaridan foydalanish, o'quvchilarining dunyoqarashiga mos milliylik bilan zamonaviylikning uyg'un holda ta'lim jarayonini tashkil etish bugungi kunda har bir pedagogning ustuvor vazifalaridan biriga aylanib qolmoqda. Bu hol ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda pedagog o'zgacha noan'anaviy metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Pedagog noan'anaviy darslarni tashkil etishda ta'limiy o'yinlarni tanlash va uni o'tkazishda o'quvchilarining yosh xususiyati, bilim saviyasi, o'yinning o'quvchilarda zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilganligi, dars maqsadi bilan o'yin maqsadi orasidagi uygunlikni ta'minlash, o'yinning ularda o'qish istagini, bilim olish va izlanish xohishini vujudga keltirishi, o'yinda ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning birligi kabilarni hisobga olishi kerak.

“Men boshlayman, sen davom ettir” o'yini. O'qivchilar ikki guruhgaga ajratilib, birinchi guruhdan bir so'zning birinchi qismini aytish, ikkinchi guruhdan esa shu so'zning ikkinchi qismini topish talab etiladi. (mas, do'st... -... baland -... yosh -..., tez -..., qattiq -... v.h) Bu o'zin partadoshlar orasida ham o'tkazilishi mumkin. Ish - harakatni predmetning nomini, belgi va son - sanogini bildiruvchi so'zlar yuzasidan tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlar.

Ta'lim – tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, interfaollikka asoslangan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yashash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qaabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi.

Umumiyl o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'zin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi.

Interfaol o'zin turlarini tanlashda quyidagi mezonzalarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi.

-ishtiropchilarni tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki arlash guruhlar uchun o'yinlar :

-ishtiropchilarning soni bo'yicha -yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzdagi o'yinlar :

- o'zin jarayoni bo'yicha fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlarga asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan;

-vaqt me'yori bo'yicha -dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'zin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlar.

“Talaffuzda adashmang” o'yini O'qituvchi o'quvchilarga x va h yoki f-p tovushlari ishtirop etuvchi so'zlardan aytishni topshiradi. O'quvchilar ikki guruhgaga bo'linib, topshiriqni bajarishlari mumkin. Shunda kim so'zni noto'g'ri aytsa, o'yindan chiqadi. Mavzu asosida so'zni aytgan o'quvchi shu so'zni taxtada yozadi va imlosi bilan taqqoslanadi. Belgilangan vaqtida eng ko'p to'g'ri so'z aytgan o'quvchiga, sinfda o'quvchilar o'z qo'llari bilan yasagan o'yinchoqlardan sovg'a sifatida beriladi.



Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, boshlang’ich sinf o’quvchilarini o’qitishda e’tibor qratishimiz lozim bo’lgan jihat mayjudki, u ham bo’lsa, endigina maktabga kelgan bolaning psixologiyasidir. Bizga ma’lumki, 6-7 yoshli bola hali o’yin faoliyatidan to’liq ajralmagan bo’ladi. Shuning uchun ham, tajribali pedagoglar tomonidan darsni tashkil etishda ana shu jihatga e’tibor qaratiladi. Yuqorida keltirgan o’yin metodlari ham bola psixologiyasi hamda samarali ta’limni tashkil etish uchun dars jarayonida qo’llash maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Ernazarova, A.Bobomurodova “Boshlang’ich sinf ona tili darslarini tashkil etish metodlari va dars shakllari” - Navoiy – 2007



DARSLARNI INTERFAOL METODLAR ASOSIDA TASHKIL QILISHNING SHAKLLARI, METODLARI VA VOSITALARI

Norova Zilola Qo'ldoshevna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
15-sont muktab rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada darslarni interfaol metodlar asosida tashkil qilishning shakllari, metodlari va vositalari keltirib o'tiladi. Shu bilan bir qatorda mavzularni yortilishi, o'quvchilarning o'tilayotgan mavzuni o'zlashtirishi va intellektual salohiyatini oshirishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, interfaol, ta'lif, o'qituvchi, o'quvchi, dars, ko'nikma.

Har bir jamiyat kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayoti va turmush darajasi fan va ma'daniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va ma'daniyat rivojlanishi ta'lif-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.

Pedagogik texnologiyaning eng kichik modullari eng asosiy tushuncha bo'lib, ular go'yoki pedagogik texnologiyani hosil qiluvchi "g'ishtcha"lar vazifasini bajarishi bilan asosiy ahamiyatga ega. Algoritm - pedagogik texnologiya tarkibiy bo'laklari, modullari o'zaro joylashuvining ketma-ketligini avvaldan belgilangan tartibini (qoidasini) bildiradi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni: - Tashkil etish, hamkorlikda ish yuritish, takomillashtirish, taxlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat etish, baholash kabilarni o'z ichiga oladi.

Texnologiyalarning ob'ekti - ta'lif mazmunini texnologiyalashtirish jarayonidir. Texnologiyaning predmeti-ta'lif jarayonini pirovard samarali natijasini olish shakli, usul va vositalarini belgilashdan iborat.

Texnologiyaning maqsadi-ta'lif mazmunini modullashtirish, algoritmlash loyixalashtirish asosida o'quvchini shaxsiy faolligi ishtirokida Davlat ta'lif standartlarini to'la o'zlashtirishni kafolatlashdan iborat.

Xar bir o'qituvchi pedagogik texnologiyani o'z mashg'ulotlariga qo'llash uchun quyidagi texnologik xaritasidan foydalanishi mumkin:

- Mavzuni aniqlash;
- Maqsadni aniqlash;
- Mavzu yuzasidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan kalit so'zlarni belgilash;
- Vazifalar 1,2,3.... belgilab olish;

Texnologik jarayonni tashkil etish:

1. Yakka ishslash;
2. Juft bo'lib ishslash;
3. Kichik guruxlarda ishslash;
4. Katta guruxlarda munozara, savol javob, debat va xokazolar.

Tayyor xoldagi texnologiyalar avval tajriba- sinovdan o'tgan yuqori ko'rsatgich berganlari istemolga kiritiladi. Bu esa pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish asosida pedagogik tizimni yangilash asosida kechadi. Mashg'ulotlarni loyixalashtirishda xar bir o'qituvchi oldida bir savol ko'ndalang turishi kerak. Ya'ni, xar bir mashg'ulotning maqsadi, vazifasi, ketma ketligi, izchilligi, o'quvchini faollashtirish uchun nima qilish kerak va uni amalga oshirishda quyidagilarga rioya qilish kerak:

O'quv materiallarini tanlash, uni didaktik talablar asosida tashkil etish;

Foydalaniadigan metod va jarayonlarni jixozlash;

Loyixalar asosida o'quv jarayonini tashkil etishda, mashg'ulotni olib boruvchi o'qituvchi fidokorlik, ijodkorlik namunasini ko'rsatishi, o'quvchini ruxiy qo'llab quvatlash, ularni extiyoj, qiziqishlar asosida pirovard maqsadga erishishga xarakat qilish. Quyida biz mashg'ulot jarayonini loyixa asosida tashkil etish bosqichlarini keltiramiz:

- Mavzuga oid materiallarni to'plash;
- Ta'lif maqsadi va vazifalar mazmunini belgilash;
- Ta'lif shakli, metodi va vositalarini tanlash;



- Loyihada ko‘zda tutilgan tushuncha, bilim, ko‘nikma malakalarni o‘zlashtirish jarayonida sarflanadigan vaqt birligini hisobga olish;
- Har bir bosqich natijalarini olish uchun mashq va misollar tizimini ishlab chiqish;
- Mashg‘ulotni nazariy jihatdan olib borish uchun testlar, savollarni ishlab chiqish;
- Loyixani mashg‘ulot jarayoniga tatbiq etish;
- Mashg‘ulot jarayonini olib borish va yakunlash, xulosalar chiqarish mexanizmini yaratish.

Bunda asosiy e’tibor o‘quvchi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ijodiy, mantiqiy fikrlay olish ko‘nikmasini shaklantirish, uni mustaqilligi, erkinligini ta’min etish, o‘quvchini extiyoj, qiziqishlari asosida ish yuritish, o‘quvchining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, mustaqil bilim olish ko‘nikma va malakasini oshirishni hosil qilishga karatmog‘i zarurdir.

Bu zaylda tashkil etilgan ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchiga doimiy ilmiy ijodiy, uzluksiz o‘z ustida ishslash imkoniyatini beradi. Bunda xolatning ta’lim jarayoniga, uning ijodiy muhitini yaratadi va sifat samaradorlik kafolatlanadi.

Interfaol ta’lim zamnaviy darsdan boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda darslarni tashkil etishga mas’uliyat bilan yondashadigan yuqori kasbiy malakali va bilimdon metodik mahotarga ega, zamnaviy interfaol texnologiyalarni mukammal o‘zlashtirib olgan innovatsion faoliyatda ta’limni tashkil etadigan o‘quvchilarga talab oshib bormoqda. Interfaol ta’limda jarayon indivudu-allashgan holda kechadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi faol ishtirok etadi. O‘quvchi bilim jarayoniga katta hissa qo‘sadi. Jarayonni olib borishda o‘quvchilarning shaxsiy xususiyat tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi.

Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda:

- o‘quvchining o‘zaro faolligini oshadi;
- o‘quvchida o‘quv reja, dastur, darsliklar, standart me’yorlar asosida mavzu mazmunini o‘zlashtirib olish malakalari shakllanadi;
- ta’lim mazmunini, matni, mashq masalalarini mutolaa qilish, ishslash, o‘zlashtirish ko‘nikmlari o‘qituvchining kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi, ularning mas’uliyati oshadi;
- o‘quvchi erkin fikr bildirishi, o‘z shaxsiy fikrini himoya qilish, isbotlay olishga odatlanadi;
- eng muhimi o‘quv jarayonida didaktik motivlar vujudga keladi. O‘z navbatida darsni qiziqarli bo‘lishiga olib keladi. Ya’ni bu jarayonda o‘quvchining ehtiyoji, xohish, istaklari qondiriladi. Eng muhimi o‘quv materialining to‘la o‘zlashtirilishi kafolatlanadi.
- o‘qitish usullari ta’lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda (yakka, juft, kichik guruh va katta guruhlarda) kechadi.

Bunday tarzda tashkil etilgan darslarda o‘quvchi ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining mehnat va tanqidiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Mavzularda ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma, malakalarni ta’lim standartlarini o‘zlashtirib olishga erishiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I. A. “O’zbekiston buyuk kelajak sari” T. O’zbekiston, 1998.
2. R.A. Mavlono, M. Arabova, G’. Saloxitdinova “Pedagogik texnologiya” T. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. “Fan” nashriyoti. 2008.
3. J. Yo‘ldoshev, F. Yo‘ldosheva, G’. Yo‘ldoshev “Interfaol ta’lim sifat kafolati” T. 2008.



BOSHLANG‘ICH TA’LIM-O‘QITISHNING MUHIM OMILI

Nurillayeva Gulchiroy Samandarovna

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani

15-umumi o‘rta ta’lim maktabi

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim -o‘qitishning muhim omili. yoritilgan bo‘lib, ular darslarda foydalanishga tavsya etiladi.

Kalit so‘zlar: “Teleko‘rsatuv”

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy matnlar bilan ishlashga o‘rgatish orqali estetik ongi va dunyoqarashini tarkib toptirish, bolalarning estetik sifatlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, badiiy ijod namunalari asosida estetik tarbiya jarayonlariga psixologik yondashuvni tatbiq etishning pedagogik tizimini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi. Respublikamizda yosh avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar, jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish, go‘zallik tuyg‘usini, estetik ehtiyoj va didni rivojlantirish maqsadida ta’lim va madaniyat muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Bu borada darslarni tashkil etishda usul va o‘yinlardan foydalanish lozim.



“Teleko‘rsatuv” usuli. Bunday shaklda dars rejasini teleko‘rsatuvlar (masalan, “TV-Mehmon”, “Ko‘rsatuvlar tartibi”, “Dil nomalari”, “Mumtoz musiqa”, “O‘yla! Izla! Top!”) nomi ko‘rsatuvlar asosida tashkil etilishi mumkin.

“Rekord” usuli. Bu usulni qo‘llash orqali dars jarayonida o‘tilayotgan, mavzu bo‘yicha rekord darajadagi noyob ma’lumotlarni juda ko‘p miqdorda berish nazarda tutiladi. Bunda qaysi o‘quvchi mavzu bo‘yicha ko‘p ma’lumotga ega bo‘lsa, shu o‘quvchi rekord natijaga erishadi.



BU YERDA NECHTA RAQAM KO’RYAPSIZ?

6
9
4



“Quvnoq karusel” o’yini. Bu o’yinga o’quvchilarga karuselga chiqish uchun biletlar tarqatiladi.O’quvchilar biletlar orqasiga yozilgan yangi so’zlarni o’qishlari kerak buladi.So’zlarni o’qiy olgan o’quvchilar karuselda uchadilar.



Qiziqarli masala va matematik topshiriqlar

Yarimta qovun qani?

Dehqon bozorga qovun olib keldi.Birinchi kelgan xaridorga hamma qovunlarning yarimini va yana yarimta, ikkinchi xaridorga qolgan qobunlarning yarimini va yana yarimta, uchinchi xaridorga qolgan qovunlarning yarimini va yana yarimta berdi.Shundan so’ng o’ziga hech vaqo qolmadni.

Savol:dehqon bozorga nechta qovun olib kelgan?

Javob: 7 ta

O’zbekistonning jahon miqyosida munosib o’rin egallashi uchun ma’naviy, siyosiy,



iqtisodiy yo'nalishlarda g'oyat muhim va murakkab ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi va vazifasi barkamol, yetuk shaxslarni, ya'ni komil insonni yetkazish-shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3289-sonli Qarori.
2. Internet saytlari:-ziyoNet.uz, kitob.uz, multimedya.uz



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INNOVATSIYA

Oripova Gulzoda Isroilovna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumi o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda innovatsiya bo‘lgan rasmlı topshiriqlar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, to‘siqlar, bilim, innovatsiya, usullar...

Yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug‘ ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta’minlash yosh avlodni xar tomonlama komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog‘liqdir.


1. Idishlardagi bo‘g‘inlarni faqat bir marta ishlatab to‘g‘ri o‘qisangiz, bo‘limda o‘rganilgan mavzuga taalluqli hikmatli so‘z hosil bo‘ladi.



Nimani eksang, shuni o'rasan



Oltin yerda qolsa ham, bilim yo‘lda qolmas



Kitob-bilim bulog‘i, o‘quvchining o‘rtog‘i



“Mevalar tilga kirganda” o‘yini. Bunda mevalar va sabzavotlarning qanday vitaminlarga boy ekanligi, foydasi rasmlar asosida tushuntiriladi.



“To’siqlar” usuli

<input type="checkbox"/> 1-to’siq	Suvdagি baliqlar savoli-Qaysi ertakda ota o’zo’g’illariga 3 nasihatni beradi?	
<input type="checkbox"/> 2-to’siq	2-to’siq:Sudralib yuruvchilar savoli-Ertakning maxsus boshlanmasi va tugallanmasiningayting	
<input type="checkbox"/> 3-to’siq	3-to’siq:Go’shtxo’r hayvonlar savoli—“Uch og’ a-ini botirlar ertagida qaysi botir sherni o’ldirgan?	
<input type="checkbox"/> 4-to’siq	4-to’siq:O’txo’r hayvonlar savoli—ushbu so’zlar qaysi ertak ichida berilgan? Va ‘dani buzmoq —og’ir gunoh.	
<input type="checkbox"/> 5-to’siq	5-to’siq:Samo qushlari savoli---“Susambil” ertagida qaysi hayvon eshon deya ta’riflanadi?	

Metodika fanining oltin qoidasi sanaladigan kimga? nimani? nima maqsadda? Qay tarzda? berish kerakligini yaxshi anglab olishi, so’ngra ushbu rejallashtirilgan materiallarni berishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari vositasida tashkil etiladigan yangi o’qitish modelidan foydalanish taqozo etiladi. Buning uchun ta’lim jarayonida nafaqat ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar hamkorligidan iborat faol usullarni, balki ta’lim oluvchilar o’rtasidagi hamkorlikni ham ta’minlovchi interfaol usullardan ham foydalanishi, ya’ni o’quv dialogi va polilogi loyihasini ishlab chiqishi kerak bo’ladi. Shundagina u o’z oldiga qo’ygan maqsadiga erishadi.

Sharti:

3-topshiriq:

“Susambil shahriga yo’l”

Bu shaharga borish uchun bir qancha to’siqlardan o’tish talab qilinadi .har bir to’siqda topshiriqlar berilgan.Shu topshiriqlarni to’g’ri bajargan guruh a’zolari g`olib chiqadi.



Xulosa qilib aytganda, hozirgi kun o’qituvchisi ta’lim berayotgan bosqichdagi bitiruvchilarga DTS fan yuzasidan qo’yiladigan talablarni yaxshi bilishi va ta’lim jarayonini shunga yo’naltirishi, ya’ni mavzular, modullarni shu talablardan kelib chiqib loyihalashirishi kerak bo’ladi. Qo’yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va ko’zda tutilgan natijalarga erishish bo’yicha faoliyat tizimi va mazmunini ishlab chiqish uchun o’qituvchi quyi bosqichdagi ta’lim mazmuni va talablarini ham bilishi, ya’ni ta’lim uzlusizligi va uzviyligi bilan ham yaxshi tanish bo’lishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.X. AYUPOV. “Interfaol ta’lim usullari”. T.2010-yil
2. Metodik qo’llanmalar.



STEAM – YONDASHUVINING O’ZIGA XOSLIGI

Otajonov Shodlik Erkinboy O’g’li

Urganch shaxar 94-IMI o‘qituvchisi

Telefon: +998 (99) 564 30 38

sh.otajonov_94imi@inbox.uz

Jamoladdinova Muborak Ismoilovna

Shovot tumani 38-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (91) 427 29 78

m.jamoladdinova_7878@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada STEAM dasturining mazmun-mohiyati hamda, STEAM yondashuvi asosida maktablarda darsdan va sinfdan tashqari mashg’ulotlarni tashkil etish yuzasidan ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: STEAM, S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - san’at, M – matematika, Ijodiy fikrlash, Muhandislik yondashuv, Tanqidiy fikrlash, Dizayn asoslarini.

Bugungi kunda STEAM-ta’lim dunyodagi asosiy tendensiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda va amaliyot yondashuvni qo’llashda beshta sohani yagona o‘quv sxemasiga integratsiyalashga asoslangan. Bunday ta’limning shartlari uning uzuksizligi va bolalarning guruhlarda o’zarо muloqot qobiliyatini rivojlantirish bo’lib, bunad ular fikrlarni to’plashi va fikrlar almashadi.

STEAM yondashuvi tufayli o‘quvchilar tabiatni tushunib, dunyoni muntazam o’rganishadi va shu bilan qiziqishlarini, muhandislik fikrlash uslubini, tanqidiy vaziyatlardan chiqish qobiliyatini, jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirish va liderlik, o’z-o’zini namoyon qilish asoslarini o’rganishadi, o’z navbatida, o’quvchilar rivojlanishining tubdan yangi darajasini ta’minlaydi.

STEAM (S-fan, T-texnologiya, E - muhandislik, A - san’at, M - matematika) ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuv.

STEAM bolalarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko’nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi

Muammolarni keng qamrovli tushunish, ijodiy fikrlash, muhandislik yondashuv, tanqidiy fikrlash, ilmiy metodlarni tushunish va qo’llash, dizayn asoslarini tushunish, bu yondashuv kelajakda bolalarda hayotiy muammolarni hal etishda yordam beradi.

O’z-o’ziga ishonchni shakllantirish. Bu yondashuvda o‘quvchilar o’z qo’llari bilan yaratgan ko’priк va yo’llar, samolyotlar va avtomobilarni “ishga tushirib”, suv osti va havo tuzilmalarini “rivojlantirib”, sinovdan o’tkazib, har safar ular maqsadga yaqinlashib borishadi. Yaxshi natija bermagan “mahsulot”ni qayta-qayta sinovdan o’tkazib, takomillashtirib borishadi. Natijada barcha muammolarni o’zi hal qilish, maqsadga erishish bolalar uchun ilhom, g’alaba, adrenalin va quvonch olib keladi. Har bir g’alaba, o’zlarining qobiliyatlariga ko’proq ishonch uyg’otadi.

Faol muloqot va jamoaviy ish. STEAM dasturlari ham faol muloqot va guruh ishi bilan ajralib turadi. Muhokama bosqichida ular fikr bildirishga qo’rmaslikka o’rganadilar. Ko’pincha, stol atrofida o’tirmaydi, o’zlarining dizaynlari asosidagi “mahsulot”larni sinovdan o’tkazadi va rivojlantiradi. Ular hamma vaqt hamkorlikni ta’minlaydigan jamoada tarbiyachilar va ularning do’stlari bilan muloqot qilish bilan band bo’lishadi.

Texnik fanlar bo’yicha qiziqishlarni rivojlantirish. STEAM ta’limi vazifasi qiziqishning rivojlanishi uchun dastlabki shart-sharoitlarni yaratishdir. Bolalar uchun tabiat fanlari va texnik fanlar bo’yicha, qilgan ishni yaxshi ko’rish, qiziqishni rivojlantirish uchun asosdir. STEAM – bolalar uchun juda qiziqarli va dinamik bo’lib, bolalarning zerikishlariga to’sqinlik qiladi. Ular vaqt o’tayotganini sezmaydilar, lekin ham charchamaydilar.

STEAM yondashuvi asosida maktablarda darsdan va sinfdan tashqari mashg’ulotlarni tashkil etish orqali o‘quvchilarning bo’sh vaqtlarini ijobjiy tashkil etish, o‘quv fanlariga bo’lgan qiziqishlarni orttirish, kasbga yo’naltirish, o’zlashtirishlariga ijobjiy ta’sir etadi.

Ta’limda bu yangi yondashuv qanday paydo bo’ldi?

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba’zi maktablar o’zlarining bitiruvchilarining kareralarini rivojlantirishga e’tibor berishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi,



shuning uchun STEM tashkil etildi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik unga san'at qo'shildi va STEAM tashkil etildi. O'qituvchilar, bu fanlarni yoki bu fanlarga oid bilimlarga ega bo'lish, maktab o'quvchilarini kelajakda yuqori malakali mutaxassislar bo'lishiga yordam beradi deb hisoblaydilar. Natijada o'quvchilar yaxshi bilim egallah va bilimlarini qo'llashga harakat qiladilar.

G'oyalar haqiqatga aylanadi. Agar biz an'anaviy ta'limga asosiy maqsadi bu bilimlarni o'rgatish va ishlatish bo'lsa, demak, STEAM yondashuvi olingen bilimlarni haqiqiy hayotga mahorat bilan qo'llashni o'rgatishdir. Bu maktab o'quvchilariga faqatgina ba'zi g'oyalarga ega bo'lishni emas, balki ularni haqiqatda ishlatish va amalga oshirish imkonini beradi. Haqiqatda ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimlar haqiqatda qimmatlidir.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi Massachusetts Texnologiyalar Instituti (MIT). Bu mashhur universitetining shiori "Mind and hand" – "Aql va qo'l" dir. Massachusetts Texnologiya instituti STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hatto ba'zi o'quv yurtlarida STEAM ta'limga markazlari yaratildi.

STEAM yondashuvi o'rganish va ta'limga bo'lgan munosabatimizni o'zgartiradi

O'quvchilar amaliy ko'nikmalarga e'tibor qaratish orqali irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'limga vazifasini tashkil etadi, ya'ni ta'limga tizimining bosh maqsadi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytmoqchimanki, o'rta maktabda STEAM yondashuvi bolalarga tajribalar o'tkazish, dizayn modellarini yaratish, mustaqil musiqa va kino yaratish, o'z g'oyalarini haqiqatga aylantirish va yakuniy mahsulotni yaratishni rag'batlantiradi. Ushbu ta'limga yondashuvi bolalarga nazariy va amaliy ko'nikmalarni samarali tarzda birlashtirishga imkon beradi va oliy ta'limga o'qishni yanada osonlashtiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'lmini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 05.09.2018 yildagi № PF-5538 Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbhunar ta'luming Davlat ta'limga standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 6 aprel 2018 yil 187-sont Qarori.
3. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности: Учебное пособие. Питер. Серия "Учебное пособие", 2004.



PASKAL DASTURLASH TILIDA ISHLASH IMKONIYATLARI VA QULAYLIKTLARI

Otamurodova Taslima Tolibovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

7-maktabning matematika va

informatika fani o'qituvchisi

Telefon:+998906477579

Annotatsiya. Paskal tili 1971 yilda e'lon qilingan bo'lib, fransuz olimi Blez Paskal nomiga qo'yilgan. Turli xildagi masalalar yechimini olishda tartiblangan (strukturaviy) dasturlar tuzishda ishlataladi.

Kalit so'zlar. Blez Paskal, Syurix,niklaus virt,Paskal tili,Borland frmasi instalyatsiya, o'zgaruvchilar, konstantalar, operatorlar, Funksiya, protseduralar

XVII asrda yashagan va dunyoda birinchi hisoblash mashinasini yaratgan fransuz olimi Blez Paskal sharafga shunday deb nomlangan Paskal tili Shveytsariyaning Syurix shahridagi oliv texnika maktabining professori niklaus virt tomonidan 70-yillarda yaratilgan bo'lib, 1979 yilda standart Paskal deb tasdiqlangan. o'zining soddaligi, mantiqiyligi va samaraliligi tufayli bu til butun dunyoga tezda tarqaldi. hozirgi paytda barcha hisoblash mashinalari, xususan, mikrokompyuterlar ham shu tilda ishslash imkoniyatiga ega. dasturlar matnining to'g'riligini osonlik bilan tekshirish mumkinligi, ularning ma'nosi yaqqol ko'zga tashlanishi va oddiyligi bilan ajralib turadi.

Paskal tili ancha murakkab va ko'p vaqt oladigan hisoblash ishlari bajarishga mo'ljallangan tarkiblashtirilgan dasturlar tuzishga imkon beradi. Yana bir afzalligi shundan iboratki, foydalanuvchi xatolikka yo'l qo'ymasligi uchun yoki xato yozib qo'ygan bo'lsa, tez tuzatib olishi uchun dasturda ishlatalgan o'zgaruvchilar oldindan qaysi turga (toifaga) mansub ekanligi belgilab qo'yilgan bo'ladi. Turbo

Pascal sistemasini Borland frmasing instalyatsiya diskiga yordamida o'rnatish mumkin. lekin bunday qilish shart emas, ko'pincha uni bir kompyuterdan ikkinchisiga nusxasini ko'chirib o'tkazib ishlatalishiadi. dasturning to'liq tarkibi 4 mbayt atrofdagi hajmga ega bo'lib, xohishga qarab uni hajmini kamaytirish mumkin. ammo bu holda o'rnatilishi yoki ko'chirilishi shart bo'lgan fayllarni aniq bilish kerak. dastur matni muharriri asosiy matnni kiritish va tahrirlash uchun xizmat qiladi. dastur matni muharriri oynasini oynalar sohasida siljитish, o'chamini o'zgartirish, yopish va ochish mumkin. integrallashgan muhitda ochilgan oynalar soni tezkor xotira hajmi tomonidan chegaralanadi, lekin faol oyna yagona bo'ladi. Bir oynadan ikkinchisiga o'tish uchun sichqoncha yordamida tanlash (agar oyna qismi ko'rinish turgan bo'lsa) yoki F6 klavishi yordamida amalga oshiriladi. dastur matni muharririning har bir satriga ko'pi bilan 126 ta belgi yozilishi mumkin. odatda Paskal tilidagi dasturlar Program maxsus so'zi bilan boshlanadi. Bu so'zdan keyin dastur nomi yoziladi. masalan: Program kvadrat_tenglama; {kvadrat tenglama yechish dasturi.} dastur nomi dastur vazifasiga mos bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu zarur dasturni boshqa dasturlar orasidan tez ajratib olish imkonini beradi.

Paskal dasturlash tilida dastur yozishda quyidagilar qo'llaniladi: konstantalar (o'zgarmaslar) – dastur ishlaganda qiymati o'zgarmaydigan miqdorlar; o'zgaruvchilar – dastur ishlaganda qiymati o'zgaradigan miqdorlar; ifodalar – mos amallar bilan bog'langan o'zgarmaslar, o'zgaruvchilar va funksiyalar; operatorlar – algoritmik tuzilmalarni ifodalaydigan dasturlash tilining ko'rsatmalari; Funksiya va protseduralar – dasturning o'z nomiga ega bo'lgan alohida qismlari. ularga asosiy dasturdan murojaat etiladi; nishonlar – dasturda boshqarish uzatilayotgan operatori ko'rsatadi. Ularda ishlataladigan son 0 dan 9999 gacha bo'la oladi. Birinchi kelgan nollar hisobga olinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Aripov m.m, irmuxamedova r.m va boshqalar. informatika. axborot texnologiyalari, o'quv qo'llanmasi, 1-2-qism. Toshkent 2005
2. G'ulomov S.S., Begalov B., Shermuhamedov A. Axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent: «Sharq»- 2000.
3. www.ziyonetuz.com



**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN ARALASH TA’LIM
TEXNOLOGIYASINING “ROTATION” MODELI YORDAMIDA
DARS MASHQULOTLARINI STANSIYALAR ALMASHINUVI BILAN
UYG‘UNLASHTIRISH**

Polvonova Yulduzxon Saparboyevna

PIIMA tasarrufidagi Ogahiy nomidagi
ijod maktabi matematika fani o‘qituvchisi
E-Mail:madaminjonkhiva@gmail.com,
Telefon: +998(91)919 8600

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Blended learning” texnologiyasi modellari turlari qisqacha yoritilgan. Modellardan “Rotation” modelining “Station Rotation” modelini maktab ta’limidagi ahamiyati va darsni tashkillashtirishdagi afzallikkleri ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Blended learning, Face-to-Fake, Rotation modeli, Flex Model, Online Lab Model, Self-Blend Model, Online Driver Model, Station Rotation.


Respublikamizda xorijiy ta’lim tajribalari asosida fanlarning yagona axborot-metodik ta’minotini yaratish imkonini beradigan ta’lim platformalarini yaratish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinlar, onlays, “blended learning” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etishning me’yoriy asoslari yaratildi. [1]

Shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini berishda “blended learning (aralash ta’lim” samarali variantlardan biri bo‘la oladi. Maktabda ta’limga bunday yondashuv yuzma-yuz ta’limni onlays ta’lim bilan uyg‘unlashtiradi.

2010 yilda AQSh Ta’lim vazirligi tomonidan o‘tkazilgan tadtqiqotga ko‘ra, aralash o‘qitish sinflari yuzma-yuz, gibrild bo‘lmagan ekvivalentlariga qaraganda statistik jihatdan yaxshiroq natijalar beradi.[2]

Tez o‘sib borayotgan ushbu “blended learning” texnologiyasi nafaqat o‘quvchilarining o‘rganish tajribasini moslashuvchanligi va individuallashuvini oshiribgina qolmay, balki o‘qituvchilarga o‘rganishga yordam beruvchi sifatida sarflaydigan vaqtini kengaytirishga imkon beradi. “Blended learning” texnologiyasi bilan darsni tashkillashtirishda o‘qituvchi odatda quyidagi 6 ta modeldan qaysi biri sinfga, fanga, mavzuga va albatta o‘quvchilarga mos kelishini to‘g‘ri aniqlashi zarur.

Blended Learning Models Six Phase Face To Face...



1) Face-to-Fake Driver Model (Auditoriya ta’limi).

“Face-to-Fake” (Auditoriya ta’limi) modeli odatiy maktab tuzilishiga yaqin hisoblanadi. Ushbu yondashuv bilan onlays ta’limni joriy qilish har bir alohida holatda hal qilinadi, ya’ni har qanday shaklda

1-rasm.

aralash ta’limda ma’lum sinfdagi ma’lum talabalar ishtirot etadi.

1) “Rotation model”(aylanish modeli)

Aralashtirilgan ta’limning ushbu shaklida o‘quvchilar belgilangan jadval bo‘yicha turli stantsiyalar o‘rtasida aylanishadi - onlays ishlaydi yoki o‘qituvchi bilan yuzma-yuz o‘tirib o‘rganadilar. Rotatsion modelni maktablarda kengroq qo’llash mumkin.

DreamBox Learning tomonidan e’lon qilingan Texasdagi IDEA Davlat maktablari misolida, aralash ta’limning aylanish modeli ushbu 1-nom maktabidagi o‘quvchilarining yutuqlarini oshirishning samarali vositasi ekanligi aniqlandi. IDEA talabalari o‘quv laboratoriyalari o‘rtasida almashinishdi, u yerda ular matematika tushunchalarini o‘rganish uchun aqlii moslashuvchan o‘quv dasturidan foydalanganlar va an’anaviy sinf xonasi. Natija? Talabalar faolroq o‘quvchilarga aylandilar va ko‘pincha o‘zlarini ko‘proq ishslashga va matematika sinfida hali kiritilmagan



materiallarni o‘rganishga chaqirdilar.[2]

2) Flex Model(Moslashuvchan model)

Ushbu modelda material birinchi navbatda onlayn tarzda beriladi. O‘qituvchilar zarurat tug‘ilgandagina yordam ko‘rsatishadi, o‘quvchilar raqamli muhitda yangi tushunchalarni mustaqil ravishda o‘rganadilar va amalda qo‘llaydilar.

3) “Online Lab Model ”Onlayn laboratoriya modeli.

Aralash ta’limning onlayn laboratoriya modeli o‘quvchilarga ma’lum maktab saytida taklif qilinmagan kurslarni yakunlashda yordam berish uchun maqbul variantdir. Ushbu stsenariyida o‘quvchilar to‘liq onlayn o‘rganishadi, lekin kurs ishlarini bajarish uchun maxsus kompyuter laboratoriyasiga boradilar.

4) Self-Blend Model(Self-Blend Model).


Aralashtirilgan ta’limning bu usulidan foydalanish uchun o‘quvchilarning o‘z-o‘zini motivatsiyasi yuqori bo‘lishi kerak. Self-blend qo‘sishimcha ilg‘or joylashtirish kurslarida qatnashmoqchi bo‘lgan yoki an’anaviy kurslar katalogida yoritilmagan fan sohasiga qiziqqan talaba uchun juda mos keladi.

5) Online Driver Model(Onlayn haydovchi modeli).

Aralashtirilgan ta’limning ushbu modelida o‘quvchilar masofadan turib ishlaydi va materiallar birinchi navbatda onlayn platforma orqali yetkaziladi. Yuzma-yuz ro‘yxatdan o‘tish ixtiyoriy bo‘lsa-da, talabalar savollari bo‘lsa, o‘qituvchilar bilan onlayn suhbatlashishlari mumkin.

“Blended learning” texnologiyasining “Rotation modeli” aralash ta’limda maktab o‘quvchilariga qo‘llash va yaxshi natijalar olish mumkin bo‘lgan modeldir.


“Rotation modeli”da ham 4 ta kichik model mavjud(2-rasm).



Biz stansiyalar aylanishi modelini ko‘rib chiqamiz. “Station Rotation(Stansiya aylanishi)” modelida o‘quvchilar dars davomida bir nechta stantsiyalarni almashtirish orqali dars mashg‘ulotlarida qatnashadilar. Bu aralash ta’lim modelida o‘quvchilarning barchasini

2-rasm.

bir vaqtning o‘zida o‘qitish o‘rniga, kichik guruhlarda dars o‘tiladi, har bir guruhdagi o‘quvchilar topshiriqni bajarib bo‘lshgach ma’lum vaqtidan so‘ng o‘qim stansiyalar bo‘ylab o‘zgartiriladi.



Stantsiyalarni qanday tashkillashtirishda o‘qituvchilar stantsiyasi, texnik stantsiya, mustaqil amaliyat stantsiyasi va guruh/hamkor amaliyat stantsiyasidan foydalilanadi. Har bir stantsiyada o‘tkaziladigan vaqt darsga qancha vaqt ajratilganiga qarab

3-rasm.

belgilanadi, odatda bu aylanish 6-10 minut davom etadi.

Stantsiyalar muvaffaqiyatining asosiy kaliti baholashdir. Bu metod yordamida har bir darsda barcha o‘quvchilarni baholash imkoniyati ortadi. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lishdan oldin ularning qaysi biri bu ko‘nikmani tushunganini, qaysi biriga biroz mashq qilish kerakligini va qaysilari mahorat bilan kurashayotganini aniqlanadi. Bu o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini qondiradigan ta’limni taqdim etishga yordam beradi va ularni muvaffaqiyatga yo‘naltiradi.

Aralash ta’lim XXI asr ta’limiga moslashar ekan, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik uchun imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Stantsiyalar almashinuvni o‘quvchilarga mustaqil, tengdoshlari, o‘qituvchisi va raqamli kontent orqali o‘rganish imkonini beradi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маматов Д.Н, Бекчанова Ш.Б, Садикова А.В, Хўжаев А.А. LMS moodle тизими ва ундан фойдаланишни ўрганиш. Ўқув-услубий кўлланма. – Ташкент, 2020. Б 90.
2. Бекчанова Ш.Б. Таълим жараёнларини ракамли технологиялар асосида индивидуллаштириш, масофавий таълим хизматларини ривожлантиришда “blended learning” технологиясининг назарий асослари // Муғаллим ҳэм узлуксиз билимленидириў. -Нукус, 2020-4. б 116-121. (13.00.00; № 20)
3. <https://www.dreambox.com/resources/tag/math-learning>
4. <https://creativeeducator.tech4learning.com/2016/articles/blended-learning-with-station-rotations>



PISA TADQIQOTLARI ASOSIDA ONA TILI DARSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Quramboyeva Sabohat Umid qizi,

Boboyeva Shaxlo Fayzullayevna

Urganch tumanidagi 7 son maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: ushbu maqolamizda pisa dasturining o'quvchilar hayotidagi ahamiyati haqida, hamda pisa topshiriqlarini qay darajada bajarish haqida yoritib o'tdik.

Kalit so'zlar: Pisa, o'quvchi, ona tili, mashqlar

PISA – dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida xalqaro baholash dasturlarini o'tkazishga asoslanib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay olish, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga e'tibor qaratadi. Pisa xalqaro baholash dasturida asosan o'quvchilarni ijodiylikka yo'naltirish ularning fikrlash qibiliyatini shakllantirishga yo'naltirga ilmiy tadqiqot hisoblanadi. Ona tili darslarida asosan o'quvchiarni ijodiy fikrlashga yo'naltirishi lozim hisoblanadi. Bunda asosan o'quvchilardan ijodiylikni, qiziquvchilikni, talab qiladi. Shu sababli ona tili darslarida matn ustida ishlash yetakchi ahamiyat kasb etadi. Ona tili moshg'ulotlari fikrni bayon qilishda nutqning badiiy qimmatini oshiradigan vositalar: maqol va matallardan, hamda shoir va yozuvchilarning maqol va ofarizmga aylangan iboralari va jumlalaridan, badiiy asarlaridan olingen ko'chirmalar va yorqin obrazlardan, o'zbek xalqining qochirma so'zлari va frazealogik iboralardan, o'xshatishlar va sifatlash mubolag'a va boshqa badiiy til vositalaridan, ritorik so'roq gaplardan foydalanishga o'rgatish lozim. Chunki o'quvchi nutqining ravon, aniq hamda ifodaliligini taminlavchi vosita hisoblanadi. Masalan: ona tili fonetikasini o'rgatishda tovush tizimining xususiyatlarini ko'rsatish orqali o'quvchilarning badiiy talaffuz meyorlarini o'zlashtirishiga yordam beramiz va bu orqali tarbiyani amalga oshiramiz. So'zdagi ma'lum bir tovushni o'zgartirish orqali qofiyadosh so'zlar hosil qilish, misralar oxiridagi tovushdoshlik ohongdoshlik ustida ishlash orqali o'quvchilarda she'riyatga kuchli qiziqish vujudga keladi. Madomiki, o'rta umumta'lim maktablarida ona tilini o'rgatishda asosiy maqsad bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ekan, demak, ularni ijodiy yozma ish ustida ishlash usullariga o'rgatish lozim. Bundan tashqari pisa dasturi o'quvchini mustaqil fikrlashga ko'proq undaydi.



Rasmdagi narsaning nomi shakldosh bo'lgan javobni toping.



Bu dastur asosan o'quvchilarning fikrlash topqirlilik qobiliyatini shakllantiradi.

PISA sinovlariga o'quvchilarni tayyorlash jarayonida, asosiy e'tiborni alohida olingen PISA topshiriqlarini yechishga emas, balki ularni va ularga o'xshagan topshiriqlarni yechish uchun kerak bo'ladigan o'quvchilarning umumiyligi tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Dunyo mamlakatlarida PISA dasturining natijalari asosida o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi. Darhaqiqat, ona tilini o'qitishda nazaryani amaliyot bilan bog'lash maqsadida har bir soatlik dars mashg'ulotida o'quvchilarga



mavzu yuzasidan nimalarni bilishlari va nimalarni amalda qo'llay olishlari lozimligini aytish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar tamonidan tuziladigan matnlar, yoziladigan bayon va insholar nazriy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirishga yordam beradi. Ona tili ta'lmini tur mush bilan bog'lashning asosiy omillaridan biri o'quvchilarga ish qog'ozlardan foydalana olish malakalarini singdirishdir. Chunonchi,,Atoqli otlar va ularning imlosi” mavzusini o'rganish jarayonida manzilgoh yozish ustida ish olib borilsa,,shart maylidagi fe'llar” mavzusini o'rganishda qaror matni ustida to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari Abdurrahim Nosirov pisa dasturi bo'yicha o'zining fikrlarini bildirib o'tgan. Farzandingiz maktabda,,5” bahoga o'qiydi. Matematika, tabiiy fanlar, chet tillaridan ham o'zlashtirishi a'lo. Bu- yaxshi albatta. Ammo, o'quvchining ertangi kelajagini nechog'lik kafolatlaydi? Qolaversa, kundalik daftardagi mazkur raqam o'quvchining egallagan bilimiga qanchalik mos? Zero, o'qituvchi har kuni sinfdagi 30 nafar o'quvchini baholarkan, obektiv va subektiv omillar tasiriga tushishi tabiiy. Qolaversa, maktabni fizika fanidan a'loga bitirgan o'quvchi kelgusida zarurat sabab uydagi oddiy dazmol yoki rodioni tuzatishga to'g'ri kelsa, o'sha bahosi bilmis asqotib muommani hal qila oladimi? Xullas Pisa tadqiqotlari ma'na shu talablarga o'quvchi mos bo'lishini taqoza qiladi. Bu dasturda asosan o'quvchilar maktabda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olishlarini taqoza qiladi ya'ni 5 bahoga o'qigan o'quvchi o'sha bahoga haqiqatdan ham loyiq bo'lishini talab qilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni;
2. Xalqaro tadqiqotlarda o'qituvchilarning o'qish savodxonligini baholash o'quv qo'llanma



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA PSIXOLOGIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Rajabova Gulchehra Nodirovna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumi o‘rtalim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi


Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limda psixologik o‘yinlardan foydalanish haqida to‘xtalib o‘tilgan. Maqolada bir necha psixologik o‘yinlar tavsija etilgan.

Kalit so‘zlar: psixologiya, maqsad, inson ruhiyat, yosh davri, muhit, barkamol shaxs, qayiq, anglamoq..


Psixologiya fanining muhim sohalaridan biri bo‘lmish yosh psixologiyasi fani bevosita inson psixologiyasining namoyon bo‘lishi va rivojlanishining turli yoshlarda qanday kechish xususiyatlari, qonuniyatlar, mexanizmlarini o‘rganadi. Psixika namoyon bo‘lishining yosh xususiyatlari o‘rganilar ekan, shuni nazarda tutish kerakki, yosh psixologiyasida turli yosh davrlari bir-biridan sezilarli farqlanadi. Bular: chaqaloqlik davri, ilk bolalik davri, mактабгача ta’lim davri, kichik mакtab yoshi davri, o‘smirlilik davri, ilk yoshlik davri, yoshlik davri, yetuklik davri va keksalik davrlaridir. Bu davrlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga, sifatlarga ega bo‘lib, ular bir-biridan odamning xronologik yosh ko‘rsatkichlariga ko‘ragina emas, balki shu davrda inson ruhiyatida kechadigan hodisalar, ro‘y beradigan o‘zgarishlar, uning ruhiyatidagi umumiy qonuniyatlarga ko‘ra ham farqlanadi. Quyida Boshlang‘ich ta’limda psixologik o‘yinlardan foydalanish haqida to‘xtalib o‘tishni joiz topdim:




-Bunday kishilar diqqat e’tiborli, tartibli, mehnatsevar, ijodkor, bir qarorli, tejamkor, do’stlari kam, lekin, ishni doimiy reja bilan bajaradi. Kiyinishi qoida bilan, fikrlash doirasи keng, o‘zining gapini o’tkazuvchi, o‘ta ehtivotkor, o‘zini hammadan aqilli hisoblovchi. Ular bilan ehtiyyot-korlik bilan muomalada bo‘lishi kerak.



-Bundaylar barkamol shaxs, impatiyasi kuchli, ular yaxshi ijodkor, qat’iy rivojani yaxshi ko‘radi, lekin tartibsiz, mehnatsevar emas, yaxshi munosabatda bo‘lsangiz ishni yaxshi olib horadi.



- Maqsadga qarab intiluvchan, harakatchan, o‘ziga ishonchi kuchli, mehnatkash, ijodkor, q’amxo‘r rahbar, lekin o‘zini sevuvchi, o‘z manfaati uchun hech narsadan qaytmadti, chidamsiz. Maqtab turib munosabat qilish kerak.



- Boshqalarga o‘xshamaydigan shaxs, kuchli ijodkor, ilmix ixtirochi, tafakkuri, nafosati kuchli, tahvilchi shaxs, har xil q’ovalar egasi ammo egoistligi bor, hissiyoti o‘ta kuchli. Tartihni yaxshi ko‘rmaydi.



- Bunday shaxslar o‘zini o‘yllovchi, hamma shakldagidek bo‘lishga intiladi. Bunday o‘zini izlovchi shaxslarga atrofdagilar o‘zini tonishga yordam berishi kerak.



“O’ZINGNI ANGLA” (Ikki kishi qayiqda)

Suv toshqini natijasida kimsasiz orolga quyidagilar kelib qoldi. - qari olim - yosh bola – hamshira – arxeolog-talaba. Ko‘p o‘ylamasdan javob beringchi: shulardan qaysi ikki kishini birinchi bo‘lib qutqarar edingiz? Qayiqda faqat ikkita bo‘sh o‘rin bor. **Agar siz...**

1. Qari olim va bolani tanlasangiz siz pishiq oddiy hissiyotli, hayotda mustaqil, o‘z o‘rningizni bilasiz. Ishda va hayotda o‘ylab ish qilasiz, shuning uchun yaxshi yashaysiz.

2. Bola va hamshirani tanlasangiz sizning xarakteringiz juda murakab bo‘lib ayrim vaqt bo‘shanglik qilasiz, lekin irodangiz kuchli bo‘lib, odamlarga va o‘zingizga o‘ta talabchansiz, o‘z imkoniyatingizdan yaxshi foydalana olmaysiz, qat’iyatlilik yetishmaydi.

3. Agar bola va talabani tanlasangiz siz qat’iyatli odamsiz. O‘zgalarga homiylik qilishni yaxshi ko‘rasiz o‘z ishingizdan mammunsiz. Do‘stlik va davralarni yaxshi ko‘rasiz. Yolg‘onchilarni, aldoqchilarni xushlamaysiz.

4. Agar qari olim va hamshirani birinchi bo‘lib qutqarsangiz siz muloyim, artistlik qobiliyati bor odam bo‘lib, himoyaga, maslahatga, qarindosh-urug‘lar mehrliga muhtoj odamsiz.

5. Qari olim va talabani tanlasangiz harakatchan, chaqqon xarakterli bo‘lib, doim izlanuvchan, tashkilotchi bo‘lganingiz uchun siz bilan yashash juda qiyin.

6. Talaba va hamshirani tanlasangiz sizda artistlik xususiyati bo‘lib, talant sizda kuchli, lekin irodangiz bo‘sh, injiq, yettinchi qavatda suzib yurasiz.

“U kim?” o‘yini. Bunda o‘quvchilardan biri sinf xonadan tashqaridan chiqadi. Bu vaqtida o‘quvchilarga sinfdoshlaridan birining shaxsiy sifatlarini o‘ylash topshirig‘i beriladi. Tashqariga chiqqan o‘quvchi chaqiriladi, o‘quvchilar kimningdir shaxsiy sifatlarini bayon qilishadi. Masalan: chaqqon, qiziquvchan, matematika fanini yaxshi biladi, hamma bilan o‘rtoq, ammo qaysar. Tashqariga chiqqan o‘quvchi uning kimligini topishi kerak. O‘yin shu tarzda davom ettiriladi.

“Mening salbiy tomonlarim” o‘yini. Har bir o‘quvchiga oq qog‘oz beriladi. O‘quvchilar unga o‘z ism familiyalarini yozadilar. So‘ngra sinfdoshlari qo‘g‘oz egasining yuziga aytolmagan kamchilik-nuqsonlarini yozib, qog‘ozni galma-galdan buklab, keying ishtiropchiga uzatadi. O‘yin qog‘oz o‘z egasiga yetib kelguniga qadar davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali, 2016 –yil 1-son
2. Internetdan olingan rasmlar, musiqa,multimediya mahsuloti.




BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI TASHKIL ETISHDA QO’LLANADIGAN O‘YINLAR

Rajabova Nasiba Rasulovna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumi o‘rtalim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi


Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’limni tashkil etishda qo’llanadigan o‘yinlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, boshlang‘ich, o‘yin, kubchalar, topishmoq, kubik, o‘yin....

Ta’lim, bir so’z bilan aytganda, mamlakatning kelajakdagi istiqbolini ta’minlaydigan yosh avlodni tarbiyalash, savodli qilishdir. Turli o‘yinlar o‘qitish jarayonida qo’llash ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda mavzuni o‘rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, olingan bilimlarni mustahkamlash, o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.



O‘YIN KUBCHALARI



Rasmdagi 6 ta kubcha a, b, c, d, e, f harflari bilan belgilangan. Har bir kubchaning qarama-qarshi yoqlaridagi nuqtachalar yig‘indisi yettiga teng. Har bir kubchaning pastki yog‘idagi nuqtalar sonini aniqlab, jadvalni to‘ldiring.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon kilinishi o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni modernizasiyalashni hamda innovation texnologiyalarni joriy qilishni taqoza etadi, bu esa komil insonning har tomonlama shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bahor gullarini kubiklarda birlashtirish.


1-guruh moychechkagulini birlashtiradi
2-guruh qizogoldiqgulini birlashtiradi



“Raqamlarni to’grilab qo’y” o’yini



“Topishmog’im-topaloq” o’yini



“Kim topag’on?” o’yini.

O’quvchilar topishmoqni o’qiydilar va javoblarini topadilar.

*Qat –qat qatlama,

Aqling bo’lsa tashlama.

*Sandiq to’la pista bodom,

Ochib ko’r, bo’lsang odam.

Xosiyati ko’p, olam-olam,

Terib ol uni har dam.

*Tili po’lat shovvoz,

So’zlay olmas beqog’oz



Mustaqillik yillarda mamlakatimizda o’quvchi-yoshlarga ta’lim va tarbiya berish, barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining eng asosiy yo’nalishlaridan biriga aylandi. Bu sohada yoshlarning o’z ijodiy va intellektual salohiyatini ro’yobga chiqarishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilib, yuksak salohiyatli, jismonan, ruhan va ma’nana yetuk insonlar etib tarbiyalashning yaxlit mexanizmlari shakllantirilmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Yusupova F. I. O’quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta’limi” jurnalni. 2005. №5. 90-93-b..

2. Internet saytlari



BEG'UBOR BOLALIKNI MURAKKAB OLAMGA TO'LDIRMAYLIK

Maxliyo Raxmatullayeva
Andijon viloyati Qo'rg'ontepaga
pedagogika kolleji maxsus fan o'qituvchisi
Telefon : +998902037009

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin davomida bir vaqtning o'zida ham o'yinda ishtirok etadi, ham ma'lum bir darajada ta'lim oladi va bolaning aqliy rivojlanishi o'sib borishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim didaktik, bola, o'yin, mashg'ulot.

Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari maktabgacha yoshga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo'lgan bosqich muhim rol o'ynashini tushunib etib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar. Jamiyatning ma'naviy takomili unda amalga oshiriladigan ta'lim - tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'liqdir. Haqiqatdan ham o'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir.

Bolaning dastlabki bilim va ko'nikmalari, hayot haqidagi murg'ak qarashlari uning oilasida shakillanadi. Bugungi kun ota onalari ana shu jarayonda ularni juda erta o'qishga o'rgatib, karra jadvalini yod aolishga urinishadi. Afsuski bunday urinishlar har doim ham muvaffaqiyatli bo'lavermaydi.

Pedagog va psixologlar uyda o'qitish uchun eng maqbul metodologiyani tanlash va bolaga 3-4 yoshdan boshlab harf tanitish borasida o'z tavsiyalarini bildirishdi. Mutasassislarining fikricha, har bir bola takrorlanmas, shunga ko'ra o'z ruhiyati va individualligiga ko'ra qobilyatlari ham turli darajada. Bolaning juda erta yoshdan ta'limga jalb qilish uning ruhiyatiga qattiq zarar yetkazib qoyishga olib kelishi hech gapemas. Aslida qobilyatlarni rivojlantirish uni erta yoshdan o'qitish orqali emas, balki go'daklik chog'idan u bilan qiziqarli o'yinlar o'ynash, unga yoshiga mos kitoblar o'qib berish, ibratli ertaklar aytish va uni ham mitti ertakchiga aylantirish, asosi, u bilan yaxshi suhabatdosh bo'lish kabi bolalikka voqeysalar bilan amalga oshiriladi. Unutmaslik kerakki, bolalarni erta o'qitishga o'rgatish agar uning xohshiga ko'ra amalga oshirilmasa, kichkintoylar miyasining to'g'ri rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aksincha bolakayning o'zi kitoblarni qidirib topib, harflarni o'rganishga harakat qilsa, uni to'xtatishga hojat yo'q, ehtimol erta o'qish istagi uning shaxsiy meniga xosdir.

Maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy va yetakchi faoliyat turi bu-o'yin. O'yn bolani barkamol rivojlanishiga yordam beradi. O'yin bbu bolaning o'zi yashayotgan va o'zgartirishlar lozim bo'lgan olamni anglash vositasidir. Ota-onalar bola uchun eng muhimi ular bilan birgalikda o'tkazilgan vaqt ekanligini unitib qoymasligi lozim.

Bolalarni maktabga tayyorlash maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi va ota-onalar bilan hamkorlikda olib boriladigan bir qancha majmuaviy ishlar yig'indisidan iborat. Maktabga ilk qadam qo'yish bola hayotidagi unutilmas voqqeja hisoblanadi. Bu jarayonda bolani bog'chadanoq tayyorlash zarur. Buning uchun yil davomida psixolog va ota-onalar majlis o'tkazib, unda psixolog ota-onaning bu jarayondagi ishtirokini quydagicha ifodalab berish mumkin:

Hurmatti ota-onalr, maktabga tayyorlash uchun har kuni o'n besh-yigirma daqiqa moboynida dars jarayonlarini o'yin shaklida olib borib, bolajonalrimizni tayyorlash kerak.

Bolakaylarni o'qitishda qaysi usuldan foydalanmang, bu jarayonning temir intizom bilan emas balki qiziqarli o'yin tarzida o'tishidir shunday qilingki bolalar uchun o'qish jarayoni o'zgacha zavq-shavqqa boy bo'lish.

Masalan JONLI HARFLAR O'YINIda farzandimiz bilan harflar yaratishingiz mumkin. Ularni plastilindan qog'ozdan kesib yasaymiz yoki ahmirdan pechenniy harflarning tayyorlaymiz. Bola uchun harflarning hosil bo'lishini kuzatish juda qiziqarli jarayon bo'lib, bu ularni yaxshi eslab qolishiga yordam beradi.

QUYOSHCHA O'YINIda esa rasimda quyoshnurlari tasvirlanadi. O'rganilayotgan tovush markazda, qolgan harflar nurlarad joylashtiriladi. Markazdan nurlar orqali harakatlanayotganda hosil bo'lgan bo'g'inni nomlash orqali kerakli bo'g'in yasaydi.



Oilada bolaning o'qishga bo'lgan qiziqishni qo'llab-quvvatlash va buning uchun barcha shroitlarni yaratish lozim. Shundagina bolalarning nutqi ravon, gramatik jihatdan to'g'ri shakllangan, o'zgaalr oldiga fikrini bemalol bayon etadigan o'ziga ishonagn mustaqil shaxsni tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILAGN ADABIYOTLAR:

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.
2. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.
4. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.



DARSLARDA ELEKTRON DARSLIKLARDAN FOYDALANISH ORQALI TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

Ruzmatova Dinora Quranbayevna

Xorazm viloyati 8-son ayrim fanlar
chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan
maktab-internatning informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars jarayonlarida elektron darsliklardan foydalanish orqali darslarning sifati oshirish, o'quvchilarini fanga bo'lган qiziqishlarini oshirish masalalari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lif, kompyuter, dars, elektron darslik, kompyuter savodxonlik, dars sifati, dastur.

Globallashuv asrida har bir soha faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasa-vvur etib bo'lmaydi. Ma'lumki, har qanday davlatning xalqaro miqyosda barqaror rivojlanishi va istiqboli iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar aynan ta'lif sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liq. Ta'lif – tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnnini egallahga qodir bo'lgan – komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir.

XXI asrda malakali pedagog bo'lish uchun albatta axborot texnologiyalarini yaxshi egallash zarur. Inson faoliyati ko'proq uning axborotga ega bo'lganlik darajasi, ushbu axborotlardan samarali foydalana olish qobiliyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ixtiyoriy soha bo'yicha zamonaviy mutaxassis vaqt sayin oshib borayotgan axborot oqimida bemalol yo'l topa olishi uchun, u kompyuterlar, telekommunikatsiya va boshqa aloqa vositalari yordamida tegishli axborotni ola bilishi, qayta ishlay olishi va undan foydalana olishi kerak bo'ladi. Bu esa o'z navbatida, ta'lifda samaradorlikni ta'minlaydi. Ta'lif sifati nafaqat o'quv jarayoni natijalari, balki mazkur natijalarni shakkantiruvchi omillarni ham ifodalaydi. Ta'lif jarayoniga innovatsion texnologiyalarini tatbiq etish esa ta'lif natijalari hamda mazkur omillar sifatini oshirish imkonini beradi. Shu jihatdan, innovatsion texnologiyalar asosida ta'lif sifati va samaradorligini oshirish muammosi shaxsni rivojlantirish hamda uni hayotga tayyorlashga yo'naltirilgan kompleks vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, ta'lif siyosatining bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Dars samaradorligini oshirishda o'quv vositalarining ahamiyati juda kattadir. Bularga darsliklar, o'quv qo'llanmalari, radio eshittirishlari, televideniye ko'rsatuvlari, gazeta va jurnallar, elektron darsliklar, kodoskop, proyekcion rangli rasmlar, slaydlar, kompyuterlar, hamda o'qitishning barcha zamonaviy texnik vositalari, tajribalar o'tkazish uchun jihozlar, kundalik kuzatish daftari, maktab o'quv-tajriba maydonchasi kiradi.

Darslar samaradorligi o'qitish usulublari to'g'ri tanlanganida va ularni ko'rgazmali qurollar, o'quv vositalari bilan uyg'unlashtirilganda sezilarli darajada ortadi. O'qitishning zamonaviy texnika vositalari va axborot texnologiyalaridan mohirona foydalanish dars samaradorligini ta'minlaydi va o'quv mehnati intensivligini hamda o'quv jarayoni texnik madaniyatini oshiradi. O'qituvchi o'quv texnologiyasining bevosita yetkazuvchisi sifatida mashg'ulotlarga jiddiy tayyorlangan, yangiliklardan boxabar bo'lgani holda dars jarayonini qiziqarli olib borishi lozim. Dars berayotgan faniga taalluqli didaktik materiallarni, darsliklarni, uslubiy qo'llanmalarni va elektron o'quv vositalarini ham mukammal o'rganishi, shuningdek, ularni darslarida qo'llay olish, faoliyatini muntazam yangilab borishi davr talabidir. Dars jarayonida elektron muhitdan foydalanish – ta'lif sifatini oshirishning asosiy omilidir.

Ta'lif tizimida barcha fundamental bilimlar asosan an'anaviy bosma shaklda tayyorlangan o'quv adabiyotlar, ovozli variantlar va video ishlanmalar orqali olinadi. Elektron darslik esa bilim oluvchilarining tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlash-tirishga, yangi qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirib borishga mo'ljalangan bo'lib, ixtiyoriy fanlar bo'yicha yaratiladi. Elektron darslik – bu davlat ta'lif standarti asosida mutaxassislik va yo'nalishlar bo'yicha fanlarning alohida bo'limlariga oid nashrlar, namunaviy va ishchi o'quv das-turi, shuningdek, mashqlar va masalalar to'plami bo'yicha video ishlanmalar, turli sxemalar, atlalar, tajriba ishlar yuzasidan ko'rsatmalar, testlar va boshqa ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Rasmiy



asnoda olib boriladigan “Elektron darslik” bo‘yicha barcha materiallar birinchi navbatda mavjud standartlarga mos bo‘lishi lozim.

Hozirgi kunda bir necha xil elektron darslik tayyorlash imkonini beruvchi beruvchi dasturlar mavjud. Oddiy HTML dan foydalanib matn muharrida xam tayyorlash mumkin. Sbook Builder dasturi, C++, avto play media, lektor, java, Book Maker, Maestro FREE, COORS LAB, MACRO-MEDIA FLASH kabi dasturlar elektron darsliklar yaratishga imkon beradi.

Elektron darslik samarador bo‘lishi uchun quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi lozim:

-Mavzu matnnini tushunarli va mantiqiy usulda tuzish, o‘rganish jarayonini osonlashtirish uchun illyustratsiya va chizmalardan foydalanish.

-O‘quvchilarga tushunarli, ravon va qiziqarli elektron darslik yaratish uchun ularning yoshi, fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda misollar tuzish va fikrlar qo‘llash.

-Elektron darslik strukturasini, modullar va ularga tegishli bilimlarni qisqa hamda xulosa qismi bilan o‘zaro teran bo‘g‘lash.

-Elektron darslikni predmet dasturiga to‘la mos keladigan va uni to‘laligicha qoplaydigan shaklda yaratish.

-Elektron darslikka kiritiladigan materiallarni o‘ziga xos va betakrorligini, o‘quv predmetiga va o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olish.

-Mazmunning aniqligi, interfeys va dizaynning qulayligi, ranglarning mosligi, matnning bexatoligini ta’minlash.

-Elektron darslikka o‘quvchilarni berilgan material ustida ishlashga va amalda qo‘llashga undovchi topshiriqlar kiritish.

-Elektron darsliklardan foydalanishning afzalligi va kamchiklari:

Afzalliklari:

1.O‘quvchining bilim olish samarasi ortishi.

2.Hamkorlik.

3.Vaqtdan unumli foydalanish.

4. Mustaqil bilim olish.

5. Nazariya va amaliyot uyg‘unligi.

6. Faollik va darsga bo‘lgan qiziqishning ortishi.

7. Mustaqil fikrlay oladigan o‘quvchini shakllanishi.

Kamchiliklari

Auditoriyalar kompyuter bilan jihozlanmagan bo’lsa ;

O‘qituvchi kompyuter va EXM bilan ishlashni bilmasa;

Talaba kompyuter va EXM bilan ishlashni bilmasa ;

Elektr tarmog‘i ishlamay qolsa ;

Kompyuterga virus tushsa :

O‘qituvchi matematik paketlardan foydalanishni bilmasa va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim sohasida AKT va elektron darsliklardan foydalanish dars samaradorligini oshirishni ta’minlashda ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish; o‘quvchini har tomonlama rivojlantirish; axborot jamiyati sharoitlarida maktab bitiruvchilarini hayotga tayyorlash; global axborotlashtirish jarayonlari sababli kelib chiquvchi ijtimoiy buyurtmani bajarish kabi vazifalarni amalgalashni oshirish imkonini beradi.

Darslarda elektron darsliklardan foydalangan holda dars mashg‘ulotlarini o’tkazish dars sifatini orttiradi, o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni hosil qiladi :

Kompyuter savodxonligi rivojlanadi, darsda bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, axborot madaniyatining shakllanishi, o‘quvchilarning bilim saviyasining oshishi, darsni ikki tomonlama olib borilishi, bilimi past o‘quvchilarning darsga qiziqishining oshishi, o‘quvchilarni baholashning osonlashishi va boshqalar. Bular natijada o’tkazilgan dars sifati va samaradorligi ortadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Aripov M.M. Informatika va hisoblash texnikasi asoslari.
2. Toyloqov N. va boshqalar. IBM - PC kompyuteri.
3. Xolmatov T.X., Toyloqov N.I., Nazarov U.A. Informatika.
4. www.google.com



TA’LIMDA INTERFAOL USULLAR VA ULARNI BOSHLANG‘ICH SINFLARDA QO’LLASH AHAMIYATI

Samadova Xillola Xalimovna

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limda interfaol usullar va ularni boshlang‘ich sinflarda qo’llash ahamiyati haqida to’xtalib o’tilgan..

Kalit so‘zlar: rasmlarni joylashtir, topshiriq, interfaol, usul, muammo...

Jamiyatimizdagi ko‘pchilik insonlar o‘qituvchilarni kunlar, haftalar va oylar davomida o‘qitil-adigan fan bo‘yicha asta-sekinlik bilan turli xil ko‘rsatma va topshiriqlar beradigan hamda bir maramoda qandaydir bilimlar majmuasini o‘quvchilarga singdiradigan zerikarli mutaxassislar sifatida tushunadilar. Lekin ularning qanday ko‘rsatma va topshiriqlar berishlari hamda bunday usullar qanday samara berishini ko‘pchilik bilmaydi yoki tushunmaydi. Shuning uchun ham, yillar davomida ta’lim berishning bir qancha usullari va uslubiyati vujudga keldiki, ularning jamiyatidagi o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Ba’zi bir ta’lim berish uslublari yosh bolalarning bilim olish jarayonini o‘rganish asosida tashkil etilgan bo’lsa, boshqalari dars berish jarayonida ro‘y beradigan muammolarni hisobga olgan holda tashkil etilgan.

«Rasmlarni joylashtirish» metodi. O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo’lish asosida faoliyat olib borishda «Rasmlarni joylashtir» nomli interfaol metodidan foydalanish o‘zining ijobjiy natijasini beradi. «Rasmlarni joylashtir» nomli metodni qo’llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi. Juftliklar o‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan hamda har bir kartochkaning bir tomoniga mavzuga organlar, qismlar tarkibiy qismlarini anglatuvchi so‘zlar yozilgan kartochkalar to’plami beriladi. Guruh o‘quvchilarining faoliyat yuritishlari uchun shunday ko‘rsatmalar beriladi. Mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan bilimlaringizga tayanib taqdim etilgan kartochkalarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiring. Kartochkalarni orqa tomonini o‘chiring va topshiriqni to’g’ri bajarganligingizni tekshiring. Kartochkalarni orqa tomoniga yozilgan xatlar yordamida hosil bo’lgan so‘z o‘qiladi).

Topshiriqning bajarilish holatiga muvofiq o‘quvchilar «Nazorat varag’i»ning birinchi pog’onasiga shaxsiy faoliyatlari uchun baho (ball tizimida) qo’yadilar.

Interfaol o‘qitish bilish faoliyatini tashkil etishning maxsus turidir. Unda rejorashtirilayotgan maqsadlar to‘liq va aniq bo’ladi. Ushbu maqsadlardan biri – tinglovchining o‘z muvaffaqiyati hamda aqliy yetukligini anglab yetishi uchun qulay sharoit yaratishdir.



“Muammoli vaziyat” metodi: (*o’qituvchining kichik ma’ruzasi*)

“Muammoli vaziyat” metodi ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sababini va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimlarini topish bo’yicha ko’nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan metod.

“Muammoli vaziyat” metodining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

Muammoli vaziyat tavsifini keltirish
O’quvchilarni guruhlarga bo’lish
Guruqlar muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablarini aniqlashi
Guruhlarning muammoli vaziyatni oqibatlari to’g’risidagi fikrlarini jamlanish bosqichi
Guruhlarni muammoli vaziyatni yechimini ishlab chiqish bosqichi
To’g’ri yechimlarni tanlash bosqichi

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi o’quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. O’quvchilar qo’yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo’lishi kerak, chunki muammoni yechimini topa olmasa o’quvchilarning qiziqishlari so’nishi va bolalar o’ziga bo’lgan ishonchini yo’qotishi mumkin. Dars jarayonida ushbu metoddan foydalanganda o’quchilar mustaqil fikr yurtishga, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga, uning yechimini topishga o’rganadilar.

“Aeroport” ta’limiy o‘yini

2018-yil 3-fevralda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “O’zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo’yicha qo’shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to’g’risidagi PF-5326-son Farmoni e’lon qilindi.

Quyidagi tenglamalarni to’g’ri yechgan o’quvchilar samolyotga biletlarni qo’lga kiritishadi va Samarcand shahriga sayohat qilishadi.



Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, innovatsion usullarni ko’plab dars o’tilganda sinfda qoloq, o’zlashtirmaydigan o’quvchi qolmaydi. Deyarli barcha o’quvchilar dars jarayoniga jalb etilib, ularning darssga qiziqishlari ortadi. O’quvchilarning kelgusida mustaqil bilim olishlarida, hunar o’rganishlariga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Boshlang’ich ta’lim” jurnali. 2001-yil, 1-son
2. Internet saytlari.-kitob.uz, multimedya.uz.



**BOSHLANG’ICH TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA ILG’OR PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARING O’RNI.**

**Saparboyeva Iroda Kamilovna,
Xojoiyeva Latofat Xudayberganovna**
Ufganch tumanidagi 7 son maktabning
boshlang’ich ta’lim fani o’qituvchilari.

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang’ich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda innovatsion ta’lim metodlarining o’rni haqida bayon etilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, innovatsion faoliyat, ilg’or metodlar, bilim, ko’nikma, malaka.

Ta’lim jarayonida ilg’or pedagogik texnologiyalarni faol qo’llash, ta’lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotda joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O’quvchilarining fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o’stirish, ularni erkin tinglovchi, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O’qituvchi darsda boshqaruvchi, o’quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog’i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko’p qirrali samara keltiradi.

Boshlang’ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo’g’ini bo’lganligi sababli ana shu jarayonda o’quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko’proq e’tibor berish lozim. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining ma’suliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qoygan o’quvchilarni maktab hayotiga ko’niktirib,zamonaviy bilim olishlariga yo’l ochib beradilar. Bolalarning o’qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang’ich sinf o’qituvchilarining vazifasi ma’suliyatli ekanligini ko’rsatadi.



Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o’tkazish metodlariga ko’ra o’quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo’ladi. O’quvchilarining o’quv materiallarini o’zlashtirishga bo’lgan qiziqish, xoxish va istaklarini qo’zg’atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo’lib, bu o’qituvchi va o’quvchilarining o’zaro ichki yaqinlashuvidir.

Boshlang’ich sinfda ta’lim jarayonida o’quvchilarining o’qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Boshlang’ich sinflarda ko’proq bolalarning yoshini, bilim savyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o’yin mashqlardan foydalanib darslar o’tish yaxshi samara beradi. Ko’proq atrof-muhit bilan bog’lab o’tilgan mashg’ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishslash ko’nikmasini rivojlantiradi.

O’quvchilarining o’zaro hamkorligi asosida dars samaradorligini oshirishi, mustaqil fikrlash, fikrmulohaza yuritish, munosabat bildirish ko’nikmasini shakllantirish, ya’ni interfaol tushunchasini yuzaga keltirishi kerak. Bu usulda o’quvchi o’zi faol ishtirok etgan holda, yakka juftlikda, guruhlarda muammo va savollarga javob topishga harakat qiladi, fikrlaydi, baholaydi, yozadi, so’zga chiqadi, dalil hamda asoslar orqali qo’ylgan masalani yoritib berishga harakat qiladi. Bu esa o’quvchilarining xotirasida uzoq saqlanadi. Yangi mavzuni o’zlashtirishda tanqidiy, tahliliy



yondosha oladi. O'qituvchi faqat yorug' ko'rsatuvchi, kuzatuvchi vazifasini bajaradi, xolos.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi va o'quvchilarni o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda darslarda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

“Baliq skeleti” metodi: Bu usul orqali o'quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rGANADILAR. Bu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rtaq tashlangan muammonihar tomonlama ochib berishga harakat qiladilar.

“Venn diagrammasi” metodi: ushbu texnologiya ona tili, o'qish darslarida o'tilayotgan mavzu haqida o'z fikriga ega bo'lish, matn bilan ishslash, o'rganilgan materialni yodda saqlash, so'zlab berish, fikrini erkin bayon etish, hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qilishga erishadilar, jamoa bilan ishslash imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. T. O'zbekiston. 2010.
2. Pedagogika o'qitish metodikasi T- 2008



HUSNIXAT DARSLARINI TASHKIL ETISHA SINF DOSKASINING AHAMIYATI

Sarapova Ozada Qadamboyevna

Xorazm viloyati Urganch tumani
10- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda husnixat darlarini samarali tashkil etish metodikasini shakllantirishda sinf doskasidan foydalanish hamda doskadan foydalanish texnologiyasi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: doska, Genetik metod,

Boshlang'ich sinflarda darsning samarasini asosini asosan sinf doskasi tashkil etadi. Sababi, doskaga qo'yiladigan talablardan biri bu – o'quvchilarni yozishlari

Maktablar uchun chiqarilgan sinf doskasi qora yoki to'q yashil randa bo'lshi lozim. Sinf doskasining yuzi tekis bo'lib, juda silliq ham bo'lmasligi lozim, aks holda bo'r doskada sirpanib o'zuvning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sinf doskasini ikki turga bo'lisch mumkin: biri domiy devorga osig'liq turadigan doska, ikkinchisi tik o'q atrofida aylanadigan ko'chma doska. Bunday doskaning qulay tomoni shundaki, uni derazadan tushayotgan yorug'ga qarab burish mumkin.

Bunday doskachalarini mehnat darslarida yuqori sinf o'quvchilari ham yasab berishlari mumkin. Sinf doskasi linoleumdan yoki taxtadan yasalishi mumkin. Linoleumdan yasalgan sinf doskasi sifatli hisoblanadi, chunki taxtadan yasalgan doskalar xar yili bo'yalib turiladi. Natijada bo'yolar qatlami hosil bo'lib, doskaga yozish vaqtida bo'r sirg'anib ketaveradi. Sinf doskasi qoida bo'yicha eniga 1,200 mm, uzunligi 3000 mm bo'lshi lozim. Sinf doskasining chetiga raqamlar qo'yilgan bo'lib, pastki qismida esa bo'r va latta uchun joy bo'lshi shart.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun doska poldan 85 sm yuqoriga o'rnatilgan bo'lshi lozim. O'quvchilarga yozuvlarni yanada yaqqolroq ko'rsatish uchun sinf doskasini balandroq qo'yish ham mumkin. Tajribam davomida ko'plab kuzatishlar amalga oshirdim. Doskaning bo'yi o'quvchilarining yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, fsiologik jihatlarni inobatga olib joylansa maqsadga muvofiq. Bunda doskaning tagiga balandligi 16 sm, eni 1 metr, uzunligi esa doskaning uzunligi bilan ting bo'lgan taxta qo'yilishi lozim. Doskaning tagiga bo'r maydalarining to'kilmasligi uchun pastki ramkaning ustiga eni 5-6 sm li taxtacha o'rnatilishi, chap tomonida esa bo'r turishi uchun quticha maxkamlanishi maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarining bo'yi yetishini ham inobatga olish eng muhim omil sanaladi.

Hozirgi kunda ko'pchilik maktablarimizda uch tabaqali harakatlanuvchi ochilib yopiladigan doskalar ham keng o'rin olmoqda. U doska maktablarimiz uchun juda qulay bo'lib, uni yuqoriga ko'tarish, pastga tushirish mumkin. Bunday doskalar har bir sinf o'quvchilarining bo'yiga moslashtirish uchun juda qulaydir. Undan tashqari, bir tabaqasini yozuv daftariga, ikkinchi tabaqasini matematikaga moslab chizib qo'yish mumkin. Sinf dokasi devorning o'rtasiga o'rnatilgan bo'lib, yorug' chap tomonidan tushib turishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qiydigan sinflardagi doskalar yozuv darslari uchun moslashtirilib, kataklarga ajratilgan bo'lshi, yozayotganda qimirlamasligi lozim. Agar sinf doskasi qora rangda bo'lsa, oq rangli bo'yoq bilan, agar doska to'q yashil rangda bo'lsa, qora bo'yoq bilan kataklar chiziladi. Sinf doskasiga kataklar chizish vaqtida, albatta, moyli bo'yoqdan foydalanish kerak.

Yozuv mashg'ulotlarida doska bilan bir qatorda bo'r muhim rol o'ynaydi.

3. Bo'r yumshoq nam bo'lmasligi kerak. Bo'r 15x15 mm li kvadrat shaklida bo'lib, uzunligi 50 mm dan oshmasligi yoki 30 mm dan kam Uchinchi gruppasi: o, a, br, yu, ya, d, f.

4. To'rtinchchi gruppasi: ye, e, ch, o'r v, '.

5. Beshinchchi gruppasi: e, h, j, q, g'r q. Bosh xarflar gruppasi:

1. Birinchchi gruppasi: I, SHr, CH, S.

2. Ikkinchchi gruppasi: L, A, M, YA.

3. Uchinchi gruppasi: O, S, E, H, X, J.

4. To'rinchchi gruppasi: Z, YE, E.

5. Beshinchchi gruppasi: U, O', N, Q, S.

6. Oltinchchi gruppasi: G, G', P, T, B.



7. Yettinghigruppa: Rr V, YU, F, D.

Harflarga o’xshash raqamlar shakl jihatdan kattaligini ham hisobga olib quyidagi gruppalarga ajratiladi:

1. Birinchi gruppa: 1,4, 7
2. Ikkinchchi gruppa: 6, 9, 0.
3. Uchinchi gruppa: 2, 3, 5, 8.

Genetik metod bilan to’g’ri ish olib borish uchun har bir o’qituvchi kichik va bosh harflarni gruppalarga ajratish bilan birga, uning qanday elementlardan tuzilganligini va ularning nomlarini yaxshi bilishi amalda qo’llay olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G’ulomov M. “Boshlang’ich sinf o’quvchilarini husnixatga o’rgatish” T.1970
2. G’ulomov M. “Chiroyli yozuvni shakllantirish” T. 1992



KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN LABORATORIYA MASHG’ULOTLARIDA FOYDALANISH

Satlikov Yaxyo Baxromovijon ch

Shovot tumani 38-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (91) 437 47 16

yb_satlikov9191@inbox.uz

Atajanova Muxabbat Yuldashevna

Shovot tumani 38-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (90) 557 88 38

atajanovamuxabbat_8838@umail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan laboratoriya va amaliy mashg’ulotlarni o‘tkazish jarayonida foydalanish

Kalit so’zlar: Virtual o’quv laboratoriya, ta’limni axborotlashtirish, didaktik interfeys, sse-nariyli sxemalar,

Virtual o’quv laboratoriya haqida tushuncha. Ta’limni axborotlashtirishda, bo’lajak kadrlarning axborot va kommunikasion texnologiyalarni o’zlashtirishlari bilan bir qatorda, aniq fan sohasida kadrlar tayyorlashni axborot va kommunikasion texnologiyalarni kommunikasion texnologiyalari vositalari yordamida jadallashtirish lozim. Keyingi vaqlarda, ta’limda axborot va kommunikasion texnologiyalaridan foydalanish sohasida yangi atama ”Virtual o’quv laboratoriya” paydo bo’ldi. Virtual o’quv laboratoriya ochiq va masofaviy o’qitish g’oyasiga muvofiq bo’lib, ta’lim jarayoni-dagi moddiy-texnik ta’minot borasidagi muammolarni oz bo’lsada dolzarbligini kamaytiradi.

Virtual o’quv laboratoriya bo’yicha ilmiy-metodik ishlarning mavjudlari ham asosan virtual asbob va ularni laboratoriya mashg’ulotlarida qo’llashning yoritilishi bilan cheklangan, biroq, bizning fikrimizcha, virtual o’quv laboratoriyasida faqatgina virtual asboblar emas, balki virtual o’quv xonalari texnik ob’ektlar loyihasi, matematik va imitasion modellash tizimlari, amaliy dasturlar o’quv va ishlab chiqarish paketlarini o’z ichiga oladi. Virtual o’quv laboratoriyaning o’zi esa faqatgina laboratoriya mashg’ulotlarida emas, balki o’quvchilarning kurs va diplom loyihalarda, o’quv-tadqiqot ishlarida qo’llanilishi mumkin. «Virtual laboratoriya» tushunchasining mohiyati tarkibiy qism bo’lgan virtual asbob yordamida (oddiy elektron asbob bilan ishlagandek) kompyuterda ishlash imkoniyatini beradigan, oddiy kompyuterga qo’shimcha qilingan apparatli va dasturli vositalar to’plamini ifodalashdan iboratdir. Virtual asbob va virtual laboratoriyaning muhim qismi - foydalanuvchining samarali grafik interfeysi (ya’ni, foydalanuvchining kompyuter bilan o’zaro aloqalarining qulay, interfaol rejimini ta’minlovchi), odatiy predmetli sohada ko’rgazmali grafik namunalar ko’rinishida grafik menuy tizimi bilan dasturli asbob hisoblanadi.

O’quv virtual laboratoriya - bu yakunlangan dasturli mahsulot bo’lib, uning o’ziga xos xususiyati avtomatlashtirilgan hamda loyihalashtirish samaradorligini oshirishga yo’naltirilgan katta dasturli tizimlarni loyihalashtirishning zamonaviy konsepsiyalardan foydalanish hisoblanadi. Metodologik jihatdan virtual laboratoriyalarni sun’iy intellekt tizimlarida qabul qilingan jarayon, deklarativ va gibrild tizimlari turlariga asoslangan bilim berish, tasavvur modellaridan kelib chiqib, guruhlash mumkin.

Virtual o’quv laboratoriyyadagi amaliy jarayon asosini amaliy dasturlar o’quv paketi yoki ularning sanoat analoglari tashkil etadi.

Maxsus didaktik interfeys, ssenariyli sxemalar. Virtual laboratoriyalarni yaratishda asosiy e’tibor odatda matematik modellash, o’rganilayotgan jarayon yoki obyektlar optimallashtirish va hisob ishlariga qaratiladi. Amaliy dasturlar paketi bilan o’quv ishlarida o’quvchilar maxsus mutaxassislik malakalariga ega bo’lishlari kerak, ko’pchilik hollarda ular hali malakalarga ega bo’lmaydilar. Bunda quyidagi tamoyillarga asoslangan maxsus didaktik interfeys, ssenariyli sxemalar yordam berishi mumkin:

- o’rganish faoliyatini faollashtirish uchun musobaqalashish vaziyatlarini yaratish;
- o’quvchilarning bilish faoliyatini siklik, yopiq boshqarishni tashkil etish;
- qiziqarli namunaviy yoki o’rgatuvchi masala yoki masalalar to’plamini tanlash. Bu tamoyillarni amalgalash tajribasi ularning yuqori didaktik samarasini ko’rsatadi. Texnik ma’lumotga ega bo’lgan mutaxassislarni tayyorlashda texnik obyektlar loyihasini o’rganish bo’yicha labo-



ratoriya ishlari katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda maxsus o'quv xonalari yaratilyapti. Ammo ularni yaratish uzoq vaqtini, jihozlash va tarkibi esa - katta moddiy resurslarni talab qiladi.

Ta'lim jarayonida virtual xonalardan foydalanish haqiqiy o'quv xonalaridan foydalanishni butunlay chetlashtirmaydi. Lekin, bunday mashg'ulotlarning elektron ko'rinishi quyidagilarga imkon beradi:

- o'quvchilarning o'quv ishlarida faolliklari va mustaqilliklarini oshiradi;
- o'quv materialining multimedia ko'rinishidaligi bilan uni qabul qilishni osonlashtiradi;
- har bir o'quvchining materialni o'zlashtirishi bo'yicha to'liq nazoratni ta'minlaydi;
- imtihon va reyting nazoratlari tayyorlanishda takrorlash va trening jarayonini osonlashtiradi;

Virtual laboratoriya o'quv multimedia majmualaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bilish faoliyatining asosiy bosqichlariga quyidagilar:

1. Tanishuv, qabul qilish: metodik tavsiyalar, bosma qo'llanmalar.
2. Anglash, mustahkamlash va bilimlarni tekshirish: elektron o'quv qo'llanmalar, test tizimlari, virtual o'quv xonalari.

3. Kasbiy yo'nalgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, intuisiyani rivojlantirish: matematik yoki immitasion modellash, trenajerlar va boshqa o'quv tizimlari.

4. Loyiha-tadqiqotchilik o'quv faoliyati: o'quv yoki ishlab chiqarish qo'shimcha dastur paketlari kiradi. Fanlar bo'yicha fizik asboblar va qurilmalar bilan shaxsan tanishmasdan va ularda ishslash ko'nikmalarini shakllantirmsadan turib, yetuk mutaxassisni tayyorlashni tasavvur qilish qiyin. Masofaviy ta'limdi tashkil etish sharoitlarida laboratoriya praktikumining an'anaviy shakllari foydalanuvchi (o'quvchi tajriba o'tkazuvchi)ning modellashtirish muhiti bilan samarali interfaol o'zaro aloqalariga erishish yo'lida apparatli-dasturli (texnik) vositalar, kompyuter grafikasi va animasiyadan foydalanib, fizik tajribani imitasiya qilish hamda matematik modellashtirish texnologiyasidan foydalanuvchi, virtual laboratoriyalar bilan to'ldiradi. Virtual laboratoriyaning muhim jihatni asboblarining odatiy tasvirlari bilan birga, haqiqiy signallarni imitasiyalash modellariningina emas, balki zarur ma'lumotlar fayllarida saqlanadigan avvalgi tajriba ma'lumotlar fayllarida foydalanish yo'li bilan tajribani ko'rgazmali imitasiya qilish mumkinligi hisoblanadi. O'qitish natijalari kafolatining asosi yaxlit o'quv jarayonida tashkil etiluvchi operativ javob aloqasi hisoblanadi. O'quv materialini o'rganishda qo'yilgan maqsadlarga yo'naltirilgan kundalik natijalarni baholash va ta'lim mazmunini boyitib borish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari - Toshkent, 2015
2. Mutalipova M., Imomov M. Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. T.:TDPU, 2017
3. Tolipova J.O., Umaralieva M.T. Botanika darslari (O'qituvchi kitobi) Umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. "Tafakkur" nashriyoti. (5-sinf) Toshkent-2016 y.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIGA QIZIQTIRISH USULLARI

Tog‘ayeva Bahora Abdurasulovna
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani
15-umumi o‘rtalim maktabi
boslang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boslang‘ich boslang‘ich sinflarda matematika faniga qiziqtirish usullari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: qo’shish, amallar, usullar, aqlni charxlash, matematika...

Fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘qituvchi o‘qitish va o‘rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas’ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun o‘qituvchi o‘qitish jarayoni hamda o‘qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to‘liq bilishi lozim. Bundan maqsad shuki, o‘qitish uslubi shunday yo‘lga qo‘yilsinki, bunda o‘quvchilar o‘qitilayotgan fanni to‘liq o‘zlashtira olishsin.

BU QIZIQ!

“+” – qo’shish nemis matematiklari tomonidan XV asr oxirida kiritilgan.

“-” – ayirish nemis matematiklari tomonidan XV asrda kiritilgan.

“x” – ko’paytirish 1631 yilda Outred kiritgan.

“:” – bo’lish Leybnist 1684 yilda kiritgan.




= - tenglik Rekord 1557 yilda kiritgan.





Yechish: 1-do'konga-500 kg
 2-do'konga -280kg
 Yechish: $500+280=780$
 Javob: 780 kg bor edi
 Aqlni charxlash o'yini.



“Kim ko'p uzum yeydi” didaktik o'yini.

“Harakatda barakat” o'yini. Bunda o'quvchilar ham og'zaki she'r aytadilar ham undagi raqamlarni qo'lda ko'rsatib beradilar.

Bobo sholg'om ekipdi 1,2,3
 Sholg'om katta bo'libdi 1,2,3
 Rosa to'plab kuch 1,2,3
 Bobo xursand tortibdi 1,2,3



Ta'kidlash joizki, har bir tarkibiy qism talablarining to'liq bajarilishini ta'minlash hamda unga amal qilish tanlangan o'qitish uslubining samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Darsliklar bo'yicha metodik qo'llanmalar
3. Internet saytlari.



MULTFILM VA ERTAKLAR ORQALI RUS TILINI O’RGANISH

To‘qsanova Lyubov Tursunovna

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

15 - son mакtab rus tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik yoshli o’quvchilarga rus tilini oson o’rgatishda ertak va multfilmlarning ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ertak, rasm, multfilm, rus tili, til, video, ertak va multqahramonlar.

Hozirgi kunda bolalarni zamon bilan ham nafas, dunyo o’zgarishlarining old qadamida bo‘lib, o’sishi uchun biror chet tilini va kompyuter savodxonligini yoshligidan boshlab o’rganmog‘i lozim. Dono xalqimizda bir naql bor “Til bilgan el biladi” degan shu sababli bu maqola orqali bolalar rus tilini o’rganishning eng samarali usullari haqida mulohaza yuritamiz.

Pisixologik nuqtai nazardan bola yetti yoshgacha bo‘lgan davrida ko‘rganini tezda yodida saqlab qolar ekan. Shunday ekan bolajonlarga ana shu usuldan foydalaniб o‘zga tilni o’rgatish uchun multfilm va ertaklar orqali til o’rgatish samarali usuldir. Ertakda o’quvchilar rasmlarga diqqatini qaratadilar, o’qigan narsalarini tushunmasalar rasmlar orqali buni tushunish oson bo’ladi. Ertaklardagi qahramonlarning va voqealarning rasmlarda yuqori darajada ifodalanishi o’quvchini ertak ichiga kirib ketishiga, qiziqishining ortishiga sabab bo’ladi va buning natijasida o’quvchi tushunmay qolgan so‘z va gaplarni topishga, tarjima qilishga urinadi, lug’at bilan ishslashga o’rganadi. Shuningdek komik materialga asoslangan karikaturalar, hissiyotlar, tasavvurlar, hazil va tanqid elementlariga ertaklar orqali ham boshqa tillarni o’rganish osonroq bo’ladi.

Maktabgacha bo‘lgan davrda multfilm bolalarning ona tilini rivojlantirish uchun vosita sifatida ishlatalishi hammamizga ma’lum. Uyda, kichkintoy yoki bolalar bog‘chasida bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishi uchun multfilmlarni taqdim etish orqali ular karikaturalar haqida gapirishni mukammal turlarini o’rganishlari mumkin. Bunda turli savollarga javob beradigan karikaturalarni o’quvchilarga berish mumkin. Maktabgacha tarbiya davrida yuqori darajadagi hayratlantiruvchi hissiyot bilan birlashtirilishi mumkin bo‘lgan turli xil multfilmlar bolaning o’qish qobiliyatları va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi va ijodkorlikni oshiradi.

Bundan tashqari chet tilini bilish maqsadlariga erishishning bir qancha usullari mavjud va o’rganuvchilarning ehtiyojlariga va sharoitlariga qarab buni tanlash mumkin. Bu o’rganuvchining turli xil san’at sohalariga qiziqishini his etishiga yordam beradi. So‘nggi yillarda ta’lim texnologiyalari xilma-xilligi, tilni bolajonlarga maktabgacha ta’lim muassasalarida maqsadli til o’rgatadigan multimedia yoki elektron sifatida materiallarni tanlashda ko‘proq imkoniyat yaratadi. Subtitrli, animatsion, chiziqli videolar rus tilini o’rgatishda va o’rganishda foydali va muhim audiovizual materiallar hisoblanadi.

O’quvchilarga multfilmlar orqali rus tilini o’rgatishning ahamiyatlari jihat shuki o’quvchi multfilm qahramonlarining nutqidagi jumlalarni yodlab boshlaydi va o’zi bilmagan holda lug’atida so‘z boyligi ortib boraveradi. Agar tushunmagan so‘zlari bo’lsa uni mustaqil topishga, tarjima qilishga harakat qiladi. Shuningdek rus tilini multfilmlar orqali o’rganganda multfilm ovozi rus tilida chiqqani holda ekran pastida o’zbek tilidagi tarjimasi berilsa nur ustiga a’lo nur bo’ladi.

Xozirda bolajonlar uchun tashkillashtirilgan “Bolajon” va “Aqlvoy” telekanallarida ham multfilmlar o’zbek, rus va ingliz tilida namoyish qilinmoqda. O’quvchilar ana shu multfilmlarni ko’rishlari orqali multqahramonlarning harakatlari orqali ham uning nima deb turganini, nimani aytayotganligini tushunishlari, anglashlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, multfilm va ertaklar ko’rib tushunish, tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular orqali o’quvchilarning yaratuvchanlik tasavvur qobiliyatları kengayadi va o’sadi. Umuman olganda chet tillarini o’rganish bolalar uchun kelajak poydevorining mustahkam bo‘lishi uchun zamindir. Har bir ota ona farzandini internetga, bekorchi o’ylarga va boshqa zararli illatlarga vaqt ajratishini nazorat qilsa va til o’rganish uchun yo’naltirsa maqsadga muvofiq bo’lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- Umumiy o’rta ta’lim fanlari DTS talablari.
- Umumta’lim maktablarining darsliklari.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QISH DARSLARINING TA’LIMIY TARBIYAVIY AHAMIYATI VA VAZIFALARI

Tosheva Laylo Xamroqulovna
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani
7-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
telefon:+998912504747

Annatatsiya: Ushbu maqolamda boshlang‘ich sinf darslarida o‘qish darslarining o‘quvchilar uchun ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati keng yozilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiyaviy ahamiyati, ongli o‘qish, milliy qadriyatlar.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslari o‘z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko‘ra ta’lim tizimida alohida o‘rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiyaviy asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa narsalar ta’limini o‘qish ta’limsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

O‘quvchi matnni to‘g‘ri, tez, tushunib o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish bilan ilk bor o‘qish darslarida yuzlashadi. Aynan o‘qish ta’limida insonning, avvalo, o‘zligini, qolaversa olamni anglashga bo‘lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda”O‘qish kitobi” darsliklariga ona tabiat, atrofmizni o‘rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma’naviy qadriyatlar kabi mavzular bo‘yicha atroflicha tushunchalar berishga mo‘ljallangan badiiy, axloqiyta’limiy asarlar kiritilgan.

O‘qish darslari uchun tanlangan mavzular o‘quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo‘yicha ham bilim va tarbiya berishni ko‘zda tutadi.

Bular ichida istiqlol, Vatan, ma’naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko‘zlangan maqsad o‘zlikni anglash, istiqlol, Vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularni uyg‘otishdir.

O‘quvchilar darsliklar yordamida o‘zlashtiradigan bilim, ko‘nikma va malakalarining kelajak hayotda zarur bo‘lishini tushunib yetishlariga erishish o‘qituvchilar oldidagi muhim vazifalardandir.

Umuman,” O‘qish kitobi” darsliklaridagi barcha mavzular o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug‘atini boyitishga, og‘zaki va yozma nutqini to‘g‘ri shakllantirish va nutq madaniyatini o‘stirishga ham qaratiladi.

Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘qish faoliyati barcha narsalarni darslarida amalga oshiradi. Lekin o‘qishga o‘rgatish yo‘l-yo‘riqlarini o‘qish metodikasi ishlab chiqadi.

O‘qish darslariga qo‘yiladigan didaktik vazifalar quyidagilardan iborat:

1. O‘quvchilarda yaxshi o‘qish sifatlari:to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish.

2. O‘quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o‘rgatish, kitobga muhabbat uyg‘otish; ularning oddiy kutubxonadan chuqr mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish.

3. O‘quvchilarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va boyitish hamda ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish.

4. O‘quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan yetuk va mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini va adabiy-estetik tafakkurini o‘stirish.

6. O‘quvchilarning hayolot olamini boyitish.

7. Elementlar adabiy tasavvurlarini shakllantirish.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta’limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo‘lib, ular zamонавиyo‘qitish usullari bilan boyitib borilmоqда. Bu vazifalar boshqalar bilan o‘zaro bog‘liq holda va sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari jarayonida hal qilinadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Internet saytlaridan www.eduportal.uz

2. Shodmonqulova D O‘qish metodikasi TDPU 2008

3. X.G’ulomova Ona tili va o‘qish savodxonligi metodologiyasi TDPU 2007



**ONA TILI VA ADABIYOT DARSALARIDA INTERFAOL METODLARDAN
FOYDALANISH.**

**Tuliyeva Shaxnoza Rashid qizi,
Bekmetova Nurxon Sultonbayevna
Urganch tumanidagi 7 son maktabning
Texnologiya fani o'qituvchilari.**

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili va adabiyot darslarida foydalaniladigan interfaol usullar va ularning mazmun mohiyati izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: ona tili, adabiyot, il-fan, xorijiy til, FSMU texnologiyasi.

Barchamizga ma'lumki, ona tili va adabiyot fani ta'lim tizimining poydevori bo'lib, o'quvchilarning boshqa fanlarni o'zlashtirishi unga bog'liq bo'ladi va ona tili o'qituvchisi zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm – fan, texnika ham shiddat bilan o'sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm – fanda ham katta o'zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalaniib o'quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Boshqa xorijiy tilni yaxshi o'rganmoqchi bo'lgan kishi avvalo, o'z ona tilini mukammal bilishi, e'zozlashi, qadrlashi lozim.

Shunday ekan, o'z tilini mukammal bilgan kishi boshqa xorijiy tillarni o'rganishga kirishishi tabiiy hol. Buning uchun ona tili va adabiyot o'qituvchilari o'z darslarida zamonaviy interfaol metodlardan foydalaniib, o'quvchilarning fanga va bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishi lozim. Ona tili va adabiyot o'qituvchisining mahorati o'z o'quvchilarini ta'lim jarayoniga faol ravishda jalb qila olish darajasi va ularning mustaqil aqliy va amaliy darslarini to'g'ri tashkil qilishi bilan belgilanadi. Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish dars samaradorligini oshirishi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada mustahkamlashi hech kimga sir emas.



Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotda joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchi, erkin ishtirokchiga aylantirmaq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Men o'z darslarimda ko'p foydalandigam FSMU texnologiyasi haqida yoritib bermoqchiman.

FSMU texnologiyasi - 4 bosqichli yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda tarqatiladi.

Bunda:

F - fikringizni bayon eting.

S - fikringiz bayoniga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatgan sababingizni asoslovchi misol keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

O'qituvchi tinglovchilar bilan bahs mavzusini belgilab oladi. Yakka tartibdagi ish tugagach,



tinglovchilar kichik guruhlarga ajratiladi va o'qituvchi kichikguruhlarga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi. Kichik guruhlarga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4 bosqich bo'yicha yozishlari taklif etadi. O'qituvchi kichik guruhlarning yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi. “Sintaksis, ohang va tinish belgilari” mavzusi bo'yicha fikrlaringizni bayon qiling.

F - Sintaksis, ohang va tinish belgilari o'ziga xos grammatick xususiyatga ega.

S - Sintaksis, ohang va tinish belgilari mustaqil so'z turkumlariga mansub bo'ladi. Masalan, kitob o'qimoq, maktabga bormoq. Lekin ukam uchun, telefon orqali birikuvlari ikkinchi so'zlar mustaqil so'z bo'limganligi uchun so'zlarning bog'lanishiga misol bo'la olmaydi;

M - Sintaksis, ohang va tinish belgilari bor so'zlarning ma'nolari o'zaro mos bo'lishi lozim. Masalan, oyna so'zining ma'nosi sinmoq so'zining ma'nosiga mos. Ammo randalamoq, uzilmoq so'zlariga mos emas. Shuning uchun nutqda ma'nosi mos bo'limgan so'zlarni bog'lash xato bo'ladi;

U - Sintaksis, ohang va tinish belgilari bor so'zlarni bog'lovchi qo'shimchalar ham o'z o'rnila bo'lishi kerak. Masalan, Toshkentda yashayman, ukamning daftari birikmasida qo'shimchalar to'g'ri qo'llangan. Lekin Toshkentga yashayman, ukamni daftari birikmasida qo'shimcha noto'g'ri qo'llangan.

So'zlarning gapdag'i bog'lanishi sintaktik aloqa, sintaktik aloqani o'rganuvchi bo'lim sintaksis deyiladi. Tovushlardan so'z va qo'shimchalar, so'z va qo'shimchalardan gap hosil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. R. Ishmuhammedov “O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslu biyati”, Toshkent, RBIMM-2008 yil.
2. A. G'ulomov, M. Qodirov “Ona tili o'qitish metodikasi”, Toshkent., 2001 yil.



WHAT MAKES A GOOD TEACHER?

Yarushkina Luiza Markovna

Teacher of English language at specialized school № 3 in
Urgench city of Khorezm region

Annotation: This article is about what makes a good teacher. A lot of unique method, incredible knowledge and interactive ideas are also given.

Key words: unique method, incredible knowledge, innovative ideas.

Every teacher wants to be good, but what exactly are the qualities that can make a good teacher? The profession of teacher can be quite satisfying for people who do this job well. I know this because I am a teacher, too. Although I do not think I am always the best teacher, I try to do my best in every lesson of mine. Time by time I feel that the majority of my pupils love me.

I have spent a lot of time thinking about what characteristics make a teacher effective and how can I succeed in the classroom.

Thus, every great teacher has her own special, unique method and style. In this article I have found out that there are some specific qualities that are necessary for anyone who wants to become a good teacher at secondary school. Each of these features are described fully below.

Firstly, a good teacher must love her work. If you do not love your work, you cannot achieve any result from your pupils. Love of a subject inspires a person to learn more, dig deeper and think harder about it. The best teachers are those who clearly enjoy their subjects and desire to teach to their pupils.

Secondly, a good teacher must have incredible knowledge on her subject. Only an intelligent teacher can give excellent knowledge to the pupils. Teacher with good knowledge can answer the questions of pupils and keep the material interesting for the pupils during the lesson. Enthusiasm always appeals to working with children.

Thirdly, a good teacher must be up-to-date. By this I mean teacher can have a talk on any theme which pupils may be interested in. She should try to keep in touch with the latest current events, to create innovative ideas related to her subject and can work well on computer. An excellent teacher is always ready for the lesson beforehand. Furthermore, she should possess a number of other wonderful qualities like a sense of humor, flexibility, kindness, leadership, classroom management, experience and a calm demeanor.

Also a smart teacher should have a good communication skills with pupils. She notices when even one pupil among many does not understand. No matter you are in trouble or you are out of mood before the lesson but you are a teacher in the classroom during the lesson, so you should behave like an actress. Good communication makes relationship between the teacher and the pupils. In my opinion a good teacher should draw out more the quiet ones and control the more talkative ones. A good teacher is... someone who helps rather than shouts.

In addition to being a good teacher you should become an excellent listener. As the Turkish proverb says, “If speaking is silver, then listening is gold”. To listen someone requires patience. When teachers develop this ability of patience in themselves, they will start to become great. A good teacher never loses patience and teaches every student accordingly. The best teachers are the most open, welcoming and easy to approach. They are never bad; it is only their way of teaching which is different from each other. They only want to see their students happy and successful.

As William Butler Yeats said: “Education is not the filling of a pail but the lighting of a fire”.

References

1. Cilce Murcia, M 2001. Teaching English as a second of foreign language.
2. William Butler Yeats The best teacher 2004



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION DARS O'TISHNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Xoshimova Nodira Orifjanovna

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Andijon viloyati Andijon shahri
24-maktab boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda dars olib borishning yangi usullaridan foydalanilgan holda dars mashg'ulotlarini qiziqarli va samarali tashkil etishning zamonaviy usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, innovatsion yondashuv, Pedagogik faoliyat.

Hozirgi vatanimiz shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda, yurtimizda barcha sohalarda o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lif tizimida yil sayin rivojlanib borayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va uning ta'lif tizimiga kirib kelishi, ta'lif jarayonini sifat va mazmun jihatdan yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilayotganligi barchamizga ma'lum. Ayniqsa, ta'lif jarayonini mazmunli tashkil etish uchun zamonaviy texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, ham innovatsion texnologoyalardan foydalanilgan holda ta'lif berishni davr taqazo etmoqda. Bugungi kunda pedagogning mas'uliyati yana bir marta o'sdi. Endilikda o'qituvchining asosiy vazifasi darsni zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarga sifatli hamda qiziqarli yetkazib berishdir. Albatta, bu pedagogdan yuksak mahorat hamda bilim talab qiladi. O'qituvchi brinchi o'rinda, o'z sohasini mukammal darajada bilishi va eng muhimi esa zamon ruhiga mos axborot kommunikatsiyalari va texnnologiyalaridan xabardor bo'lishi lozim. Zero, o'quvchilarning har tamonlama yetuk inson bo'lib yetishishida pedagoglarning o'rni beqiyos. Bugungi kun o'qituvchisi faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan, har bir dars uchun o'zi ham kichik kashfiyotlar yaratishi kerak. Chunki bolalarni qirq besh daqiqalik dars mobaynida diqqatini faollashtirib bilim berish – bu murakkab jarayon. Shuning uchun bolalarga turli ko'rgazmalar, multimediyalar va o'yinlar orqali ta'lif berish ularning nutqi rivojlanishiga va fikr doirasi kengayishiga imkon beradi. Eng asosiysi, darsda samaradorlikka erishiladi

Hozirda darslarni mazmunli tashkil etish esa o'z navbatida pedagogdan yuksak bilim talab qiladi. Dars jarayonida qo'llash uchun o'zi turli pedagogik metodlarni dars jarayonida ishlab chiqadi hamda hayotga tadbiq etadi. Ta'lifda darsni keng qo'llanib kelinatoygan hamda bilim berish samarasini oshiruvchi “Aqliy hujum”, “Fikrlar hujumi”, “Tarmoqlar” metodi, “Beshinchisi ortiqcha”, “6x6x6”, “Bahs-munozara”, “Rolli o'yin”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Yumaloqlangan qor”, “Zigzag”, “Oxirgi so'zni men aytay” kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Bu pedagogik metodlar asosan darsni samarali tashkil etish orqali o'quvchilarni darsga qiziqtirishga hizmat qiladi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, sanab o'tilgan metodlarning deyarli barchasi erkin suhbat, o'yin topshiriq va baxs- munozara shaklida tashkil etiladi. Bu orqali o'quvchini darsda to'liq qamrab olish, uni dars jarayoning faol ishtiroychisiga aylantirish imkonini paydo bo'ladi. Shuni ham unutmaslik lozim. O'qituvchi tomonidan tanlangan o'yinlar, ya'ni pedagogik metodlar tog'ri tanlanishi va tog'ri tashkil etilishi juda muhim omil sanaladi.

Bizningcha, ta'lifiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iboratbolsamaqsdaga muvofiq bo'lar edi:

1. Ta'lifiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'lifiy o'yinlarni o'tkazish vaqtini aniq belgilanishi shart;
4. Ta'lifiy o'yinlar ham ta'lifiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;
5. Ta'lifiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobjiy natija berishi tajribalardan ma'lum. O'yin-to'shiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darjasini, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishslash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Ta'lif muassasasida innovatsion faoliyatning sub'ekti o'qituvchi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda o'qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy,



intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik bo’ladi. Ya’ni pedagog qanchalik bilimli va salohiyatli bo’lsa, dars yana ham mazmuni, qiziqarli bo’ladi. Zero, darsni tog’ri tashkil eta bilish ham bir san’at. Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, ta’limning samarasi fanning o‘quvchi uchun qiziq bo’lishi aynan pedagog tomonidan tanlangan dars o’tish metodiga bog’liq.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Boshlang’ich ta’limning integrastiyalashgan ‘edagogika. TD’U, 2017.
2. J.G’ Yo’ldoshev. S.A.Usmonov “edagogik texnologiya asoslari”. –T.: O’qituvchi, 2004.
3. Internet malumotlari: Ziyonet.uz, kitobxon.com,



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINING O'RNI.

**Yangibayeva Quvonchoy Raximboy qizi,
Eshonquliyeva Go'zal Nabijonovna**
Ufganch tumanidagi 7 son mактабнинг
Tasviriy san'at fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: Tasviriy san'at darslarida o'quvchilar borliqni va san'atni estetik idrok qilish yo'llarini o'zlashtiradi. Bu fan orqali o'quvchilarning fikrلash qobiliyati, ko'rish xotirasi, ijodiy tafakkuri, badiiy didi, estetik hissiyotlari rivojlanib borishi haqida tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, me'morchilik, estetik idrok, interfaol metod va texnologiyalar, sxemalar, diagrammalar, eskizlar, estetik tarbiya.

Tasviriy san'atdagi ta'limiylar va tarbiyaviy jarayon o'quvchilarda rasm chizish, me'morchilik ko'nikmalarini shakllantirish bilan birgalikda atrof-muhitdagi go'zalliklarni estetik idrok etish, uni tasviriy vositalar asosida aks ettirish bo'yicha ham nazariy bilim va malakalarni rivojlantiradi. Shuni aytib o'tish lozimki, bu maqsadlarga to'laqonli erishishda o'qituvchining darsga yondashuvi va mahorati muhim o'rinnegi egallaydi. Chunki tasviriy faoliyat jarayonida shakllanadigan bilim, malaka va ko'nikmalar asosan dars davomida amalga oshiriladi. Dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol metod va texnologiyalarni tanlashda fanning xususiyatini hisobga olish maqsadga muvofiq. O'qitish jarayonining samarali va natijali bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan interfaol uslublar va o'qitish texnologiyalari hozirgi kunda respublikamizning barcha umumiy o'rta ta'limgakhlislarida keng miqyosda qo'llanilib, ijobiy natijalar olinmoqda.

Xususan, o'tilgan mavzuni mustahkamlash qismida "Zinama-zina", "FSMU", "Tushunchalar tahlili"; yangi mavzuni tushuntirishda "Charxpakalak", "Tarmoqlash", "SAN" texnologiyasi; yangi mavzuni mustahkamlash va unga oid mustaqil ish berilganda "Rezyume", "Tashviqot guruhi", "SAN" texnologiyasi; darsni yakunlash bosqichida "Yelpig'ich" texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Tasviriy san'at darslarini qiziqarli, mazmunli olib borish uchun o'qituvchi o'z ishiga ijodiy yondashish, har bir darsda texnika vositalari, multimedia vositalari, slaydlar va ko'rgazmali qurollardan o'z o'rnida foydalanishi kerak.



Dars jarayonida faqatgina qo'llanmada ko'rsatilgan materiallar bilan cheklanib qolmasdan, qo'shimcha adabiyotlar, internetdan olingan ma'lumotlar va fan yangiliklari, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Umumiy o'rta ta'limgakhlislarida tasviriy san'at o'quv predmetining maqsadi barkamol, komil insonni ayniqsa, badiiy madaniyatini shakllantirishdir. Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy madaniyatga doir elementar bilim va malakalar beradi. Chunki, har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u ishdan tashqari vaqtlarida dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi kerak bo'ladi. Bunga u yuksak badiiy savyada ishlangan san'at asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashlariga to'g'ri keladi.

Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, u o'qituvchilar, injenerlar, mediklar, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning



har biri o‘z faoliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqali so‘z bilan tushuntirib bo`lmaydigan o‘z g`oya va fikrlarini tasvirlab ko`rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu maktablarda tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma’noni bildirmaydi. Maktablar o‘z nomiga ko`ra umumiy o`rta ta’lim maktablari deb nomlanib, bolalarga boshqa fanlar qatori tasviriy, amaliy va me’morchilik san’atlaridan umumiy, elementar bilim va malakalar berishni vazifa qilib qo’yadi. Yana shuni ham qayd qilish lozimki, umumiy o`rta ta’lim maktablari rassomlarni tayyorlamaydi, iqtidorli bolalar bilan ishslash, ularni rivojlantirish bilan ham shug`ullanishni nazarda tutmaydi. Tasviriy san’at, hattoki fizika, jismoniy tarbiya, kimyo, musiqa darslari uchun ham foydalidir. Shuni ham qayd qilish lozimki, tasviriy san’at estetik tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan bo`lsada, u axloqiy, mexnat, ekologik, jismoniy tarbiya darslari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Muxtasar qilib aytganda, tasviriy san’at fanining insonlar hayotida o’rnini beqiyos. Agar biz o’qituvchilar darsni qiziqarli, aniq va yangi texnologiyalar asosida olib borsak o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishlari ortadi, dars samaradorligi yuqori bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Toshkent, 1997 yil 29 avgust
2. I.A.Karimov. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin». T., 1994
3. Abdirasilov S., N. Tolipov N. Rangtasvir. -T.: Bilim, 2005. 10.Boymetov B. “Portret qalamtasviri”. O’quv qo’llanma. - Toshkent, 2001.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Yuldasheva Tulgonoy Koriyevna

Shovot tumani 38-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (88) 857 27 07

tk_yuldasheva2707@umail.uz

Yo'ldosheva Nargiza Karribayevna

Shovot tumani 38-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (91) 572 47 40

nargiza.yo'ldosheva_38@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'linda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalar, “Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Zinama-zina” “O'zim tekshiraman”, “Bo'lishi mumkin emas”, “Ortiqchasini top”, “Juftini top” metodlari.

Insoniyat jamiyatining hozirgi zamon rivojlanish darajasi mustaqil respublikamiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarda o'z aksini topmoqda.

Mamlakatimizdata'lim oluvchi-yoshlarning ijodiy g'oyalarni hartomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Xususan, yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi, Xalq ta'limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etishi belgilandi.

Darhaqiqat, boshlang'ich ta'linda bola shaxsining aqli, dunyoqarashi, savodxonligi, mantiqiy tafakkuri, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, o'qish darslarida bola borliq, atrof-muhit bilan tanishadi, yaxshini yomondan ajratishni anglaydi, vatan tuyg'usini his qiladi. Ko'rganini va o'qiganini qayta hikoyalash ko'nikmasi shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziquvchanligi va bilishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda pedagogik va axborot texnologiyalaridan darslarda samarali foydalanish bugungi kun pedagoglaridan zamon bilan hamnafas bo'lishni talab qiladi.

Boshlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarni darsdag'i faolligiga erishilinadi, dars mazmuni o'quvchilarga tushunarli tilda bayon etiladi.

Bu borada “Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Zinama-zina” singari metodlar bilan bir qatorda “O'zim tekshiraman”, “Bo'lishi mumkin emas”, “Ortiqchasini top”, “Juftini top” singari didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

“Tushunchalar tahlili”, “Charxpalak”, “Zinama-zina” metodlarida boshlang'ich sinflarda o'tiladigan barcha o'quv fanlarida foydalanish mumkin. Ushbu metodlardan dars jarayonida foydalanilganida juftlikda yoki kichik guruhlarda ishslash mumkin.

Savod o'rgatish darslarida “Ortiqchasini top” didaktik o'yinini qo'llash orqali sinf o'quvchilarining eslab qolish qobiliyatini rivojlantirish mumkin. Ushbu didaktik o'yinni tayyorgarlik davrida rasmlar yoki tayyor predmet va o'yinchoqlar asosida tashkil qilinganida ham yaxshi natijalar qo'lga kiritiladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qitish tamoyillaridan biri sanalmish ta'lim-tarbiyaning ko'rgazmalilik tamoyili asosida darslarni tashkil qilishga harakat qiladi. Bunda talab asosida ko'rgazmalilik aniq predmet va narsalarni kuzatish va ko'rsatish orqali;

Mavjud predmetlar va narsalarning modeli va nusxasidan foydalanish orqali;

Hodisaning tasviri, rasm, jadval yoki xaritalarni ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi ushbu tamoyilni amalga oshishida multimedya vositalaridan foydalanishi mumkin. O'tilayotgan mavzuni bola tasavvurida yaqqol hosil qilish va ta'lim sifatini oshirishda multimedya vositalari orqali namoyish qilishning ahamiyati beqiyosdir.

Hozirgi kunda ta'lim sohasida o'qitishni avtomatlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Chunki



zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish katta ijobiy natijalar beradi. O'qitishni avtomatlashtirish (axborotlashtirish) yoki axborot texnologiyalaridan foydalanish dasturiga quyidagilarni kiritish mungkin:

- a) ta'lif tizimining barcha pog'onalarida axborotlashtirishning yetakchi bo'g'inligini ta'minlash;
- b) barcha sohalar bo'yicha bilim berishda axborotlashtirishni riyolantirishni loyihalash va yaratish (monitoring), resurs markaz tizimi;
- d) axborotlashtirish sohalarida me'yoriy bazalarni yaratish (metodlar, ilmiy-metodik birlashmalar va h.k.);
- e) texnik ta'minotni – kompyuterlar, axborot texnologiyasining boshqa qurilmalari (fotoapparat, kamera), ularga xizmat ko'rsatish uchun kerakli materiallarni yaratish;
- f) telekommunikatsiya (havo orqali, yerning sun'iy yo'ldoshlari va boshqa aloqa kanallari) tarmoqlari;
- g) ta'minot resurslari (dasturiy ta'minot, internetdagi axborotlar majmui, ma'lumotnomalar va h.k.).

Boshlang'ich ta'lilda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lif samaradorligini oshirish bugungi kun ta'lif jarayonining muhim vazifasi hisoblanadi.

Ayniqsa tabiatshunoslik darslarida televideniya orqali berib boriladigan ilmiy-ommabob filmlar, audio-video texnikasi vositalari orqali beriladigan o'quv materiallari, kompyuter va internet materillaridan foydalanish mumkin.

Hozirda boshlang'ich ta'lif fani o'qituvchilari darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan birga axborot kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalangan holda tashkil etish orqali oquvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarini mustaxkamlash ma'suliysi yuklanadi.

Kompyuter orqali darslarni tashkil etish uchun fan o'qituvchilari avvalo kompyuterda ishslash ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim.

Har xil ko'rinishdagi darslarni tashkil qilish asnosida vizual informatsiyalarga yuqori darajada talabgor bo'lgan o'quvchilarining xohishi amalga oshadi, mashg'ulot zerikarli ko'rinishdan mazmunan boy va ta'sirchan darsga aylanadi, ko'rgazmalilikning amalga oshishi natijasida diqqat va yangi mavzuning xotirada uzoq muddatga saqlanib qolishi ta'minlanadi. Darsni mazmunli o'tishiga tayyorgarlik ko'riliishi natijasida esa, o'qituvchining ijodkorligi va zamonaviy bilimlarni o'rganishga bo'lgan ishtiyobi rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat / – T.: “Iqtisod–moliya”. 2009.
2. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari. - T.: 2008.
3. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
4. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. –T.: TDPU, 2005.
5. Begimkulov U.Sh., Djurayev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboyev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta'limi axborotlashtirish: nazariya va amaliyot, Toshkent: – 2011.



TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY RASMLAR HAMDA KO'RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISH

Yusupov Furqat Nuradinovich,
Xo'jamuratova Laylo Shayxnazarovna
Ufganch tumanidagi 7 son maktabning
Taix fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: Tarix darslarida o'quvchilarni savodxonligini yanada oshirish, egallagan bilimlarni mustahkamlash va fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish. Rasmlar va xaritalar yordamida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish.

Kalit so'zlar: “Ta’lim to’g’risida” gi qonun, “Kadrlar taylorlash Milliy Dasturi”, yangi pedagogik texnologiyalar, xarita va rasmlar, “Tarixiy yodgorliklar”, yozuvsız xarita, Jadidchilik harakati.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” gi qonuni va “Kadrlar taylorlash Milliy Dasturida” ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy qilishga alohida e’tibor berilgan. O’quvchiga ma’lum materialni o’rgatishgina emas, balki unga qanday o’qishni o’rgatish o’qituvchi faoliyatidagi katta vazifadir.

O’quv jarayonida ko’rgazmali qurollar xarita va rasmlardan foydalanish ta’lim samarasini yanada oshiradi. O’qituvchi iloji boricha har bir darsni ko’rgazmali tarzda o’tkazishga harakat qilishi lozim. O’quvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun hamda dars materiallarini yaxshi esda saqlab qolishlari uchun darslarda “Tarixiy yodgorliklar” “rasm” lar hamda mavzuga oid xarita va yozuvsız xaritalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanish usullari: O’quvchilarga uyga vazifa berayotgan paytda mavzuga oid ko’rgazma, xarita yoki rasmlar haqida ma’lumot to’plab kelish topshiriladi. Tarixiy yodgorliklarni rasmi ko’rsatilib shular haqida qo’shimcha manbaalardan foydalangan holda darsga tayyorgarlik ko’rish topshiriladi.

O’quvchilarga bu vazifani alohida- alohida topshiriq sifatida berilsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Chunki hammaga bir xilda vazifa topshirilsa uni hamma bajara olmasligi ham mumkin. O’quvchilar topshiriqlarni bajarib kelganlaridan keyin sinfni guruhlarga ajratib “Har kim har kimga o’rgatadi” usulidan foydalangan holda dars o’tish mumkin.

Masalan:

Bu uslubning maqsadi:

- o’quvchilarga zarur bolgan axborotni berish va o’rtoqlari bilan baham ko’rish, hamda axborot olishdan iboratdir.

1. O’quvchilarga uslubiyat qoidalari tushuntiriladi.: O’quvchilar o’zlari to’plab kelgan axborotlarni ma’lum vaqt davomida boshqalarga o’rgatadi.

2. Aynan o’xhash ma’lumotlar bo’lmasligi kerak.

3. Barcha ma’lumotlar bilan tanishib bo’lgach bir joyga to’planadi.

4. Shundan kiyin barcha o’quvchilar o’z olgan bilimlarini boshqa o’quvchilarga so’zlab berishi yoki boshqa o’quvchilar fikrini tinglamog’i lozim. Ma’lumotlarni tinglash uchun ma’lum vaqt ajratilishi kerak bo’ladi. Dars natijalarini mana bunday tarzda vatman qog’ozga yozib boorish mumkin. Masalan: “Jadidchilik harakati” mavzusini olaylik. Darslarda qo’shimcha manbalarda jadidchilik namoyondalarining juda ko’p rasmlari bor. Ammo biz darsda bu materialni hammasini qamrab olish nihoyat qiyin, shuning uchun o’quvchilarga ham topshiriqlar aniq ixcham dars mavzusidan chiqmaydigan darajada berilmog’i lozim.

O’quvchilarni guruhlarga bo’lib har bir guruhga 3 ta yoki 4 tadan rasm ko’rsatiladi hamda ma’lumot berish talab qilinadi.

1- guruh a’zolari axborotni, 2- guruhga 3- guruh 4- guruhga o’rgatishdi. keyingi topshiriqda esa aksincha 4 – guruh 3- guruhga 2- guruh 1- guruhga o’rgatsa maqsadga muvofiq bo’ladi.

Masalan: Darslarda tarixiy (obidalar) yodgorliklar to’g’risida to’plangan ma’lumotlarni o’quvchilarga berib borishda darslikdan tashqari, ma’lum bir davrga tegishli materiallardan ham foydalanish mumkin.O’quvchilarga topshiriq berilib tarixiy yodgorlik haqida ma’lumot to’plab kelinadi yoki o’qituvchi shu yodgorliklar haqida ma’lumot beradi.



Darsda o'qivchilar xotirasini mustaxkamlash, ularni darsga jalg qilish uchun materialni test shaklida yoki savol javob hamda boshqotirmalar tarzida ham berib borish mumkin.

Tarixiy yodgorliklar yoki tarixiy rasmlardan darslarda foydalanish o'quvchilarni mustaqil bilim olishi hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirishga qaratilmog'i lozim dedik buning uchun darslarda “Nuqtai nazaring bo'lsin” uslubidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

6- 7 sinflardagi tarix darslarida “Tarixiy rasmlar”, “tarixiy yodgorliklar” (darsliklarda berilganlari) hamda xaritalarga qarab o'quvchilar hikoyalari yozishlari yoki o'z mustaqil fikrlarini bayon etishlari mumkin, bu uslub ham o'quvchilar dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarga tarix darslarida ularning tarixiy bilimlarga bo'lgan tafakkur tushunchalarini o'stirishda yakka tushunchalarni umumlashtirib, xulosalar chiqarishda mazkur ta'lim usullaridan keng va o'rinni foydalanish ularning tafakkurini shakllantirishda juda yaxshi samara beradi. Chunki, tarixiy ma'lumotlarni taqqoslab o'rganish ularni mantiqiy fikrlash, tarixiy voqealarning mohiyatini tushunish, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotining sabablarini aniqlash ko'nikma va malakalarini takomillashtirish hamda ularning tarixiy tafakkurlarini shakllantirishda muhim o'rinn tutadi

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. 7-sinf “O'zbekiston tarixi” darslik kitob A. Muhammadjonov
2. 8-9 sinflar O'zbekiston va Jahon tarixi darslik kitoblari. T-2017
3. Internet GOOGLE ma'lumotlari
4. Yo'ldoshev J, Usmonov S. “Pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent – 2004



BIOLOGIYA DARSLARIDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYASI. KEYS-STADI METODI

Saidova Dilnoza Karimbayevna,
Zaripova Aziza Komiljonovna.
Urganch tuman 7-sonli maktabning
biologiya fani o'qituvchilari.

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy amaliy tadqiqotlar texnologiyasidan biologiya darslarida foydalanishning ahamiyati tasvirlangan. Muammoni shakllantirish va uni hal qilish variantlarini izlash, so'ngra sinfda tahlil qilish. Texnologiyaning maqsadi har bir o'quvchiga eng kerakli bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga xos usulini aniqlashga yordam berishdir.

Kalit so'zlar: amaliy tadqiqotlar, hodisa usuli, vaziyat, tahlil, ish, munozara, muammo.

«Biologiya» faniga nafaqat biologik bilimlarning o'zi, balki falsafiy, ijtimoiy tabiat, emotsional va axloqiy kategoriyalar, texnika muammolari, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson salomatligi va boshqa ko'plab asosiy masalalar doirasidan tashqariga chiqadigan ma'lumotlar kiradi. Biologiya fanidan o'quv mashg'ulotlari maktab tarbiyasining zaruriy tarkibiy qismi - o'quvchining shaxsiyatining tizimli predmetli bilimlari, shaxsning insonparvarlik qadriyat yo'nalishlari, hozirgi kelajakdagi

xulq-atvorning asosi sifatida o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi targ'ib qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan muhit sifatida qaralishi kerak.

Hayotda har bir insonga biologiya sohasidagi bilim va ko'nikmalar, shu jumladan tadqiqot xarakteridagi bilim va ko'nikmalar kerak. So'nggi paytlarda fikrlash, ijodkorlik va muloqot mantig'ini rivojlantirish uchun turli texnologiyalardan faol foydalanmoqdalar.

Keys metodi - bu real vaziyatlarga asoslangan faol ta'lim usuli, vaziyatni tahlil qilish usuli. Keys metodining mohiyati - o'quv jarayonida muayyan o'quv vaziyatlaridan foydalanish, o'quvchilarni muammoni shakllantirishga yo'naltirish va uni hal qilish variantlarini izlash, so'ngra sinflarda tahlil qilish. Texnologiyalarning maqsadi har bir o'quvchiga eng kerakli bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga xos usulini aniqlashga yordam berishdir. Shunday qilib, o'quvchining o'z-o'zini tarbiyalashida bugungi kunda talablarga javob beradigan chiqish mavjud.

Ishlar quyidagicha tasniflanadi:

- amaliy holatlar: vaziyatni tahlil qilish usuli yoki ishbilarmonlik yozishmalar usuli. Ushbu holatlar kiritilgan vaziyatni yoki ishni iloji boricha haqqoniy aks ettirishi kerak;

- o'quvchini tadqiqot faoliyatiga qo'shishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yoki voqealar usuli.

Voqealar usuli: Ushbu usulning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchi o'zi qaror qabul qilish uchun ma'lumot topadi.





Vaziyatli tahlil usuli: eng keng tarqalgan usul, chunki bu murakkab vaziyatni chuqur va batafsil o’rganishga imkon beradi. Keys usuli biologiya darslarida muvaffaqiyatli qo’llanilishi mumkin, chunki bu usul murakkab va barcha turdagи tadqiqot ishlarini o’z ichiga oladi.

Keys metodining muvaffaqiyati ko’p jihatdan o’qituvchining metodik mahoratiga, uning mazmunini aniqlay olish va unga mos materialni tanlash qobiliyatiga bog’liq. Natijada o’quvchilar mustaqil ravishda o’qituvchi nazorati ostida taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish, baholash va tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va nostonart vazifalarni hal qilish, murakkab sharoitlarda amaliy harakatlarni bajarish.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, ana shunday ilg’or metodlarni darslarda qo’llash orqali o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishlari ortadi, dars samaradorligi yuqori bo’ladi.

Adabiyotlar:

1. G’anieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi Literature pedagogika texnologiyalari to’plami. Allanma metodologiyasi. “O’rta mahsus, kasb-hunar talimi tizimida innovatsion texnologiyalar”. - T.: TDIU, 2013.-B.95.
2. Tolipov O’.K., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya - tatbiqiy asoslari. - Toshkent., 2006.
3. <http://www.ziyonet.uz>



ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ, ВОСПИТАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ

Д.Т.Усмонова ТГПУ имени Низами
М.Мирзаева студентка 3-курса МПХ

Аннотация: В данной статье рассмотрено основные задачи экологического воспитания и образования - это развитие и формирование экологической культуры личности и общества, экологического сознания и мышления для практического применения знаний и одновременно приобретение практического опыта профессиональной деятельности для повышения эффективности процесса обучения экологии

Ключевые слова: экология, термин, среда, химия, процесс обучения, химические терминологии, среда обитания

Задачи экологического воспитания и образования - это развитие и формирование экологической культуры личности и общества, экологического сознания и мышления, духовного опыта взаимодействия человека к природе, обеспечивающего его выживание и развитие. Все это будет способствовать здоровому образу жизни людей, устойчивому социально-экономическому развитию, выживанию всего человечества.

Экологическое просвещение – распространение экологических знаний, информации о состоянии окружающей среды, природных ресурсов, экологической безопасности в целях формирования в обществе основ экологической культуры.

Экологическое воспитание – процесс непрерывного, систематического и целенаправленного формирования эмоционально-нравственного, гуманного и бережного отношения человека к природе и морально-этических норм поведения в окружающей среде. Экологическое воспитание призвано формировать активную природоохранную позицию.

Экологическое образование – это формирование у школьников заботливого, бережного отношения к природе и всему живому на Земле, развитие понимания непреходящей ценности природы, готовности к рациональному природопользованию, к участию в сохранении природных богатств и жизни вообще. Экологическое образование – это органичная и приоритетная часть всей системы образования, придающая ему новое качество, формирующая иное отношение не только к природе, но и к обществу, к человеку. [1]

Экологическое воспитание должно базироваться на основном постулате о том, что выход из экологического кризиса в современных условиях возможен. Ключи к решению глобальной экологической проблемы — в переоценке мировоззренческих ценностей и в «смене приоритетов», а также в нормализации численности населения через планирование семьи, в неустанной практической работе по реализации основных направлений в охране окружающей среды.

В настоящее время сущность экологического воспитания нельзя рассматривать только как составную часть природоохранной системы – это необходимый компонент формирования личности, способной решать задачи будущего этапа развития цивилизации. Поэтому экологическому воспитанию придается общественное значение. Сущность экологического воспитания можно определить следующими категориями: мировоззрение – ценности – отношение – поведение, которые являются основными компонентами всей системы. Каждое звено представляется в последовательности и выполняет определенную функцию, но все они взаимосвязаны и взаимодействуют в процессе организации экологического воспитания. Следовательно, в результате экологического воспитания должно быть сформировано экологическое мировоззрение, основанное на естественнонаучных и гуманитарных знаниях, отражающее его глубокую убежденность личности в понимании единства человека и природы. Экологическое мировоззрение составляет основу принципов и методов познания в экологическом воспитании. Процесс формирования экологического мировоззрения является сложной задачей педагогики.

От уровня экологического воспитания, экологической культуры зависит вопрос выживания человечества, сможет ли человек остаться на нашей планете, или его ждет вымирание или деградация с последующей мутацией. Экологическая ответственность напрямую связана с экологическим воспитанием и с такими качествами личности, как самоконтроль, уме-



ние предвидеть ближайшие и отдаленные последствия своих действий в природной среде, критическое отношение к себе и другим. Соблюдение моральных требований, связанных с отношением к природе, предполагает развитие убежденности, а не страха за возможное наказание – осуждение со стороны окружающих. [2]

Завершающим, этапом экообразования является понимание того, что мы зависим от окружающего нас мира. Каждый житель должен рассматриваться с двух сторон: как работник предприятия, создавших антропогенный процесс для природной Среды, и как человек, попадающий под этот процесс. Отсюда должны строиться взаимоотношения человека и природы.

Использованная литература:

1. Дерябо С.Д., Ясвин В.А. Экологическое образование в условиях экологического кризиса М., 2001.
2. Методика обучения естествознанию и экологическое воспитание: (Педагогическое образование) : Учебное пособие для студ. сред. пед. учеб. заведений / Под ред. Р. А. Петровой. М. : Издат. центр «Академия», 2000



**ЁШ ФУТБОЛЧИ ҚИЗЛАРНИНГ ЎҚУВ МАШҒУЛОТ ЖАРАЁНИДА
ҮЙИН ВАЗИЯТИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШ УСУЛИДАН ФОЙДАЛАНИШ
САМАРАДОРЛИГИ.**

Мухаммадов М.Г.

Ўзбекистон Давлат жисмоний
тарбия ва спорт университети.

Телефон:+998909713141

Аннотация: Ушбу мақолада ёш футболчиларнинг ўқув машғулотларида ўйин вазиятларини моделлаштиришга оид тавсиялар, уни қўллаш шакллари ва бунда инобатга олинадиган омиллар келтирилган бўлиб мазкур манба бўлажак мутахасисларнинг амалий фаолияти сифатини яхшилашга хизмат қиласди.

Калит сўзлар: модел, қизлар, ўйин, восита, футбол, фармон, усул.қарор, қизлар.

Бугунги кунга келиб мамлакатимизда спортнинг футбол турини янада ривожлантириш масаласи долзарб хисобланиб соҳа бўйича катор Қарор ва Фармонлар қабул қилинмоқда. Жумладан 2019 йил 4 декабрдаги “Ўзбекистонда футболни ривожлантиришни мутлақо янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-5887-сонли фармони ушбу соҳанинг янги йўналишларини белгилаб берди. Ушбу фармон асосида аёл футболчиларни тайёрлаш жараёнини такомиллаштириш ва янги илғор усувлардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш чораларини кўриш зарур хисобланади(1).

poydevori“ T. „Shark,“ nashriyot-matbaa kontserni, Toshkent, 1997 yil.

2. J. F. Yuldashev, „Yangi pedagogik texnologiya yunalishlari, muammolari, echimlari“. „Xalk ta'limi“ jurnali, T., №4 1999 yil.

3. O. Madvaliyev “Tabiiy fanlar” Umumiyligi o'rta ta'lim maktablarining 1-sinf uchun darslik. 2021-yil



**МАКТАВ О’QUVCHILARINI KIMYO FANIGA QIZIQISHINI OSHIRISHDA
О’YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Karriyeva Gulyor Xonqa tumani
6-maktab kimyo fani o'qituvchisi

Annatotsiya: Zamonaviy sharoitda o'quvchining o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kalit so'zi: o'yin, o'yin texnologiyasi, didaktik o'yin, syujetli o'yin, rolli o'yin.

Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

O'yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli sanaladi.

Amaliy o'yinlar – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o'yinlar.

Ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan amaliy o'yinlar o'z-o'zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko'p holatlarda —didaktik o'yinlar deb yuritiladi.

Didaktik o'yinlar – o'r ganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi hisoblanadi.

Kimyo darslarida didaktik o'yinlar - Kimyo darslarida didaktik o'yinlardan foydalanishda o'qituvchilar quyidagi metodika tavsiyalarga e'tibor berilishi kerak:

1. Kimyoviy elementlarni bilasizmi? Har guruhdan bittadan o'quvchi chiqib sinf taxtasiga kamyoviy elementlarning belgilarini yozadi, ikkinchisi esa nomlaydi. Har bir to'g'ri javob bir ball bilan belgilanadi.

2.Har qadamda element- Ikkitan dan o'quvchi chiqib novbat bilan har qadamda elementlarni nomlarini aytadi. Bunda o'quvchi to'xtab qolmasligi va bir elementni ikki marta takrorlamasligi kerak. Ball aytilgan elementlar soniga ko'ra hisoblanadi. Buni dars mavzusiga qoarab o'zgartirish ham mumkin.

Masalan: kamyoviy formulalar va ularning nomlari, olimlar, atamalar.

3. Kimyoviy pantomima- Elementlar; W, Au, P, Mg, S, N, C, Os, Hg,

Kimyogar olimlar; Mendeleyev, Devi, Avogadro, Le-Shateli, Lomonosov, Kekule,

Kimyoviy moddalar; KClO₃, H₂S, NaCl, CO₂, CaCO₃, SiO₂, Ca₂(PO₄)₃

Kimyoviy idishlar; Shtativ, kolba, tarozi, pensit, shpatel, spirt lampasi, probirka, chinni haovoncha, byuretka, tiqin, pipetka, ko'zoynak.

4.Konseptual xarita- Amaliy ishni mustahkamlash uchun bu konseptual xarita to'ldiriladi. Jadvalning to'ldirilgan shakli o'qituvchi tomonidan ko'rsatiladi 5 ta to'g'ri bajarilgan parametrlar uchun 1 ball qo'yiladi.

Kislota formulasi	Kislota nomi	Indikatorga ta'siri	Metallarga ta'siri	Oksidlarga ta'siri	Tuzlarga ta'siri
HCL					
H ₃ PO ₄					
HNO ₂					

5.Domino o'yini. O'yinga 2 ta o'quvchi qatnashadi. Ular xuddi domino o'yiniday o'ynaydilar. Faqat dominoning kartochkasida kimyo faniga oid savol va javoblar yozilgan bo'ladi. Birta kartochkada savol, boshqa kartochkaga javobi yozilgan bo'ladi. O'quvchilarning vazifasi mos keladiganini topib o'shani ro'para qo'yish.Kartochkalar tugaguncha o'yin davom etadi.



O'quvchilarni fanga qiziqtirish, darsda qiziqarli masalalar va didaktik o'yinlardan unumli foydalanib faol o'quv – biluv jarayonini vujudga keltirish orqali o'quvchilarning grafik tayyorgarligi darajasini oshirish va kasbiy shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metod.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
2. Maktabda kimyo ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy jurnal. 2 (98)-son 2017 yil



BOSHLANG’ICH SINF ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O’QITISHNING
SAMARALI YO’LLARI

Kurbanova Charos Sabirovna

Bozorboyeva Nargiza

Urganch tumani 43-sonli maktabining
boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annatotsiya: Pedagoglarni tayyorlashda, ularni kasbiy shakllantirishda maxsus fanlarning o’quv-uslubiy majmuasini yaratish, o’qitishning yangi metod va shakllarini tadbiq etish zarur.

Kalit so’z. kasbiy, fe’l, grammatic, suhbat, xulq-atvori, o’zakdosh, idrok.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil 8-dekabr kuni Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali yig’ilishida qilgan ma’ruzalarida ta’lim va tarbiya tizimi masalasiga keng e’tiborni qaratib o’tgan edi.

Fe’l - mavzusini o’rganishda asosiy vazifalar: so’z turkumi sifatida fe’l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o’quvchilar nutqini fe’llar bilan boyitish hamda og’zaki va yozma nutqda fe’ldan to‘g’ri foydalanish ko’nikmasini o’stirish, o’quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatic mavzu bilan bog’liq holda ayrim imloviy qoidalarni o’zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bilan bog’liq holda hal etiladi.

Fe’lning harakat bildirishi yuzasidan o’quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o’qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya’ni o’quvchilarning o’zлari bajarayotgan ish-harakatni aytishni so’raydi, suhbat o’tkazadi. Suhbatda “O’qituvchi nima qildi? O’quvchilar nima qildilar? Hozir o’qituvchi nima qilyapti? O’quvchilar nima qilyaptilar? Endi o’quvchilar nima qiladilar? O’qituvchi nima qiladi?” kabi savollardan ham foydalanadi. Suhbat jarayonida o’quvchilar o’qituvchi rahbarligida fe’llarni so’rog’i bilan yozib bo-radilar. Masalan, nima qildi? - so’zlati, tushuntirdi; nima qildilar? - tingladilar, yozdilar; nima qilyapti? - tushuntirayapti, so’rayapti, tinglayapti; nima qilyaptilar? - javob berayaptilar, yozayaptilar, tinglayaptilar; nima qiladi? - tekshiradi, ko’radi; nima qiladilar? ishlaydilar, bajaradilar, yozadilar.

Suhbatdagi yoki o’quvchilar aytgan gaplardan birini gap bo’lagi jihatdan tahlil qilish asosida xulosa chiqariladi: nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? kabi so’roqlarga javob bo’lib, predmet harakatini bildirgan so’zlar fe’l deyiladi. Fe’l gapda kesim vazifasida keladi.

O’quvchilarning nutqi kitobiy va boshqa tillardan kirib kelgan so’zlar bilan ham boyitib boriladi. Biroq o’quvchilarning nutqini boyitishda ko’proq e’tibor berish kerak bo’lgan, tushuntirish zarur bo’lgan masala aniqlab olinishi kerak. So’zlarni esda qoldirishda o’zakdosh so’zlarni topishga ortiqcha kirishib ketilsa, bu holat o’quvchilarning so’zlar mohiyatini to’liq va yaxlit holda idrok qilishlariga salbiy ta’sir qiladi. Uslubda nutq ustida ishslashda eng qulay omillardan biri «uslubiy mashqlarga»dir. Quyida uslubiy mashqlarga misol keltiramiz.

1. “O’g’lini hamisha sevinch bilan kutuvchi Hilol buvi sevinganidan darhol yostiqdan boshini uzdi”. 2. “Umarali va onasi uzoq dardlashib o’tirdilar...” 3. “Umarali singlisiga ham mehr, ham qiziqish hissi bilan tikildi. Singlisining ingichka, nozik qoshlari ostidagi shahlo ko’zlarida mung ko’rib, ich-ichidan dard chekdi”.

4. “Suhbat qizg’in xususan, Umarali zo’r ehtiros bilan gapijar edi. Keyin o’rnidan qo’zg’aldi”. O’quvchilar o’qituvchining taklifi bilan yuqorda ko’rsatilgan fe’l va fe’l shakllarining o’rniga yangi so’zlar topib qo’yadilar va yozuvchi Oybek nima uchun “boshini ko’tardi” deyish o’rniga “boshini uzdi”, “gapirib o’tirdilar” deyish o’rniga “dardlashib o’tirdilar”, “ich-ichidan qayg’urdilar” deyish o’rniga “ich-ichidan dard chekdi” “o’rnidan turdi” deyish o’rniga “o’rnidan qo’zg’aldi” va “ko’rdi” deyish o’rniga “tikildi” fe’llari va fe’l shakllarini ishlatganining sababini o’zları hal qiladilar.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Qosimova K. Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi. –T.: «O’qituvchi», 1995.
2. Umarova M. O’qish kitobi: 3- sinf uchun darslik. 3-nashri. – Toshkent: O’qituvchi, 2016. – 216 b.



KIMYO FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.

Nagashboyeva Feruza Urunboyevna
Abdullayeva Shahnoza Gayratovna
Urganch tumani 18 maktab
Kimyo fani o'qituvchilari

Annatotsiya: Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Kalit so'z: Pedagogik, axborot, ta'lim, fikr, jamoa, siyosati, flomaster, rangli qalam.

Axborot texnologiyalarining maqsadi inson tahlil qilishi uchun axborotni ishlab chiqarish va uning asosida biror bir hatti-harakatni bajarish bo'yicha qaror qabul qilishdir. Axborot texnologiyasi ob'ekt, jarayon yoki hodisa (axborot mahsuloti)ning holati haqidagi yangi sifat axborotini olish uchun ma'lumotlarni toplash, qayta ishlash va uzatishning vosita va uslublari jamlanmasidan foydalanuvchi jarayondir.

O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish foydalanuvchilarning tafakkur ko'nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish malakalarini rivojlantirishning yangi yo'llarini oshib beradi, ta'limni faollashtirish uchun prinsipial yangi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari auditoriya va mustaqil mashg'ulotlarni yanada qiziqarli va ishonchli, o'rganiladigan axborotning katta oqimini oson o'zlashtiriladigan qilish imkonini beradi.

Elektron resurslarining afzallikkali qatoriga axborotlarning jamlanganligi, ko'rgazmaliligi, ya'ni turli xil taqdim etish imkoniyatlariiing mavjudligi, animatsiyalardan foydalanganligi, ta'limtarbiya oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlariga mos axborotlarni taqdim etib borish jihatlarini kiritish mumkin. Bu o'quvchilarda ijodiy fikrlashni, tarbiyaviy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish orqali resurslarni har tomonlama chuqur o'zlashtirilishiga imkoniyatning mavjudligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Kimyo-fan sifatida yuqori darajadagi abstrakt mazmunga ega. Kimyoda biz kimyoviy voqealarni “makro-darajada” kuzatamiz “mikro-darajada” talqin qilamiz va tushuntiramiz va keyin “ramziy darajada” (formula, tenglama, grafik tuzulishi, masalalar yechish va boshqalar asosida) taqdim etamiz.

Virtual laboratoriya bo'yicha dasturiy ta'minot - bu o'quvchilar eksperimentlar o'tkazishi mumkin bo'lgan, kimyoviy moddalar va ularning miqdori, idish, jihozlar va boshqa narsalarni tanloviga nisbatan qaror qabul qilish imkonini beradigan dasturdir. Bunday dasturlani yuqori darajadagi moslashuvchanlik va nazorat darajasi tavsiflaydi. Virtual laboratoriya yana bir qancha afzallikkarga ega, ular yordamida o'qituvchi va o'quvchilar qo'yilgan maqsadlar, jihozlar, kimyoviy moddalar va reaksiyalar hamda sharoitlar mavjudligini hisobga olgan holda eng samarali eksperimentlarni tanlashlari mumkin. Bunday rejalashtirish mustaqil o'rganish orqali potensial qobiliyatlarni rivojlantiradi. Aslida virtual eksperimentlar – bu amalda o'tkaziladigan laboratoriya mashg'ulotlariga qo'shimcha mashg'ulotlardir.

Animasiya va simulyatsiya - Kompyuter animasiyasi va modellashtirish kimyoviy tuzilmalar va jarayonlarni tushunish uchun universal asbob bo'ladi. Animasiyalarda ketma ket diagrammalar, ramziy tasvirlar, strukturalar va b. hamda kimyoviy reaksiyalar paytida sodir bo'ladigan turli jarayonlar namoyish etiladi.

Simulyasiya kompleks vaziyatlarni qabul qilish uchun ajoyib vaziyat yaratadi hamda dasturiy ta'minot yordamida tasvirni va reaksiyaning ma'lum parametrlarini o'zgartirish imkonini beradi.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta'limi o_qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: —Iqtisodiyot Nashriyoti, 2012
2. Muslimov N.A. Bo_lajak kasb ta'limi o_qituvchilarini kasbiy shakllantirish /Monografiya. – T.: Fan, 2004. dars bilan boqlashning nazariy-metodologik asoslari.Diss...kand.ped.nauk.T.2004.-152 .



BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI BILIM KO’NIKMASINI OSHIRISHDA
DIDAKTIK O’YINLARNING AXAMIYATI

Nigora Normetova Abdullayevna
Urganch tuman 19- son maktab
boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annatotsiya: Ona tilidan tashkil etiladigan didaktik o’yinlar o’quvchini izlanishga, ijodiy faoliyat ko`rsatishga, o’rganilayotgan til hodisalarining mohiyatini aniqlab, hukm va xulosalar chiqarishga undaydi.

Kalit so’zi: pedagogik, texnologiya, til, didaktik, o’yin,

Boshlang’ich ona tili darslarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, eng samarali ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan biridir. Buning uchun esa, avvalo, pedagogik texnologiyaning mohiyatini bilish va anglash zarur.



1.“Belgilarini izohlang” o’yini. O’yinni o’tkazishda o’quvchilar uch guruhga ajratiladi. 1-guruh olmaning rang - tusini, 2-guruh esa shakl- hajmini, 3-guruh uning maza -ta`mini bildiruvchi sifatlarni topishadi.

1-guruh: ko’k, sariq, qizil.

2-guruh: katta, kichik, dumaloq, besh yulduzli.

3-guruh: Shirin, mazali, nordon, to`yimli

O’qituvchi olmaning rasmini taxtaga ilib qo`yadi-da, 1–guruhdan maza – ta` mini ifodalovchi, 2- guruhdan rang – tusni, 3–guruhdan shakli –hajjni bildiruvchi sifatlarni aniqlashni topshiradi. Shu uyaga kiruvchi barcha so’zlarni yozib chiqqan o’quvchilar o’yin g`olibi sanaladi.

2.“Juftini tanlang” o’yini. Bu o’yinda o’qituvchi juft sifatlarning birinchi qismini aytib boraveradi, o’quvchilar esa uning har ikkala qismini daftarlariga yozib boradi. Berilgan sifatlarning juftini to`g’ri yozgan o’quvchilar o’yin g`olibi sanaladilar.

Namuna: och - to’q, qiyin - oson, yaxshi - yomon, kir - ozoda, eski - yangi, past - baland, to’g`ri - noto`g`ri, uzoq - yaqin, odobli - odobsiz, yoqimli – yoqimsiz v.h.

3.“Qanday sonni qo’yamiz” o’yini. Bu o’yinda so’z birikmalaridagi nuqtalar o’rnini son bilan to’ldirish topshiriladi va belgilangan vaqtda uni to`g’ri bajargan o’quvchilar guruhi g`olib sanaladilar.

Tavsiya etilgan so’z birikmalari: bola, … uy, … olma daraxti, … xona, … avtobus, … maktab, … guruch, … g`o’za poya, … suv.

Namuna: 4 ta bola, 2 ta uy, 4 ta olma daraxti, 10 –xona, 7-avtobus, 7- maktab, bir qop guruch, bir bog` go’za poya, bir paqir suv.

4.“O’rmonda va hovlida” o’yini. O’qituvchi o’yin haqida o’qivchilarga izoh beradi: O’rmonda yashaydigan yovvoyi hayvonlar va hovlida yashaydigan uy hayvonlari haqida o’ylang hamda ularni ikki ustunga alohida ajratib yozib chiqing deyiladi. O’quvchilar yozadilar:



O'rmonda	Hovlida
Bo'ri	Qo'y
Tulki	Tovuq
Yo'lbars	Mushuk
Ayiq	Tovus

Qaysi o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi belgilangan vaqtida ko'p hayvon nomini yozsa o'yin g'olibi sanaladi. Ta'limning samaradorligini ko'p jihatdan tafakkurning rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Shunday ekan, har bir darsda turli o'yinlar tashkil etilib borilsa, o'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi, o'tilgan mavzu yodida saqlanib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ubayxo'jayeva R. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash // Boshlang'ich ta'lim , 2006, 3-son, 6-7-betlar.

2. G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X.Ona tili. 1-sinf uchun darslik.- Toshkent, “Sharq” aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2020.



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSALARINI O'QITISHDA
“BESHINCHISI (OLTINCHISI, YETTINCHISI) ORTIQCHA” INTERFAOL
METODIDAN FOYDALANISH**

Normetova Zaynabjon Masharipovna
Yangiariq tumani 23-son umumiyo o'rta ta'lim
maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang'ich ona tili darslarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib, eng samarali ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish eng muhim vazifalardan biriligi ko'rsatilgan.

Kalit so'z: pedagog, o'qish, ona tili, bilim, malaka, ko'nikma, fikr.

Ta'lim jarayonida pedagog o'rgatish, bilim, malaka, ko'nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o'zlashtirish jarayonini o'z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo'lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilalar ishtirokida boradi.

Ma'lumki, ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda raxon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limiga o'quv fani emas, balki, butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishgab, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi.

Bu o'rinda ona tili darslarining ham o'rni katta. Bu darslarda ta'limjarayonida qo'llanilayotgan interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

So'z turkumlarini o'rganishda “Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi) ortiqcha” metodidan ham foydalanish mumkin. Buni biz ”Ortiqchasini ajrat” degan topshiriq bilan berdik. O'quvchilarga bir turkumdagi so'zlar ichiga boshqa turkumga doir so'zlar arlashtirib berildi. O'quvchilar ular ichidan boshqa turkumdagagi so'zlarni ajratib olishdi va nima uchun ajratib olish sababiui izohlab berishadi. Bu uslni biz nkartochkalar yordamida va kompyuterda bajartirdik. Ortiqchasini ajratishgandan so'ng mavzuga taalluqli so'zlarni husnixat bilan daftarlarga yozdirdik.

Berilgan topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

Otlar ichidan ortiqchasini ajrat.

Daraxt, suv, osmon, ko'k, mard, kamalak, yomg'ir, tiniq.

Sifatlar ichidan ortiqchasini ajrat.

Baland, keng, choynak, piyola, tor, katta, past, cho'mich, kapkir, kichik.

Fe'lllar ichidan ortiqchasini ajrat.

Yuvindi, tebrandi, yugurdi, dutor, rubob, chrchadi, yangradi.

Ma'lumki, savod o'rgatish jarayonida o'quvchilar tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni grafik ifodalar ostida anglab, tushunib boradilar.

Texnika vositalaridan dars jarayonida foydallanish – dars matni yoki o'qituvchilar tomonidan o'quv materialini texnika vositasida o'tish emas, balki o'quvchilarning mazkur mavzuni mustaqil va ijodiy o'rganishi bo'yicha o'quv faoliyati dasturidir. Mazkur dasturda o'qituvchilar tomonidan tuzilib, unda texnika vositasining umumiyo didaktik maqsadi, mavzuni o'rganish bosqichlari, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv faoliyati elementlari, ularning bilimini nazorat qilish yo'llari ketma-ket bayon etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsy javobgarli – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.:”O'zbekiston”.2017.-B44
3. R.Ikromov va boshqalar Ona tili 4-sinf., T.:”O'qituvchi”, 2017-yil
4. G'afforova T., Nurillayeva Sh., Haydarova O. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili va o'qishdan didaktik materiallar. Toshkent. 2004.14-b.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHDA INTERAKTIV O'YINLARDAN FOYDALANISH.

Nurimbetova Sayyora Bozorbayevna
Xolmuratova Rayxon Kadirberganovna
Urgach tumani 18-sون мактаб
boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annatotsiya: Mazkur maqolada interaktiv vositalaridan foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual salohiyatlari hamda faol shaxs qilib tarbiyalash uchun zamin yaratish, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, aqliy, axloqiy xislattrini shakllantirishga ko'maklashishda foydalaniladigan ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z: Pedagogik, axborot, ta'lim, fikr, jamoa, siyosati, flomaster.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan jamiyatning barcha jabhalari, xususan, ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yishga qaratilayotgan e'tibor samarasi o'laroq, bugun jamiyatning barcha sohalari va xalqimiz turmush tarziga kompyuter texnologiyalari chuqur kirib borayapti.

“Xarflarni esda saqlash” o'yini.

O'yining maqsadi: o'quvchilar tovushlarni to`g'ri talaffuz etishga va esda saqlab qolishga o'rgatish.

Qo'llanmalar: o'quvchilarga tanish bo'lgan turli predmetlarning rasmlari shu predmetlarning nomlari bilan boshlanadigan unli xarf na'munalari (kartochkalar)

O'yining borishi: O'yinda sinf o'quvchilarining bir guruhi qatnashadi. O'yin boshqaruvchi o'yining o'tkazilishi haqida tushuncha beradi va u oldingi darsda o'rganilgan o, a, l, n xarflar yozilgan kartochkalarni olib qoladi.

Bir guruh o'quvchilarga oy, olma, olxo'ri, olcha, ot, ari, anor, ayiq, archa, lola kabi predmetlarni rasmlari tasvirlangan kartochkalar tarqatiladi.

O'yin boshqaruvchi o xarfi va predmet rasmi tasvirlangan kartochkalarni olib qo'yadi. So'ng boshqa a xarfi yozilgan boshqa bir kartochkani stol ustiga qo'yadi. O'yin ishtirokchilari esa shunga mos rasmli kartochkalarni ko'rsatadilar.

O'yin ana shu xolda davom etadi. Agar o'quvchi berilgan xarfni rasmlı kartochkadan topa olmasa, u o'z rasmlı kartochkasini ochib qo'yadi.

O'yin ishtirokchilaridan kimda kim xarf bo'yicha rasm kartochkani topib ayta olsa, shu o'quvchi kartochkasini hammaga ko'rsatib, keyin uni to'ntarib qo'yadi.

“Pochtachi o'yini”

O'yining borishi: O'quvchilardan biri pochtachi qilib tayinlanadi. Pochtachi sumkasida kartochkalar bo'ladi. Ular quyidagicha tuziladi:

1. So'zlardagi unli xarflar yoki bo`g'in tushib qoldiriladi: ...+ta, ...+na, bo+..., sho+....
2. Tushirilgan xarflarni qo'yib so'z hosil qilish, ya'ni bo`g`nlarga xarflarni qo'shish: lim...n, tom...n, ...lim.

3. Ikki, uch so'zdan tuzilgan gaplar yozilgan kartochkalar. Bu gaplarda, biror so'z tushurib qoldiriladi.

O'quvchilar nuqtalar o'rniga shu so'zlarni topib yozadilar:

Lola mana...

Nabi ana...

Iqbol... ol

Dono... o'ynadi

“Quruvchilar” o'yini- bu o'yinda berilgan so'zlarni o'z o'rniga qo'yib, chiroyli va to`g'ri gap tuza olgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. Masalan: otdi, tong, sakkiz, soat, ketdi, Ravshan kabi gaplardan to`g'ri gap tuzdiriladi. Kim chiroyli va to`g'ri gaplar ko'p tuzsa, u yaxshi quruvchi hisoblanadi.



“Bu qanday so’z” o’yini -so’z uch xarfidan iborat. Birinchi xarf alfavitda o’n 16-o’rinda, keyingisi 15-o’rinda va oxirgisi 1-chi o’rinda turadi. Bu so’zni topib daftarga yozish. O’yin shu tariqa davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Shodiyeva M., Ne’metova F. Muammoli o’qitish // Boshlang’ich ta’lim, 2009, 4сон, 6-7-betlar.
2. Xoliqova M. Ta’lim texnologiyalaridan foydalanish // Boshlang’ich ta’lim, 2009, 5-сон, 20-21-betlar.
3. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – Zamonaliv o’zbek modeli. – Toshkent: “Lider Press”, 2009.



FIZIKA FANINI O'QITISH JARAYONIDA YANGI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

Otojonova Sayyora Rajabboy qizi
Yangiariq tumani 23-sون matabning
fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida fizikani o'qitish jarayonida o'quvchilar fikrlash doirasidan kelib chiqqan holda innovatsion va interfaol metodlarni qo'llay olish va yangi interfaol metodlarni ta'lim tizimiga joriy etish bayon qilingan.

Kalit so'z: pedagogik, texnologiya, metod, ta'lif, tarbiya, o'quv, interfaol.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 iyuldagи «2004-2009 yillarda matab ta'lmini rivojlantirish davlat umummiliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorida 5 ta asosiy ustuvor yo'naliш bo'lib, uning 2,3 va 4 bandlarining ijrosi umumiyl o'rta ta'lif maktablari direktori va barcha fan o'qituvchilari qatori fizika fani o'qituvchilari zimmasiga ham ulkan vazifalar yukladi. Bu albatta, fizika fani o'qituvchilaridan o'z kasblariga ijodiy yondoshishni va o'quvchilarni o'qish bilan birga uqishga, kuzatuvchanlikka o'rgatishni talab qiladi. Bunga erishishning ko'plab usul va uslublari bo'lib o'qituvchi ushbu usullardan qay birini qo'llashdan qatiy nazar o'quvchilarga topshirilgan vazifalarni mustaqil va aniq bajarish metodikasiga amal qilishdir.

Fizika fanidan o'quvchilar bilimini baholash, rag'batlantirishda "sirli baho" usulidan foydalanish Fizika fanidan masalalr yechish darsida o'quvchilar bilimini baholash, rag'batlantirish mezonlarini har bir o'qituvchi bilishi kerak.

Butun dars davomida faol o'quvchilar berilgan barcha masalalarni to'g'ri va tez ishlab boradilar. Sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar esa, aksincha bir -ikkita masalani to'g'ri ishlay oladilar-u, shu to'g'ri ishlangan masala uchun namunali baho olishni istaydilar.

Bu vaqtda o'qituvchi o'quvchilar bilimini baholashga qiynaladi. Chunki kam masala ishlasada, bu o'quvchilar ham masalani to'g'ri ishlagan bo'ladi. Quyidagi metodni qo'llash orqali bu muammoni bartaraf etish va o'quvchilarning darsga qiziqishini yanada oshirish mumkin.

O'qituvchi masala yechish darsi mavzusini e'lon qiladi. Mavzu yuzasidan kerakli fizik kattaliklar va ularning ifodalari haqida batafsil ma'lumot beradi.

Shundan so'ng masalalar yechish boshlanadi. 1-masalaning sharti e'lon qilinadi. Masalani to'g'ri va tez ishlagan o'quvchilar daftariiga o'qituvchi baho emas, balki "N" harfli belgini qo'yadi. Keyin 2-masalani ishlashga kirishadilar. Bu masala uchun "A" harfi bilan belgi qo'yiladi. 3-masala uchun "M" harfi va h.k. Shu tariqa keyingi masalalar ishlanadi.

Agar bitta o'quvchi dars davomida berilgan hamma masalalarni to'g'ri va tez ishlasa, (bu darsda 8 ta masala) ketma-ket ball o'rniga "namunali" so'zini hosil qiluvchi harfli belgilar qo'yib boriladi. Dars yakunida "NAMUNALI" so'zining barcha harflarini (hech bo'limganda 7 tasini) to'plagan o'quvchilarga "Fizika fanidan namunali o'quvchi" deb yozilgan rag'bat kartochkasi beriladi va "5" baho bilan baholanadi.

Dars davomida "NAMUNA" harflarini to'play olgan o'quvchilarga "Fizika darsida yaxshi qatnashchi" kartochkasi beriladi va "4" baho bilan baholanadilar.⁷⁰

Dars davomida 5 tagacha masala ishlay olgan o'quvchilarga "Fizika qiziqarli fan. O'z ustingizda ishlang." Kartochkasi beriladi va bu o'quvchilar "3" baho bilan baholanadilar.

Bu metodni qo'llash orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. O'quvchilar sirli harflarini yig'ishga qiziqib, masalani tezroq yechishga intiladilar, o'z ishlari natijasi bilan qiziqadilar.

2. Hatto "3" baho olgan o'quvchi ham bu bahodan norozi bo'lmaydi, aksincha, nima uchun past baho olganligini tushunadi va o'z ustida ishlashni boshlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. D. Karaeva Fizika fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish 2004 yil.
2. M. Yo'ldashev "8-sinf fizika darslik" Toshkent - 2010.
3. Ya.I.Perelman "Qiziqarli fizika" Toshkent-2009 .



МАКТАБДА КИМЫО ФАНИНИ О’QITISHDA KEYS-STADY TEXNOLOGIYASI

Polvonva Nigora Rustamovna
Urganch tumani 19- son maktab
Kimyo fani o'qituvchisi

Annatotsiay: Bu maqolada mohiyatiga ko'ra interfaollik o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi.

Interfaol ta'lim (ingl. -interact, rus. -интерактив; -inter – о'заро,-act – гаркат qilmoq) -o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim.

Interfaol ta'lim - ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li sifatida e'tirof etilayotgan ta'lim turi va o'qitish shakli sanaladi.

KEYS-STADY texnologiyasi

Keys-stadi inglizcha -case -aniq vaziyat, hodisa, -study -o'rganmoq, tahlil qilmoq, ta'lim so'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni taddiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

Keys turlari Keys – bu yaxlit axborotlar majmui. Qoidaga ko'ra, keys uch qismdan iborat bo'ladi:

- 1) keysni tahlil etish uchun zarur yordamchi axborotlar;
- 2) aniq vaziyat bayoni;
- 3) keys topshirig'i;

S	Unsin,Dodxoning eng kichkinasi, sakkizinchi xotinidir.U qo'rmas,jasur qahramon. Asardan parcha
W	Unsin ishonuvchan.Inson aqliga kelmaydigan topshiriqni bergan Dodxoga, berilgan topshiriqni bajarsam , mening javobimni beradi , keyin men o'z uyimga ketaman, deb o'laydi
O	Unsin ham hamma qatori qorong'u go'ristonidan qo'rishi mumkin, lekin u hozirgi kunda istiqomat qilayotgan Dodxoning uyini – tiriklar go'riston , deb bilib o'z erki , shaxsining qadri uchun o'zida iroda topa oldi.
T	Go'ristoniga yetib kelgan Unsinni vahima bosdi.Hamma narsani olibdi-yu,eng zaruri-o'tin esidan chiqibdi.Har sag'anadan bir qo'l,har go'r dan bir tovush chiqishini kutib o'tin qidirish vahimasi yuragiga rahna soldi.

O'quvchi so'zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo'l qo'ysa, o'yindan chiqadi. Boshlang'ich sinfdagi ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishiga, bilimlarni puxta egallasjiga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Mirziyoev SH. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak! // “Xalq so'zi” 2017 yil №32
2. Bobomurodova A. Ona tilidan tashkil etiladigan ta'ilimi o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari va unga qo'yilgan talablar// “Xalq ta'limi” journali, 2009 yil. № 3. 92
3. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.-T.: “Noshir” 2009 yil.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ И ЛИТЕРАТУРЕ

Rahmonova Yulduz Otaboyevna.

Yangiariq tumani 23-son
o'rta ta'lim maktabining
Rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Аннотация: Интерактивное обучение – это сложный процесс взаимодействия учителя и учащихся, основанный на диалоге. Участие в диалоге требует умение не только слушать, но и слышать, не только говорить, но и быть понятым.

Ключевое слово: метод, диалог, мозговой штурм, групповая дискуссия.

Интерактивные методы обучения очень эффективны, поскольку они способствуют высокой степени мотивации, максимальной индивидуальности преподавания, предполагают широкие возможности для творчества, самореализации учащихся. Налицо более прочное усвоение материала, так как учащиеся добывают знания самостоятельно, сознательно, переживая каждый шаг обучения.

Все мы знаем, что каждый метод, каждая игра имеет свои правила и «маленькие законы». Ученики и педагог прежде всего должны познакомиться с правилами интерактивных методов обучения:

- 1) не критикуйте выдвинутые идеи;
- 2) будьте толерантны друг другу;
- 3) знайте, неразрешимых проблем не существует;
- 4) выдвигайте больше идей;
- 5) активно участвуйте в игре;
- 6) создайте доброжелательную, творческую атмосферу;
- 7) выбирайте наиболее подходящую роль для участия в играх;
- 8) уважайте интересы одноклассников;
- 9) не принимайте поспешных решений;
- 10) при выступлении соблюдайте регламент:

Интерактивные технологии способствуют личностному росту учащихся.

1. «Мозговой штурм». Главным условием применения этого метода является абсолютная новизна текста.

2. Групповая дискуссия. Может последовательно вытекать из «мозгового штурма». Как правило, один из любимых методов учеников, поскольку они открыто высказывают свою точку зрения, обосновывают свой выбор, приводят доводы и др. Главное достоинство групповой дискуссии в том, что она помогает сравнивать собственное видение проблемы с другими взглядами.

3. Метод эмпатии. В его основе лежит процесс отождествления себя с объектом исследования и осмысление его функции в тексте. Учащимся необходимо «вжиться» в предложенный образ, изучить его привычки, манеру поведения, жизненную позицию, а затем уже решить поставленную задачу – написание монолога от лица героя на предложенную тему.

4. Метод предположения. Ученикам предлагается представить, что бы случилось с героями, если бы развязка была другой: Лиза осталась жива («Бедная Лиза»), Обломов остался с Ольгой («Обломов»), Герда не отправилась на поиски Кая («Снежная королева»).

5. Метод символического видения. Заключается в нахождении и построении связи между объектом и его символом, например, книга может означать знания, мудрость; голубь – мир, дружбу; огонь – страсть и т.д.

Для развития творческих способностей систематически работаем над созданием сказок, стихотворений, поэм, рассказов, эссе.

Использованная литература

1. Умеркулова Е. Ж. Формирование навыков самостоятельной работы на уроках русского языка в средней школе. Кызылорда, 2001 г.

3. Казыгулова А. Т. Интерактивные методы обучения на уроках русского языка и литературы // Молодой ученый. — 2016. — №8. — С. 1121-1126. — URL <https://moluch.ru/archive/112/28767/>



**BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINI O’QITISHDA “HARFLARNI TOP”
DIDAKTIK O’YINIDAN FOYDALANANISH.**

Raximova Yulduz Maqsudovna

Urganch tuman 18- son maktab
boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annatotsiya: Zamonaviy bilimlar sari keng yo’l ochish ta’limni takomillashtirishda innovatsion ta’lim texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir.

Kalit so’zi: o’qitish, bilim, innovatsion, ta’lim, texnologiya, shaxs, resurs.

O’sib kelayotgan yosh avlodda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, sog’lom va barkamol naslni tarbiyalab etishtirish murabbiylarning muhim burchidir. CHunki mustaqil fikrlovchi o’quvchilarga kelajakda har tomonlama yetuk, barkamol insonlar bo’lib yetishib, mustaqil respublikamizni ilg’or jahon davlatlari qatoriga olib chiqadilar.

“Harflarni top” o’yinidan foydalanamiz.Ushbu multimediali kompyuterli o’yinni amalga oshirish quyidagi qo’shimcha o’quv materiallari o’rganilib, mustahkamlandi: 1) geometrik shakllar (to’rtburchak); 2) ranglarni farqlash.

Bu o’yinlar ham mashg’ulot tarzida amalga oshiriladi. O’qituvchi yordamida kompyuter monitorida ikki xil rangli to’rtburchakni o’quvchilar chiqaradi.

So’ngra o’qituvchi o’quvchilarga o’yining maqsadi va vazifalarini, o’yin tartibi va qoidasi bilan tanishtiradi.

Vazifa: o’quvchilarga har bir to’rtburchakning ichiga kerakli harflarni joylashtirish, bu harflarni tovushlarga aylantirib to’g’ri talaffuz qilish, harflar birikishidan hosil bo’lgan so’zni to’g’ri o’qish va bundan a harfining qaysi katakchada joylashganligini aytib berish hamda buni sichqonchada bajarib ko’rsatish.

Bunda o’quvchilarni kompyuter qarshisiga o’tkaziladi va o’quvchilardan kompyuter ekranida nechta to’rtburchakni ko’rayapsan va ularning ichida qanday harflar joylashganligi so’raladi. Birinchi to’rburchakda qanday harf borligini, uning talaffuz qilishni, u unli yoki undosh tovush ekanligini birinchi kompyuterda o’tirgan o’quvchidan so’raladi. Ikkinci kompyuterda o’tirgan o’quvchidan ikkinchi to’rtburchak qanday rangda ekanligi, bu to’rtburchakning ichida qanday harf joylashganligi, u harf unli yoki undosh tovush ekanligi so’raladi. O’quvchi ikkinchi to’rtburchakning rangi yashil rangda ekanligi, unda “t” tovushi joylashganligini, bu tovush undosh tovush ekanligini aytadi va “t” tovushini talaffuz qilib ko’rsatadi. Uchinchi o’quvchi uchinchi to’rtburchak qizil rangda ekanligi, bu to’rtburchakning ichida “a” tovushi joylashganligini, unli tovush ekanligini talaffuz qilib ko’rsatadi. Bu harflar birikib “ota” so’zi hosil bo’lganligini aytadi. Bu topshiriqlar bajarib bo’lgandan so’ng, o’qituvchi to’rtburchakda berilgan so’zlarni o’qiydi. O’quvchilar kompyuterda mustaqil ravishda topish lozim bo’lgan tovush o’rnini ikkinchi bir xildagi to’rtburchak bilan ko’rsatadi.

Yoki tovushlar tuzilishini chizib ko’rsatadilar:

O	-	T	A
Bu o’yindan o’qituvchi o’quvchilarning savodini chiqarishda samarali foydalanish mumkin. O’quvchilarning nutqini rivojlantirish maqsadida didaktik o’yinnin davom ettirish mumkin. Bunda oldin kompyuterda bajarmagan o’quvchilar bajarishadi.			

Bu didaktik o’yinlar bevosita o’qituvchi rahbarligida barcha o’quvchilarning ishtirotida kompyuter texnologiyasidan foydalanib bajariladi.Mashg’ulotlarning davomiyligi 40 minutga mo’ljalangan bo’lib, o’quvchilarning kompyuter texnologiyasi bilan ishslash tezligi, kompyuter savodhonligini qanchalik o’zlashtirganligini aniqlash maqsadida ham o’tkazilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori-T.: “Sharq”, 1997, 57-bet.
2. To’raqulov X.A. Zamonaviy kompyuter tarmoqlari bo’yicha multimediali elektron o’quv qo’llanma yaratish texnologiyasi //Uzluksiz ta’lim. 2011.
3. G’afforova T., Nurillayeva Sh., Haydarova O. Boshlang’ich sinflar uchun ona tili va o’qishdan didaktik materiallar. Toshkent. 2004.14-b.



МАКТАБДА ТЕХНАЛОГИЯ ФАНИНИ О'QITISHДА “ZINAMA-ZINA”
ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИЛАНИШ

Sadikova Gulgara Shakanovna
Urganch tumani 18-son mакtab
Texnalogiya fani o'qituvchisi

Annatotsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda yangi interfaol ta'lim texnalogiyasidan foydalanish keltirilgan.

Kalit so'zi: fan, texnika, ishlab chiqarish, zamonaviy, o'yin, ko'nikma.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish jiddiy muammoga aylanib borayotganligi hech kimga sir emas. Texnologiya fani mashg'ulotlarida xam o'quvchilarni darsga qiziqtirish va kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida interfaol metodlardan atroficha foydalaniladi. Quyida “Zinama-zina” texnologiyasini misol tariqasida keltiramiz.

Texnologiyani qo'llanilishi:


- o'quvchilarni 3 guruhga ajratiladi.
- o'quvchilarga texnologiya maqsadi haqida tushuncha beriladi. Har bir guruhga A3 formatga kichik mavzu yozib tarqatiladi. O'qib chiqish uchun vaqt beriladi.
- guruholar berilgan mavzular bo'yicha o'qiganlarini qog'ozga yoritib berishlarini so'raladi.
- berilgan vaqt tugagach guruh a'zolaridan biri taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruholar tomonidan tayyorlangan material albatta doskaga tagma-tag ilinadi. Har bir guruhga taqdimot qilish uchun 5 daqiqa vaqt beriladi.
- o'qituvchi o'quvchilar tomonidan tayyorlangan materiallarga izox beriladi va qo'shimchalar kiritiladi.

1-guruh Kashtachilik san'ati tarixi O'zbek milliy kashtado'zlik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzagakelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi.

2-guruh Kashtachilikda ishlatalidigan naqshlar, naqsh elementlari Naqsh- arabcha tasvir gul degan ma'nioni anglatadi. Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida


o'simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko'p bo'lsa, rus kashtachiligida

geometrik, o'simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko'p tasvirlanadi, qozoq va qirg'iz kashtachiligida esa ko'proq hayvonlar, shox va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.



3-guruh Kashta tikishda ranglar tanlash Kashta tikish rang bilan chambarchas bog'liq. Iplarni tanlashda ranglarning yo'g'onlashuvini, ular bir-biriga qanday

ta'sir etishini bilish zarur. O'zaro mos ranglarni tanlashda berk spektr qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi. Agar uch qirrali shisha prizmadan nur tarami o'tkazilsa, u tarkibiy qismlarga bo'linib ko'rindi, rangli yo'l-spektr hosil bo'ladi.





Tabiatda ranglarning bunday qo'shilishini ko'pincha kamalakda, quyosh nuri shudring zarralaridan o'tishida ko'rish mumkin. Ko'zga ko'rindigan spektr uzlusiz o'zgara boradigan qizil, to'q sariq, sariq, yashil, zangori, ko'k, binafsha ranglar qatoridan iborat. Bu ranglar bir-biridan oraliq tuslar gammasi bilan ajralgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tohirov O'.O. Texnologiya o'quv fani davlat ta'lim standarti va o'quv dasturini ta'lim amaliyotiga joriy etish metodikasi. // Metodik tavsiyanoma. – T.: RTM, 2017. - 72 b
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009 y.

“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”

(10-қисм)

Масъул мұхаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000